


Shahnoza RAHMONOVA

**O'ZBEK EPIK POEZIYASI  
TAKOMILIDA ARUZ  
TIZIMINING O'RNI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Shahnoza RAHMONOVA**

**O'ZBEK EPIK POEZIYASI TAKOMILIDA  
ARUZ TIZIMINING O'RNI**

**Monografiya**

**"BOOKMANY PRINT"  
TOSHKENT – 2022**

UO'K: 821.512.133.09-1

BKB: 83.3(50')

R 33

Rahmonova, Shahnoza.

O'zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o'rni [Matn] : Monografiya /  
Sh. Rahmonova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 254 b.

Monografiyada o'zbek epik poeziyasi namunalari bo'lgan masnaviy – dostonlarning vazn xususiyatlari tadqiq etilgan, o'chov imkoniyatlari o'rganilgan, mazmun bilan aloqadorlik jihatlariga diqqat qaratilgan.

Tadqiqot uchun Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Xorazmiyning "Muhabbatnama", Qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Xo'jandiyning "Latofatnama", Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Sayyid Ahmadning "Taashshuqnomma", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", "Maxzan ul-asror", Durbekning "Yusuf va Zulayxo", Alisher Navoiy "Xamsa", "Lison ut-tayr", Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor", "Haqiqatnama", "Gulshani roz", "Illohiyoma", Rizoiy Payvandiyning "Qush tili", Muhammad Solihning "Shayboniyoma", Majlisiyning "Qissasi Sayfulmuluk", Xojaning "Maqsad ul-at'or", Sobit Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom", "Qissasi Sayqaliy", Nishotiyning "Husn v Dil", Huvaydoning "Rohati dil", Nodir-Uzlatning "Haft-gulshan", Xiromiyning "Chor darvesh", "Ra'no va Zebo", "To'tinoma", Uvaysiyuning "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn", "Voqeoti Muhammadalixon", Olim Devonaning "Ravzai asror", Miriyning "Rustam va Suhrob", "Gulnomma", "Choynoma", Ahmad Tabibiyning "Vomiq va Azro", Sidqiy Xondayliqiyning "Rusiya inqilobi", Xolis Toshkandiyning "Ibratnama", "Arvochnoma", "Shoh Jarir qissasi", "Yusuf va Zulayxo", Habibiyning "Zamon farhodlari", Jamol Kamolning "Quyosh chashmasi" kabi manbalari asos qilib olingan. O'zbek epik poeziyasida aruz tizimini tekshirish, masnaviy shaklida yozilgan dostonlarda vazn va mazmun uyg'unligini aniqlash, mumtoz va zamonaviy dostonchilik an'analarining nazariy, amaliy, ritmik unsurlar kesimidagi qiyosiy tahlilini amalga oshirish, tarixiy taraqqiyot tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini olib berish bilan bog'liq masalalarni yoritish tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil qildi. Monografiya mumtoz poetika, aruzshunoslik bilan qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar va filolog mutaxassislar uchun mo'ljalangan.

Mas'ul muharrir:

Dilnavoz Yusupova – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna – filologiya fanlari doktori.

Musurmonov Erkin Rabbimovich – filologiya fanlari doktori.

Jo'rayev Jaloliddin Olimjonovich – filologiya fanlari doktori.

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 29-dekabridagi 8-soni majlisи bayonnomasi bilan nashriga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9023-6-7

© Rahmonova, Sh.  
© "Bookmany print" nashriyoti, 2022.

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida epik poeziya xususiyatlari, jumladan, metrika, masnaviydagи she'r tuzilishi, kompozitsiya, misra, bayt, band, qofiya, radif va qator poetik vositalarning aruz tizimi bilan bog'liq tadqiqi muhim yo'nalishni tashkil etadi. Metrika va aruz tizimida yaratilgan epik asarlarni tahlil qilish, ulardagi metrik xususiyatlarni vazn va mazmun mutanosibligi kesimida tadqiq etish, dunyo tajribalari asosida she'riy matnning boshqa shakliy o'Ichovlar: chanda (hind), gekzametr (yunon), aruz (arab), qofiya, radif, tasviriy vositalar bilan munosabati, doston mazmuni bilan uyg'unligini o'rganish masalalari adabiyotshunoslikning takomilini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida epik poeziya xarakteri bilan bog'liq masalalar, xususan, metrika va aruz tizimi hamda uning evolyutsion taraqqiyoti, Sharq mumtoz epik poeziyasida aruz tizimi, muayyan dostonlardagi vazn va mazmun uyg'unligini tadqiq etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan va samarali natijalarga erishilgan. Xususan, aruziy birliklar: juzv, rukn, bahr, vazn, taqt'i, aruz doiralari, vazn ko'rsatkichlari singari nazariy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi; epik dostonlardagi qofiya tizimi, badiiy san'atlar, ularning she'r tarkibidagi o'mi, manba bilan aloqasiga oid masalalarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq o'zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o'rni, unda yaratilgan dostonlarning o'Ichov imkoniyatlari, ularning mumtoz an'analardan ta'sirlanish darjasini, vazn va mavzu uyg'unligi bilan aloqador masalalarni o'rganish bugungi aruzshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda mamlakat strategik rivojining bosh omillari belgilanar ekan, tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, xususan, epik poeziya namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy va madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va madaniyatda o'z ifodasini topadi, zero, "adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor,

kelajagimizga e'tibor"dir<sup>1</sup>. Masnaviy shaklidagi dostonlar ham xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, aruz tizimida yaratilgan ushbu ijod namunalari adabiyotimiz mavzu ko'lami va badiiyatini belgilashda o'ziga xos taraqqiyot bosqichlariga ega. Shu ma'noda epik poeziyaning o'Ichov imkoniyatlarini vazn va mavzu uyg'unligi kesimida tahlilga tortish muhim ahamiyatga ega.

Aruz tizimining o'ziga xos xususiyatlari ritm va mazmun, vazn va qofiya, vazn va radif kabi unsurlar bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu maqsadda ushbu tadqiqot Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Qutb, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Xo'jandiy, Yusuf Amiri, Sayyid Ahmad, Haydar Xorazmiy, Durbek, Alisher Navoiy, Sayyid Qosimi, Rizoiy, Muhammad Solih, Majlisiy, Xoja, Sobir Sayqaliy, Nishotiy, Huvaydo, Nodir-Uzlat, Xiromiy, Uvaysiy, Olim Devona, Miriy, Tabibiy, Sirojiddin Sidqiy, Xolis Toshkandiy, Habibiy, Jamol Kamol dostonlaridagi aruz tizimiga xos jihatlarni o'rganish, ularni mumtoz aruz tizimi bilan qiyoslash, yetakchi vaznlarni aniqlash, aruzning epik asar mazmunini ochib berishdagi o'mini tadqiq qilishga qaratilgani ham dissertatsiyaning dolzarb ilmiy muammo yechimiga bag'ishlanganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydag'i PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" va BMT Bosh Assambleyası 72-sessiyasida so'zlangan nutqlaridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

<sup>1</sup> Мирзиев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлайтириш – халқимиз маънавий оламиини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Т., 2017 йил 4 август.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Har bir tarixiy davrda tadqiqotchilar e'tiborini epik poeziyaning tarixi, rivojlanish tamoyillari, o'lchov imkoniyatlari, umuman, masnaviy shaklida yaratilgan dostonlarning poetik taraqqiyoti bilan bog'liq muammolar o'ziga ja'b qilib kelgan. Ayniqsa, epik poeziya nazariyasida aruz vazni va mazmun uyg'unligi, vaznning mavzuga ta'siri hanuz to'laligicha o'z yechimini topgan emas. Bu esa aruz tizimi va epik poeziya taraqqiyotini tarixiy-qiyosiy yo'nalishda o'rghanishni taqozo etadi.

Epik poeziya, she'r tizimlarini o'rghanish, olimlarning bu boradagi yondashuv va qarashlari, mumtoz adabiyotning badiiy vositalari va aruz tizimi imkoniyatlarini belgilash bo'yicha jahon va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

M.Simidcheva (Kanada), D.De Uis (AQSh), I.Y.Krachkovskiy, A.B.Kudelin, D.V.Frolov, N.Y.Chalisova, I.V.Stebleva (Rossiya), R.Musulmonqulov, U.Toirov (Tojikiston), Sh.S.Kaliyeva (Qozog'iston), B.To'xliyev, S.Rustamiy, G.To'ychiyeva, D.Yusupova (O'zbekiston) kabi olimlar tomonidan o'rta asrlarda keng rivoj topgan adab ilmlari, xususan, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badi', ilmi balog'aga bag'ishlangan risolalar misolida arab, fors, turkiy aruzlarning metrik xususiyatlari, mumtoz poetika bilan bog'liq muammolar kun tartibiga qo'yilib, ularga doir qarashlari bildirilgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Simidchieva M. Imitation and Innovations in Timueid Poetics: Kashifi's Badayi al-askar and Predecessors, al-Mu'jam and Hada'iq al-sihr // Iranian Studies, volume 36, number 4. 2003; DeWeese D. The Predecessors of Nava'i in the "Funun al-balagah" of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century // Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005, volume 29; Крачковский И.Ю. Арабская поэтика в IX веке / Изб. Соч., – М. – Л.: Академия наук, Т. II. 1956; Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII–XI век). – М.: Наука, 1983; Фролов Д.В. Арабская филология. – М.: Языки славянской культуры, 2006; Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука, 1991; Чалисова Н.Ю. Ватват и его трактат "Сады волшебства в тонкостях поэзии" // Ватват. Сады волшебства. – М.: Наука, 1985; Чалисова Н.Ю. Персидская поэзия на весах поэтики // Шамс Кайс Ризи. Свод правил персидской поэзии. – М.: Восточная литература, 1997; Стеблева И.В. О проникновении арабо-персидских метров в тюркоязычную поэзию / Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – М.: Наука, 1964; Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993; Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989; Тониров У. Фарҳангӣ

Dunyo miqyosida L.R.Elvell-Satton, J.S.Meysami (Buyuk Britaniya), B.Y.Shidfar, I.M.Filshtinskiy, M-N.Osmanov (Rossiya), J.Landau (Fransiya), A.Ja'far, A.No'shoba (Ozarbayjon), B.Sirus, A.Sattarzoda, S.Solihov, T.Mardoniy, A.Najibulloh, (Tojikiston), X.Kurbatov, X.Usmonov, M.Bakirov (Tatariston), Z.A.Axmetov, A.Tilavaldi (Qozog'iston), K.Risaliyev (Qirg'iziston), A.Bekmuradov (Turkmaniston) kabi olimlarning ilmili izlanishlarida arab, fors, tojik, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg'iz, turkman she'r tuzilishlarining tarixi va zamonaviy rivojlanish tamoyillari, jumladan, epik poeziya, badiiy vositalar va metrik asoslari kabi masalalar tadqiq qilingan<sup>1</sup>.

---

истилюхоти арӯзи аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991; Тоирев У. Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Душанбе, 1997; Калиева Ш.С. Творчество Имамила ал-Джаухари и его место в арабской филологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: ТашГИВ, 2002; Тухлиев Б. Вопросы поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба. – Т.: 2004; Рустамий С. Балогат имида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларнинг ёритилиши. – Т.: Наврӯз, 2017; Туйчиева Г.У. Аруз в контексте газелей Амир Хосрова Дехлеви. – Т.: ТашГИВ, 2005; Туйчиева Г.У. Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараккити. Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Т., 2019; Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг киёсий таҳлили. Монография. – Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

<sup>1</sup> Elwell-Sutton L.R. Persian Metrics. – Cambridge, 1976; Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London, 2003; Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.). – М.: Наука, 1974; Фильштинский И.М. Арабская литература в средние века. – Москва: Гл. ред. вост. лит., 1978. – С. 254; Османов М-Н.О. Стиль персидско-таджикской поэзии IX–X вв. – М.: Наука, 1974; Landau J. De rythme & de raison. Paris: Presses Sorbonne nouvelle, 2013; Чәфәр Ә. Эрузун нәзәри эсаслары ва Азэрбайҹан эрузу. – Бакы: Елм, 1977; Нұшоба А. Гулшахрий ва Навон //Адабий мерос. – Тошкент, 1980. – № 13; Сирус Б. Арузи тоҷики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1963; Саттарзода А. Аристотель и таджикско-персидская литературная мысль (IX–XV вв.). – Душанбе: Адиб, 2002; Солиҳов С. Аруз ва омузиши он. – Душанбе, 2005; Мардони Т.Н. Влияние арабской поэзии на творчество таджикских-персидских поэтов IX–XII веков. Дисс. ... док. филол. наук. – Душанбе, 2006; Мардони Т.Н. Арабско-таджикские литературные связи. – Душанбе: Ирфон, 2006; Наджибуллоҳи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016; Курбатов Х.Р. Метрика "аруз" в татарском стихосложении // Советская тюркология. – № 6. 1973; Усманов Х.У. Древние истоки тюркского стиха. – Казань, 1984; Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. – Казань: КГУ, 1987; Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1972; Бакиров М.Х. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Казань, 1999; Ахметов З.А. Казахское стихосложение. – Алматы, 1964; Тилавалди А. Древнетюркский книжный стих. – Алматы, 2002; Рысалиев К. Киргизское стихосложение. – Фрунзе, 1965; Бекмурадов А. Основные тенденции развития Ашхабад. 1980.

Rus va Yevropa adabiyotshunosligida ham she'rshunoslik, xususan, she'riy shakl, she'riy nutq, ritm, vazn, qofiya bilan bog'liq qator masalalar tarixiy-qiyosiy yo'naliishda yoritilgan<sup>1</sup>.

Aruz tizimi va biz tadqiq etayotgan muammoga doir ayrim kuzatishlar A.Sa'diy, A.Fitrat, I.Sultonov, S.Mirzayev, R.Aliyev, Sh.Shomuhamedov, A.Rustamov, E.Talabov, U.To'ychiyev, S.Hasanov, B.Valixo'jayev, X.Rasulov, A.Hojiahmedov, M.Jamolova, A.Hayitmetov, M.Ziyovuddinova, N.Jumaxo'ja, I.Adizova, H.Boltaboyev, A.A'zamov, M.Olimov, D.Yusupova, Sh.Hasanov, Sh.Hasanova, N.Shodmonov, S.Tohirov, M.Tojiboyeva, D.Quvvatova, J.Jo'rayev, D.Zohidova, S.Soyipov kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Пруцков Н. Историко-сравнительный анализ произведений художественной литературы. – Л.: Наука, 1974; Жирмунский В. Введение в метрику. Теория стиха. – Л.: Советский писатель, 1975; Жирмунский В. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М.: Наука, 1979; Дюришан Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979; Вессловский А. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989; Аминева В. Теоретические основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. – Казань, 2014.

<sup>2</sup> Сайдий А. Амалий ва назарий адабиёт дарслари. – Т.: 1925; Фиграт А. Адабиёт коидалари / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи X. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1985; Фиграт. Аруз хакида / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи X. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997; Султонов И. Навонийнинг "Мезон ул-авзон" и ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1947; Мирзаев С. Навоний арузи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1948; Алиев Р. Сайкали и его поэма «Бахрам и Гуланцам». Автореф. канд. ... филол. наук. – Т.: 1964; Шомухамедов Ш.М. Форс-тожик арузи. – Т.: ТошДУ, 1970; Рустамов А. Аруз хакида сухбатлар. – Т.: Фан, 1972; Талабов Э. Араб арузи. – Т.: ТошДУ, 1977; Талабов Э. Араб шеъриятида аруз тизими. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 2004; Олмосли Э.Т. Аруз. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2017; Тўйчиев У. Арузшуносликка доир. – Т.: Фан, 1973. – Б. 42; Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т.: Фан, 1981; Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985; Тўйчиев У. Система аруза в узбекской поэзии. Дисс. ... док. филол. наук. – Т., 1987; Хасанов С. Бобурнинг "Аруз рисоласи". Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1972; Хасанов С. Бобурнишг "Аруз рисоласи" асари. – Т.: Фан, 1981; Валикўжасев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974; Расулов X. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973; Ҳожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998; Ҳожиахмедов А. Навоний арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006; Жамолова М. Ўзбек адабиётидаги нома жанри. – Т.: Фан, 1992; Ҳайитметов А. Туркий тилда адабиётдан илк назарий кўлланма / Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балога. – Т.: Ҳазина, 1996; Зиявиддинова М. Поэтика в "Мафатих ул-улум" Абу Абдаллаха ал-Хорезми. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1990; Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг "Мафотих ал-улум" асаридаги поэтика. – Т.: ТошДШИ, 2001; Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020; Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. – Т.: Muhiattir, 2020; Болтабоев X. "Рисолан аруз" ва аруз хакида / Мумтоз сўз калри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004; Болтабоев X. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талкинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006; Аъзамов

Biroq epik poeziyada masnaviy shaklida yozilgan dostonlarning tarixiy tadrijini belgilashda muhim o'ringa ega bo'lgan dostonlarning aruzshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy muammo sifatida yaxlit holda fundamental o'rganilmaganligi, dostonlardagi vazn va g'oya, vazn va mazmun, vazn va boshqa she'riy unsurlar munosabati bilan bog'liq masalalar maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiyaning avvalgi ilmiy ishlardan farq qilishini ko'rsatadi.

---

А. Аруз. – Т.: Ўзбекистон Миллый кутубхонаси, 2006; Олимов М. Рисолан аruz. – Т.: Ёзувчи, 2002; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси: Филол. фан. док. ... дисс. – Т.: 2004. – 204 б.; Ҳасанова Ш. Мавлоно Ҳожи Кози Пайвандий Ригзоййининг "Куш тили" достони ва унинг киёсий-текстологик тадқики. – Т.: ЎзРФА Давлат адабиёт музейи, 2006. – 104 б.; Ҳасанова Ш. "Тўтинома" ва "Куш тили" туркумидаги асарларнинг киёсий-типологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док. ... дисс. – Т.: 2016; Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012; Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. – Samarcand: SamDU nashri, 2020; Тоҳибоева М. Жадид адиллари ижодида мумтоз адабиёт атьяналари. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Т.: 2018; Кувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараккиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дисс. – Т.: 2016; Жўраев Ж. Шарафиддин Али Яздий. "Хулали мутарраз дар фанини муаммо ва лугаз" асарининг текстологик ва киёсий типологик тадқики. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Т.: 2019; Зоҳидова Д. Аруз сабоклари. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016; Сойипов С. "Қиссанаси Сайқалий" асари кўлёзма нусхаларининг киёсий-текстологик тадқики. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2020.

# I BOB. EPIK POEZIYA TARIXIDA SHE'RIY O'LCHOV MASALASI

## 1.1-§. Qadimgi davr epik poeziyasi va o'Ichov birliklari 1.1.1. Antik davr poeziyasi va metrika

Adabiyot tarixidan ayonki, muayyan badiiy asarning she'riy o'Ichovini tadqiq etish shoirlarning har bir she'rda asardagi g'oya va obrazga muvofiq vazn tanlaganlaridan dalolat beradi. Chunonchi, hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, mahbuba tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagisi baytlarda mujassamlantiriladi, vafo va sadoqat tantanasi esa sho'x va o'ynoqi ritmiga asoslangan misralarda tarannum etiladi<sup>1</sup>.

Lirika yunoncha so'z bo'lib, "musiqa jo'rligidagi ijro etiluvchi she'r" degan ma'noni bildiradi. Demak, torli cholg'u asbobi lirikaning nomidan kelib chiqqan. Mazkur atama ellenizm zamonasi olimlari tomonidan fanga eramizdan avvalgi III-II asrlarda kiritilgan. Shu paytga qadar yunonlarning o'zлari ushbu turkumga aloqador bo'lgan asarlarning barchasini – ““melos”, “melika”, ya'ni “qo'shiq”” deb ataganlar. Ma'lum bo'ladiki, asrlar davomida qadimgi yunonlar lirik she'riyatni boshqa turli vositalar, masalan, qo'shiq, muzika asbobi va hatto raqs bilan bog'lagan holda tasavvur etib kelganlar<sup>2</sup>. Shuning uchun har bir lirik shoir bir vaqtning o'zida ham muallif, ham bastakor, ham raqs ustasi bo'la olgan. Lirikani turlarga ajratishda asosiy omillardan biri vazn bo'lgan.

She'riy asar vaznini belgilovchi asosiy omillardan biri bu lirik janrdir. Ijodkor muayyan asari uchun vazn tanlar ekan, uning qaysi janrda yaratilishini ham nazarda tutadi, chunki har bir janr o'z vazn doirasiga ega bo'ladi. Ba'zi janrlarning vazn imkoniyatlari keng bo'lib, ular aruz tizimining istalgan vaznida, ba'zi janrlar esa avvaldan belgilab qo'yilgan vaznlar doirasida bitiladi.

Ritm va poetik unsurlar haqidagi ilk qarashlar dastlab antik davr adabiyotida vujudga keldi. Arastuning “Poetika” asari bu


<sup>1</sup> Ҳожиҳамедов А. Фуркат арузи / Фуркат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – Б. 83.

<sup>2</sup> Алимухamedov A. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – Б. 70.

borada ilk birlamchi manba bo'lib, uni jahon adabiyotshunosligidagi birinchi adabiyot nazariyasi deyish mumkin. Arastu badiji adabiyotni poeziya deb atar ekan, uning drama, epos va lirika kabi turlari mavjudligini aytadi. Olimning ta'kidlashicha, poeziya asosida hayot turadi va shoir bo'lib o'tgan, bo'layotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni aks ettiradi<sup>1</sup>.

Qadimgi yunon adabiyotida maxsus she'riy vaznlar mayjud bo'lib, ularda qofiya tizimi shakllanmagan va ohang poetik fikri ifodalashda asosiy vosita bo'lgan. I.Tronskiy o'zining "История античной литературы" nomli kitobida bu davrdagi epik poeziyada qofiya bo'lmanligini, vazn poeziyaning ohangdorligini ta'minlovchi yagona vosita hisoblanganligini aytib o'tadi<sup>2</sup>.

Qadimiy ellen tilida yozilgan she'riy asarlarning hammasi uzun va qisqa hijolarning almashinushi asosiga qurilgandir. Yunon she'riyatida ham qisqa bo'g'inxilarni egri chiziq (V), uzun bo'g'inxilarni to'g'ri chiziq (—) bilan belgilashgan, shu belgilarning ma'lum tartibda takrorlanishi yunon she'riyatining vaznnini hosil qilgan. Ba'zan talaffuzning talabiga qarab ikki qisqa hijoni bir uzun hijo bilan almashtirish ham mumkin bo'lgan.



Bu holat singari ko'rinishga ega bo'ladi. Umuman, gekzametr<sup>3</sup> vazni olti turoqdan tarkib topadi. Ushbu turoqlarning har qaysisi *daktiil* deb atalgan bir uzun (—), ikki qisqa (V V) bo'g'indan iborat. She'ring ohangdor bo'lishi uchun oxirgi turoq *spondiy* deb ataluvchi ikki uzun hijo (— —) bilan almashtirib talaffuz etiladi va natijada quyidagi paradigma hosil bo'ladi:



Qadimgi dostonnavislar she'rdagi hijolarning daktiil va spondiy turoqlarining ma'lum tartibda almashtirish yo'llari bilan

<sup>1</sup> Аристотель. Поэтика. – Т.: Фафур Ўолом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 3.

<sup>2</sup> Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 47.

<sup>3</sup> Ayrim manbalarda *geksametr* shaklida ham keladi. Qarang: Античная культура. Словарь – справочник. Под редакцией В.Н.Ярхо. – М.: Высшая школа, 1995. – С. 78.

<sup>4</sup> Античная культура. Словарь – справочник. Под редакцией В.Н.Ярхо. – М.: Высшая школа, 1995. – С. 78.

gekzametrning turli ohanglarda jaranglashiga erishganlar. Masalan, she'rda uzun hijolarning ko'proq bo'lishi – voqeanning ulug'verligini, harakatning salmoqdorligini ta'minlaydi; qisqa hijolarning ko'pligi esa harakatga tezlik, yengillik, o'ynoqilik bag'ishlaydi. Shu yo'sin gekzametrni 16 variantda qo'llash mumkin. Bundan tashqari, she'rning uchinchi yoki to'rtinchi turoqlari o'rtasida keladigan sezura, ya'ni pauzalarning ham gekzametr maqomi uchun g'oyat katta ahamiyati bor<sup>1</sup>.

Gekzametr vaznining epik poeziya vazniga aylanishiga sabab mazkur vaznning imkoniyatlari nihoyatda kengligidadir. Bu imkoniyatlardan gekzametrning ko'p sonli ritmik variatsiyalarga ega ekanligi bilan belgilanadi. Dastlab ritmik variatsiya tushunchasiga izoh bersak. Rus olimi M.Gasparovning fikricha, ritmik variatsiya badiiy asarning asosiy o'lchovdan tashqari yana o'lchov ichidagi kichik o'zgarishlardan tarkib topgan qo'shimcha vaznlarda bitilganligini bildiradi va bu qo'shimcha vaznlar asar mazmuni bilan munosabatga kirishadi<sup>2</sup>. Bu atama vazn va mazmun bilan bog'liq holda o'zbek adabiyotshunosligida ilk bor D.Yusupova tomonidan qo'llanildi va rivojlantirildi<sup>3</sup>. Antik dostonchilikda gekzametrning ushbu imkoniyatlari qahramonlik yo'naliqidagi asarlarning asosiy vazni bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Antik davr poeziyasi taraqqiyotida elegiya va yamb ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Elegiyaning kelib chiqishi Kichik Osiyodagi Fregiya viloyatiga borib taqaladi. Chamasi shu yerning xalqi tilidan "elegn" – "qamish" so'zidan olingan bo'lib, bu toifa asarlarning ushbu o'simlikdan yasalgan muzika asbobi – fleyta (nay) jo'rligida ijro etilishiga dalolat qilsa kerak<sup>4</sup>. Demak, sokin tuyg'ularni ifoda etuvchi she'riy asarlar hozirgi zamon adabiyotshunosligida shu nom bilan qo'llanadi. Lekin qadimgi yunonlar uchun elegiyani bu ma'noda tushunish tamomila ziddir. Chunki ular bunday asarlarda jangovarlik ruhini tarannum etganlar. Lekin shunga qaramasdan, elegiyaning xususiyatlarini belgilashda

<sup>1</sup> Алимухамедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – Б. 71.

<sup>2</sup> Гаспаров М.Л. Ритм // Литературный энциклопедический словарь. – М.: СЭ, 1987. – С. 326.

<sup>3</sup> Ви haqda qarang: Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунлиги Монография. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – 144 б.

<sup>4</sup> Алимухамедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – Б. 72.

uning mazmuni emas, balki vazni ahamiyatlidir. Elegik baytning birinchi misrasi *gekzametr*dan, ikkinchi misrasi – *pentametr* nomi bilan yuritiladigan besh turoqli vazndan tarkib topgandir<sup>1</sup>. Baytning chizina shaklini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

—VV—VV—VV—VV—VV—VV	Gekzametr	Elegik bayt
—VV—VV—  —VV—VV—	Pentametr	

Epik dostonlarga elegiyaning vazni ham, mazmuni ham juda yaqin turadi. Antik poeziya taraqqiyotida yamb ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur atama haqida adabiyotshunoslikda aniq bir nazariya mavjud emas. Faqat qadimgi rivoyatlarda bu so‘zni ma‘buda Demetra afsonasi bilan bog‘lashadi. Afsonaga ko‘ra, Demetra o‘z qizi Persefonaning yo‘qolganligidan qattiq iztirob chekadi. O‘sha vaqtida u Elivsin podshohi Keley xonadoniga enaga bo‘lib joylashadi. U yerda Yamba degan cho‘ri qizi turli askiyalar bilan uning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qiladi va uni kuldirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu afsona esa yambning kelib chiqishini xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishini anglatadi. Yamb janri yamb (V —) va troxey (—V) deb nomlangan turoqlardan tashkil topgan.

— V — V | — V — V | V — V —

Lirikaning yamb va elegiya turlari ham davrlar o‘tishi bilan asta-sekin musiqadan yiroqlashib, faqat o‘qish uchun xoslangan adabiy janrga aylanib qoladi. Antik davr poeziyasida VII–VI asrlarda monodik, ya’ni yakkaxon lirika ham tez rivojlandi. Ushbu davr poeziyasida ishqiy mavzudagi asarlar monodik lirika deb ham atalgan bo‘lib, uning rivojlanishida ikki ulug‘ shoir Alkey va Sapfoning hissasi beqiyosdir<sup>2</sup>. Ular monodik lirikani o‘sha paytgacha yunon poeziyasida ko‘rilmagan chuqur insoniy histuyg‘ular bilan sug‘ordilar. Alkeydan keyin jahon poeziyasida bu vazn hamon uning nomi bilan ataladi. Yamb va elegiyaning birlashuvi quyidagi chizmada ko‘rinadi:

<sup>1</sup> Античная культура. Словарь – справочник. Под редакцией В.Н.Ярхо. – М.: Высшая школа, 1995. – С. 341.

<sup>2</sup> Алимухамедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – Б. 48.

V — V — V — V V — V —  
 V — V — V — V V — V —  
 V — V — V — V — V  
 — V V — V V — V — V

Sapfo poeziyasida lirikaning vazn turlari yana ham akomillashdi. Shoirning lirik she'rlarida qo'llanilgan va keyinchalik unga nisbat berilgan vazn quyidagichadir:

— V — V — V V — V — V  
 — V — V — V V — V — V  
 — V — V — V V — V — V  
 — V V — V

She'rdagi hijolarning uzun-qisqaligi, ya'ni daktil (uzun) hamda spondiy (qisqa) turoqlarining ma'lum tartibda almashtirish yo'llari bilan qadimgi dostonnavislar o'ziga xos ohanglarni hosil qilishgan. Bunda uzun hijolarning ko'proq bo'lishi – voqeanning ulug'verligini, harakatning salmoqdarligini ta'minlaydi; qisqa hijolarning ko'pligi esa harakatga tezlik, yengillik, uyg'unlik bag'ishlaydi<sup>1</sup>.

Dastavval antik davr adabiyotida qahramonlik va jangnoma yo'nalishidagi asarlar paydo bo'lган. Shu ma'noda o'z yo'nalishiga ko'ra "Iliada" va "Odisseya" asarlari jangnoma dostonlar hisoblanadi<sup>2</sup>. Arastuning fikriga ko'ra, she'riy asar, xususan, qahramonlik yo'nalishidagi asarlar vazn bilan bevosita uyg'unlik kasb etishi zarur. Eposda tajriba natijasida qahramonlik vazni (gekzameetr) asoslanib qoldi. Chindan ham agar biror shoir boshqa vaznda yoki ko'pgina vaznlarda hikoya qilsa, u (asar) nomutanosib ko'rindi. Haqiqatan ham, qahramonlik vazni eng barqaror va asosli vazn bo'lib qoldi, chunki unga hammadan ko'ra noyob va ko'chma so'zlardan foydalanish mos tushadi, bu esa hikoyachilik tasvirining o'ziga xos fazilatidir<sup>3</sup>. Antik davr epik poeziyasida dastavval Homer tomonidan qo'llanilgan bu vazn keyinroq shu yo'nalishdagi yana bir qancha dostonlar: "Kipriya", "Ef'iopida", "Telegoniya", "Fivaida",

<sup>1</sup> Алимухамедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – Б. 71.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Корш В. Всеобщая история литературы. Т. I. С.-Пб.: Издание Карла Риккера, 1881. – С. 640–653; Лосев А.Ф., Сонкина Ф.А. и др. Античная литература. М.: Просвещение, 1986. – С. 36; Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 48.

<sup>3</sup> Аристотель. Поэтика. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 50.

“Epigonlar” va qadimgi Rim shoiri Vergiliyning “Eneida” asarlari  
istifoda etildi.

Biz yunon adabiyoti asoschisi hisoblangan Homerning  
gimnlarida ishqiy mavzularning ham mavjudligiga guvoh bo‘lamiz  
Uning gimnlari, asosan, ma’bud va ma’budalarga bag‘ishlangan.  
Ma’buda Afroditaga aytilgan gimnda go‘zallik ma’budasining  
troyalik cho‘pon yigit Anxisga bo‘lgan muhabbatini in’ikos etadi.  
Asar tuzilishiga ko‘ra, kichik muhabbatnomaga o‘xshab ketadi.  
Unda ishq tuyg‘ulari, ma’budaning jamoli ajoyib san’atkorlik bilan  
tasvirlanadi. E’tiborli tomoni shundaki, asar epik poeziyada  
jangnoma dostonlar bitiladigan gekzametr vaznida yozilgan, biroq  
ulardagi mazmun bir-biridan farq qiladi. Bunga asosiy sabab gimnlar  
bayramlarda ijro etilib, dastlab ma’bularga ehtirom sifatida gimn,  
so‘ngra doston aytilganligidir<sup>1</sup>. Bu qonuniyat, albatta, dostonlar  
mazmuniga ham ta’sir qilmay qolmagan. Ko‘rinadiki, qahramonlik  
va jangnoma yo‘nalishidagi dostonlar uchun asos bo‘lgan gekzametr  
ishqiy yo‘nalishdagi asarlarda ham istifoda etilsa-da, undagi uzun  
hijolar voqeanning ulug‘vorligi va harakatning salmoqdorligini  
ta’milagan, qisqa hijolar esa harakatga tezlik va yengillik  
bag‘ishlagan.

Antik davr adabiyotida bo‘lgani kabi sanskrit tilidagi qadimgi  
hind adabiyotida ham ritmni o‘zida mujassam etgan o‘lchovlar  
mavjud edi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida  
hindlardagi aruz tizimiga o‘xshash maxsus belgilari, tovushlarning  
uzun va qisqaligi haqidagi *chanda* degan ilm to‘g‘risida so‘z  
yuritadi. Hind adabiyotida chanda aruz ilmiga muqobil turadigan  
she’r vaznlaridan iborat bo‘lgan. Bu esa hindlarning o‘z kitoblarini  
nazm bilan tuzishni maqsad qilganliklarini anglatadi.

Dastlab hind adabiyotida ushbu ilmga Pingalu va Chalitu asos  
solgan. Ular Xalil ibn Ahmad va aruzchilarimiz tasvirlaganidek,  
harflarni sanashda sukul (harakatsiz) va harakatli harflarni mana  
shu ikki belgi /< bilan tasvirlaydilar. Bularning birinchisi, ya’ni so‘l  
tomondagisi (chunki ular so‘l tomondan yozadilar) *lagxu* deb  
ataladi. Bu yengil demakdir. Ikkinchisi, ya’ni o‘ng tomondagisi *guru*  
deb ataladi. Bu og‘ir demakdir. Og‘ir vaznning miqdori avvalgining

<sup>1</sup> Алимухаммедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомийномидаги ТДПУ, 2007. – Б. 48.

(ya'ni yengilining) ikki barobari bo'lib, ikki yengil bir og'ir o'rnida turadi<sup>1</sup>. Demak, lagxu va guruning tengligi quyidagicha bo'ladi:

/

<<

Shuningdek, Beruniyning ma'lumot berishicha, Xalil ibn Ahmad va undan keyingi aruzshunoslar she'r tuzilishi uchun fe'llar (afoil)dan qoliqlar tuzganlari, so'zlarning harakatli va sukunli harflarini raqam bilan bayon qilganlari singari hindlar ham yengil va og'irni oldinma-keyin qo'yib, harflarning sonida emas, miqdor va o'lchovlarida vaznni saqlash bilan yengil va og'irdan tarkib topgan so'zlar uchun istilohlar tayin qilganlar va shu nomlar bilan belgilangan vaznni ko'rsatib berganlar.

Sharq musulmon she'riyati ham antik davr yunon she'riyati singari bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Ushbu she'riyatda qadimdan qofiyalanuvchi so'zlar va ritmik uyg'unlik asosiy unsur bo'lib kelgan. Sharq mumtoz adabiyotining go'zalligi ham, betakrorligi ham, pafosning ustunligi ham shunda.

Aruz ilmiga VIII asrda "arab filologiyasining otasi" deb ta'riflangan olim Xalil ibn Ahmad (715/719–786/791) tomonidan asos solingani bugungi ilm ahliga yaxshi ma'lum. Olim ushbu ilmni bir butun tizim holiga keltirdi va uning nazariyasini ishlab chiqdi. IX asrdan fors-tojik adabiyotida, XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkiy she'riyatda keng foydalanila boshlandi. Aruz tizimi cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolarning misralar tarkibida ma'lum tartibda takrorlanib kelishiga asoslanadi. Bu tizimda misraning ritmik bo'laklari, ya'ni hijolarning birikishidan hosil bo'ladigan qism rukn deb ataladi.

Ruknlar hijolarning miqdori, cho'ziq yoki qisqaligiga qarab, sakkiz aslga bo'linadi va har bir asl arabcha "fa'ala" (harakat) so'zidan yasalgan maxsus nom (qolip) bilan yuritiladi. Binobarin, aruz ma'lum bir ohang asosida she'r bitish, boshqacha aytganda, she'r yozishda ma'lum bir mumtoz ohangni saqlash san'atidir. Aslida ohang musiqaga oid istiloh. Lekin ana shu musiqiy hodisasiz aruz she'riyati vujudga kelmaydi. Shuning uchun ham mumtoz

<sup>1</sup> Абӯ Райхон Беруний. Ҳинчларининг грамматика ва шеър ҳакидаги китоблари баёни. Тағланган асарлар. 2 жилдлик. II жилд. А.Расулов, Ю.Ҳакимжонов, Ф.Жалолов таржимаси асосида. – Т.: Фан, 1965. – Б. 116.

adabiyotimiz namoyandalari shoirda musiqiy tab' (slux) yo  
musiqa ilmidan xabardorlik bo'lishini shart qilib qo'yganlar<sup>1</sup>.

Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qala  
tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuve  
vaznlardan foydalanganlar. Aruz tizimida har bir bahr bir nech  
vaznlarni o'z ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrga mansubligida  
qat'i nazar, o'ziga xos ohangga ega. Masalan, hazaj bahrining *hazaj*  
*musammani solim* vazni sokin va vazmin ohang kasb etsa, xuddi sh  
bahr tarkibidagi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* yengil v  
o'ynoqi ohangda ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu vazn *hazaj*  
*musammani solim*ga mos bo'lgan mahzun tuyg'ular ifodasini  
"ko'tara olmaydi". Xuddi shu fikrni rajaz bahrining *rajaz*  
*musammani solim* va *rajazi musammani matviyi maxbun* vaznlari  
nisbatan ham aytish mumkin. Shu nuqtayi nazardan she'rlarning  
o'lchov imkoniyatlari bahrlar tarkibidagi vaznlar kesimida tadqiq  
qilinishi maqsadga muvofiq.

Ko'rinaridiki, yunonlar metrikasi, hindlarning chanda deh  
atalgan ilmi va arablarning aruz tizimida o'zaro mushtarak jihatlar  
mavjud bo'lib, bu bevosita hijolarning sifati, juzvlar hamda turoq va  
ruknlarning holatida yaqqol namoyon bo'ladi.

### 1.1.2. Musulmon Sharqi masnaviy navisligining vazn xususiyatlari

Aruz tizimi arab adabiyotida vujudga kelgan bo'lsa-da, forsiy  
adabiyotda o'z cho'qqisiga ko'tarildi. Forsiy aruzshunoslar o'z  
risolalarida aruzning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan birga  
forsiy she'riyatda uni muvaffaqiyat bilan qo'lladilar.

Aruz tizimi XI asrdan boshlab turkiy adabiyotga kirib keldi.  
Adabiyotshunoslikda turkiy adabiyotdagи aruzda yaratilgan birinchi  
yirik asar bu Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni  
ekanligi e'tirof etilgan<sup>2</sup>. Darhaqiqat, "Qutadg'u bilig" aruz  
tizimining mutaqrорib bahrida yaratilgan bo'lib, Yusuf Xos Hojib bu  
asarni yozishda fors adabiyotidagi "Shohnoma" dostoni vaznidan

<sup>1</sup> Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012. – B. 6.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Фитрат. Аруз хакида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 27; Стеблева И.  
Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: Наука, 1971. – С. 14–19; Хамраев М.  
Основы тюркского стихосложения. – Алма-Ата: Издательство АН, 1963. – С. 216.

foydalangan. Nazarimizda, o‘z davrida dostonning “Turkiy Shohnoma” deb atalishida shu hodisaning ham o‘mi bor bo‘lishi mumkin.

Aslida, turkiy adabiyotda islomdan avval ham o‘ziga xos maxsus she’r tuzilishi bo‘lgan va bu tizim bo‘g‘inlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan she’rlarning aksariyat qismi to‘rtliklardan iborat bo‘lishi bilan ahamiyatli edi. Tahlillarga ko‘ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham yuqorida ta’kidlaganimizdek, mutaqorib bahrida yozilgan edi. Yusuf Xos Hojibning aynan shu o‘lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she’riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo‘lgan o‘n bir bo‘g‘inli vazniga juda uyg‘un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ushbu o‘lchov to‘rtliklar shaklida ifoda etilgan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘oti-t-turk” asarida barmoq vazni bilan barobar aruz tizimida yaratilgan parchalar ham uchrashi to‘g‘risida adabiyotshunoslikda turli mulohazalar bildirilgan edi. Xususan, tatar olimi X.Usmonov “Devon-u lug‘oti-t-turk”da aruz va barmoq tizimi qorishiq tarzda qo‘llanilgan degan mulohazani ochiqlasa, M.Hamroyev asardagi barcha she’riy parchalar barmoq vaznida yaratilgan deb ta’kidlaydi. M.Bakirov esa “Devon”dagi she’rlarni aruzda ham, barmoqda ham emas, balki alohida she’r sistemasida yaratilgan deb baholab, ushbu she’rlarni “kuchaytirilgan bosimli (urg‘uli) she’rlar” deb ataydi.

I.V.Stebleva ham “Devon”dagi she’rlarda aruz mavjudligini aytadi va she’riy parchalarning aruzga mos keluvchi taqtii<sup>1</sup> (paradigmasi)ni keltiradi<sup>1</sup>. Aruzshunos olim U.To‘ychiyev ham “Devon”da aruz tizimi borligi masalasiga ijobiy mulohaza bildirib, shunday deydi: Biz “Devon”da aruz mavjud degan avval aytilgan

<sup>1</sup> Qarang: Усманов Х. К характеристике ритмического строя тюркского стиха // Народы Азии и Африки – 1968. – № 6. – С. 90–96; Хамраев М Основы тюркского стихосложения. – Алма-Ата: Издательство АН, 1963. – С. 122–126; Бакиров М Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. – Казань, 1972. – С. 30–31; Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: Наука, 1971. – С. 21.

fikrlarga qo'shilamiz, chunki "Devon" XI asr obidasi va aruz b davrda yozma adabiyotda to'la hukm surar edi. Qolaversa, aruzga hamohang bo'lgan she'riy bayt va to'rtliklar xalq maqol! va topishmoqlari ichida ham ko'p topiladi<sup>1</sup>.

A.Hojiahmedov "Devon"dagi 224 ta she'riy parchanining vaznususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida mazkur she'riy parchalarning aruzdag'i — V — —, V — V —, — V V —, V V —, V — — —, — V —, V — — turoqlariga mos keluvchi o'Ichovda yaratilganligini aniqladi. Olimning fikricha, ... qadimgi turkiy she'riy o'Ichov tizimi cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan erkinlik bilan takrorlanishiga asoslangan<sup>2</sup>. Bizningcha ham, "Devon"dagi she'riy parchalar aruzga mos keluvchi she'riy sistemada yozilgan bo'lib, cho'ziq va qisqa bo'g'inlar orasidagi mutanosiblik aruz vazni talablariga mos keladi.

...Qadimgi turk she'rlaridayoq vaznda bo'g'indirlarning ochiq-yopiqligini rioya qilish hollari uchrab turadi. Bu esa aruz vazni prinsiplaridan biridir<sup>3</sup>. Lekin bundan "Devon-u lug'oti-t-turk"dagi to'rtliklar aruz nazariyasi qonun-qoidalariga to'la muvofiqdir degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki turkiy adabiyotga kirib kelgan aruz sistemasi arab va fors adabiyotidan o'tgan vaznlar bilan bog'liqdir<sup>4</sup>. Shu ma'noda turkiy tilda aruz vaznida yaratilgan tom ma'nodagi birinchi asar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidir deb aytish mumkin.

Ma'lumki, Sharq musulmon adabiyotidagi manzum asarlar orasida masnaviy yetakchi o'rinda turadi. Masnaviy janr nomi bo'lib, uning har ikki misrasi o'zaro qofiyali, ayni vaznda yozilgan bo'ladi. Uning qofiya tuzilishi va uslub bilan uyg'un bo'lishi har turli mavzuni ishlab chiqish imkonini beradi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning olamga dong taratgan "Ma'naviy masnaviy" nomli asari bu janrning eng mashhur namunasidir. Shayx Ahmad Taroziyoning "Funun ul-balogs'a" asarida: "Masnaviy iki misra bo'lur. Ikalasi muqaffo (o'zaro qofiyalanuvchi), netokkim, manzum qissalarni

<sup>1</sup> Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – Б. 155.  
<sup>2</sup> Хожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – Б. 10.

<sup>3</sup> Рустамов А. Аруз какида сухбатлар. – Т.: Фан, 1972. – Б. 4.  
<sup>4</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг баджий уйгурулиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – 144 б.

masnaviy qilibturlar”, – deb ta’kidlanadi<sup>1</sup>. Masnaviydagи har bir ikkilik bandning o’zaro mustaqil qofiyalanishi ijodkor uchun katta erkinlik beradi, bu erkinlik katta hajmdagi voqeaband asarlarni yaratish paytida, ayniqsa, qo’l keladi. Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonida masnaviyning ushbu imkoniyatini alohida ta’kidlab, uni “vase” – keng maydon deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,*

*So ‘zda keldi vase’ maydoni<sup>2</sup>.*

Adabiyotshunoslikda mazkur atama ikki xil: janr va she’riy shakl ma’nosida qo’llanadi. Shu bois adabiyotshunos S.Tohirov masnaviyini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ikkilik shaklida yozilgan dostonlarga nisbatan masnaviy atamasi she’riy shakl ma’nosida qo’llanadi. Masalan: “Lison ut-tayr”ning janri doston, shakli esa masnaviydir.

2. Lirik asarlar majmuasi, xususan, devonlar tarkibiga kiritilgan va ikkilik shaklida yozilgan lirik she’rlarga nisbatan masnaviy janr nomi sifatida qo’llanadi<sup>3</sup>.

Mumtoz adabiyotga doir manbalarda epik poeziyaga mansub dostonlar masnaviy atamasi bilan atalgan. Umuman, har qaysi baytdagi ikkala misra mustaqil qofiyalanuvchi she’r shakli masnaviy (“ikkilik”) deb yuritiladi<sup>4</sup>. Adabiyotshunos U.To’ychiyev masnaviy shakli katta lirik-epik asarga ham o‘ng‘ay, shakli sodda, hashamsizligini ta’kidlaydi<sup>5</sup>. Turkiy (o’zbek) adabiyotida yaratilgan masnaviyalar a-a, b-b, v-v... tarzida qofiyalanadi. Bunday qofiyalanish tizimi nihoyatda qulay bo‘lganligi uchun voqeaband she’riy asarlar, manzumalar va dostonlar masnaviyda yozilgan.

Turkiy adabiyotdagi ilk masnaviyalar o’zida didaktik doston mohiyatini aks ettiradi. Keyinchalik o‘z mavzusini muqaddas kitoblardan olgan “Yusuf va Zulayxo” kabi qo’sh qahramonli ishqiy hikoyalar bu shaklning asosiy mavzusiga aylangan. Ozarbayjon-Onado‘li mintaqasida “Yusuf va Zulayxo” (Hamdiy Chalabiy,

<sup>1</sup> Шайх Ахмад Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов. – Т.: Хазина, 1996. – Б.125.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Сабъан саён. – Т.: МАТ. 7-жилд. – Б. 61.

<sup>3</sup> Тохирев С. Аруз вазни койсалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. – Б. 86.

<sup>4</sup> Жохнахмедов А. Мумтоз бадиният лугати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 35.

<sup>5</sup> Адабий турлар ва жанрлар. Уч жиҳозлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – Б. 147.

Toshlijali Yahyo), "Layli va Majnun" (Fuzuliy), "Sham va Parvona" (Zotiy), "Gul va Bulbul" (Fazliy) singari nihoyatda go'zal sevgi dostonlari qalamga olingan. Mumtoz adabiyotda ko'pgina iste'dod shoirlar xamsa (besh masnaviy), hatto sab'a (yetti masnaviy) yaratganlar. Bu ishni ilk bora Ozarbayjonning daho shoiri Nizomiy ado etgan. Uning "Maxzan ul-asror", "Layli va Majnun", "Xusrav va Shirin", "Haft paykar" va "Iskandarnoma" manzumalaridan iborat "Xamsa"si boshqa shoirlar uchun o'rnak bo'lgan.

Nazariy adabiyotlarda dostonlar, asosan, 7 xil vaznda yozilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bu haqda hind olimi mavlaviy Oga Ahmad Alining "Haft osmon" nomli tadqiqotida quyidagi fikrlari keltiriladi: "Masnaviy vazni yettidur. "Mezon ul-avzon"da aytilishicha, masnaviyning ushbu yetti vaznidan ikkitasi hazaji musaddasda, yana ikkitasi ramali musaddasda, bittasi sari'i musaddasda va bittasi xafifi musaddasda va nihoyat yana bittasi mutaqoribi musammandadur"<sup>1</sup>. Olim bu o'rinda epik poeziyada aruz tizimi asosida yaratilgan dostonlarning vaznnini sanab o'tadi.

Bobur "Muxtasar"da "...Ul jumladin besh vazni mashhur o'qdurkim, "Xamsa"lar ul avzondadur. Yana bir vazn agarchi "Xamsa"da yo'qtur, fil jumla shuhrati bor. "Mantiq ut-tayr" va "Masnaviy" (J.Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"si ko'zda tilimoqda) bu kitobning qoyili azizlarning aksar masnaviylari bu vaznda voqe' bo'lubdurlar. Yana bir vazndurkim, agarchi shuhrati kamdur, vale xeyli latif vazndur, mavlono Abdurahmon Jomiy "Subha"si ul vazndadur. Xoja Xusrav Dehlaviy "No'h sipehr"ining bir sipehrini bu vaznda aytibtur, ushbu yetti vazndurkim, masnaviyiga maxsustur..."<sup>2</sup>. Ushbu vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

### 1.1-jadval.

No	Vazn nomi	Ruknlar va taqtiyi
1.	Sari'i musaddasi matviyi makshuf	Muftailun muftailun foilun — V V — V V — V —
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	Mafoiylun mafoiylun fauvlun V — — V — — V —

<sup>1</sup> Blochmann H. Prosody of the Persians according to Saifi, Jami, and other writers. Calcutta: PRINTED BY C.B.LEWIS, BAPTIST MISSION PRESS, 1872. — P. 180.  
<sup>2</sup> Бобур. Муҳтасар. — Т.: Фан, 1971. — Б. 118.

3.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Maf'uvlu mafoilun fauvlun — — V V — V — V — —
4.	Xafifi masaddasi maxbuni mahzuf	Foilotun mafoilun failun — V — — V — V — VV —
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf	Fauvlun fauvlun fauvlun faal V — — V — — V — — V —
6.	Ramali musaddasi mahzuf	Foilotun foilotun foilun — V — — — V — — — V —
7.	Ramali masaddasi maxbuni mahzuf	Failotun failotun failun V V — — VV — — VV —

Jadvalda keltirilgan vaznlardan ayon bo'ladiki, muslimon Sharqi adabiyotida yaratilgan epik poeziya namunalari 7 ta vaznda bitilgan. Ushbu vaznlar dostonda qo'llanilgan mazmun bilan bevosita aloqadordir. Ijodkorlar o'z asarlari uchun mos vazn tanlar ekanlar, dostondagi mavzu, g'oya va obrazlarning vazn bilan mutanosiblashishiga alohida e'tibor berganlar. Shu jihatdan ma'lum bir ijodkor ijodining vazn xususiyatlari haqida so'z yuritishda mazmun vaznga bog'liq ekanligini hisobga olish lozim. Biz o'zbek epik poeziyasida yaratilgan dostonlarni mavzu ko'lamiga ko'ra shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin deb hisoblaymiz:

1. **Pandnoma mavzusidagi dostonlar.** Bunday dostonlarda, asosan, pand-nasihat mavzusi markazlashgan davlat va odil shoh boshqaruvi bilan uyg'unlik kasb etadi. Bu guruhga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqqoyiq", Sayyid Qosimiyning "Gulshani roz" kabi dostonlarini kiritdik.

2. **Jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlar.** O'z ibtidosini Firdavsiy "Shohnoma"sidan olgan bu yo'nalishga Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy", Muhammad Solihning "Shaybonynomma", Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon", Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyuning "Rusiya inqilobi", Xolis Toshkandiyning "Shoh Jarir", Habibiyning "Zamon farhodlari" kabi dostonlarini kiritish mumkin.

3. **Noma-dostonlar.** Bu guruh, o'z navbatida, yana ikki kichik guruhga ajratiladi: 1) noma yo'nalishidagi manzumalar. Mazkur

guruhga Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Amiriyniq “Dahnama”si, Said Ahmadning “Taashshuqnomasi”, Xo‘jand “Latofatnoma”si kiradi; 2) *nomlanishida noma so‘zi mayju dostonlar*: Ushbu guruhga Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” “Jlohiynoma” dostonlari, Xiromiyning “To‘tinonoma”, Miriyin “Gulnoma”, “Choynoma”, Xolis Toshkandiyning “Arvohnoma” “Ibratnoma” dostonlari kiradi.

4. **“Qo‘sh ismli” ishqiy dostonlar.** Bu guruhga Say Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Haydar Xorazmiyning “Gul Navro‘z”, Durbekka nisbat beriluvchi “Yusuf va Zulayx”, Nishotiyning “Husn va Dil”, Xiromiyning “Ra’no va Zebo”, Ahmed Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostonlarini kiritish mumkin.

5. **“Xamsa” yo‘nalishidagi ishqiy dostonlar.** Nizomi Ganjaviy an‘analari asosida vujudga kelgan ushbu turkumga Qutbning “Xusrav va Shirin”, Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hamda “Sab’ai sayyor”, Majlisiyning “Qissa Sayfulmuluk”, Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”, Jamol Kamolning “Quyosh chashmasi” dostonlari kiradi.

6. **“Maxzan ul-asror” turkumidagi dostonlar.** Bu yo‘nalishga Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul-axbor” hamda Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonlari mos keladi.

7. **Irfoniy-tasavvusiy dostonlar.** Forsiy adabiyotda shak nuqtayi nazaridan o‘z in’ikosini Jaloliddin Rumiy “Masnaviy amma’naviy”sidan, mavzu yo‘nalishi bo‘yicha Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”dan topgan ushbu turkumga turkiy adabiyotda Gulshahriyning “Qush tili”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, Rizoiy Payvandiy “Qush tili”, Salohiyuning “Bulbul va Gul” dostonlari kiradi.

8. **Diniy-didaktik qissalar asos bo‘lgan dostonlar.** Mazkur dostonlarga Huvaydoning “Rohati dil”, Uvaysiyning “Shahzoda Hasan”, “Shahzoda Husayn” dostonlarini, Sobir Sayqaliyning “Qissai Sayqaliy”, Xolis Toshkandiyning “Imomlar qissasi” kabi dostonlarini kiritish mumkin. Ushbu asarlarning barchasi uchun diniy qissalar asos bo‘lgan.

Antik davr adabiyoti va Sharq mumtoz adabiyoti bir xil tarixiy taraqqiyotni boshdan o‘tkazgan. Ulardagi she’riy o‘lchovlar

o'rtasidagi o'xshashliklar buning dalili sifatida yuzaga chiqadi. Aruzshunoslik ilmi she'riyatdagi har qaysi janr o'zining muayyan vazn imkoniyatlari ega ekanligidan, boshqacha qilib aytganda, har bir janrnning o'zigagina xos vaznlar ko'lami chegarasi mavjudligidan dalolat beradi. Bu ko'lam esa har qaysi janrnning hajm xususiyatlari, musiqa bilan aloqadorligi, xalq og'zaki ijodi bilan munosabati kabi jihatlar bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, vazn muayyan darajada dostonlarning mazmuniga aloqadordir. Chunki mutaqoribga xos jangovarlikni ramal o'zida aks ettirolmaydi. Shu jihatdan dostonlarning mazmun doirasiga qarab vazn tanlanadi, ularning o'Ichov imkoniyatlari saqlanadi. Bu o'rinda u yoki bu janrnning vazn borasidagi an'anaviylik xususiyatlari ham muayyan rahamiyatga ega. Shu tufayli ham she'riyatdagi vazn muammolarini anlar va mavzu ko'lami bo'yicha alohida tadqiq etish ijobiy matijalar beradi.

## 1.2-§. Pandnoma yo'nalihidagi dostonlarda vazn

Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasihat mavzulari azaldan navjud bo'lib, ular insonlarni ezgulik va komil axloqqa chorlaydi. Dostonlarning mavzu ko'lamida ham pandnomalar o'ziga xos 'ringa ega. Turkiy (o'zbek) adabiyotshunoslikdagi dastlabki ostonlar ham pandnoma mavzusida yaratilgan. Xususan, o'rta asrlarga oid pandnoma ruhidagi asarlarning ko'pchiligidagi ukmdorlarning din ulamolari oldiga, ularni ziyyarat qilish uchun orishi va o'z yurishlariga ulardan ruxsat olishi haqida tavsiyalar beriladi<sup>1</sup>. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Tugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida ham shu xususiyatlar o'zga tashlanadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni qoraxoniylar ukmronligi davrida maydonga kelgan va markazlashgan davlat amda odil shoh muammosiga bag'ishlangan. Bu asarda qoraxoniylar davlatining idora usullarini yaratish, barcha tabaqa, ifadagi kishilarning huquq va burchi, xulq-atvori, jamiyatda tutgan

Мавлоно Мухаммад Қози. Ҳукмдорларга ўгитлар. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва оҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори А.Ўринбоев, таржимон Ф.Каримиий. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 15.

o'mi, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkam olinadi<sup>1</sup>. Doston shu kabi xususiyatlari bilan asrlar osha qimmatini yo'qotgani yo'q.

"Qutadg'u bilig" asari O'zbekistonda 1971-yilda filolog fanlari nomzodi Qayumjon Karimov tomonidan to'liq holda naf etilgan<sup>2</sup>. Mazkur nashrda asar matni transkriptsiyada berilgan, o'zbekcha ilmiy tavsifi ham ilova qilingan. Biz ham tadqiqot ushbu nashrdan foydalandik. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonining muqaddimasida :

*Arabcha, tojikcha kitoblar o'kush,*

*Bizning tilimizcha bu yumg'i uqush<sup>3</sup>.*

(Mazmuni: Arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimiz bu donishmandlikning birinchi to'plamidir), – degan edi.

Har bir davlatda bo'lganidek, qoraxoniylar davlatining haqidora qilish usuli, siyosati, qonunlari, huquqiy tamoyillari aks etga tuzuk zarur edi. "Qutadg'u bilig" asari ham shunday zaruriyat tufayi yaratildi. Yusuf Xos Hojib Koshg'arda kitobni tugallagach, Tavg'och Bug'raxon dargohiga keltiradi. Xon adibga kitob ma'qubo'lganidan so'ng Xos Hojiblik lavozimini beradi.

Adabiyotshunoslikda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni "Shohnoma" vaznida yozilganligi e'tirof etiladi<sup>4</sup>. Biror "Qutadg'u bilig"ning o'Ichovi yolg'iz "Shohnoma" vaznida emas balki Sharqning yirik epik asarlari uchun qabul qilingan va Shar nazmi aruzining eng ohangdori hisoblanib, jangovar o'Ichov det nom olgan "mutaqorib" bahrining mutaqoribi musammani solim vi musabbag' vaznlarida hamdir<sup>5</sup>.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonining asosiy vaznlari "mutaqoribi musammani mahzuf", "mutaqoribi musammani maqsu o'Ichovlaridir. Ushbu vaznlari o'zbek aruzshunosligida illi

<sup>1</sup> Мавлоно Мухаммад Қози. Кўрсатилган манба. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 9.

<sup>2</sup> Qarang: Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашртайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 965 б.

<sup>3</sup> Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашртайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 100. Biz dostonidan parcha berishda Q.Karimov qo'llagar grafikadan foydalandik. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

<sup>4</sup> Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020. – Б. 9.

<sup>5</sup> Юсуф Хос Хожиб. Кўрсатилган манба. – Т.: Фан, 1971. – Б. 22.

qo'llanilgan o'chovlar hisoblanadi. Mutaqoribi musammani mahzuf, mutaqoribi musammani maqsur vaznlaridan o'zbek she'riyatida keng istifoda etilgan. Bu vazn Sharqda ijtimoiy-siyosiy boshqaruv bilan bog'liq pandnomalar asarlar shoh-hukmdorlar haqidagi masnaviyalar vazni sanalgan<sup>1</sup>. "Qutadg'u bilig" dostonining asosiy qismi masnaviy tarzida, ya'ni har ikki misrasi o'zaro qofiyalanib keluvchi she'riy shaklda bitilgan. Professor B.To'xliyev dostonda masnaviy orasida boshqa janr namunalari, xususan, unda ikki yuzdan ortiq to'rtlik, uchta qasida mavjudligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Ushbu she'riy parchalarning qasidadan tashqari barchasi, olimlarimiz to'rtlik deb e'tirof etgan parchalarda masnaviy qofiyalanish tizimi, a-a, b-b, v-v,... ketma-ketligi a-a, b-a yoki a-b, a-b shakliga o'tganligini kuzatishimiz mumkin:

<i>Tapug'chi yanilsa oqig'u kerək, Nekukə yanilmishni sorg'u kerək. Yazuqi bar ersə qinag'u tutub, Yoq ersə min edgun avitg'u kerak.</i>	a a b a
--	------------------

Mazmuni: Xizmatkor yanglishsa, uni chorlash kerak,  
Nima sababdan yanglishganini so'rab bilish kerak.  
Gunohi bor bo'lsa, tutib jazolash kerak,  
Agar yo'q bo'lsa, ming xil ezguliklar bilan xursand qilish kerak.  
Yoki:

<i>Biligsiz bilə tursa davlat qali, Biliklig bilə turg'a teñ tush kərib. Biliklig sevunchun kətursa bashi, Biligsiz kər ot-teg eçhər-teg qalib.</i>	a b a b
---	------------------

Mazmuni: Agar davlat nodon bilan tursa,  
Dono bilan jada mos va muvofiq bo'lib turadi.  
Dono sevinchlar bilan bosh ko'tarib yursa,  
Nodon o'chib qolayotgan o't kabi (bo'ladi), ko'r.  
("Qutadg'u bilig", 306).

<sup>1</sup> Зохидова Д. Аруз сабоклари. – Т.: МУМТОЗ СО'З, 2016. – Б. 77.

<sup>2</sup> Qarang: Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожибнинг "Кутадғу билиг" асари. – Т.: ЎЗБЕКИСТОН, 1991. – Б. 7.

Tabiiyki, bunday qofiyalanish tizimi misralararo *mutaqorib* *musammani mahzuf* va *mutaqoribi musammani maqsur* vaznlarinin o'zaro almashinib kelishiga imkon yaratadi. Binobarin, doston qo'llanilgan har ikkala vazn baytlarni talaffuz qilishda qo' kelganidek, adibning o'Ichovdan foydalanish mahoratini anglat yetishga ham turtki bo'ladi. Masalan, quyidagi to'rtlikda 3-4 misralar orasida yuqorida ta'kidlaganimiz 2 xil vazn qo'llanganini ko'ramiz:

<i>Qayu edgu øknur kør edgu uchun,</i> <i>Atiqmish esiz axir øk(u)nur kuchun.</i>	a a
<i>Esiz qil/sa esiz/ yanuti/ økunch,</i> <i>V — — / V — — / V — — / V ~</i>	b
<i>Osa ed/guluk qil/ esizka/ øchun.</i> <i>V — — / V — — / V — — / V —</i>	a

Mazmuni: (Qilgan) ezguliklari uchun qaysi ezgu o'kinadi, ko'r,

Yomonlik bilan nom chiqargan esa oqibat noiloj pushaymon qiladi.

Yomonlik qilinsa, yomonlik evazi – o'kinch,  
Andishali bo'l, ataylab yomonga yaxshilik qil.

(“Qutadg'u bilig”, 193)

Asarning “So'z boshi qismida Kuntug'di elig to'g'risida faslida beklik, siyosat haqida quyidagi bayt keltiriladi. Keltirilgan baytni ruknlarga ajratsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

<i>Edi ed</i>	<i>gu beglik</i>	<i>tagi ed</i>	<i>guræk,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V —</i>
<i>Toru-ul</i>	<i>ani tuz</i>	<i>yuritgu</i>	<i>keræk</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V —</i>

Yusuf Xos Hojib *mutaqoribi musammani mahzuf* vazni orqali baytda beklik – juda ezgu, yanada ezgurog'i siyosat, siyosatni esa to'g'ri yuritish shart ekanligini ta'kidlaydi. She'ming bir misrasida birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlar *fauvlun* (*V — —*) aslining solimiga va oxirgi, ya'ni to'rtinchi rukn fauvlunning mahzuf tarmog'i *faal* (*V —*)ga teng. Bu esa keltirilgan bayt *mutaqoribi musammani mahzuf* o'Ichovida yozilganligini anglatadi. Dostonning qolgan baytlarini ham tahlil qilganimizda, *mutaqoribi musammani*

*maqsur* vaznida bitilgan baytlar borligi ham ayon bo'ldi. Mazkur vazn yuqoridagi o'lchovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi:

*Elig kəz/ qulaq tut/ti elda/ qamug'*,

*V— / V— / V— / V ~*

*Achildi/ anar bar/cha beglik/ qapug'.* ("Qutadg'u bilig", 122)

*V— / V— / V— / V ~*

Mazmuni: Elig butun elda ko'z, qulog tutdi. Uning uchun barcha berk eshiklar ochildi.

Keltirilgan baytning hijolar asosida ruknlarga ajralishi uni *mutaqoribi musammani maqsur* vaznida ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Mutaqoribi musammani maqsur o'lchovining taqt'i siga e'tibor berilsa, *fauvlun fauvlun fauvlun fauvl* ruknlarida yozilganligini ko'rish mumkin. Ruknlarga ajratganimizdan so'ng so'zlarning chizmadagi belgilarga muvofiqligini aniqlaymiz. Buning natijasida birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlardagi so'zlar *fauvlun* (V—) asliy rukniga, to'rtinchi rukndagi so'z esa *fauvl* (V ~) tarmoq rukniga tengligi ochiqlanadi. Baytda to'rtinchi rukn bo'lib kelayotgan *qamug'*, *qapug'* so'zlarida "u" tovushidagi o'ta cho'ziqlikni arab-fors tilidagi "و" (u) unlisi ta'minlab kelyapti. Ushbu vaznning so'nggi hijosi tarkibidagi cho'ziq unli unga muayyan salobat bag'ishlagan. Binobarin, uning ta'sirida didaktik kechinmalarni yanada ta'sirchanroq tasvirlash imkoniyati bor.

O'zbek she'riyatida uncha ko'p qo'llanilmagan *mutaqoribi musammani solim* vazni ruknlari va taqt'i si bir misrada:

*fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun*  
*V— / V— / V— / V —*

singaridir. A.Hojiahmedovning ta'kidlashicha, mazkur vazn turkiy adabiyotda dastlab Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni (so'nggi boblar)da uchraydi. Keyinchalik Alisher Navoiy bu vaznda 29 ta g'azal yaratganligi ma'lum<sup>1</sup>.

*Yana sensizin munisim g'am bo'luptur,*

*Ko'zimga yurak qoni hamdam bo'luptur*<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 96.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Еаройиб ус-сигар. ТАТ. 10 жилдилик. – Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 320 б.

Ushbu vaznga Navoiydan so'ng deyarli hech bir ijodko murojaat qilmagan edi. Faqat XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida aruzshunos shoir Habibiy o'zining "Ahd-u vafo" nomli g'azalida ushbu o'Ichov imkoniyatlarini sinab ko'rdi<sup>1</sup>. G'azal quyidagi matla bayt bilan boshlanadi:

*Janobingg'a ahd-u vafo qilmadimmu?*

*Vafo rasmini jo-bajo qilmadimmu?<sup>2</sup>*

Ko'rindiki, o'zbek she'riyatida *mutaqoribi musammani solim* vazni imkoniyatlaridan yetarli foydalanimagan. "Qutadg'u bilig dostonining 71-bobi "Yigitlikka achinib avuchqaliqni ayu (Yigitlikka achinib, qarilik haqida aytadi)", 72-bobi esa "Ödlet artaqini döstlar jafosini aytur (Zamona buzuqligini, do'stlar jafosini aytadi)" deb nomlanib, har ikkala bob ham qasidadan iborat. Quyida boblardan namuna keltiramiz. 71-bob:

*Yurig 'li bulit-teg yigitlikni idtim,*

*Tubi yel kechär-teg tiriglik tugattim.*

*Esizim yigitlik esizim yigitlik,*

*Tuta bilmädim men seni terk qachittim.*

**Mazmuni:** Kezuvchi bulutdek yigitlikni ketkazdim,  
O'tkinchi bo'ron, yeldik tiriklikni tugatdim.  
Esiz yigitligim, esiz yigitligim,  
Tuta bilmadim, men seni tez qochirdim.

(“Qutadg'u bilig”, 934)

72-bob: *Turayi barayi ajunug' kezayı,*  
*Vafalig' kim erki ajunda tiləyi.*  
*Kishi qızlıqı boldı qandan tiləgu,*  
*Tiləb bulğ' u ersəm tiləyu kərəyi.*

**Mazmuni:** Turayin, borayin, olamni kezayin,  
Vafoli kim ekan olamda qidirayin.  
Odam qimmat(chilig)i boshlandi, (chin odamni) qayer dan  
qidirish mumkin,  
Qidirib topadigan bo'lsam, qidirayin ko'rayin.

(“Qutadg'u bilig”, 941)

<sup>1</sup> Рахмонова Ш. Аруннинг поэтик шакл ва вазн тақомилидаги ўрни. – Т.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – Б. 36.

<sup>2</sup> Ҳабибий. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 261 б.

Keltirilgan baytlarning dastlabkisini bo‘g‘inlarga bo‘lish  
sosida hijolarga ajratib, tahlil qilib ko‘raylik:

<i>Yu-rig‘-li</i>	<i>bu-lut-teg</i>	<i>yi-git-lik</i>	<i>-ni id-tim,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>
<i>Tu-bi yel</i>	<i>ke-chär-teg</i>	<i>ti-rig-lik</i>	<i>tu-gət-tim.</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>

Yoki:

<i>Tu-ra-yi</i>	<i>ba-ra-yi</i>	<i>a-ju-nug‘</i>	<i>ke-zə-yi,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>
<i>Va-fa-lig‘</i>	<i>ki-m+er-ki</i>	<i>a-jun-da</i>	<i>ti-la-yi.</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>

Baytlarga e’tibor berilsa, 4 ta qisqa va 8 ta cho‘ziq hijoning ketma-ket takrorlanishi o‘ziga xos ohangni hosil qilganligi seziladi. Matla’lardagi ruknlar fauvlun (*V — —*) aslining solimiga teng bo‘lib, ketma-ket takrorlanishi natijasida *mutaqoribi musammani* solimni hosil qilgan. Mazkur vaznda yaratilgan she’rlar, asosan, “Shashmaqom”ning “Buzruk” taronalari bilan kuyylanadi. Qasidadagi ohangni ta’minlagan omillardan yana biri vasl modisadir. Ma’lumki, vasl hodisasi bu vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo’shib yuborish bo‘lib, natijada, o‘ta cho‘ziq hijo cho‘ziq hijoga, cho‘ziq hijo qisqa hijoga aylanadi<sup>1</sup>. 72-bobda keltirilgan qasidaning 1-bayt 2- misrasida “kim” so‘zidagi “m” undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin kelayotgan “erki” so‘zidagi “er” hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi va “mer” tarzida o‘qiladi. Ohangda yengillik va o‘ynoqilik hosil bo‘ladi. Shuningdek, 72-bobdagagi aksariyat baytlar fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun ruknlarida ya’ni *mutaqoribi musammani musabbag*‘da bitilgan.

*Bu kun kər/sə erdi/ bu ənda/ təru qılq.*

*V — — / V — — / V — — / V — —*

*Ular qod/mi-sh+ersə/ sevunchlug‘/ bolayı. (“Qutadg‘u bilig”, 944).*

*V — — / V — — / V — — / V — —*

Mazmuni:

(Ular) bu kun ushbu odat, qoida-qonun, fe'l-atvorni ko‘rsa(lar) edi,

<sup>1</sup> Хожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 44.

(Agar bularni) ular qoldirgan bo'lsalar, sevinchli bo'layin.  
Diqqat qilinsa, baytdagi I-misraning oxirgi hijosi o'ndosh bilan ifodalangani uchun o'ta cho'ziq hijoni keltir vaznga muvofiq o'qilishida ko'rindi. Odatda, aruz ilmi qoidalarini toq misralar qo'shimcha (shu vaznga yaqin) o'Ichovda bitilish mumkin. Ushbu qasidada ham shu holat aynan takrorlanga Keltirilgan baytda ham vasl hodisasi mavjud.

Professor B.To'xliyev "Qutadg'u bilig" asarining vaznidayrim saktaliklar borligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Biz ham olimning bu fikrig qo'shilamiz va o'zbek adabiyotida "Qutadg'u bilig" dostoni ilk an vaznida yaratilgan asar bo'lgani uchun ham bu hodisani tabiiy deb hisoblaymiz.

O'zbek adabiyotida pandnomalar mazmunida yaratilgan namunalardan yana biri Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari hisoblanadi. Adib "Hibat ul-haqoyiq" asarini bitishda Sharmumtoz adabiyoti an'analarini davom ettiradi. Asar an'anavii hamd, na't bilan boshlanadi. Asosiy maqsad beshinchli bobdanamoyon bo'ladi. Adib Ahmadning maqsadi – pandnomalariga xos komil insonni tarbiyalashning muhim omil bo'lgan ilmnинг manfaati, jaholatning zararariga e'tibor qaratish va kitobxonga yetkazishdir<sup>2</sup>. Adib Ahmad inson saodatining kalitini ilmda deb biladi.

*Bilik birla bilnur sa'adat yoli,*

*Bilik bil sa'adat yolini bula<sup>3</sup>.*

(Mazmuni: Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, (shunga ko'ra) ilmi bo'l, baxt yo'lini izla).

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari ham "Qutadg'u bilig" singari mutaqoribi musammani mahzuf yoki maqsur vaznlarida yozilgan.

<sup>1</sup> Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Тўхниев Б. Йосуф Ҳос Ҳожибнинг бадний маҳорат – Т.: ТДПУ, 2005. – 120 б.

<sup>2</sup> Кадимий хикматлар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрига тайёрловчи: Н.Рахмонов. – Т.: Faafur Gulom nomidagi Adabiёт va san'yat nashriёti, 1987. – Б. 414.

<sup>3</sup> Ўзбек мумтоz адабиёти намуналари. 2 жилдлик. I-жилд. – Т.: Фан, 2003. – Б. 222. Keying misollar ham shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

*Bi-lik bil-ti bol-ti e-ran bəl-gu-luk,*

*V — — / V — — / V — — / V —*

*Bi-lik-siz ti-rik-la yi-tuk kor-gu-luk.*

*V — — / V — — / V — — / V —*

*Bi-lik-lik e-r+ol-ti a-ti ol-ma-ti,*

*V — — / V — — / V — — / V —*

*Bi-lik-siz e-san er-ka-n+a-ti o-luk.* (“Hibat ul-haqoyiq”, 200)

*V — — / V — — / V — — / V —*

(Mazmuni: Ilmli kishilarning (nomi) mashhur bo‘ldi, bilimsiz (kishilar) esa tiriklayin o‘ldi hisob va bu unga ko‘rgulikdir. Bilimli kishi o‘lsa ham, uning nomi o‘chmaydi, ilmsiz kishining o‘zi hayot bo‘lsa ham, oti o‘likdir).

Demak, keltirilgan matla’ baytlarning birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlari – *sadr, ibtido, hashvlar fauvlun* (V — —) aslining solim ko‘rinishiga, oxirgi ruknlar *aruz* hamda *zarb* esa fauvlunning mahzuf ko‘rinishi – faal (V —)ga teng. To‘rtlikda vaznni ta’milagan vasl hodisasi ham ahamiyatga ega. Ayni paytda adib vazn imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, to‘rtlikda bilimli, bilimsiz kishilarning jamiyatdagi o‘rnini oolib bergen.

Adib Ahmad asarda *mutaqoribi musammani mahzuf* vazni imkoniyatlaridan foydalanib, to‘rtliklarda takrir, tashbeh, tazod san’atlarini mohirona qo‘llaydi. Bu esa, o‘z navbatida, vazn imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. She’r uchun tanlangan *bilik, yilik, elik* qofiyadosh so‘zlari esa to‘rtlikdagi musiqiyilikni oshirgan.

*Songakka yilik tek, eranga bilik,*

*Eran korki aql ol, songakning yilik.*

*Biliksiz yiliksiz songak tek xali.*

*Yiliksiz songakka sunulmas elik.* (“Hibat ul-haqoyiq”, 200)

(Mazmuni: So‘ngakda ilik bo‘lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir, er kishining ko‘rki aqldir, so‘ngakning ko‘rki esa ilikdir. Ilmsiz kishi so‘ngak kabi bo‘shdir, iliksiz so‘ngakka esa qo‘l urilmaydi).

Asarda vazn talabi bilan taslim hodisasi ham uchrab turadi. *Taslim* “yemirmak” ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, so‘zlarni vaznga moslash uchun ularning o‘zak-negizlaridagi biron

harfni tushirish usulini ifodalaydi<sup>1</sup>. Mazkur hodisani yanada yaxshiroq anglash uchun baytni quyidagi jadval asosida tahlil qilib ko‘raylik:

<i>Bu kun tek</i>	<i>suv mentin</i>	<i>dorud ol</i>	<i>yarin,</i>
<i>V— —</i>	<i>— — —</i>	<i>V— —</i>	<i>V—</i>
<i>Elik tut</i>	<i>tachimg‘a</i>	<i>egirsa</i>	<i>munga</i>
<i>V— —</i>	<i>V— —</i>	<i>V— —</i>	<i>V—</i>

Birinchi misra ikkinchi rukndagi “*suv*”, “*men*”, “*tin*” hijolarini biz qoida bo‘yicha cho‘ziq deb olamiz. Chunki aruz tizimida cho‘ziq hijoning birinchi ko‘rinishi yopiq bo‘g‘in bilan ifodalanadi. Shuning uchun biz bu bo‘g‘inlami cho‘ziq hijo (—) bilan belgiladik. Misralardagi qolgan so‘zlarining ham hijolarini aniqlasak, quyidagi manzara paydo bo‘ladi:

*V— — / — — — / V— — / V—*  
*V— — / V— — / V— — / V—*

Bir qaraganda *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruknlari va taqtisi: fauvlun fauvlun fauvlun fauvl *V— — / — — — / V— — / V—*) vaznida yozilgan bayt. Lekin dastlabki misraning ikkinchi ruknidagi birinchi hijo nega cho‘ziq? Mazkur hijo qisqa bo‘lishi kerak emassi? Ha, aslida bu hijo qisqa bo‘lishi kerak. Chunki “*suv*” bo‘g‘inidagi “*v*” undoshi tushiriladi va “*su*” tarzida talaffuz qilinadi. Baytdagi “*teksuv*” so‘zi vazn talabi bilan taslimga uchraganligi bois, biz bu so‘zni “*teksu*” tarzida qo‘lladik. Asl matnda esa “*teksuv*” singari ifodalangan. Quyidagi baytda ham vazn talabi bilan taslim hodisasi qo‘llanilgan.

<i>Ya yalg‘an</i>	<i>soz yigtek</i>	<i>koni soz</i>	<i>shifa,</i>
<i>V— —</i>	<i>— — —</i>	<i>V— —</i>	<i>V—</i>
<i>Bu bir soz</i>	<i>ozag‘i</i>	<i>urulmish</i>	<i>masal.</i>
<i>V— —</i>	<i>V— —</i>	<i>V— —</i>	<i>V—</i>

(Mazmuni: Yolg‘on so‘z kasallik kabitidir, chin so‘z shifodir, bu so‘z to‘g‘risida (qadimda) shunday masal to‘qilgan) (“Hibat ul-

<sup>1</sup> Хожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 158.

haqoyiq”, 204). Keltirilgan baytda bir o‘rinda ham vasl, ham taslim hodisalar qo‘llanilgan.

“Hibat ul-haqoyiq” asarining matnida ham vazn bilan bog‘liq saktaliklar uchraydi. Lekin yuqorida ta’kidlaganimizdek, dostonda bunday o‘rinlar “Qutadg‘u bilig”ga nisbatan ancha kam. Masalan, “Ilm o‘rganish haqida alayhissalomning aytganlari” bobida shunday misralar keladi:

*Biliklik bilikni edragan bo ‘lur,*

*Bilik tatg‘in, ey do ‘st, biliklik qilur.* (“Hibat ul-haqoyiq”, 201) (Mazmuni: Bilimli kishi ilmni farqlaydi, ey do‘st, ilm qadrini ma’rifatli odam biladi).

Keltirilgan bayt bir qarashda *mutaqoribi musammani mahzufda* yozilganga o‘xshaydi. Chunki yuqoridagi baytning birinchi misrasi *fauvlun fauvlun faal* ruknlari ohangida talaffuz etiladi. Biroq chuqurroq tahlil qilinsa, ikkinchi misrasida saktalik bor. Bu holat esa talaffuz jarayonida ham yaqqol bilinadi. Baytni ruknlarga moslab, jadval asosida tahlil qilamiz:

<i>Biliklik</i>	<i>bilikni</i>	<i>edragan</i>	<i>bolur,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>— — —</i>	<i>V —</i>
<i>Bilik tat</i>	<i>g‘i-n+ey dost</i>	<i>biliklik</i>	<i>bilur.</i>
<i>V — —</i>	<i>V — — V</i>	<i>V — —</i>	<i>V —</i>

Ko‘rinadiki, birinchi misraning uchinchi ruknidagi “*edragan*” so‘zi cho‘ziq hijo (—)ni, ikkinchi misradagi “*dost*” so‘zi oddiy cho‘ziq hijoni aks ettirgan. Aslida, mumtoz aruz qoidalariga ko‘ra, “*dost*” so‘zi o‘ta cho‘ziq hijo (V —)ni ifodalashi, birinchi misraning uchinchi rukni esa qisqa hijo (V) bilan boshlanishi lozim edi. Bunday holatlar “Hibat ul-haqoyiq”da ko‘plab uchraydi.

Pandnomaya yo‘nalishida yaratilgan dostonlardan yana biri Sayyid Qosimiylar qalamiga mansub bo‘lib, “Gulshani roz” (Sirlar gulshani) deb nomlanadi. Shoir o‘zbek didaktik dostonchiligining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shti. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiylar boshlab bergen turkiy didaktik dostonnavislik an’anasining XV asrdagi taraqqiyoti ham uning nomi bilan bog‘liq. Sayyid Qosimiyning hayoti va ijodi haqida adabiyotshunoslikda batafsil ma’lumot deyarli uchramaydi. “Faqat shoir Mavarounnahr

yoki Xurosonda temuriylar sulolasidan bo‘lgan Sulton Abu Sayid Mirzo (1451–1469-y.) hukmdorligi davrida yashab ijod etgan iste’dodli so‘z ustalaridan biri ekanligi haqida ma’lumotlar uchraydi”<sup>1</sup>. Sayyid Qosimiy adabiy merosi o’tgan asrning 80-yillari oxiri, aniqrog‘i, 1977-yilda H.Sulaymonov rahbarligida Zahiriddin Muhammad Bobur qadamjolari bo‘ylab tashkil qilingan ekspeditsiyalar davomida aniqlandi.

Olimning hisobotida Hindistonning Rampur shahridagi Rizo kutubxonasida saqlanadigan Sayyid Qosimiyning to‘rtta masnaviyi jamlangan qo‘lyozma haqida ma’lumot beriladi. “Qo‘lyozma hijriy 1044-yilda (milodiy 1634) Buxoroda kotib Muhammad Sodiq Munshiy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, umumiylajmi 4468 misrani tashkil etadi”<sup>2</sup>. Ushbu qo‘lyozmada shoirning 4 ta masnaviy dostoni – “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami), “Gulshani roz” (Sirlar gulshani), “Haqiqatnama”, “Illohiynoma” o‘rin olgan.

Shoir ma’naviy merosini nashr etish va jamoatchilikka taqdim qilishda filologiya fanlari nomzodi B.Qosimxonovning xizmati katta. Sayyid Qosimiy adabiy merosi bo‘yicha olim bir qancha izlanishlar olib bordi. Xususan, u “Gulshani roz” dostonining Toshkentda saqlanadigan va yanglish tarzda Navoiyga nisbat berilgan nusxasini aniqladi. Keyin Rampur nusxasi bilan qiyosan tadqiq etib o‘rgandi. “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiyasida (1987) tadqiqotning ilk natijalarini e’lon qildi. 1991-yilda “Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Tadqiqotda ijodkor masnaviyalarining qo‘lyozmalari hamda ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, shoir dostonlarini to‘plab, “Masnaviyalar majmuasi”ni nashr ettirdi.

“Gulshani roz” “Masnaviyalar majmuasi”da ikkinchi doston bo‘lib, asar an’anaviy hamd, na’t, “Dar sababi nazmi kitob”, Abu Said Mirzo tasarrufidagi bir shaharning hokimi Jaloliddin Sayyid Mazidga bag‘ishlangan qasida, 10 bob va har bir bobga keltirilgan

<sup>1</sup> Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрда тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Ҳ., Косимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт va sanъat nashriёti, 1987. – Б. 144.

<sup>2</sup> Косимхонов Б. Сайид Қосимиининг адабий-дидактик дostonlari. – Т.: Фан, 1987. – Б. 122.

bittadan g‘azal hamda xotimadan iborat. Doston hajman 544 misrani o‘z ichiga oladi. Ushbu dostonning vazni ham B.Qosimxonov tadqiqotlarida yanglish tahlil qilingan. Dissertatsiyada “Gulshani roz”ning asosiy vazni sifatida *ramali musaddasi mahzuf* hamda *ramali musaddasi maxbun* o‘lchovlari ko‘rsatiladi:

1. Ramali musaddasi mahzuf

An-dine-rur-lo-la-yu-gul-surx-ro‘y,  
*Fo-’ilo-tun fo-’i-lo-tun fo-’i-lun*  
Bog‘-jamo-lin-din-a-ning-ol-di-bo‘y.  
*Fo-’ilo-tun fo-’i-lo-tun fo-’i-lun*

2. Ramali musaddasi maxbun

Biz-ga-a-gar-bo‘l-sa-a-ning-dek-shafi’,  
*Fo-’i-lo-tun fo-’i-lo-tun fa-’ilun*  
Fik-re-mas-kel-sa-xi-so-li-shani’  
*Fo-’i-lo-tun fo-’i-lo-tun fa-’lun*<sup>1</sup>.

Diqqat qilinsa, har ikkala bayt ham *sari’i musaddasi matviyi makshuf* o‘lchovida bitilganligi oydinlashadi. Baytlarni o‘zimiz ham vaznga solib ko‘raylik:

1. Sari’i musaddasi matviyi makshuf

An-di-ne-rur| lo-la-yu-gul| surx-ro‘y,  
— V V — / — V V — / — V —  
*muf-ta-i-lun |muf-ta-i-lun| fo-i-lun*  
Bog‘-ja-mo| lin-di-na-ning| ol-di-bo‘y.  
— V V — / — V V — / — V —  
*muf-ta-i-lun |muf-ta-i-lun| fo-i-lun*

2. Sari’i musaddasi matviyi makshuf

Biz-ga-a-gar|- bo‘l-sa-a-ning|-dek-sha-fi’,  
— V V — / — V V — / — V —  
*muf-ta-i-lun |muf-ta-i-lun| fo-i-lun*  
Fikr-e-mas| kel-sa-xi-so| li-sha-ni’.  
— V V — / — V V — / — V —  
*muf-ta-i-lun |muf-ta-i-lun| fo-i-lun.*

Tahlillardan ko‘rinadiki, Sayyid Qosimiyning “Gulshani roz” dostoni *ramali musaddasi mahzuf* hamda *ramali musaddasi maxbun* vaznlarida emas, balki *sari’i* bahri vaznlarida yaratilgan. Shoir

<sup>1</sup> Касымханов Б.Х. Сайид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореф. ... дисс. филол. наук. – Т., 1991. – С. 13.

dostondagi har bir bobga keltirilgan g'azallarda ilohiy ishqni kuylaydi va ularda ham *sari'i musaddasi matviyi makshuf*, *sari'i musaddasi matviyi mavquf o'lchovlarini qo'llaydi*.

Ko'rinaridiki, o'zbek mumtoz adabiyotida pandnoma mazmunidagi dostonlar *mutaqorib* va *sari'* bahri vaznlarida yaratilgan. Buning sababi mutaqorib bahrining epik poeziyadagi ilk vazn sifatida barmoq vazni qonuniyatlariga mos kelishida bo'lsa, *sari'* bahrining yengil ohangi pandnoma dostonlar uchun nihoyatda qulayligidadir deb aytish mumkin.

### 1.3-§. Jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlarning o'lchov imkoniyatlari

Sharq epik poeziyasi dastlab jangnoma va qahramonlik yo'nalishida vujudga kelgan. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo'lishi qahramonlik dostonlarining bosh xususiyatidir<sup>1</sup>. Jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlarda, asosan, qahramonlarning mardligi, jasurligi, ularning yurt tinchligi, ravnaqi yo'lida qilgan olajanob ishlari tarannum etiladi. Bu poeziyaning ilk namunasi Mas'ud Marvaziy qalamiga mansub bo'lib, mazkur dostondan bizgacha bir necha baytlargina yetib kelgan<sup>2</sup>. Tom ma'nodagi jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi doston Firdavsiyning "Shohnoma"si hisoblanadi. Ushbu doston mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznida yaratilgan. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida "...ajam tili bila asli masnaviy mutaqorib bahridur", – deb ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Ma'lumki, mutaqorib bahrida jangovarlik, qahramonlikka xos shiddatli ohang bor. Bu bevosita bahrning ruknlari: *fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun* ohangiga mos keladi. Ilk bor X asrda Daqiqiy tomonidan mutaqorib bahrida yaratilgan jangnoma yo'nalishidagi dostonlar epik poeziyaga kiritilgan bo'lib, Firdavsiy dostonining dastlabki 1000 bayti uning qalamiga mansubdir.

<sup>1</sup> Пропп В.Я. Русский героический эпос. – М., 1958. – С. 5–6.

<sup>2</sup> Юсупова Д. Жангнома дostonларда шеърий ўлчов масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – № 2. – Б. 55.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 68.

Daqiqiyning o‘z dostoni uchun mutaqorib bahrini tanlaganligi sababini Y.E.Bertels quyidagilarda ko‘rish mumkin deb hisoblaydi: O‘sha davrda Buxoroda Siyovushning o‘limiga bag‘ishlangan marsiyalar xalq orasida keng tarqalgan va ular o‘ziga xos ohangga ega edi. Daqiqiy dostonning g‘oyaviy yo‘nalishiga mos keluvchi ushbu ohangga yaqin vaznni tanlash bilan ham aristokratik estetikaga xos talablarni qondirdi, ham o‘z dostonida sof eroniylar an‘analarni saqlab qoldi. Bu shaklda doston o‘zining asosiy vazifasini a’lo darajada bajardi – ko‘hna Eronning ritsarlik an‘analari arab shon-shavkatiga qarshi qo‘yildi, eroniylar legitimizm (qonuniy merosxo‘rlik – R.Sh.) va farr (milliy iftixor – R.Sh.)ning davomiyligi ta’kidlandi<sup>1</sup>. Shu asnoda, *mutaqoribi musammani mahzuf* vazni epik poeziyada, asosan, jangnoma va qahramonlik yo‘nalishidagi dostonlar yoziladigan an‘anaviy she’riy o‘lchov sifatida istifoda etila boshladi. Asadiy Tusiyning “Gershapsnoma”, Hakim Eronshohning “Bahmannoma”, Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma”si va undan keyingi barcha “Iskandarnoma”lar, jumladan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy”, Sidqiy Xondayliqiyning “Rusiya inqilobi” singari dostonlarining mazkur vaznda bitilishi fikrimizni tasdiqlaydi.

“Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi eng yirik doston hisoblanadi. Asar “Xamsa”ning so‘nggi dostoni bo‘lib, 1485-yilda bitilgan. Doston Nizomiy “Iskandarnoma”si singari mutaqorib bahrida yaratilgan. Hazrat Alisher Navoiygacha bu vazn Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqqoyiq” asarlarida qo‘llanilgan edi. Professor Najmiddin Komilov “Saddi Iskandariy” dostonining markaziga qo‘yilgan bosh g‘oya bu – ibrat va ogohlik ekanligini aytadi<sup>2</sup>. Navoiy talqiniga ko‘ra, Iskandar aslida shahzoda emas, balki vayronadan topilgan chaqaloq – onasi uni tug‘ib, so‘ng vafot etgan. Farzandsiz Faylaqus go‘dakni topib, uni o‘ziga farzand bilib, parvarish etadi<sup>3</sup>.

Tabiatan darveshlar sulukiga ishtiyoqmand, saltanat savdosidan bezor Iskandar zimmasiga jahongirlik missiyasi tushadi.

<sup>1</sup> Бертельс Е. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. – М., 1988. – С. 413.

<sup>2</sup> Комилов Н. Тасаввух – Т.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – Б. 247.

<sup>3</sup> Юсупова Д. Эмас осон бу майдон ичра турмок // Шарқ юлдузи, 2021. – № 12. – Б. 151–160.

Jahongirlik va fotihlik da'vosi bilan tarix sahnasiga chiqqan boshqa hukmdorlardan farqli o'laroq, Navoiy xalq orzu-istagi va Haq roziligi asosida dunyoda adolatli hukmdorlikni o'matish, bilim va aql-zakovat, xayr-u saxovat, mehr-u shafqat tantanasiga erishishni o'zining burchi deb bilgan Iskandar obrazini yaratdi. Shu sababli, bu dostonning oxiri qayg'uli tugasa-da, Navoiy voqealar bayoni davomida inson va jamiyat, shoh va darvesh, hayot va o'lim, ustoz va shogird, yaxshilik va yovuzlik, hikmat va hukumat kabi turli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy masalalar ustida mushohada yuritadi. Ana shu xulosalar, qissadan chiqarilgan hissalar tufayli Navoiy tasvirlagan Iskandar jahongir podshohdan ko'ra, xaloskor, adolat o'matuvchi, tabiatи hukmdordan ko'ra darveshlikka ko'proq moyil, ilm-hikmatga maxzan bo'lgan ma'rifatli shaxs sifatida ko'ngilga o'mashadi<sup>1</sup>.

Navoiy dostonda Iskandarning Chin xoqoni ustidan o'z hukmronligini o'matganini aytar ekan, so'z orasida:

*Navoiy ichib may eshitgil surud,  
Ki bas bevafodur sipehri kabud.*

*Ki xoqong'a gar juz jafo qilmadi,*  
*Sikandarg'a dog'i vafo qilmadi<sup>2</sup>,* –  
 deb eslatib o'tadi. Yuqorida dostondan keltirilgan parchaning dastlabki bayti *mutaqoribi musammani maqsurda*, keyingisi esa *mutaqoribi musammani mahzufda* yozilgan. Ya'ni:

<i>Navoiy</i>	<i>ichib may</i>	<i>eshitgil</i>	<i>surud,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V ~</i>
<i>Ki bas be</i>	<i>vafodur</i>	<i>sipehri</i>	<i>kabud.</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V ~</i>

hamda

<i>Ki xoqon</i>	<i>g'a gar juz</i>	<i>jafo qil</i>	<i>madi,</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V —</i>
<i>Sikandar</i>	<i>g'a dog'i</i>	<i>vafo qil</i>	<i>madi.</i>
<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V — —</i>	<i>V —</i>

<sup>1</sup> Алишер Навоий: комусий лугат. II жилдлик. Биринчи жилд.— Т.: SHARQ, 2016. – Б. 479.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. *Saddi Iskandariy*. TAT. 10 jildlik. 8-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.150.

Aruz nazariyasiga ko'ra, ayrim so'zlarni vaznga muvofiqlashtirish uchun ularning tarkibidagi tovushlar o'mi almashtiriladi. Bu esa *tag'yir* hodisasi deyiladi va "o'zgartirish" degan ma'noni anglatadi. Yuqorida keltirilgan **Iskandar** nomiga e'tibor bering. Vazn talabiga ko'ra shu so'z **Sikandar** shaklida yozilgan, o'qilishi ham ana shunday talaffuz qilinadi. Bunda birinchi hijolardagi harflarning o'rni almashtirilgan. Baytda Iskandar so'zining Sikandar tarzida o'zgartirilgani ko'rinish turibdi. Agar **Iskandar** so'zi o'z holicha yozilsa fauvlun (V — —) asliy rukniga tushmaydi. Chunki **Is-** hijosi yopiq bo'g'in bilan ifodalangani uchun cho'ziq hijo hisoblanadi va bu so'zdagi hijolarning barchasi — — tarzida ifodalanadi. Natijada, hijolar shu holatda qo'llanilsa vazn buziladi. Vazn talabi bilan ayrim tarixiy shaxslar, afsonaviy qahramonlarning nomlari tanlangan vaznga muvofiqlashtirib yoziladi va o'qiladi. Umuman olganda, dostonda Iskandar so'zi misraning boshida kelganda "Skandar" tarzida qo'llaniladi. Chunki mutaqorib bahrining asliy rukni "fauvlun" shuni taqozo etadi. Dostondagi 7215 baytni shu nuqtayi nazardan o'rganib chiqqanimizda, undagi 149 misra "Skandar" so'zi bilan boshlanganligi ma'lum bo'ldi.

Epik poeziyada mutaqorib bahrining jangnomasi va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlarning she'riy o'Ichoviga aylanishiga yana bir sabab undagi urg'ular miqdori masalasidir. Aruzshunos E.Talabovning fikricha, aruz faqat kvantitativ (cho'ziq va qisqa bo'g'lnarning almashinib kelishiga asoslanadigan) emas, balki kvalitativ (urg'uga asoslanadigan) tizim hamdir va aruzdagi urg'u haqida so'z yuritganda, asosiy e'tibor faqat rukn urg'usiga qaratiladi<sup>1</sup>.

D.Yusupovning fikricha, aruzda bitilgan matnda so'z urg'usi (leksik urg'u) va rukn urg'usi orasida mutanosiblik yo'q, ya'ni so'z urg'usi matndan tashqaridagina yetakchilik qiladi, matn (bayt) tarkibida esa so'z urg'usi tushunchasining o'zi mayjud emas, chunki aruzda rukn urg'usi yetakchidir. Baytda necha rukn bo'lsa, shuncha urg'u bor. U.To'ychiyev aruz urg'uga asoslangan she'r sistemasi

<sup>1</sup> Талабов Э. Араб шеъриятida аруз тизими. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 25.

emas, unda qisqa bo'g'in ham urg'u olishi mumkin deb hisoblaydi va bunda asosiy e'tiborni so'z urg'usiga qaratadi<sup>1</sup>.

Fitrat esa urg'uli ochiq bo'g'in cho'ziq bo'ladi deb ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Bizningcha ham bu o'rinda u haqlidir. Shu jihatdan, epik poeziya o'chovlari orasida 8 ruknli mutaqorib bahri eng ko'p rukn urg'usiga ega bo'lgan vazn hisoblanadi va urg'ular o'rnining muayyan tartibga ega bo'lishi ohangning shiddatli chiqishini ta'minlaydi, bu holat esa mutaqoribning jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlari vazniga aylanishiga olib keldi<sup>3</sup>.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan olingan bir baytni rukn urg'usi asosida ko'rib chiqsak:

*Chu may-do'n/a-ro ki'r/ di gur-di'/ da-le'r,*

*Fauvlu'n/ fauvlu'n/fauvlu'n/ faa'l*

*A-ning-de'k/ ki aj-da'r/ ma-so-fi'/ g'a she'r.*

*Fauvlu'n/ fauvlu'n/fauvlu'n/ faa'l*

Endi aynan yuqoridagi baytni so'z urg'usi asosida ko'rib chiqamiz:

*Chu'maydo'n aro'kirdi'gurdi'dale'r,*

*Aningdekki'ajda'r masofig'a'she'r.*

Qiyoslang:

Rukn urg'usini olgan bo'g'inlar:

1-misrada: 3 6 9 11

2-misrada: 3 6 9 11

Leksik urg'uli bo'g'inlar:

1-misrada: 1 3 5 7 9 11

2-misrada: 4 6 10 11<sup>4</sup>

Yuqoridagi tahlillarga e'tibor berilsa, rukn urg'usi va so'z urg'usi asosida tahlil qilingan matnlarda farqlar seziladi. Chunki bunday matnlarda bo'g'inlar orasida o'zaro mutanosiblik yo'q va ular tartibsiz joylashgan. Adabiyotshunos olim E.Talabov aruziy matnda so'z urg'usi (leksik urg'u) bilan ritm urg'usi (prosodik

<sup>1</sup> Тўйчинев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – Б. 24.

<sup>2</sup> Фитрат А. Аруз хакида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 14.

<sup>3</sup> Юсупова Д. Жангнома достонларда шеърий ўлчов масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. – № 2. – Б. 58.

<sup>4</sup> Biz bu o'rinda arab aruzi misolida E.Talabov va o'zbek aruzi misolida D.Yusupova qo'llagan qiyoslash usulidan foydalandik. Qarang: Талабов Э. Араб шеъриятидаги аруз тизими. Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Т., 2004. – Б. 46; Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгуниги. Монография. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 29.

urg‘u) mutobiq emas – ularda moslik yo‘q ekanligini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Shu ma’noda aruziy matnda rukn urg‘usi yetakchi degan fikr o‘z tasdig‘ini topayapti. Aruziy matnda urg‘ular sonining tengligi va muayyan tartibga ega bo‘lishi esa o‘ziga xos ritmning vujudga kelishini ta’minlaydi.

Janr e’tibori bilan jangnoma xarakteriga ega bo‘lgan yana bir navbatdagi doston “Shayboniynoma”dir. Dostonda shayboniylar bilan temuriylar o‘rtasidagi sulolalar urushi tasvirlanadi. “Shayboniynoma” dostonining qo‘lyozma nusxalari juda oz bo‘lib, bizgacha uning 1510-yilda, shoir hayotligida ko‘chirilgan nusxalarning biri yetib kelgan. Bu nusxa Vena kutubxonasida saqlanadi. 1885-yilda sharqshunos olim Herman Vamberi shu nusxa asosida asarni nemischa tarjimasi bilan birga Venada nashr ettirgan. Keyinroq rus sharqshunos olimi P.M.Melioranskiy o’sha qo‘lyozmaning fotokopiyasi va Vamberi nashri asosida 1908-yilda Sank-Peterburgda asarni ikkinchi marta nashr ettirdi. E.Shodiyev P.M.Melioranskiy nashri asosida “Shayboniynoma” dostonini 1989-yilda nashr ettirdi<sup>2</sup>. Biz tadqiqotda mazkur nashrdan foydalandik.

“Shayboniynoma” Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari tipidagi qahramonlik dostonlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi: “Saddi Iskandariy”da tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar faoliyatini tasvirlash vazifasi qo‘yilmaydi. “Shayboniynoma”da esa, shoirning tutgan pozitsiyasidan qat’iy nazar, tarixiy voqeа va tarixiy shaxslar tasvirlanadi. Binobarin, “Shayboniynoma” o‘zbek adabiyoti tarixida jangnomaning yangi turidir<sup>3</sup>. Muhammad Solih jangnoma xarakteridagi dostonini an’anaviy mutaqorib bahri vaznlarida yozmadи. Aksincha, Alisher Navoiy “turkiy” deb atagan ramal bahri vaznlarida yaratdi. Bu bilan adib jangnoma mavzusidagi dostonlarga ramal bahrini olib kirdi.

Anvar Hojiahmedov “O‘zbek aruzi lug‘ati” kitobida ramal bahriga mansub ko‘pvaznli olti ruknli she’riy asarlarni yozishda,

<sup>1</sup> Талабов Э. Араб шеъриятида аруз тизими. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 2004. – Б. 25.

<sup>2</sup> Qarang: Мухаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 336 б.

<sup>3</sup> Шодиев Э. Мухаммад Солих / Мухаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 6.

asosan, *solimi maxbun* va *maxbun* shahobchalaridagi 8 vazndan foydalanilganini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Solimi maxbun shahobchasi to'rt vaznni o'z ichiga oladi:

1. Ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf.
2. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur.
3. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'.
4. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag'.

Mazkur to'rt vaznning har biri dastlabki ruknda *foilotun* asli (*solim*) bilan boshlanib, o'tradagi ruknlar ushbu aslning *maxbun tarmog'i* – *failotun*(V V — —)ga, oxirgi ruknlar esa *maxbuni mahzuf* (failun V V —), *maxbuni maqsur* (failon V V ~), *maqtu'* (fa'lun — —) yoki *maqtu'i musabbag'* (fa'lun — ~) tarmoqlarining biriga teng bo'ladi. Demak, *solimi maxbun* shahobchasi u shahobchasi vaznlarning oldingi ikki rukni bir xil bo'lib, aruz va zarbdagina biroz farqlanadi.

Keyingi shahobcha *maxbun* bo'lib, *solimi maxbun* shahobchasi kabi to'rt vaznni o'z ichiga oladi. Lekin ular *solimi maxbun* shahobchasi vaznlardan biroz farq qiladi. Maxbun shahobchasi o'ichovlarining sadr va ibtidosi *foilotun* asliga emas, uning maxbun tarmog'i – *failotunga* teng bo'ladi. Shu xususiyati bilangina yuqoridagi *solimi maxbun* shahobchasi o'ichovlaridan farqlanadi. Qolgan ikki rukn ular bilan bir xildir. Bu to'rt vazn:

1. Ramali musaddasi maxbuni mahzuf.
2. Ramali musaddasi maxbuni maqsur.
3. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'.
4. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'.

Tarkibi jihatidan o'zaro yaqin bo'lган mazkur vaznlar bir she'riy asarning o'zida birgalikda qo'llanaveradi. Aruzshunos D.Yusupova esa mazkur holatni ritmik variatsiya deb, ritmik muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Ritmik variatsiyalar bir vaznning ichki imkoniyatlari asosida yangi variantlarga ega bo'lishidir. Qolaversa, *ramali musaddasi maxbuni mahzuf* (*maqsur*) vaznining "birinchi rukni ba'zan, *failotun* tarzida ham kelishi mumkin, ya'ni birinchi misra *foilotun* bilan boshlansa, keyingi misra *failotun* bilan boshlanadi

<sup>1</sup> Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Ҳожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 6.

(yoki aksincha) va bu holat ramal bahrining maxbun tarmog‘idagi barcha vaznlarga tegishli ekanligini aytadi<sup>1</sup>. Shu sababli dostonda ushbu vaznlar bir-biri bilan o‘rin almashinib qo‘llanaverган. “Shayboniynoma” dostoni an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Dostonning ilk baytlari

*Hamd angokim, tilim etti go ‘yo,  
Hamd angokim, ko ‘zim etti bino<sup>2</sup>*

singari *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu*’ o‘lchovida istifoda etiladi. Uning ruknlari va chizmasi har misrada

**foilotun/ failotun/ fa’lun**  
— V — — / V V — — / — —

tarzida ifodalanadi. Vaznning asosini *foilotun* aslining solimi (birinchi ruknlarda), maxbun tarmog‘i – *failotun* (ikkinchi ruknlarda) va maxbuni maqtu’ tarmog‘i – *fa’lun* (uchinchi ruknlarda) tashkil etadi. Adib baytda “vazn jihatidan tengdoshlik” ma’nosini anglatuvchi muvozana she’riy san’atidan ham mohirlik bilan foydalangan. Xususan, baytda birinchi misradagi *tilim* so‘zining ikkinchi misradan o‘rin olgan *ko‘zim* so‘zi bilan vazn va ohangda tengligi talaffuzda yaqqol seziladi. Baytda vazn talabi bilan vasl hodisasi ham istifoda etilgan.

“Shayboniynoma” dostonida yuqoridagi vazndan misralardagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag’* (ruknlari va taqtisi: foilotun failotun fa’lon — V — — / V V — — / — ~) o‘lchovi ham uchraydi. Adib dostonda ishq jonini shod, xushvaqt aylagani hamda hayotini shod, vaqtini chog‘ qilganligini quyidagi baytlarda vazn imkoniyati bilan birgalikda muvozana san’atidan mahorat bilan foydalanib bitadi:

*Ishqdin ay/ladi jonim/ni shod,  
— V — — / V V — — / — ~  
Ishqdin qil/di ravonim/ni shod.*  
— V — — / V V — — / — ~

(“Shayboniynoma”, 11)

<sup>1</sup> Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – B. 29.

<sup>2</sup> Мухаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. – Т.: Faafur Fulom nomiidaғи Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 11. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

Keltirilgan baytda sadr va ibtidoda *foilotun* aslining *solimi*, hashvlarda *maxbun* tarmog'i, aruz hamda zarbda *maqtu'i* *musabbag*'dan foydalanilgan. Dostonda hikmatomuz baytlar ham beriladi.

*Har kim o'z hafsalasig'a yarasha,*  
*Har kim o'z silsilasig'a yarasha.*

*Topti aning karamidin in'om,*  
*Chu yamon-yaxshi, chu xosu chi avom.*

("Shayboniynoma", 12)

Bayt mazmunida har kim o'z iqtidori, imkoniyati va tabaqasiga yarasha bo'lishi, shunda Uning marhamatidan yaxshi-yomon ham, xos bandalar ham, oddiy xalq ham in'om topishi aytildi.

Keltirilgan dastlabki baytda *ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqt'i): foilotun failotun — V — — / V V — — / V V —) vaznini qo'llash orqali ostinma-ustun turgan so'zlarning hammasi o'zaro teng, ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lishiga erishilgan. Bundan ushbu bayt tarse' san'atiga asos bo'lganini ko'rish mumkin. Yuqoridagi ikkinchi baytning taqt'i ini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

*Topti aning/ karamidin/ in'om,*  
— V — — / V V — — / — ~  
*Chi yamon-yaxshi, chi xosu/ chi avom.*  
— V — — / V V — — / V V ~

Ko'rindiki, bayt ikki vaznda yaratilgan. Dastlabki misra yuqoridagi bayt singari *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag*'da, ikkinchi misrasi esa *ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur* (ruknlari va taqt'i): foilotun failotun failon — V — — / V V — — / VV ~) vaznida bitilgan. Bu esa *solimi maxbun* tarmog'idagi vaznlar bir bayt tarkibida o'rin almashib kelishi mumkinligini yana bir bor tasdiqlaydi. Baytda qarama-qarshi tushunchalardan foydalanib tazod san'atini, mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardan tanosubni hosil qilgan.

Dostonning IV bobidan boshlab Shayboniyxon madhi keladi.  
Madh

*Sababi iz/zati odam/ so 'zdir,  
 V V — — / V V — — / — —  
 Hosilu bo/qiyi olam/ so 'zdir.  
 V V — — / V V — — / — —*

singari misralar bilan boshlanadi. Baytning taqtisiini ko'rib chiqadigan bo'lsak, keltirilgan bayt ramal bahrining *ramali musaddasi maxbuni maqtu'* vaznida yozilgan. Unda ushbu vazndan foydalanish orqali odamning izzati, olamning boqiyligi natijasi ham so'z ekanligi ta'kidlanadi. Baytning vazni asosini foilotun aslining maxbun tarmog'i *failotun* (birinchi, ikkinchi ruknlarda) hamda maqtu' tarmog'i *fa'lundan* (uchinchi ruknlarda) tashkil etadi. Bayt *failotun failotun fa'lun* tarzida ifodalangan. Shuningdek, bayt uchun tanlangan "so'zdir" radifi ayni paytda uning vaznnini tanlashiga ham zamin hozirlagan. Zero, "so'zdir" radifi ramal bahrining *fa'lun* tarmog'iga mos keladi.

XIV bob "Hunarlarining vasfi" deb nomlanib, unda

*Zire-h+ishlar/da erur ul/ Dovud,  
 V V — — / V V — — / — ~  
 Ruhi Dovu/dni aylar/ xushnud ("Shayboniynoma", 31)  
 V V — — / V V — — / — ~*

kabi *ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznida yozilgan bayt keladi. Baytda u urush kiyimida xuddi Dovud (a.s.) singari bo'lishi, hazratning ruhlari uni qo'llashi aytildi. Diqqat qilinsa, baytdagi oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi (*Dovud, xushnud*) ma'lum bo'ladi. Chunki *Dovud, xushnud* so'zlari tarkibidagi "u" cho'ziq unlisi o'ta cho'ziq hijoni keltirib chiqargan. Talaffuzda hijolarning qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi vaznga muvofiq o'qilishida ko'rindi.

"Shayboniynoma" dostonidan olingan keyingi baytlar *ramali musaddasi maxbuni mahzuf* hamda *ramali musaddasi maxbuni maqsur* o'Ichovlarida bitilgan. Baytlarning taqtisi quyidagichadir:

<i>Ne ajab, xon</i>	<i>ni Sulaymon</i>	<i>degonim,</i>
<i>V V — —</i>	<i>V V — —</i>	<i>V V —</i>
<i>Bori olam</i>	<i>g'a ani xon</i>	<i>degonim.</i>
<i>V V — —</i>	<i>V V — —</i>	<i>V V —</i>

hamda

<i>Kim aning huk</i>	<i>midadur vah</i>	<i>sh+ila tayr,</i>
<i>V V --</i>	<i>V V --</i>	<i>V V ~</i>
<i>Ham aning il</i>	<i>kidadur shar'</i>	<i>bila xayr</i>
<i>V V --</i>	<i>V V --</i>	<i>V V ~</i>

E'tibor berilsa, baytlarda *ramali musaddasi maxbuni mahzuf*, *ramali musaddasi maxbuni maqsur* o'lchovlarining o'zaro almashinuvini ko'ramiz. Har ikkala vaznning uchinchi ruknidagi furu' (o'zgartirilgan rukn) bir-biridan farq qilgan. Bu esa shoirga so'z tanlash, ohang o'zgarishlaridan muayyan g'oyani ta'kidlash imkonini beradi.

Sharq mumtoz adabiyotida ramal bahriga mansub ko'pvaznli olti ruknli she'riy asarlarni yozishda, asosan, yuqoridagi sakkiz vazndan unumli foydalanilgan. Adabiyotshunoslikda Muhammad Solihning mazkur guruh vaznlari imkoniyatlarini yanada kengaytirishda o'mni katta. Chunki u o'zining "Shayboniynoma" dostonini bitishda asardagi anchagina misralarda *solimi musha'as*, *maxbuni musha'as*, *musha'asi maxbun* shahobchalariga mansub yana o'n bir vazndan ham foydalangan.

Foilotun aslining *tash'is* zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo'lgan *maf'uvlun* tarmoq ruknining nomi *musha'as* bo'lib, "sochilgan" degan ma'noni ifodalaydi. Ushbu tarmoq rukn ramal bahrining olti ruknli vaznlari tarkibida ishtirok etadi. Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balogs'a"da *tash'is* – foilotunni *tash'is* qilsoq, "fo o tun" qolur – deydi<sup>1</sup>. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da "Tash'is" – fo'ilotun vatadining ikki mutaharrikidin birining isqotidur, to fo'itun qolg'ay, yo fo'lotun qolg'ay, har taqdir bila *maf'uvlun* aning o'mig'a qo'yarlar, – deb ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Zahiriiddin Bobur ham "Tash'is, vatadi maj'mudin bir mutaharrik harfni hazf qilmog'lig'dur, nechukkim, fo'ilotun-fo'otun yo, folotun bo'lg'ay, *maf'uvlung'a* badl qilurlar va muni *musha'as* derlar", – deb ustozlari izidan boradi<sup>3</sup>.

Ko'rib o'tilgan *solimi maxbun* va *maxbun* shahobchalaridan *solimi musha'as* va *maxbuni musha'as* shahobchalari ikkinchi

<sup>1</sup> Шайх Ахмад ибн Худойодд Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов. – Т.: Казина, 1996. – Б. 154.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. 20 томлик. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – Б. 537.

<sup>3</sup> Бобур Захирииддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасанов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 19.

ruknlar o‘rnida foilotun aslining maxbun tarmog‘i – failotun emas, shu aslning musha’as tarmog‘i – maf’uvlun qo‘llanishi bilangina farqlanadi. Natijada, yangi sakkiz vazn yuzaga keladi. *Musha’asi maxbun* shahobchasi esa to‘rt vaznni o‘z ichiga oladi. Ushbu shahobcha vaznlarining dastlabki ruknida foilotun aslining maxbun tarmog‘i – failotun o‘rniga musha’as tarmog‘i – maf’uvlun tarmoq rukni kelishi bilan maxbun shahobchasidan farqlanadi.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonidagi ba’zi misralargina *ramali musaddasi solimi musha’asi maxbuni mahzuf* vaznida yaratilgan. Masalan, dostondagi:

*Yetkurub erdi qo‘rg‘onga o‘zin,  
Andog‘i mahkam qo‘rg‘ong‘a so‘zin.*

*...Ul nabira o‘n ikki yoshida,  
Lek yuz fitna oning boshida.*

*...Shoh Abulmuhsin g‘ofilg‘a magar,*

*Yiborib erdilar ul xayl xabar* (“Shayboniynoma”, 336)

singari baytlarning belgilangan misralarigina yuqoridagi vazn bilan ifodalangan. *Ramali musaddasi solimi musha’asi maxbuni mahzuf* vaznining asosini birinchi ruknlarda foilotun aslining solimi, ikkinchi ruknlarda shu aslning musha’as tarmog‘i – maf’uvlun, oxirgi ruknlari esa mazkur aslning maxbuni mahzuf tarmog‘i – failun tashkil etadi. Mazkur o‘lchov she’riyatimizda deyarli qo‘llanilmagan.

“Shayboniynoma” dostonining ayrim misralari *ramali musaddasi solimi musha’asi maxbuni maqsur* vazniga xos. Masalan, quyidagi baytlarning birinchi ruknlari foilotun aslining solimiga, ikkinchi ruknlari shu aslning musha’as tarmog‘i – maf’uvlunga, oxirgi ruknlari esa mazkur aslning maxbuni maqsur tarmog‘i – failonga teng bo‘ladi. Masalan:

*Bosturub kel/ga-n+uluslar/ bisyor,  
— V — — / V V — — / — ~*

*Yig‘lag‘ondur/lar xon ho/lig‘a zor.* (“Shayboniynoma”, 336)  
*— V — — / — — — / V V ~*

Keltirilgan baytlar tahvilida belgilangan misralargina *ramali musaddasi solimi musha’asi maxbuni maqsur* vaznida yozilganligi

oydinlashadi. Oxirgi hijoning o'ta cho'ziq (~)ligi uni yuqoridagi vazndan farqlashga asos bo'ladi.

Dostonda *ramali musaddasi solimi musha'asi maxbuni maqtu'* o'Ichovida bitilgan baytlar ham uchraydi. Garchi ushbu vazn ham she'riyatimizda faol bo'lmasa-da, "Shaybonynoma" dostonida anchaginani tashkil etadi. Ramali musaddasi solimi musha'asi maqtu' vazning ruknlari va chizmasi har misrada

**Foilotun/ maf'uvlun/ fa'lun**

— V — / — — / — —

singari bo'lib, sadr va ibtidoda *foilotun* asliga, hashvlarda foilotun aslining musha'as tarmog'i – *maf'uvlunga*, aruz va zarblarda esa shu aslining maqtu' tarmog'i – *fa'lunga* tengdir. Chunonchi, dostonidagi

*Oqibat qildi bu yanglig' borin,*

*Ayladi qudrat qahr izhorin.* ("Shaybonynoma", 123)

*...Sen kirib olg'oli Turkistonni,*

*Men ayomadim sendin jonni.* ("Shaybonynoma", 135)

*...Xokrez uzra minib turg'onda,*

*Pahlavonlikdin dam urg'onda.* ("Shaybonynoma", 296)

*... "Kim aning naqbig'a o 'tru biz ham,*

*Qozoli jarlar asru mahkam* ("Shaybonynoma", 297)

kabi baytlarning ikkinchi misralari ushbu vaznda yaratilgan.

Oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilangina yuqoridagidan farqlanuvchi *ramali musaddasi solimi musha'asi maqtu'i musabbag'* (ruknlari va taqtisi: foilotun *maf'uvlun fa'lun* — V — / — — — / — ~) vaznida "Shaybonynoma" dostonidagi ba'zi misralargina yaratilgan. Masalan,

*So'zları bu/ki, yurub Xus/ravshoh,*

— V — / V V — — / — ~

*Kelsu-n+o'zbak/ni qilmay/ ogoh* ("Shaybonynoma", 299)

— V — — / — — — / — ~

baytining ikkinchi misrasi,

*Chun viloyat/g'a kirdi/ Sulton,*

— V — — / — — — / — ~

*Qildi yorlig'/ki chu yaxshi,/ chu yamon* (“Shayboniynoma”, 12)

— V — — / V V — — / V V ~

baytining birinchi misrasi shu vazndadir.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonida ramal bahrining *maxbuni musha'as* shahobchasi vaznlari ham istifoda etilgan. Shoir bu vaznning imkonini yanada kengaytirdi: hashvda keladigan maxbun (failotun V V — —)ni o'mida uning birinchi va ikkinchi qisqa hijolarini bir cho'ziq hijoga almashtirib, *musha'as* (maf'uvlun — — —) tarmog‘ini ham qo'lladi<sup>1</sup>. Xususan,

*Ki-m+edi Bo/qi Tarxon,/ bilingiz,*

— V — — / — — — / V V —

*Bilibon qis/sa boshig'a/ kelingiz.* (“Shayboniynoma”, 40)

V V — — / V V — — / V V —

Yoki:

*Cherikin yig'/sun, fursat/ berali,*

— V — — / — — — / V V —

*Ul yig'indin/ so '-ng+olarni/ terali* (“Shayboniynoma”, 124)

V V — — / V V — — / V V —

baytlarining birinchi misralari *ramali musaddasi maxbuni musha'asi mahzuf* vaznida yozilgan. Ushbu vazn foilotun (— V — —) aslining maxbun tarmog‘i *failotun* (V V — —), shu aslning *musha'as* tarmog‘i — *maf'uvlun* (— — —), uning maxbuni *mahzuf* tarmog‘i *failun* (V — —)ning ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. Umuman, keltirilgan baytlar uchun tanlangan *bilingiz*, *kelingiz*, *berali*, *terali* kabi qofiyadosh so'zlar bir vaqtning o'zida uning vazni tanlanishiga ham sabab bo'lган, ya'ni ushbu so'zlar *failun* (V V —) taqtisiiga mos keladi. Boshqacha aytganda, uning *maxbuni musha'asi* shahobchasi vaznlarida yozilishini taqozo etadi.

“Shayboniynoma” dostonida qo'llanilgan keyingi vazn *ramali musaddasi maxbuni musha'asi maqtu'* hisoblanadi. Bu vazn ham she'riyatimizda deyarli qo'llanilmagan.

*Maza topmas/ erdim bu/ jondin*

V V — — / — — — — / — —

*Lazzate qil/ma-s+edim i/mondin.*

V V — — / V V — — / — —

<sup>1</sup> Zohidova D. Aruz saboqlari. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2016. – B. 56.

Yoki:

*Se-n+agar vah/m(ye) qilursen/ xondin,*

*V V — — / V V — — / — —*

*Kecha olmas/sen bu o'g'/london.* (“Shayboniynoma”, 104)

*V V — — / — — — / — —*

Baytlardagi belgilangan misralarga e'tibor berilsa, vazn asosi *foilotun* aslining maxbun tarmog'i (birinchi), musha'as tarmog'i (ikkinchi) hamda maqtu' tarmog'i (uchinchi)dan iboratligi oydinlashadi. Shuning uchun belgilangan misralar *failotun maf'uvlun fa'lun* tarzida ifodalanadi. Baytlarda vazn talabi bilan vasl hodisasi ham uchraydi.

Dostonda yuqoridagi vazndan misralardagi hijolarning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanuvchi *ramali musaddasi maxbuni musha'asi maqtu'i musabbag'* (ruknlari va taqt'i: failotun maf'uvlun fa'lun V

*V — — / — — — / — ~) ham uchraydi. Chunonchi:*

*Zoye etmosbiz oni biz hargiz,*

*Ani qo'ymos/biz hargiz/ ojiz*

(“Shayboniynoma”, 186)

*V V — — / — — — / — ~*

baytining ikkinchi misrasi,

*Shohi nuroniy Sulton Mahmud,*

*Yusufi soniy Sulton Mahmud* (“Shayboniynoma”, 253)

baytining esa har ikkala misrasi ushbu vazn ohangida yaratilgan. Baytning so'nggi aruz va zarbida qo'llanilgan **hargiz, ojiz, Mahmud** so'zлari uning maqtu'i musabbag' tarmog'ida yozilishini taqozo qilgan.

“Shayboniynoma” dostonida sadr va ibtidoda keladigan foilotun aslining maxbun tarmog'ini uning musha'as tarmog'i bilan o'rmini almashtirib qo'llash holatlari ham uchraydi. Mazkur holat ramal bahrining *musha'asi maxbun shahobchasi* vaznlariga xosdir. *Musha'asi maxbun shahobchasing* dastlabki o'Ichovi *ramali musaddasi musha'asi maqtu'* hisoblanib, ruknlari va taqt'i: bir misrada

**maf'uvlun failotun fa'lun**

*— — — / V V — — / — —*

kabidir. Jumladan,

*Shafqat birla mani shod etdi,*

*Qayg'udin bandani ozod etdi.*

(“Shayboniynoma”, 229)

*Yaxshiliq bo 'lg 'usidir sizlarga,*

*Davr evrulg 'usidir sizlarga* (“Shayboniynoma”, 254)

baytharining belgilangan misralari *ramali musaddasi musha'asi maqtu*'da yozilgan. “Shayboniynoma” dostonida oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilangina yuqoridagidan farqlanuvchi *ramali musaddasi musha'asi maqtu'i musabbag'* (ruknlari va taqtisi: maf'uvlun failotun fa'lom — — — /V V — — — / ~) vaznida ham bir necha misralar yaratilgan. Masalan,

<i>Boysung'ur</i>	<i>bila Sulton</i>	<i>Ma'sud,</i>
— — —	<i>V V — —</i>	— ~
<i>Chiqorib er</i>	<i>dilar ul el</i>	<i>din dud</i>
<i>V V — —</i>	<i>V V — —</i>	— ~

baytining birinchi misrasi shu o'Ichovdadadir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Muhammad Solih dostonni yozishda yana *ramali musaddasi musha'asi maxbuni mahzuf* va *ramali musaddasi musha'asi maxbuni maqsur* vaznlaridan ham foydalangan.

*Xon taqi ko 'rgach aning kelishin,*

*Solib Tengri taolog'a ishin.* (“Shayboniynoma”, 219)

*Qirdilar Hamza degonni behad,*

*Tomlor qolg'onig'a qildi madad.* (“Shayboniynoma”, 229)

*Bor Sultonali Mirzog'a bu tavr,*

*Bot o 'tar bo 'lg 'oy oning joniga javr.* (“Shayboniynoma”, 172)

Yuqoridagi 4 vazn tarkibida foilotunning maxbun tarmogi failotun o'rniда shu aslning musha'as tarmog'i – maf'uvlunning qo'llanishi aruz tizimiga xos bir qoida hisoblanadi. Chunki bu holat *sababi saqil* (V V)ning *sababi xafif* (—) bilan, boshqacha qilib aytganda, ikki qisqa hijoning bir cho'ziq hijo bilan almashtirilishi mumkinligi tufayli sodir bo'ladi. Lekin aruzshunoslikdagi bu kabi holatlarda uning ichki qonunlarining buzilishi ro'y bermaydi.

O'zbek aruzshunosligida dastlab Abdurauf Fitrat ritmik variatsiya masalasiga e'tibor qaratgan. Lekin Fitrat “Aruz haqida”gi risolasida ritmik variatsiya atamasini qo'llamaydi. Faqat u *ramali musaddasi maxbuni mahzuf*, *xafifi maxbuni maqtu'* vaznlari ichidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Xususan, *ramali musaddasi*

18.	Ramali musaddasi musha'asi maxbuni maqtu'	Maf'uvlun failotun fa'lun — — V V — — —
19.	Ramali musaddasi musha'asi maxbuni maqtu'i musabbag'	Maf'uvlun failotun fa'lon — — V V — — — ~

Darhaqiqat, *ramali musaddasi maxbuni mahzuf* yoqimli ohangga ega, yengil kuylargalni nihoyatda mos. Ushbu vaznda birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlardagi qisqa hijo, o'rni kelganda, cho'ziq hijolarga (2–3 ta) aylanishi mumkin. Bunda bitta qisqa hijo shunday hijo bilan birikib, bitta cho'ziq hijoni hosil qiladi. Ya'ni:

"V" + "V" = "—";	V+V — — = — — —
------------------	-----------------

yoki:

"V" + "V" = "—";	V+V — = — —
------------------	-------------

singari ko'rinishga ega bo'ladi. Taqtida esa quyidagi holat vujudga keladi:

V V — — / V V — — / V V — /
V V — — / — — — / — —

Bu holat tasodifiy bo'lmasdan, bevosita doston mazmuni bilan bog'liq. Shoir o'zining Shayboniyxon bilan ilk uchrashuvini ramal bahrining maxbun tarmog'i vaznlarining imkoniyatlaridan foydalanib, shunday tasvirlaydi:

*Men yetishkanda o'shal xon qotig'a,* (1)  
*Boshni qo'yganda aning xizmatig'a.* (1)

*Solib erdi urush ul qo'rg'ong'a,* (3)  
*Solibon valvalalar davrong'a.* (3)

*Asru g'avg'o qabog'i erdi,* (3)  
*Hay hayu arbada choqi erdi.* (3)

*O'lturub erdi o'zi farig'bol,* (4)  
*Hay hayu arbada birla xushhol.* (4)

<i>Egnida bir zirhi dovudi,</i>	(11)
<i>Zirehiga yarasha ham xudi.</i>	(7)
<i>Sadog'i belida, yoyi qo'lida,</i>	(5)
<i>Beklari o'ngida ham so'lida.</i>	(1)
<i>Bir yonida base aylab javlon,</i>	(4)
<i>O'lturib erdi arachin devon.</i>	(4) <sup>1</sup>

Ko'rinaridiki, shoir dostonda bir nechta vaznlarni bir o'rinda qo'llab, o'z fikrlarini bayon etadi. Ushbu holat asarda faqat ohangning turli-tuman bo'lishini emas, balki ijodkorga kerakli so'zlardan foydalanish imkoniyatini ham beradi. Muhammad Solih asar mazmunida Shayboniyning "elga inoyatlar qiluvchi", "Mahdiyi zamon" singari tavsiflarini keltirar ekan, uning taxtga chiqishini tabiiy holat sifatida qabul qiladi.

<i>Ul kishi bordur Shayboniyxon,</i>	(12)
<i>Xoki Shaybonduru Mahdiyi zamon.</i>	(2)

<i>Holi oning yeri Turkistondur,</i>	(3)
<i>O'zbek eliga muazzam xondur,</i>	(3)

Undan keyin XVI bobda Shayboniyga yaqin bo'lgan Mulla Abdurahimning ta'rifi keltiriladi. Asar syujeti davomida Shayboniyning Samarqanddan Xorazmgacha bo'lgan 6 yillik urushlarini o'z tartibi bilan yozib boradi. Xususan, Qarshining qamal qilinishi va bosib olinishi tasvirini ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag' (4), ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu' (3), ramali musaddasi musha'asi maxbuni maqtu' (18), ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag' (8), ramali musaddasi maxbuni maqtu' (7), ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf (1) kabi o'lchovlarning ohangidan foydalanib istifoda etadi:

<i>Tashqari elg'a umidi jovid,</i>	(4)
<i>Ichkari el bori jondin novmid.</i>	(4)

<i>Tashqari elga g'animat tushti,</i>	(3)
<i>Ichkari elga o'lat yopishdi.</i>	(3)

<i>Goh uch yuz kishi o'ldi bir kun.</i>	(18)
<i>Goh o'n kent eli bo'ldi bir kun.</i>	(18)

<sup>1</sup> Qavs ichidagi raqamlar jadvalda keltirilgan ritmik variatsiyalar tartibini bildiradi.

<i>Bo'ldi andoq o'latikim davron,</i>	(3)
<i>Ul o'latni ko'rub o'ldi hayron.</i>	(8)
<i>Iki oykim qabal erdi anda,</i>	(7)
<i>Oz kishi qoldi o'shul qo'rg'onda.</i>	(3)
<i>Qolg'oni ham bori bemor edilar,</i>	(1)
<i>G'ussayu ham qo'lida zor edilar.</i>	(1)
<i>Sayyidi bor edi ul qo'rg'on aro,</i>	(1)
<i>Dedi: "Ul qal'a aro hukmi xudo</i>	(1)
<i>Bir o'ttiz ming kishini o'lturdi,</i>	(3)
<i>Toki bu yerdin o'shul xon turdi.</i>	(1)
<i>Hech kim ko'rmadi bu tavri o'lat,</i>	(1)
<i>Keldi ul qal'ag'a bir davri o'lat"</i>	(1)

Shu tariqa Muhammad Solih doston vaznlarining sonini 19 taga yetkazdi<sup>1</sup>. Dostonda ushbu 19 xil vaznning almashinib qo'llanishi ohangni voqealar tasvirida tez-tez o'zgartirib turish, zarur o'rnlarda kerakli so'zlarni erkin tanlash, asar jozibadorligini kuchaytirishga imkoniyat yaratganini ko'rish qiyin emas.

Shuningdek, Abdurauf Fitrat o'zining "Muhammad Solih" maqolasida "Shaybonynoma" va "Saddi Iskandariy" asarlarini qiyoslar ekan, "asar uchun qabul qilingan vazn "ramali musaddasi maxbun" urushg'a oid mavzularg'a munosib ohangdan mahrumdir. Otlarning chopishida, qilichlarning shaqillashida, botirlarning qichqirishida bo'lg'an haybatli ohangni bu vaznda sig'dirmoq mumkin emas. Aruz "jangnoma" larga maxsus ishlang'an tayyor vazn "mutaqoribi musammani maqsur" vaznidir... Navoiyning "Iskandarnoma"sida bu vazn urush maydonlarig'a munosib bir ohang beradir" kabi fikrlarni bildiradi<sup>2</sup>. Albatta, Abdurauf Fitratning ushbu qiyoslamasi yuqorida aytilgan fikrlarga ko'ra asoslidir. Darhaqiqat, ushbu fikrlarda ilmiy dalil borligini kuzatamiz.

<sup>1</sup> A.Hojjahmedov "O'zbek aruzi lug'ati"da "Shaybonynoma" dostonida qo'llanilgan vaznlari miqdorini 17 ta deb ko'rsatadi.

<sup>2</sup> Фитрат А. Мұхаммад Солих / Танланған асарлар. II жылд. – Т.: МАҢНАВИЯТ, 2000. – 6.

Biz Muhammad Solihning mazkur dostoni haqida Fitratning aytgan fikrlarini muhim deb topganimiz holda, qo'shimcha sifatida aytmoqchimizki, shoir dostonni yozar ekan, uning mazmunidan ham, yashagan davr muhitidan ham kelib chiqadi. Tom ma'noda Muhammad Solihni temuriylarga nisbatan adovatda bo'lgan deyish mumkin. Chunki tarixiy sharoitdan yaxshi ma'lumki, uning otasi – Nursaidbekni temuriylar davrida qatl qilishgan edi. Shundan keyin u temuriylardan chiqib ketib, Shayboniyxon xizmatiga o'tadi. Tabiiyki, temuriylar uchun xos bo'lgan xamsanavislik an'anasidan alohida bir an'ana asosida o'zining dostonini yaratish ekan, u vazn tanlashda ham shunga e'tibor qaratadi. Ya'ni, u xamsanavislikda mavjud bo'limgan, temuriylarda asosiy she'riy o'Ichov sifatida olinmagan. Vazn – *ramali musaddasi maxbuni mahzufni* o'z dostoni uchun asos qilib oldi. Shu yo'l bilan u temuriylarga qarshi o'zining munosabatini ko'rsatib bermoqchi bo'ldi va o'zbek adabiyotida yangi bir yo'nalishni "Jangnoma" tipidagi dostonlarni boshqa vaznda ham yozishni boshlab berdi.

Uvaysiy dostonlari orasida Muhammadalixonaga bag'ishlab yozilgan tarixiy doston mavjud<sup>1</sup>. Ushbu doston Sharqshunoslik institutida 1837-inventar raqami ostida saqlanadi<sup>2</sup>. Doston an'anaviy hamd, na't, Muhammadalixon madhi, dostonning yaratilish sababi, Koshg'arga g'azot qilish voqeasidan iborat. Dostonda boblar ketma-ket alohida ajratilmaydi. Shuningdek, dostonning voqealar rivoji yakuniga yetmagan. Buning sababini adabiyotshunos V.Abdullayev quyidagi fikrlari bilan izohlaydi:

1.Doston Koshg'arda "g'azot" boshlangan kunlarda, Nodiraxonimning Marg'ilonda o'g'lini kutib turgan paytlaridayoq yozila boshlangan.

2.Ehtimol, Muhammadalixon lashkari Koshg'arga borib yetmay, "g'azot" voqeasi tugab, ular undan ko'ra xafvliroq biror voqeа tufayli Qo'qonga qaytishga majbur bo'lgan bo'lislari mumkin. Balki, xuddi shu vaqtarda amir Nasrulloning Qo'qonga

<sup>1</sup> Иброхимова Э. Увайсий достонлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 1960. – №6. – Б. 38–44; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи нашри. – Т.: ЎКИТУВЧИ. 1967; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 4-том. – Т.: Фан, 1978; Вохидов Ш. Кўкон хонлигига тарихнавислик. – Т.: Akademnashr, 2010; Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурниң янгиланиши. – Т.: Muhamarr, 2020.

<sup>2</sup> Вохидов Ш. Кўкон хонлигига тарихнавислик. – Т.: Akademnashr. 2010. – Б. 155.

va Suhrob” dostoni nazira va ijodiy tarjimani o‘zida jamlagan asar ekanligini aytadi<sup>1</sup>. Shoир uchun umrining so‘nggi yillari ham sermahsul, ham alamli kechadi. Chunki u o‘zining ikki navqiron o‘g‘lidan ayrıldi. Bu haqda shoир dostonda shunday ma’lumot beradi:

*Bor edi menda iki jigarband,  
Kulbamni charog‘i farzand...*

*O‘ttiz bila uch yashar birisi,  
Uch birla yigirma yosh inisi.*

*Chun to ‘ldi zamoni umr alarga,  
Motam qo ‘ya ketdi do ‘stlarga...*

*G‘am ichra qolib judolig ‘ida,  
Tun-kun iki ko ‘zlarim yig ‘ida<sup>2</sup> ...*

Jigarbandlari dog‘ida kuygan holatini badiiy tarzda tasvir etish uchun Miriy Firdavsiyning “Shohnoma”sidagi “Rustam va Suhrob” dostonini tanlab oladi. O‘z farzandi Suhrobn ni tanimay ko‘ksiga xanjar urgan padar to‘g‘risidagi bu mahzun hikoya shoирning kayfiyatiga mos kelar edi. Lekin Miriy nimagadir o‘zbek tilidagi “Rustam va Suhrob” dostoni uchun “Shohnoma” vaznini tanlamaydi. Aksincha, hazin ohanglar uchun xos bo‘lgan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznini asos qilib oladi:

*Bu qissa/ki mahzi dar/du g‘amdur,*

— — V/V — V — / V — —

*Gar Rusta/m+erur, qadi/da hamdur.*

— — V/ V — V — / V — —

*Fikr etti/m+o ‘zum- o ‘zum/ga monand,*

— — V/ V — V — / V — ~

*Rustam g‘a/midur g‘amim/ga payvand.*

— — V/ V — V — / V — ~

Keltirilgan parchada shoир uchun bu qissaning mazmuni dard-u g‘am, fikrlashi ham o‘z-o‘ziga monand, Rustamning g‘ami uning

<sup>1</sup> Холикулова Г. “Рустам ва Суҳроб” бадиияти. – Т.: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 41

<sup>2</sup> Miriyning “Rustam va Suhrob” dostonidan namuna sisatida keltirilgan mazkur parchalar V.Abdullayev, B.Valixo‘jayevlarning 1977-yilda nashr etilgan “Miriyl va uning zamondoslarini” kitobidan olindi. Qarang: Абдуллаев В., Валихужаев Б. Мирий ва унинг замондошлари. – Т.: Фан, 1977. – Б. 132

ham g‘amiga payvand ekanligini hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur vaznlari ohangi vositasida tasvirlaydi. Go‘yoki vaznlarning ohangi uning yuragidan chiqayotgan alamli og‘riqqa o‘xshaydi.

Xolis Toshkandiyning “Shoh Jarir qissasi” ham mavzusiga ko‘ra jangnoma qissalar turkumiga kiradi. “Xolis va uning adabiy merosi” haqida F.Ravshanov tadqiqot ishi olib borgan. Xolis XIX asr boshlarida yashab, ham aruz tizimida, ham barmoq tizimida 20dan ortiq doston va qissalar yaratgan. “Shoh Jarir qissasi”da Shoh Jariring butun faoliyati xalqni islomga undashda namoyon bo‘ladi. U janglar davomida ne-ne pahlavonlarni, qancha-qancha lashkarlarni dog‘da qoldirib, g‘olib chiqadi. Xolis qissasida Shoh Jarir Rasuli akramning nabirasi, Zaynab va Usmonning farzandi sifatida tasvirlanadi hamda Yazid tomonidan Movarounnahrga safarbar etilganligi bayon etiladi. Debochasida keltirilgan ma‘lumotlarga qaraganda, asar turli xalqlar orasida juda mashhur bo‘lgan. “Shoh Jarir qissasi” dastlab arab tilida ijod qilingan bo‘lib, keyinchalik unga bo‘lgan qiziqish tufayli Xo‘jandiy degan shoir fors tiliga tarjima ham qilgan. Bu haqda asarda quyidagi bayt keltiriladi:

*Arobiy erkan avval bu risola,  
Yozubdur Xo‘jandiy forsiy xayola!*

Asarning bosh qahramoni Shoh Jarir payg‘ambarzoda sifatida tilga olinadi. F.Ravshanov “Xolis va uning adabiy merosi” tadqiqotida bu qissani dastlab arab xalqlari yaratganligi, keyinchalik esa Islom dini turli xalqlar o‘rtasida shuhrat kasb etgandan so‘ng, bir tomonidan, din himoyachisi to‘g‘risidagi asar, ikkinchi tomonidan esa, payg‘ambarzoda haqidagi qissa sifatida boshqa xalqlar orasida ham mashhur bo‘lganligini ta‘kidlaydi<sup>2</sup>. Bu o‘rinda Xolis ushbu qissani turkiy tilda yozilganligini ko‘rganini, biroq yaxshi istifoda etilmaganligini asarda qayd etadi:

*Ki mandin il/gari bir oda/mizod,*

V — — — / V — — — / V — ~

<sup>1</sup> Тошкандий Х. Шоҳ Жарир киssаси. Инв. №823239. 118 саҳифа, кўлёзма. 2-в. Keyingi misollar shu manbadan olinadi.

<sup>2</sup> Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарканда. 1997. – Б. 28.

Eski o'zbek tilida noma *bildirguluk* so'zi bilan ham istifoda etilgan. "O'g'uznama" dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga *bildurguluk*, ya'ni noma yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab qilgan<sup>1</sup>. Demak, shu tariqa ma'lum ehtiyojlar sababli yuzaga kelgan xabarni ifodalash usullari nomaning shakllanishiga asos bo'lgan deyish mumkin.

Fors adabiyotida nomaning ilk ko'rinishlari Faxriddin Gurgoni ijodida uchraydi. Uning XI asrda yaratilgan "Vis va Romin" dostonida nomaning ilk namunalarini uchratish mumkin. Dostonda Vis Rominga jo'natgan o'nta noma keltirilgan bo'lib, Faxriddin Gurgoni ularni "Dahnama" sarlavhasi ostida birlashtiradi. Undagi har bir noma ayol nomidan uni tashlab ketgan oshiqqa qarata yozilgan bo'lib, ma'shuqa sevgisining otashin izhorlari, umidvorlik tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan<sup>2</sup>. Olimlar Faxriddin Gurgoni "Vis va Romin" dostonining yozilish vaqtini 1048–1054-yillar deb belgilaydilar. Bu go'zal ishqiy masnaviy bizgacha yetib kelmagan Parfiya qissasi syujetiga asoslangan<sup>3</sup>. Doston ishqiy dostonlar uchun asosiy o'lchov hisoblanmish *hazaji musaddasi mahzuf* (rukni va taqt'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V— / V— / V—) vaznida bitilgan.

Nomalardan birida ma'shuqa o'zining hijronda tashlab ketilganligidan faryod chekadi, firoq alangasida o'rtanayotganligidan noliydi:

*Tu to rafti,/ biraft az man/ hama kom,*

*V— / V— / V— ~*

*Na didorat/ hameyobam,/ na orom.*

*V— / V— / V— ~*

Tarjimasi: Sen ketding-u sen bilan hamma niyatlar ham ketganday bo'ldi. Na diydoringga yetaman, na orom topaman<sup>4</sup>.

Keyinchalik shoir Avhadiyning (1274–1338) tugal noma janri sifatida yaratgan "Dahnama"si yuzaga keldi. Bu asar qaysi

<sup>1</sup> Хоразмий. Мұхаббатнома / Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашра тайёрловчилар: Абдувоҳидов М., Мухторова Ҳ., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1987. – Б. 94. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

<sup>2</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 8.

<sup>3</sup> <https://www.livelib.ru/book/1000250337-vis-i-ramin-fahreddin-gurgani>

<sup>4</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 9.

manbalar asosida yaratilganini Avhadiy ko'rsatmagan<sup>1</sup>. Undan so'ng noma janrida asar yaratish an'anaviylikka aylandi. "O'zbek, ozarbayjon va fors-tojik adabiyotlari tarixida nomalarning ayrimlari shaharlarga bag'ishlansa ("Sheroznoma", ..); boshqa bir turi muzika masalalari bilan aloqador bo'lsa ("Naynoma", ..), yana bir xili hayvonlar, meva va urf-odatlarga ("Gulnoma", ..) bag'ishlangan<sup>2</sup>. Demak, noma so'zi bilan kelgan asarlar janr va mavzu jihatidan ham xilma-xildir. Biz o'zbek adabiyotidagi aruz tizimida yaratilgan nomalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rgandik:

1. Noma – she'riy maktub shaklida yozilgan asar. Bu guruhga Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Said Ahmadning "Taashshuqnoma", "Ilohiynoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" kabi nomalarini kiritdik. Bu nomalarning barchasiga xos bo'lgan umumiy xususiyat shuki, ularning mazmunida oshiqning ma'shuqaga yozgan ishqiy maktublari o'rinni olgan. Shuningdek, ushbu guruhga shartli ravishda Xolis Toshkandiyning "Ibratnoma"si ham kiritilgan. Bu asar tarkibida ham nomalar mavjud, faqat u ishq-muhabbat mavzusida emas, balki Iskandarga bag'ishlangan.

2. Noma – masnaviy poema shaklida yozilgan asar. Bu guruhga biz asar nomida "noma" so'zi bo'lgan, masnaviy shaklida yaratilgan, aruz tizimi vaznlarida yozilgan asarlar: Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" va "Ilohiynoma", Xiromiyning "To'tinoma", Xolis Toshkandiyning "Qiyomatnoma", "Arvohnoma" hamda Miriyning "Gulnoma", "Choynoma" singari dostonlarini kiritdik. Biz bu o'rinda, albatta, akademik B.Valixo'jayevning qarashlariga tayandik.

Turkiy adabiyotda Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si noma janridagi ilk asar bo'lib, N.Rahmonov shoirning ismi faqat Po'latjon domla Qayumovning "Tazkirayi Qayyumiylar" sida berilganligini aytadi. Xorazmiy haqida "Tazkirayi Qayyumiylar"da quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: bu kishini Nozim Xorazmiy deb yuritiladurki, o'zining "Muhabbatnoma" nomli yirik asari bilan XIV asrning buyuk klassik yodgori bilan tanilmishdur. Shoirning tarjimayi holigina emas, hattoki nomi ham zamonamizda ma'lum

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фан, 2007. – Б. 320.

<sup>2</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 6.

bo‘lmadi. Lekin asari mo‘tabar kitobdur. Bu asar ham Oltin (O‘rda) hukmdorlari davrida yozulmish qadimgi asardur<sup>1</sup>. Shuningdek, tazkirada “Muhabbatnoma”dagi Xo‘jabek shaxsi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltiriladi va asardan parcha beriladi.

Navoiy “Majolis un-nafois” asarining birinchi majlisida Xorazmiy taxallusida ijod qilgan ikki ijodkor: Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy hamda Mavlono Husayn Xorazmiylar xususida so‘z yuritadi<sup>2</sup>. Anglashiladiki, bular Nozim Xorazmiy emas. Lekin Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asaridagi ayrim misralarga duch kelamiz<sup>3</sup>. Xususan,

*Aningkim, ol enginda meng yaratti,*

*Bo‘yi birla sochini teng yaratti*

singari bayt Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining kirish qismidan o‘rin olganligi ochiqlanadi. Bundan asosli bir savol tug‘ilishi mumkin. Agar Navoiy Xorazmiy haqida ma‘lumotga ega ekan, uning ijodi va hayoti haqida o‘zining tazkirasida nega ma‘lumot keltirmadi?! Bizning taxminimizcha, Xorazmiy bir joyda muqim yashab ijod qilmagan. Xorazmdagi siyosiy va adabiy muhitning notinchligi sababli shoir dastlab Oltin O‘rdaga, keyinchalik esa Misrda tashkil topgan Mamluklar davlatiga kelib ijod qilgan. Shuningdek, Navoiyning tazkirasida Oltin O‘rdada ijod qilgan shoirlarning birontasi haqida ham ma‘lumot keltirilmaydi. Zero, shoirning “Majolis un-nafois”dan Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan shoirlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘rin olgan. Bundan tashqari, Navoiy tazkirasи, asosan, XV asrda yashab ijod etgan shoirlar haqidagi ma‘lumotlarni qamrab oladi.

Turkiy adabiyotga Xorazmiy o‘z asari bilan nafaqat yangi janr, balki ishqiy mavzudagi dostonlar uchun mo‘ljallangan hazaji musaddasi mahzuf vaznni ham olib kirdi. O‘zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor qo‘llanishi ham Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Uning 1353–1354-yillarda yaratilgan “Muhabbatnoma” dostoni shu vaznda yaratilgan. Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-

<sup>1</sup> Кайюмий П. Тазкирайи Кайюмий. Нашрга тайёрловчи: акад. Каюмов А. З жилдлик жилд. – Т.: ЎзРФА Кўлёзмалар институти таҳририй нашрнёт бўлими, 1998. – Б. 22.

<sup>2</sup> Qarang: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – Б. 7–8.

<sup>3</sup> Qarang: Алишер Навоий. Мухокамат ул-лугатайн. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – Б. 13.

avzon” asarida turk xalqida “Muhabbatnoma” deb atalgan qo’shiq borligini va mazkur qo’shiqning o’lchovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta’kidlaydi: “Va yana ham turk ulusida bir suruddurkim, ani “Muhabbatnoma” derlar va ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va holo matrukdur, budur (bayt):

*Meni og ‘zing uchun shaydo qilibsen,  
Manga yo ‘q qayg ‘uni paydo qilibsen  
Mafoiylyn mafoiylyn mafoiyl!*<sup>1</sup>.

Demak, xalq og‘zaki ijodidagi “muhabbatnoma” qo’shig‘i ohangi bilan Xorazmiy “Muhabbatnoma”si vazni orasida ma’lum darajada aloqadorlik mavjud ekan. Nomaning kirish qismida hamd, “Avval ko‘rishgonin aytur”, “Bayoni voqiyi aytur”, “Muhammad Xo‘jabek sifoti”, “Vasful-hol aytur”, 4 ta g‘azal va 2 ta masnaviy keltiriladi. Keyin 11 ta nomaga navbat beriladi. Har bir nomadan keyin soqiyya qaratilgan uch baytli masnaviyalar, uchinchi hamda o’ninchı nomadan so‘ng g‘azal, o’n birinchi nomadan keyin esa qit’a, munojot, hikoyat, “Xotimat ul-kitob”, “Iltimosin aytur” qismlari hamda fard keltiriladi<sup>2</sup>. Shoир dastlab “Muhabbatnoma”ni 10 ta noma qilib bitmoqchi bo‘lgani, lekin yana bir noma qo’shganligini o’ninchı nomadan keyin kelgan masnaviyda aytadi:

*Bu yerga yetti so ‘z, ta ‘xir bo ‘ldi,*

*Burun o ‘n dedim, o ‘n bir bo ‘ldi.* (“Muhabbatnoma”, 125)

Shoир baytda bu yerga so‘z yetganida oxiri bo‘lgani, oldin nomalarни o’nta qilaman deb, keyin o’n bir qilganligini hazaji musaddasi mahzuf o’lchovining imkoniyatidan foydalanib bayon qiladi. O’n bir nomadan 4-, 8- va 11-nomalar fors-tojik tilida bitilgan bo‘lib, qolgan 8 noma turkiy (o‘zbek) tilda yaratilgan. Bundan ko‘rinadiki, “Muhabbatnoma” turli janrlardan: noma, masnaviy, g‘azal, qit’a, fard, hikoyatlardan tashkil topgan. “Muhabbatnoma” an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Bunda shoир

*Uluq Tangrining otin yod qildim,*

*“Muhabbatnoma”ni bunyod qildim* (“Muhabbatnoma”, 96)

<sup>1</sup> Алишер Навоний. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 93.

<sup>2</sup> Biz bu ketma-ketlikda N.Rahmonovning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobining 2-jildidagi Xorazmiy “Muhabbatnoma”si matniga tayandik. Qarang: Ўзбек адабиёти намуналари. 2 жилдик. 2-жилд. – Т.: Фан, 2007. – Б. 320.

deb nomani bunyod qilganligini aytadi. Nomalar asosini – oshiqning o‘z ma’shuqasiga yo’llagan she’riy maktublari tashkil etadi. “Maktub orqali his-kechinmalarni ifoda etish o‘zbek mumtoz adabiyotida, qolaversa, dunyo adabiyotida an’anaviylashgan”<sup>1</sup>. Ularning o‘ntasini shoir to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’shuqaga murojaati bilan, faqat ikkinchi nomanigina “Salomim gulga ayt, ey tong nasimi”, – deb tong nasimiga murojaat qilgan holda boshlaydi. Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining avvalgi nomasida ma’shuqaning go‘zalligi ta’rif etiladi. Bunda shoirga ma’shuqa holatini tasvirlashda, uning portretini chizishda *hazaji musaddasi maqsur* vazni qo‘l kelgan:

*Ayo ko ‘r-k-ich/ra olam po/dshohi,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Jahon tutti/ sening husnung/.sipohi.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Pari ruxso/ralarning ko ‘rk/ka boyi,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Yuzung navro ‘zu qoshing bay/ra-m+oyi.* “Muhabbatnoma”, 96)

*V — — — / V — — — / V — —*

Ko‘rinadiki, ushbu baytlar hazaji musaddasi mahzufda yaratilgan. Baytda o‘lchov imkoniyatiga ko‘ra *vasl* va *imoladan* foydalanilgan. Xorazmiy noma davomida yorning tavsifini keltirishda tajnis san’atidan ham foydalanadi:

*Bo ‘yung sarvu sanubartek, beling qil,*

*Vafq qilg‘on kishilarg‘a vafq qil.* (“Muhabbatnoma”, 104)

Baytidagi qofiyadosh “qil” so‘zлари shaklan bir xil bo‘lsa-da, biroq ikki xil ma’noni ifodalagan. Birinchi misrada bu so‘z ma’shuqa belining ingichkaligini bildirsa, ikkinchi misrada harakat – *vafq* qilishni anglatadi. Shu bilan birga vaznni hosil qilishda ham faol ishtirok etgan. Zero, “beling qil”, “vafq qil” so‘z birikmalari *mafqiyun* asliy ruknining *fauvlun* tarmog‘ida yozilishini taqozo etadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xorazmiy ikkinchi nomada tong nasimiga murojaat qiladi:

<sup>1</sup> Кувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараккиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 76.

*Salomim gulga elt, ey tong nasimi,*

*Kim erur Oy quli, Axtar nadimi.* (“Muhabbatnoma”, 106)

Shoir baytda Gul, Oy, Axtar so‘zlarini qo‘llash orqali ko‘chma ma’noda ma’shuqani ifodalagan. Bilamizki, “Axtar” forscha so‘z bo‘lib, yulduz, “nadim” esa hamsuhbat degan ma’nolarni bildiradi. Shunda shoir tong nasimi orqali yorga salom yo’llab, uning xizmatkori, hamsuhbati kim ekanligini bilmoxchi bo‘ladi.

Xorazmiy uchinchi nomada ma’shuqani quyoshdek (xurshidtek) olam charog‘i, uning munavvar chehrasini esa jannat (firdavs) bog‘i ekanligini tashbihdan foydalanib tasvirlaydi:

*Ayo xurshidtek olam charog‘i,*

*Munavvar chehrangiz firdavs bog‘i.* (“Muhabbatnoma”, 108)

Shu tariqa “Muhabbatnoma”ning qolgan nomalarida ham yorning vasfi keltiriladi. Har bir nomadan keyin masnaviyolar keltiriladi. Ularda shoirning har bir maktub mazmuni bilan bog‘liq taassurotlari o‘z ifodasini topadi. Bu masnaviyarlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning uchinchi bayti bir xil. Ya’ni:

*Saburdin yaxshi yo‘qtur pesha qilsam,*

*Bu yo‘lda sabr yo‘q andesha qilsam* (“Muhabbatnoma”, 104) singari naqorat tarzidagi bu bayt “Muhabbatnoma”da muayyan fikrni ta’kidlaydi, asarning barcha komponentlarini bir-biri bilan bog‘lab turadi.

“Muhabbatnoma”da keltirilgan g‘azallar ham asar mazmuni bilan uyg‘unlik kasb etgan. Ular ham doston yaratilgan vaznda yozilgan. Quyidagi jadvalda buni tahlil qilib ko‘rishimiz mumkin:

#### 2.1-jadval.

No	Vazn nomi	Bayt
1.	Hazaji musaddasi maqsur	<i>Chi mah ruyi tu, ey sarvi sarafroz, Ki memonad bi ro‘yat gul dahanboz.</i>
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	<i>Yuzungni ko‘rdum, ey jon bayram oyin, Munung shukronasi qurban bo‘loyin.</i>
3.	Hazaji musaddasi mahzuf	<i>Yarotqon kim tan ichra jon yaratti, Seni ko‘rkluklar uzra xon yaratti.</i>
4.	Hazaji musaddasi mahzuf	<i>Qadah savruldi ush bo‘ston ichinda, Xush ichgil rohni rayhon ichinda.</i>
5.	Hazaji musaddasi maqsur	<i>Jahonda sentek ey jonon yo‘q, ey jon, Sening dardingg‘a hech darmon yo‘q, ey jon.</i>

6.	Hazaji musaddasi maqsur	<i>Biyo, ey sarv, qaddi gul banogush, Mayi gulgun ba ro 'yi xeshtan no 'sh. Jami: 6 ta</i>
----	----------------------------	--

Ko‘rinadiki, “Muhabbatnoma” tarkibida 6 ta g‘azal istifoda etilgan bo‘lib, ularning 3 tasi *hazaji musaddasi mahzufda*, qolgan 3 tasi esa *hazaji musaddasi maqsur* vaznida yozilgan. Fors-tojik tilidagi g‘azallarning har ikkalasi ham *hazaji musaddasi maqsurda* yaratilgan.

“Muhabbatnoma”ning xotimasida bir forsiy hikoyat ham keltirilgan. Hikoyatda Xorazmiyning Shom safari vaqtidagi voqealardan biri masnaviy shaklida bayon etiladi. Bu hikoyat shoirning hayot yo‘lini hamda dunyoqarashi va xarakterini o‘rganish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>. “Muhabbatnoma” asari poetik jihatdan yuqori darajada yaratilgan. Asarda *hazaji musaddasi mahzuf* (*maqsur*) vaznini qo‘llash orqali shoir tashbeh, tanosub, husni ta‘lil, tajnis kabi she’riy san’atlardan mahorat bilan foydalanadi. Unda tasavvufiy qarashlar ham ustuvorlik kasb etib, o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan. Shoirning “Muhabbatnoma”si va umuman, barcha nomalar, *hazaji musaddasi mahzuf* vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi.

Keyingi noma yo‘nalishidagi doston Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si bo‘lib, asar an‘anaviy *hazaji musaddasi mahzufda* yaratilgan. Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si XV asr boshlarida (1411-yillarda) yozilgan bo‘lib, Temuring avlodlaridan biri, Xorazmda hukmronlik qilgan Sulton Mahmudga bag‘ishlangan<sup>2</sup>. Asarda Xo‘jandiyning biografiyasi, tug‘ilgan va vafot etgan yili haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q. Faqatgina uning taxallusidan Xo‘janddan ekanligini bilishimiz mumkin.

Bizgacha “Latofatnoma”ning 4 nusxasi yetib kelgan. Uning 2 tasi Kobul kutubxonasining muzeyida, bir nusxasi Istanbulda va yana bir nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Qo‘lyozma hijriy

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. I том. – Т.: Фан, 1978. – Б. 188.

<sup>2</sup> Хўжандий. Латофатнома / Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Ҳ., Косимхонов Б., Жўраев О. – Т.:Fa�ур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 132. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

893-yilda (milodiy 1488) ko‘chirilgan bo‘lib, 313 baytdan iborat<sup>1</sup>. “Latofatnoma”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidek boshqa janrdagi she’rlar keltirilmaydi. Asar masnaviy shaklida yozilgan va qofiyalangan. Xo‘jandiy bu asarini “Muhabbatnoma”ga javob tarzida yozganligini qayd etadi:

*Muhabbat jomidin ichsang sharobe,*

*“Muhabbatnoma”g‘a aysang javobe.* (“Latofatnoma”, 41)

Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si o‘n nomadan iborat. Bu haqda shoir o‘z asarida shunday ma’lumot beradi:

*Tilimda so‘z, elimda xoma bo‘ldi,*

*Latofatnoma ham o‘n noma bo‘ldi.* (“Latofatnoma”, 137)

Shoir asar so‘ngida o‘z asarining otini “Latofatnoma” deb qo‘yganligini ham aytadi. Baytni mafoiylyn asliga to‘g‘ri keladigan “Latofatdin” so‘zi bilan boshlaydi:

*Latofattin tilim hangoma qo‘ydim,*

*Aning otin “Latofatnoma” qo‘ydim.* (“Latofatnoma”, 137)

Shoir har bir nomaning yakuniy qismida soqiya murojaat etuvchi bir bayt keltiradi va shu bayt bilan noma yakunlanadi. Dostonda soqiya murojaat etilgan bayt nomaning mavzusiga qarab o‘zgarib boradi. “Latofatnoma” asaridagi muhim, boshqa nomalardan farq qiladigan alohida xususiyati shundaki, bu asarda muallif peyzaj lirikasi, tabiat lavhalarining tasviriga alohida ahamiyat bergen”<sup>2</sup>. “Latofatnoma”ning birinchi nomasida

*Parilar sho/hisen husnung/ ziyoda,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Ruhung ko‘rsa/ bo‘lur shohlar/ piyoda* (“Latofatnoma”, 139)

*V — — — / V — — — / V — —*

deb, bayt mazmunida ma’shuqaga qarata sen parilarning shohisan, sening husning ularnikidan ham ziyoda, agar yuzingni shohlar ko‘rsa piyoda bo‘lishni afzal ko‘radilar degan fikrlar bayon etiladi. Bunda shoirning qarashlariga hazaji musaddasi mahzuf vazni mos keladi. Ayni paytda, bayt uchun tanlangan ziyoda, piyoda qofiyadosh so‘zleri uning vaznini belgilashda asos bo‘lgan.

<sup>1</sup> Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Х., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат шаршиёти, 1987. – Б. 42.

<sup>2</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 24.

*Berur zulfung nasimi jong 'a rohat,*

*Seningtek kimda bor husnu malohat.* (“Latofatnoma”, 141)

Baytda hazaji musaddasi mahzuf o‘Ichovi orqali ma’shuqa zulfining iliq shabadasi jonga rohat berishi, undagi husni malohat kimda borligi ta’kidlanadi. Misralar uchun tanlangan rohat, malohat qofiyalari muassas bo‘lib, cho‘ziq “o” unlisi – ta’sis, “*h*” undoshi – daxil, “a” qisqa unlisi ishbo’, “t” undoshi raviydir.

Uchinchi nomada shoir hazaji musaddasi maqsur vazning imkoniyatini kengaytirish maqsadida bir o‘rinda kitobat, talmehdan mohirona foydalanadi.

*Aliftek to ‘g’ri bo ‘yliq qoshlari nun,*

*Jahon Laylilari husnungg ‘a Majnun.* (“Latofatnoma”, 143)

Ma’shuqaning bo‘yini alif(!)ga, qoshlarini nun(ü)ga qiyoslar ekan, uning husniga jahon Laylilari Majnun ekanligini aytadi va bunda hazaji musaddasi maqsurdan foydalanadi. Yettinchi nomada tajnisni qo‘llash orqali ma’noni kuchaytiradi:

*Qaro zulfung ichinda chin ko ‘rarmen,*

*Xato yo ‘qdur bu so ‘zda, chin ko ‘rarmen.* (“Latofatnoma”, 150)

Baytning birinchi misrasidagi “chin” so‘zi “jingalak” ma’nosida, keyingi misrada esa “rost”, “haqiqat” tarzida kelishini kuzatishimiz mumkin. Shu tariqa baytda qofiya tajnis holida qo‘llangan. Doston uchun tanlangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni uning xushohangligini ta’milagan. Xo‘jandiy o‘z asarini yakunlar ekan,

*Xo‘jandiy so ‘zlarin Xorazmi(y) miskin,*

*Eshitsa, balli deb qilg‘aydi tahsin* (“Latofatnoma”, 136)  
deb ustozi Xorazmiyga ma’nан murojaat qiladi hamda uning tahsiniga loyiq asar yarata olganligini aytadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida noma janrining rivojiga o‘z hissasini qo‘sghan shoirlardan yana biri Sayid Ahmad ibn Mironshohdir. U Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘li hisoblanib, Sayid uning adabiy taxallusidir. Bu haqda u o‘zining asari “Taashshuqnomा”da ham ma’lumot keltiradi:

*Ajunda to aningtek shoh bo 'lg'ay,  
Duogo '(y) ibni Mironshoh bo 'lg'ay'.*

Alisher Navoiyning ma'lumotiga qaraganda, Sayid Ahmadning masnaviy shaklida yaratilgan "Latofatnoma" asari borligi ta'kidlanadi va undan baytlar keltiriladi<sup>2</sup>. "Taashshuqnomा" asari haqida esa hech qanday ma'lumot uchramaydi. Qizig'i shundaki, "Latofatnoma"dan olingen parcha Sayid Ahmadning "Taashshuqnomा" asarida aks etmagan. Demakki, uning "Latofatnoma" degan asari ham mavjud bo'lishi mumkin. Bu hozircha bizning taxminimizdir.

Navoiy ta'kidlagan Sayid Ahmadning ikki devoni bizgacha yetib kelmag'an, ular fanga ma'lum emas. Shoirning yolg'iz "Taashshuqnomा" asari ma'lum. Asarning qo'lyozma nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. O'zbek tilidagi nashri esa shu qo'lyozmaning fotonusxasi asosida tayyorlangan. Sayid Ahmadning "Taashshuqnomा" asari kompozitsiyasi yuqorida tilga olingen ikki nomadan qolishmaydi.

Asar hijriy 839, milodiy 1435–1436-yillarda yaratilgan bo'lib, 319 baytdan iborat. "Taashshuqnomा" an'anaviy hamd, na't, munojot, kitob yozilishi sababi, Shohrux Sulton madhi, 10 noma, har bir nomadan keyin bittadan g'azal va so'zning xulosasi, "Kitob xatmin aytur", "Iltimosin aytur" kabi qismlardan tashkil topgan. "Taashshuqnomा"ning muqaddimasida uning yaratilish sabablari qayd etiladi.

Sayid Ahmad asardagi har bir nomani kompozitsiya jihatidan uch qismdan – noma, g'azal, so'zning xulosasi qismlaridan iborat qilib tuzdi va bu holat asardagi barcha nomalarda izchil saqlanadi. "Nomalardagi bu uch qism mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bir butunlikni tashkil etadi. Bu asar qurilmasi qat'iy reja asosida yaratilganini ko'rsatadi"<sup>3</sup>. Shoir o'z asarini biron ijodkordan ta'sirlanib yozgani haqida ma'lumot bermaydi. Biroq asarning tuzilishi, g'oyaviy yo'naliishi uning nomachilik an'analari asosida yozilganligini ko'rsatadi. Undan oldin yaratilgan nomalarda

<sup>1</sup> Сайд Аҳмад. Таашшукнома / Ўзбек мұмтоз адабиеті нақуналары. 2 жилдик. 2-жылд. Нашра тайёрловчы Н.Рахмонов. – Т.: ФАН, 2007. – Б. 182. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

<sup>2</sup> Qarang: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафонс. МАТ. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – Б. 160.

<sup>3</sup> Жамалова М. Ўзбек адабиётіда нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 32.

bo'lgani singari uning asari ham o'n nomadan iborat qilib  
yaratganligini bayon etadi:

*Safo yetti bitigan xoma bo 'ldi,*

"Taashshuqnomा" ham o'n noma bo 'ldi. ("Taashshuqnomा", 162)

Sayid Ahmadning "Taashshuqnomा" asarida ham avvalgi nomalarda bo'lgani kabi oshiqning ma'shuqaga bitgan maktublari aks etadi. Maktublarda oshiqning holati, ma'shuqaning tavsifi, oshiqlarning bir-biriga dil izhorlari, sevgi yo'lidagi his-hayajonlari aks etadi. Xorazmiyning "Muhabbatnomा" sida har bir nomadan keyin soqiya murojaat qilingan masnaviyalar keltiriladi. Sayid Ahmadning asarida ham 3-5 baytdan iborat "so'zning xulosasi" qismi har bir nomaning so'ngida beriladi. Ko'rindiki, "Muhabbatnomা"da har bir masnaviy

*Saburdin yaxshi yo 'qtur pesha qilsam,*

*Bu yo 'lda sabr yo 'q andesha qilsam*

singari tasavvufona bayt bilan yakunlansa, "Taashshuqnomा"dagi har bir "so'zning xulosasi"

*Tahammul yaxshi ishdur pesha qilmoq,*

*Taxayyul birla ham andesha qilmoq*

kabi bayt bilan tugaydi. Bundan ko'rindiki, Sayid Ahmad uchun Xorazmiyning asari andaza bo'lgan. Biroq Sayid Ahmad "Taashshuqnomा"ni uslub, mazmun va shakl jihatidan butunlay yangi asar qilib yaratgan. Asarning avvalgi nomasi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Ayo, zebo/ sanamlar ko 'r/kaboyi,*

*V---/ V - - - / V - -*

*Qamuq shahlar/ gadoyingning/ gadoyi.*

*V - - - / V - - - / V - -*

*Bu kun husn o'r/dasinda po/dshosen,*

*V - - - / V - - - / V - -*

*Zarofat o/laminda mah/liqosen.* ("Taashshuqnomा", 162)

*V - - - / V - - - / V - -*

Shoir dostonda hazaji musaddasi mahzuf vaznidan foydalanib, ma'shuqani sanamlar ichida husnda tengsiz, jannat shohlari uning husni(oshiq)ning gadosi, husn o'r dasida podsho, go'zallik olamida mahliqa deb ta'riflaydi. *Tanosub, tazod, tashbih she'riy san'atlarini* bir yerda istifoda etish orqali vaznning ohangdorligi oshirilgan.

Sayid Ahmad “Taashshuqnom” asarida tajnisli so‘zlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Balki shuning uchundir 19 baytdan iborat bo‘lgan ikkinchi noma faqat tajnisli qofiya bilan yaratilgan. Bunda shoir fikrning chiroyli, ma’noli chiqishiga erishgan. U nomada tajnisni qo‘llash orqali oshiqning dil izhorlari ilo ma’shuqaning ko‘ngliga yo‘l topmoqchi bo‘ladi:

*Quyoshdur orazing yo Mushtariydur,  
Ki jon birla jahoni mushtariydur.*

*Visoling zavqi-n+istab ey dilorom,*

*Ta-n+ichra topmadi miskin dil orom.* (“Taashshuqnom”, 164)

Yorning husnini Quyosh yoki Yupiter planetasiga o‘xshatib, unga joni va jahoni bilan asir ekanligini aytadi. Oshiq ma’shuqaga uning visolin zavqini istab, faqir tani ichra dili orom topmayotganligini bildiradi. Birinchi baytdagi qofiyadosh “mushtariydur” so‘zлari shaklan bir xil bo‘lsa-da, biroq ikki xil ma’noni ifodalagan. Birinchi misrada Yupiter planetasini bildirsa, ikkinchi misrada muxlis, asir degan ma’nolarni anglatib kelgan. Ikkinchi baytda esa dastlabki misradagi Dilorom – ism, ikkinchi misrada esa dilning orom topishi anglashiladi. Baytda vazn talabi bilan ayrim so‘zlar o‘zidan keyin kelayotgan so‘z bilan vasl hosil qilgan. Masalan, **zavqi-n+istab**, **ta-n+ichra** kabi.

“Taashshuqnom” asarida oshiqning dil izhorlarini *hazaji musaddasi maqsur* vaznida bitilgan baytlar orqali ham ifodalash kuzatiladi. Xususan, to‘rtinchi noma

*Alo, ey sar/vi bo‘yluq lo/la ruxsor,*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Ko‘zung jayron/ mengingdur mush/ki tortor*

*V — — — / V — — — / V — ~*

kabi bayt bilan boshlanadi. Shoир baytda ridfi asliyli murdaf qofiyani qo‘llash orqali hazaji musaddasi maqsur vaznining ohangini hosil qilgan. Oshiq ma’shuqaga murojaat qilar ekan, tashbihdan foydalanib uning bo‘yini sarv(tik qomat)ga, ruxsorini lolaga, ko‘zini jayronga, holini xushbo‘y mushkka qiyoslaydi. Sayid Ahmad asarda ma’shuqaning go‘zalligini, husnda tanho malak ekanligini, bunday go‘zallik oldida huru parilar loj ekanligini tavsiflaydi.

*Quyosh husnung ko 'rub, ey mohitobon,  
Xijolat toptiyu bo 'ldi yaroqon.*

*Qachonkim la 'lingiz bo 'lsa shakarxand,*  
*Nabot arning qoshinda su bo 'lur qand.* ("Taashshuqnama", 174)

Bunda shoir tanosub, tashbih kabi she'riy san'atlaridan o'rinci foydalanib, baytda vaznning ta'sirchanligini oshirgan. O'ninchi nomada bunday go'zallikni Yaratganning o'zi bunyod qilganligi bayon etiladi:

*Yuzungdur, ey pari, firdavsi a'lo,*

*Seni zebo yaratti Haq Taolo.* ("Taashshuqnama", 180)

Biz yuqorida "Taashshuqnama" asari tarkibida lirik janr - g'azallar ham o'rin olganligini ta'kidlagan edik. Ushbu g'azallarning mazmuni asarga singdirilgan. Go'yo nomaning davomiga o'xshab bitilgan. Shunday qilib, Sayid Ahmad o'z salaflari Xorazmiy va Xo'jandiyan an'anasimi davom ettirib, nomajanrida yana bir asar yaratadi.

Nomachilikda epik ifoda va lirik tasvirning uyg'unlashib borishida Yusuf Amiri "Dahnama"sining ham o'rni ahamiyatlidir. Yusuf Amiri XV asrda yashab ijod etgan. Uning bizgacha bir devon, "Dahnama" hamda "Bang va chog'ir munozarasi" asarlari yetib kelgan. Amiri XV asr birinchi yarmida Boysung'ur Mirzo hukmronligi yillarida katta shuhrat qozongan. "Yusuf Amiri xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan tuyuq janrini yozma adabiyotga olib kirish borasida ham o'z mahoratini namoyish etadi"<sup>1</sup>. Shoir merosi ichida "Dahnama" muhim o'rin egallaydi. U ushbu asari orqali o'zbek nomachiligi taraqqiyotini yangi pog'onaga ko'tardi.

Shoir o'z asarini yaratishda qaysi ijodkorlardan ilhomlangani haqida ma'lumot keltirmaydi. Adabiyotshunos A.Hayitmetovning yozishicha, Amiri "Dahnama" asarini yaratishda ko'proq Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonidagi an'analariga amal qilgan ko'rinadi. Amiri "Dahnama"ning kirish qismida Boysung'ur mirzo saroyidagi olim va fozil kishilar to'planganligini mammuniyat bilan ta'kidlaydi. Nizomiy dostonida ham Mehinbonu

<sup>1</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 42.

saroyidagi ilm-san'at kishilari ta'rifi berilgan bo'lib, ularning soni ham o'nta<sup>1</sup>. Shoirning o'zi ham "Dahnama"ning xotima qismida Nizomiytek ishin bedard-u ranj et,

Aning "Dahnama"sini "Panj ganj" et<sup>2</sup>

deb, o'z asarining Nizomiy dostonlari qatoridan o'ren olishini niyat qiladi. Adabiyotshunos M.Jamolova Amiriygacha fors tilida noma janrida bir necha "Dahnama"lar yaratilganligini ta'kidlaydi. Ular qatoriga XI asrda yashab ijod etgan Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostoni tarkibidagi "Dahnama", XIV asr birinchi yarmida yashagan ozarbayjon shoiri Avhadiyning "Dahnama", fors shoiri Xoja Faqix Kirmoniyning "Dahnama" kabi asarlarini kiritish mumkin<sup>3</sup>. O'zbek adabiyotida ham XIV asr o'rtalaridan boshlab noma janri rivojlanib, Xorazmiyning "Muhabbatnama"si, Xo'jandiyning "Latofatnama"si, Sayid Ahmadning "Taashshuqnama"si yaratilgan edi. Albatta, Amiri o'zigacha yaratilgan nomalardan xabardor bo'lgan va ulardan ilhomlanib o'z nomasini bitgan. Zero, "Latofatnama" va "Taashshuqnama"ni uning zamondoshlari yaratgan edi.

O'zbek adabiyotida Amiriy noma janri an'anasi davom ettirgan bo'lsa ham, asar qurilishida butunlay yangicha yondashadi. Uning asari muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Asar muqaddimasi hamd, na't, Xorun ar-Rashid hikoyati, "Dar sababi nazmi kitob" qismlaridan iborat. "Dahnama"ning asosiy qismi 10 ta noma, har nomadan keyin bittadan g'azal va fard, oshiq va ma'shuqaning nomani o'qib, unga javob yozishi tasvirini o'z ichiga oladi. Asarning xotima qismida shoir Boysung'ur mirzoni ko'klarga ko'tarib maqtaydi, minnatdorchilik izhor etadi hamda o'zini "she'r mulkining Amiri" darajasiga yetganligini bayon etadi. "Dahnama"ning "Dar xatmi kitob" qismida

*Bu nozik tarhlar kelmas kishidin,*

*Netuk men naql etay Moniy ishidin* ("Dahnama", 253)

deb, shoir o'zining mahoratini Moniyning san'atiga tenglashtiradi.

<sup>1</sup> Хайитметов А. Алишер Навоий ва Юсуф Амрий // Гулистан. 1987. – № 12. – Б. 26–28.

<sup>2</sup> Юсуф Амрий. Дахнома / Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 2 жилд. Нашрига тайёрловчи Н.Рахмонов. – Т.: ФАН, 2007. – Б. 254. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

<sup>3</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – Б. 42.

*Maoniy durrini olamg'a yoysam,  
"Muhabbatnoma"ning bahrida aysam.* ("Haqiqatnama", 131)

Sayyid Qosimiy o'z dostoni "Haqiqatnama"ni bitishda *hazaji*  
*musaddasi mahzuf o'Ichovi imkoniyatlaridan keng foydalangan.*

<i>Topulmas ib</i>	<i>-tidosig'a</i>	<i>bidoyat</i>
<i>V---</i>	<i>V---</i>	<i>V---</i>
<i>Ko 'runmas in</i>	<i>-tihosig'a</i>	<i>nihoyat</i>
<i>V---</i>	<i>V---</i>	<i>V---</i>

Keltirilgan bayt *mafoiylun/ mafoiylun/ fauvlun* ohangida talaffuz qilinib, *hazaji* *musaddasi* *mahzuf* o'Ichovida bitilgan. Shuningdek, bayt uchun tanlangan **bidoyat**, **nihoyat** qofiyadosh so'zлari bir vaqtning o'zida uning vazni tanlanishiga ham sabab bo'lgan, ya'ni ushbu qofiyadosh so'zlar *fauvlun* (V — —) taqtisiga mos keladi. Boshqacha aytganda, uning *hazaji* *musaddasi* *mahzufda* yozilishini taqozo etadi.

Majmuadagi so'nggi doston "Ilohiynoma" deb nomlanadi. Ushbu doston "Muborak maktublar"da "Sadoqatnama" nomi bilan ham keltiriladi. Doston

*Bor erdi vaqtি bir sohibjamole,*  
*Nigore nozanine bemisole.*

*Malohat kishvarida podshohe,*  
*Ko'zi lashkarkashu husni sipohe.*

*Latofat suyidin bo 'lmish sirishta,*  
*Kamoli husnina hayron farishta* ("Ilohiynoma", 131)

singari ayol madhi bilan boshlanadi. Shu xususiyatiga ko'ra, ushbu doston Sayyid Qosimiying boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. Uning markazida vafo va sadoqat timsoli ayol turadi. Doston nomlanishining o'ziyoq Farididdin Attorni eslatadi. Adabiyotshunos olimlar N.Rahmonov, D.Yusupovalar Sayyid Qosimiying "Ilohiynoma"si XII–XIII asrda Farididdin Attorning shu nomdag'i asariga javob ekanligini ta'kidlashadi<sup>1</sup>. Aslida doston Attorning

<sup>1</sup> Qarang: Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017. – 556 b.; Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгуялиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – 144 б.

“Ilohiynoma” sidagi bir hikoya asosida yozilgan. Sayyid Qosimiy doston so‘ngida shunday yozadi:

*Ilohiynomayi Attor bu dur,  
Davayi siynai afgor bu dur.*

*Oni turki birla Qosimiy aydi,  
Ma’oniy guharini elga yoydi.*

(“Ilohiynoma”, 187)

Professor N.Rahmonov Qutb, Haydar Xorazmiydagagi sharqona odob, ustozlarga hurmat Sayyid Qosimiyda ham bo‘rtib ko‘rinishi va o‘z ijodiga kamtarona baho berishi uning katta ijodkor ekanidan dalolat ekanligini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Doston Attor asari kabi *hazaji musaddasi mahzuf* o‘lchovida bitilgan.

<i>Visoling dar</i>	<i>-dining nedur</i>	<i>davosi</i>
<i>V— — —</i>	<i>V— — —</i>	<i>V— —</i>
<i>Ki, haddin o’t</i>	<i>-di hijronning</i>	<i>balosi</i>
<i>V— — —</i>	<i>V— — —</i>	<i>V— —</i>

Baytda shoir tazod singari she’riy san’atlardan foydalanib, vaznga yengillik bag‘ishlaydi.

XIX asr epik poeziyası rivojiga hissa qo‘sghan shoirlardan biri Mullo Qurbon Xiromiydir (1796). Uning bizgacha ko‘plab asarlari yetib kelgan. Muallif “To‘tinoma” asarining muqaddadimasida o‘z dostonlari haqida ma’lumot keltiradi:

*Necha qog ‘azni men qaro qildim,  
Elga ham arzi muddao qildim.*

*“Chor darvesh” sari surdum ilik,  
Sana erdi ming ikki yuz ellik.*

*“Mahfiloro ”g ‘a ayladim qo ‘shish,  
Sana erdi ming ikki yuz olmish.*

*“To ‘ti alfozi” bo ‘ldi to manga ish,  
Sana erdi ming ikki yuz yetmish...*

*Kim bu tarix sari tushsa ko ‘zi,  
Bilgay umrumni muddati ham o ‘zi<sup>2</sup>.*

<sup>1</sup> Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017. – B. 321.

<sup>2</sup> Мулло Курбон Хиромий. Тўтинома. Нашрга тайёрловчи: Ш.Ҳасанова. – Т.: Алишер Чавоний номидаги Ўзбекистон Миллый кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 13.

Ko‘rinadiki, muallif 1834-yilda “Chor darvesh”ni, 1844-yilda “Mahfiloro”ni, 1854-yilda esa “To‘tinoma” dostonlarini yaratgan. Xiromiyning bu asarlarni yaratishdan maqsadi xalqqa o‘z arzi muddaosini bayon etish ekanligi anglashiladi. Biz dissertatsiyada shoirning har bir dostoniga o‘mi bilan to‘xtalamiz. Bu o‘rinda esa uning “To‘tinoma” dostoni haqida bahs yuritamiz.

“To‘tinoma” kelib chiqishiga ko‘ra hind xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lsa-da, to‘ti hikoyatlarini o‘z ichiga olgan bu qissa turli davrlarda katta o‘zgarishlarga uchrab, har bir davr ruhini o‘zida mujassam eta bordi... “To‘tinoma” nomi bilan shuhrat qozongan asarning hind xalqi orasidagi nomi “Shukasaptati”, ya’ni “To‘tining yetmish hikoyasi” bo‘lib, “Ramayana”, “Maxabxarata”, “Panchatantra” kabi mashhur epik asarlar qatoridan joy oladi<sup>1</sup>. XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida Dehlida yashab ijod etgan Ziyouddin Naxshabiy 1330-yilda “Shukasaptati”ni fors-tojik tilida “To‘tinoma” nomi bilan qayta ishlaydi. Umuman, jahon adabiyotida Xiromiygacha Naxshabiy, Qodiriy, Haydariy, Latifiy singari mualliflar “To‘tinoma”ga murojaat qilib, ularning barchasi tarjima asar emas, balki shu asar syujeti asosida yangi doston yaratishga harakat qilganlar<sup>2</sup>.

Xiromiy “To‘tinoma”sini “Shukasaptati”da qo‘llanilgan qoliplash usulida, Ziyouddin Naxshabiy varianti asosida yaratadi. Asar qoliplash usulida yaratilganligi bois unda asosiy hikoyadan tashqari ko‘pgina qo‘srimcha hikoya va qissalar kiritilgan. Bizningcha, bu o‘rinda, muallif bevosita Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi usulini qo‘llagan. Navoiyning maqsadi “Sab’ai sayyor”dagi yetti hikoyada anglashilgani kabi “To‘tinoma”dagi qo‘srimcha hikoyalar ham Xiromiyning asosiy g‘oyasini ifoda etadi. Balki, shuning uchundir muallif o‘z asari uchun xafif bahri vaznlarini tanlagan bo‘lishi mumkin. U mazkur

<sup>1</sup> Batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 104.

<sup>2</sup> Qarang: Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 91–123; Кореев Т. Хиромий хаётини ва ижоди. – Т.: Фан, 1977. – Б. 39–58; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 4-том. – Т.: Фан, 1978. – Б. 318–348; Мулло Курбон Хиромий. Тутинома. Нашрга кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 3–12.

bahrga xos bo'lgan ritmik variatsiyani baytlararo misralarda teng qo'llaydi:

*Yana tifle/ki bo 'lmadi/ asari,*  
V V — / V — V — / V V —  
*Kim farosat/di-n+erdi sa/ru bari,*  
— V — / V — V — / V V —  
*Dedilar bar/cha ish unut/gusidur,*  
V V — / V — V — / V V —  
*Umri misli/ bahoyim o 't/gusidir.*  
— V — / V — V — / V V —

("To'tinoma", 100)

Yoki:

*Mashvaratsiz/ kishi omon/ topmas,*  
— V — / V — V — / — —

*Talabidin/ dame nishon/ topmas.* ("To'tinoma", 88)  
— V — / V — V — / — —

Doston qoliplovchi, xotimalovchi, qoliplanuvchi hikoyalardan tarkib topib, ularda axloq-odobga oid turli voqealar aks ettiriladi. Muallif mazkur hikoyalari orqali to'g'rilik, soflik, totuvlik, o'zaro ishonch, sadoqat, vafo singari mavzularni tashviq etib, odamiylikka yot bo'lgan sifatlarni esa qoralaydi. "To'tinoma"da ushbu mavzular To'ti, Xujasta, Maymun obrazi orqali xafif bahri vaznlarida ta'sirchan ifoda etilgan. Har bir hikoya so'ngida takrorlanuvchi va muallifning shu voqealari-hodisalarga munosabatini ifodalovchi lirik xotimalar keladi:

*Chun Xiromiy/ boray dedi/ bu kecha,*  
— V — / V — V — / V V —

*Qilg 'ali do 's/t xilvati/g'a julus.*  
— V — / V — V — / V V ~

*Subh bo 'ldi/ borurg 'a mo/ni anga,*  
— V — / V — V — / V V —

*Dushma-n+ermish/ bu elg 'a sub/hi xurus.*  
— V — — / V — V — / V V ~

E'tibor berilsa, dostondagi hikoyalar oxirida keltirilgan lirik xotimada qofiyalanish tizimi a-b, a-b singari ekanligi oydinlashadi. Bu esa shoirdan, o'z navbatida, baytlarda ham xafifi musaddasi maxbuni mahzufni, ham xafifi musaddasi maxbuni maqsur

vaznlarini qo'llashni taqozo etadi. Bunday qofiyalanish tizimi “Qutadg‘u bilig” dostonidagi to’rtliklarda ham aks etgan edi.

Bu yo’nalishda Xolis Toshkandiying ham “Qiyomatnoma”, “Arvohnoma”, “Ibratnoma” singari dostonlari mavjud bo’lib, XIX asr dostonchiligining yorqin namunalari hisoblanadi. Keltirilgan dostonlarning bevosita ikkitasining nomida “noma” bo’lganligi uchun ushbu yo’nalishdagi dostonlar sirasiga kiritdik. Bular “Qiyomatnoma”, “Arvohnoma” dostonlari bo’lsa, “Ibratnoma” esa bir nechta nomalardan iboratdir.

Xolis “Qiyomatnoma” dostonida qiyomat kuni tasvirini chizishga harakat qiladi, uni butun dahshati bilan ko’rsatishga intilgani aks etib turadi. Xususan, quyidagi bandlarda qiyomat kuni sodir bo’ladigan voqealar aks etadi:

*Oftobi Qiyomat ham kirgay jo ‘shqa,  
Barcha xalqni ko ‘zi to ‘lg‘ay qonlig‘ yoshqa.  
Ug‘on izim javru jafo solar boshqa,  
Harna kelsa ojiz banda ko ‘rar ermish...*

*Ayo, do ‘stlar, o ‘g‘ul atosiya boqmas,  
Qiz anog‘a, ano qizg‘a rahm aylamas.  
Er-u xotin bir-biriga shafqat qilmas,  
Har qaysisi o ‘z holig‘a bo ‘lar ermish.*

Unda o’sha kuni o‘g‘il otasiga, qiz onasiga, aksincha, ona qiziga boqmasligi, er-u xotin bir-biriga shafqat qilmasligi bayon etiladi. Dostonning vazn xususiyatlarini o‘rganib chiqqanimizda, asar barmoq vaznida yozilganligi oydinlashdi. Shuning uchun biz bu o‘rinda dostonni tahlilga tortmadik. F.Ravshanov ushbu doston haqida, uning mazmuni to‘g‘risida “Xolis va uning adabiy merosi” tadqiqotida batafsil to‘xtaladi<sup>1</sup>.

Shoirning “Arvohnoma” dostoni bevosita “Qiyomatnoma”ning davomiga o‘xshaydi. Ushbu dostonda, asosan, inson olamdan o‘tgandan keyingi qabrdagi holati hazaji musaddasi mahzuf imkoniyatidan foydalanib bayon etiladi.

*Na hikmatdur/ lahadda so ‘r/mog ‘idin,  
V — — — / V — — — / V — —*

<sup>1</sup> Qarang: Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т. 1997. – 153 б.

*O'shal tor yer/ga qabob ur/mog 'idin'.*

*V — — — / V — — — / V — —*

Keltirilgan bayt "Muhabbatnoma" vaznida yaratilgan. Faqat mavzu nuqtayi nazaridan "Muhabbatnoma" dan tubdan farq qiladi. Dostonda

*Maloyikka/ dedi bir kun/ xudovand,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Qulog soling,/ qilay sizlar/ga bir pand:*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Yaratqumdir/ xalifa yer/ yuzidin,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Manga ul ban/daliq qilg 'ay/ o 'zidin*

*V — — — / V — — — / V — —*

deb kunlarning birida farishtalarga Alloh taolo yer yuzida o'ziga xalifa yaratish istagi borligini, Tangri yaratgan xalifa unga bandalik qilishini so'zlaydi. Keltirilgan parchaning dastlabki misralari hazaji musaddasi maqsur, keyingisi hazaji musaddasi mahzuf vaznlarida bitilgan. Chunki bu vaznlar fikrni ifoda qilish uchun nihoyatda qulay. Qisqa bo'g'indan keyin ketma-ket 3 ta cho'ziq bo'g'inning kelishi shoir uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Fikrni bayon qilishda unga yengillik, ravonlik beradi. Shuningdek, ohang jihatidan ham chiroyli hisoblanadi.

Xolisning bu yo'naliishda yozilgan "Ibratnoma" dostoni yuqoridagi uning qalamiga mansub nomalardan farq qiladi. Asarda hayotning mohiyatidan ibrat beruvchi bir nechta nomalar aks etadi. "Ibratnoma"da Iskandar – bosh qahramon. Asarning boshida Iskandar, avvalo, jahonni qo'lga kiritgan yirik hukmdor, dunyoning barcha boyliklarini egallagan katta mulkdor sifatida gavdalanadi. Shuning uchun u izzattalab. O'zini o'zi kabi insonlardan yuqorida ko'ruvchi bir shaxs<sup>2</sup>. Iskandar "Dahmai shohon"ga borayotganda unga ilk ro'para kelgan mo'ysafid cholning befarqligi uni g'azablantiradi:

<sup>1</sup> Qarang: Арвохнома. И nv. №1009207, 15 саҳифа (охири йўқ), кўлёзма. – С. З. Lekin F.Ravshanovning ma'lumotiga qaraganda ushbu dostonning toshbosma nusxasi qo'yozmasiga nisbatan to'liq hisoblanadi.

<sup>2</sup> Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1997. – Б. 105.

*Agar san o/dami bo 'lsang/ na yuzdin,*

*V — — / V — — — / V — —*

*Nega ogoh/ emassen mun/da bizdin.*

*V — — / V — — — / V — —*

*So 'zimni anglagil sanga na derman,*

*V — — / V — — — / V — —*

*Ki bilsang podshohi bahru barman.*

*V — — / V — — — / V — —*

*Mani hurmat nega qilmaysan, ey yor,*

*V — — / V — — — / V — — ~*

*Kelibdurman eshikingga ba yak bor<sup>1</sup>*

*V — — — / V — — — / V — — ~*

Keltirilgan baytlarda Iskandarning xarakteri, holati hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi maqsur vaznlari ohangida ko'rsatiladi. U mo'ysafidga qarata "podshohi bahr-u bar" ekanligini, nega uni hurmat qilmayotganligini, eshigining oldigacha yakka kelganligini qahr bilan so'zlaydi. Shunda mo'ysafid chol Iskandarga qarata:

*Ishonma mulkinga andin xabar ol,*

*V — — / V — — — / V — — ~*

*O 'lim qilg 'ay sani alqissa poymol...*

*V — — / V — — — / V — — ~*

*Holo sanga/ ko 'runur sha '/nu shavkat,*

*V — — / V — — — / V — —*

*Ajal yetkach,/ ko 'rarsan ko 'p/ mashaqqat*

*V — — / V — — — / V — —*

deb aytadi. Bu bilan chol Iskandarga o'z qudratini namoyish qilib, ko'z-ko'z qilmasligini, mulkiga ishonmasligini, o'lim uni poymol qilishini, hali ham unga "sha'n-u shavkat" ko'rinyotgan bo'lsa, ajal kelganida ko'p mashaqqat ko'rishi bayon etadi. Allohning qudrati barchasidan ustun ekanligi ta'kidlanadi. Parchada kelgan ol, **poymol, shavkat, mashaqqat** kabi qofiyadosh so'zlar uning ikki xil vaznda yozilishini taqozo qilgan. Dunyoda yaxshi insonlar kabi

<sup>1</sup> Biz Xolis Toshkandiyning "Ibratnoma" asaridan namunani F.Ravshanovdan oldik. Olimda mazkur dostonning kirill alifbosiga o'girilgan nusxasi mavjud. Biz shu nusxadan foydalandik.

yomonlarning ham nomi dunyoda qolish, tarix sahifalarida ularning ismlari ham muhrlanishi aytiladi:

*Yomonning oti ham dunyoda qolur,  
Ani aytg'on sari ruhi uyolur.*

*Yomon otin/ olib ketgun/cha, ey yor,  
V — — — / V — — — / V — ~  
Na xush bo 'lg'ay/ tirik o 'tg'a/ giriftor.  
V — — — / V — — — / V — ~*

singari parchaning uchinchi va to'rtinchisini misralari hazaji musaddasi maqsurda yaratilgan. Misralarda qo'llanilgan *qol, uyol, yor, giriftor* singari ridfi asliyli murdaf qofiya *mafoiylun mafoiylun mafoiyl* musiqiy ohangini ta'minlagan. Shu tariqa Iskandar har bir manzilga yetganida o'zi uchun kerakli amallarni egallab boraveradi.

O'zbek adabiyotida Miriyning ham epik poeziyada yaratgan asarlari anchagina bo'lib, ularning bir qismini kichik hajmdagi masnaviyalar, yana bir qismini katta hajmdagi dostonlar tashkil etadi. Shoiring kichik hajmli masnaviyalari sirasiga "Choynoma", "Gulnoma"larni kiritish mumkin. Bularning voqealar rivojida shoiring hayotdan olgan taassurotlari aks etadi. Miriyning har ikkala doston-masnaviysi 1965-yilda M.Mahmudov tomonidan nashrga tayyorlangan "Tanlangan asarlari"dan o'rin olgan. Biz doston-masnaviyalarning vazn xususiyatlarini tahlil qilganimizda, "Gulnoma" *hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzufda*, "Choynoma" esa *xafisi musaddasi maxbuni maqtu'* vaznida yozilganligi oydinlashdi.

"Gulnoma" falsafiy ruhdagi asar bo'lib, Miriyning o'g'li Qudratullo xotirasiga bag'ishlanadi. Asar 1878-yilda (hijriy 1295) yaratilgan. Bu haqda Miriy "Gulnoma"ning so'ngida ma'lumot beradi:

*Gul chehrasi-yu ayog 'yuzdin,  
Ya'ni uchni unut o 'tuzdin.*

*Olding gulu yuzdin ul nishoni,  
Tarix: bihisht gulsiton!*

<sup>1</sup> Мирий. Танланган асарлар. – Т.: "Тошкент" бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 266. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

Shoir “Gulnoma”da o‘z ichki kechinmalarini tabiat bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Unda hayot go‘zalligini turli gullar vositasi tarannum etadi. Asardagi voqealar rivoji, asosan, shoirning hayotdan olgan taassurotlari bilan bog‘lanadi. Bu haqda B.Valixo‘jayev Miriy kichik hajmli izchil syujet liniyasiga ega bo‘lmay, falsafiy mushohadalardan iborat bo‘lgan “Gulnoma” masnaviysida salaflarining ilg‘or falsafiy qarashlarini davom ettirib, o‘zining jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabatini bayon etganligini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Doston soqiya murojaat bilan boshlanadi:

*Soqiy, qa/dahing mo ‘l+et/ karamdin,*

— — V/V — V — / V — —

*Qolmish bu/ rabot jo/mi Jamdin.*

(“Gulnoma”, 248)

— — V/V — V — /V — —

Yuqoridagi noma yo‘nalishidagi dostonlar “Muhabbatnoma” vaznida yaratilganligini qayd etgan edik. Lekin, “Gulnoma”dan keltirilgan bayt “Layli va Majnun” vaznida, ya’ni *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzufda* yaratilgan. Baytda soqiya qarata yaxshilik bilan qadahini mo‘l etishi, zero, bu karvonsaroy Jamshiddan ham qolganligi bayon etiladi. Baytdagi birinchi misrada vasdan, ikkinchi misrada esa imoladan foydalanilgan.

Miriy asarda gullarning nomini, xususiyatlarini aytish orqali ibrat namunasini yaratadi. Har bir gulning tasviri orqali u inkor va tasdiqni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Shoir o‘z botinidagi qarama-qarshi kuchlar bilan kurashadi. Bir o‘rinda ularni yengadi, birda esa yengiladi. Tadqiqotchi G.Xoliqulova gul – turli toifadagi insonlar, gulzor – ularning maskani, gulzor joylashgan hovli esa mayjud ijtimoiy muhit ekanligini bayon etadi<sup>2</sup>. Shoir quyidagi baytda

*Jonlar ba/ri foni(y) – tang/ri boqiy,*

— — V/V — V — / V — ~

*Ko‘p muncha/ tag‘ofu-l+et/ma, soqiy*

(“Gulnoma”, 248)

— — V/ V — V — / V — ~

deb, jonlarning o‘tkinchi, faqat tangrining boqiy ekanligini ta’kidlaydi, bunga esa soqiyanidan beparvo bo‘lmaslik so‘raladi. Bayt ohangi *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsurga* mos keladi.

<sup>1</sup> Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Мирний ва унинг замондошларин. – Т.: Фан, 1977. – Б. 34.

<sup>2</sup> Холикулова Г. “Рустам ва Суҳроб” бадинияти. – Т.: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 27.

Shuningdek, vazn talabi bilan taslim, vasl hodisalaridan foydalanilgan. Unga ko‘ra “foni” so‘zi vazn taqozosi bilan “foni” tarzida qisqa bo‘g‘in qilib, ya’ni “y” undoshi tushirilib talaffuz qilinadi. Ikkinchisi misrani ham tanlangan vaznga muvofiq o‘qish uchun “tag‘oful” so‘zi oxiridagi yopiq bo‘g‘inning so‘nggi undoshi o‘zidan keyin turgan unli bilan boshlanuvchi “et” bo‘g‘iniga qo‘sib o‘qiladi. Natijada, avvalgi yopiq bo‘g‘in ochiq bo‘g‘inga aylanib, vazn ruknlarga moslashadi.

*Menkim guli nozbo‘ ekibman,  
Mehnatlar aning uchun chekibman.*

*Ja‘far guliyu guli hinolar,  
Ham tojixurusi xush jilolar.*

(“Gulnoma”, 250)

Shoir bog‘da mehnat qilib, nozbo‘, ja‘far guli, guli xino, tojixurusi ekkaligini hamda u gullarning xush jilosi borligini bayon etadi. Keltirilgan parchada qofiya uchun qo‘llanilgan ekibman, chekibman, xinolar, jilolar kabi so‘zlar vaznni belgilashda asos bo‘lgan, bir qisqa va ketma-ket ikki cho‘ziq hijolar fauvlun ohangida o‘qiladi.

Asarda shoir murakkab she’riy san’atlarni ham vazn bilan hamohang qo‘llaydi. Shunday she’riy san’atlardan biri *raddul aruz ilal ibtidodur*. Tasbi’ yoki raddul aruz ilal ibtido (aruzning ibtidoda takrorlanishi) – birinchi misrani tugatgan so‘zning ikkinchi misra boshida kelishiga aytildi<sup>1</sup>. Baytning birinchi misrasi “gul” so‘zi bilan tugaydi va keyingi misra shu so‘zning takrori bilan boshlanadi.

*Soqiy, to‘la ayla sog‘ari gul,  
Gul yuz uza tashla zulfi sunbul.* (“Gulnoma”, 265)

“Gulnoma”ning qolgan boshqa baytlarida ham mazkur holatni kuzatish mumkin. Asarning ta’rix berilgan qismidan keyingi ikki bayti *hazaji musaddasi mahzufda* yaratilgan.

*Eshitmog‘lig‘/ uchun afso/nadur bu,  
V — — — / V — — — / V — —  
Demang Miriy/ni siz: – Devo/nadur bu!  
V — — — / V — — — / V — —  
Na gul qolg‘ay/jahonda, ne/guliston,  
V — — — / V — — — / V — —*

<sup>1</sup>Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги – Т.: O‘zbekiston, 2004. – Б. 255.

*Havo qilgan/ qushimga do/nadur bu!* (“Gulnoma”, 266)

*V — — — / V — — — / V — —*

Miriyning keyingi kichik hajmli asari “Choynoma” bo‘lib, asarda faqat o‘zining foydasini o‘ylaydigan, jamiyatga nafi tegmaydigan insonlar tilga olinadi. Bunda esa shoir baytlarda ham xafifi musaddasi maxbuni mahzuf, ham xafifi musaddasi maxbuni maqtu’, ham xafifi musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag‘ vaznlarining yengil ohangidan foydalanadi:

*Ablahi no/nu oshu cho/y talab,*

*— V — — / V — V — / V V —*

*Kona fi kul/li bob man/ yarg’ab.*

*— V — — / V — V — / — —*

*Odamiylig’/ ishida be/idrok,*

*— V — — / V — V — / — ~*

*Bedilu be/tamizu bas/ bebok*

(Choynoma, 267)

*— V — — / V — V — / — ~*

Umuman, adabiyotshunoslikda Miriygacha bu mavzuda Ogahiy “Choy” radifli g‘azalini yozgan edi. Faqat shoir ushbu mavzuni qayta sayqallab, o‘zbek epik poeziyasiga olib kirdi. “Choynoma”da choyning foydali xususiyatlarini adib nozik ilg‘agani holda, uni kitobat san’atidan ham foydalanib tasvirlaydi:

*Choy uch harfdurki, jim-u’l alif,*

*Oxir ismini yo tutib munsif.*

*Jimidur jome’i havosi xams,*

*Uch adaddin topib asosi xams.*

*Alifi xaymai tarabga sutun,*

*Sarv qad qomati kibi mavzun.*

*Yami rohatni yo erur arig’i,*

*Yo erur bahri zavqning balig’i.*

(Choynoma, 273–274)

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dastlab fors adabiyotida vujudga kelgan noma janri turkiy adabiyotda munosib o‘rin egalladi. Ilk noma janridagi asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Sayid Ahmadning “Taashshuqnomma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asarlari turkiy

<sup>1</sup> Bu so‘z jim (չ) emas, chim (Շ) bo‘lgani to‘g‘riroq.

nomachilikning yuksak namunalaridir. Ularda hazaj bahrining hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlari istifoda etilgan. Qosimiyning ikki dostoni “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma”lar ham “Muhabbatnoma” vaznida bitilganligi bilan an’anaviylik kasb etadi.

Xolis Toshkandiyning bu yo‘nalishdagi dostonlari o‘zigacha yaratilgan asarlardan tubdan farq qiladi. Garchi uning “Qiyomatnoma”, “Arvohnoma”, “Ibratnoma” singari dostonlari an’anaviy “Muhabbatnoma” vaznida yaratilgan bo‘lsa ham, ularning mavzusi tamoman mazkur nomadan farq qiladi. Buning sababi sifatida asrlar osha har bir janrda yangilik bo‘lgani kabi mazkur dostonlarni ham bu xususiyat chetlab o‘tmaganligida deb ko‘rsatish mumkin.

Miriyning “Gulnoma”, “Choynoma”si ham noma yo‘nalishidagi doston bo‘lib, vazni yuqorida keltirilgan nomalardan farq qiladi. Shoir o‘z asarini turli gullarga bag‘ishlagani uchun asosiy vazn sifatida *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsurni*, qo‘sishimcha vazn sifatida esa *hazaji musaddasi mahzufni* tanlagan. “Choynoma” uchun esa xafif bahri vaznlarini istifoda etadi.

Umuman olganda, noma yo‘nalishidagi dostonlarning vazni mumtoz adabiyotimizdagi ishqiy mavzudagi dostonlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

## 2.2-§. “Qo‘sh ismli” ishqiy yo‘nalishdagi dostonlarning vazn xususiyatlari

Ishq mavzusi azaldan oshiq-ma’shuq va ag‘yor orasida tarannum etib kelingan. Ishqiy mavzuda bitilgan dostonlarda, asosan, ishqilohiy majoz vositasida hamda avom ishqilohiy va ma’shuqa muhabbati asosida tarannum etgan. Qo‘sh ismli ishqiy dostonlarga misol tariqasida Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil”, Xiromiyning “Ra’no va Zebo”, Tabibiyning “Vomiq va Azro” masnaviyalarini keltirib o‘tish mumkin.

Sayfi Saroyi XIV asrning yirik shoirlaridan biridir. Fanda shoirning tarjimayi holi haqida turli ma’lumotlar mavjud. Biz bu masalaga maxsus to‘xtalib o‘tirmsandan, shoirning ishqiy mavzuda yozilgan “Suhayl va Guldursun” dostonini bevosita tahlilga

tortamiz. Doston 82 baytdan iborat bo'lib, asarda sevgiga vafodorlik, fidokorlik, mardlik tarannum etilgan. "Suhayl va Guldursun" aruz tizimining *hazaji musaddasi mahzuf* (asosiy vazn), *hazaji musaddasi maqsur* (qo'shimcha vazn)larida yaratilgan. Mazkur doston syujet jihatidan Nizomiyning "Xusrav va Shirin'i, Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida keltirilgan "Mehr va Suhayl" hikoyasini ham eslatadi. "Suhayl va Guldursun" dostoni adabiyotshunoslikda "Yodgornoma" nomi bilan ham shuhrat qozongan<sup>1</sup>. Shoir dostonning kirish qismida

*Emas afsona, chin ushbu bitilmish,  
Bu chin, afsonatek ishqda yetilmish<sup>2</sup>*

deb asar voqeasining afsona emasligini ta'kidlaydi. Keyingi baytlarda shoir tomonidan "Suhayl va Guldursun" dostonini yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad bayon etiladi. Shoir davr jafosidan yig'lab, bir er yigitning vafosini qissa qilganligini aytadi:

*Ayittim og'/labon davri/jafosin,*

*V— / V— / V—*

*Bir arning qis/sai axchi/vafosin.* ("Suhayl va Guldursun", 326)

*V— / V— / V—*

Ko'rindiki, keltirilgan baytning birinchi, ikkinchi ruknlari mafoiyun aslining *solimiga*, oxirgi rukni esa uning mahzuf tarmog'i *fauvlunga* teng. Bayt misralarini vaznga moslash uchun *taznibdan* foydalanilgan. Demak, *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan yuqoridagi baytda vazn talabi bilan "*aytdim*" so'zi "*ayittim*" tarzida istifoda etilgan.

"Suhayl va Guldursun" dostonining ayrim baytlari *hazaji musaddasi maqsur* vaznida ham bitilgan. Xususan, Sayfi Saroyi yaratgan dostoni tarixga yodgor bo'lishi, unda yolg'onnei emas, faqat haqiqatni yozganligini *hazaji musaddasi maqsurda* bayon etadi. Bu bilan adib mazkur vazn bilan ham yoqimli ohangdagi baytlarni yozish mumkinligini anglatmoqchi bo'ladi. Xususan,

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Уч булбул гулшани. Масъул мухаррир: Фаниева С. – Т.: Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 649 б; Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – 558 б.

<sup>2</sup> Сайфи Саройи. Сухайл ва Гулдуурсун / Уч булбул гулшани. Масъул мухаррир: Фаниева С. – Т.: Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 326. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

*Bo 'lur bu bi/ti(k)kim tarix/ga yodgor,  
 V — — — / V — — — / V — ~  
 Bu yodgorim/da yolg'on yo '/g'u, chin bor.  
 V — — — / V — — — / V — — ~*

(“Suhayl va Guldursun”, 330)

Keltirilgan bayt vazni yuqoridagi o‘lchovdan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilangina ajralib turadi. Chunki “yodgor”, “bor” so‘zлari tarkibidagi ikki cho‘ziq “o” unlisi vaznga yanada salobatliroq ohang bag‘ishlayotganini ko‘ramiz. Shuningdek, birinchi misradagi “bitikkim” so‘zini vaznga moslash uchun *taslim* hodisasidan foydalanilgan. Unga ko‘ra “bitikkim” so‘zining tarkibidagi juft undoshning biri tushirilib, “bitikim” singari ifodalanadi. Dostonda vaznga tushmagan misralar ham mavjud:

<i>Shu on keltir-</i>	<i>dilar chohga</i>	<i>Suhaylni</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — V —</i>	<i>V — V —</i>
<i>Guldursun bo-</i>	<i>qibon to 'xtat-</i>	<i>ti saylni</i>
<i>— — — —</i>	<i>V — — —</i>	<i>V — V —</i>

Jadval asosida keltirilgan misrada **choh** so‘zining tarkibida nisbatan cho‘ziq “o” unlisi, **Suhayl**, **sayl** so‘zlarida esa qator undoshlar ishtirok etgan. Bu esa ushbu so‘zlarda o‘ta cho‘ziq hijo (— V) mavjudligini bildiradi. Lekin baytda **choh**, **Suhayl**, **sayl** so‘zлari uchun oddiy cho‘ziq hijo qo‘llanilgan. Shuningdek, ikkinchi misrada ibtido qismida qo‘llanilgan **Gul-dur-sun** so‘zida ham barcha bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo (—) bilan istifoda etilgan. Vaholanki, *mafoiylun* asliy ruknidagi so‘z dastlab qisqa hijo bilan boshlanadi. Bu esa misralarda saktalik borligini ko‘rsatadi. Dostonda shoir Guldursunni tasvirlar ekan,

*Emas gul yuzi – Guldursundin ortiq.*

*Aning ko 'nglunda ishq – tengizdin ortiq*

(“Suhayl va Guldursun”, 330)

Ekanligini qayd etadi. Bunda shoir Guldursunning go‘zal husni jamolini, ko‘nglidagi ishqni dengizdan ham ortiq ekanini tasvirlashda hazaji musaddasi mahzuf vazni imkoniyatidan foydalanadi.

Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” dostonining yakunida dastlab arab xalq ijodida vujudga kelgan, keyinchalik yozma adabiyotga ko‘chgan ishqiy mavzudagi “Layli va Majnun” dostoni

tilga olinadi. Unda shoir ko'ngliga "Layli va Majnun" kelgani, keyin daftar ustiga so'z sel kabi yoqqanligini ta'kidlaydi:

*Kelib ko'nglima Majnun, Layli yodi,  
Dafotar ustina so'z seli yog'di.*

(“Suhayl va Guldursun”, 330)

Doston "Layli va Majnun" vazni hisoblangan *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida emas, balki *hazaji musaddasi mahzufda* yaratilgan. Xususan, "Suhayl va Guldursun" dostonida Suhayl suv va non olib kelishga ketadi. Qaytganida esa Guldursun vafot etgan bo'ladi. Shoir Suhaylning iztiroбли, alamlı holatini tasvirlashda *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznidan emas, balki *hazaji musaddasi mahzufdan* foydalanadi:

*Menga yaxshi bukun yor birla o'lmak,  
Na lozim dunyoda g'am bilan qolmak!*

*Shu so'zni aytti tig' urdi o'ziga,  
Ko'rinnmay qoldi keng olam ko'ziga.*

(“Suhayl va Guldursun”, 329)

Suhayl yorisiz bu dunyoda g'am bilan qolishni lozim topmaydi. Shunda u o'ziga o'zi tig' sanchadi. Bunda uning ko'zlariga keng dunyo ham ko'rinnmaydi. Dostondagi voqealar rivojida bo'ron ko'tarilganligini aytildi, "alar uzra to'kildi, qumdi tuproq, bu sirni tanho sahro bildi ko'proq" deydi. Shoir tomonidan bu manzara ham *hazaji musaddasi mahzufda* mahorat bilan bayon etiladi.

Mazkur yo'nalishdagi navbatdagi doston Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" idir. Yaqin-yaqingacha "Gul va Navro'z" ni Lutfiy qalamiga mansub doston deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aytildi. Lekin adabiyotshunoslikda bu kabi bahslarga hali uzil-kesil nuqta qo'yilgani yo'q<sup>1</sup>. Biz bu o'rinda dostonning muallifi masalasiga

<sup>1</sup> Qarang: Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов. – Т.: Хазина, 1996. – Б.187; Заҳириддин Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – Б.135; Эркинов С. Лутфий ҳакида сўз / Лутфий. Танланган асарлар. Иккинчи нашр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2012. – Б. 3-17; Исҳоков Ё. "Гул ва Наврӯз"нинг муаллифи ҳакида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – № 2. – Б. 17-19.

daxl qilmasdan, faqat uni mazmun va vazn nuqtayi nazaridan tahlilga tortamiz.

Zahiriddin Bobur “Aruz risolasi”da Haydari Turkiyning “Gul va Navro‘z” dostoni borligini aytadi va undan misol keltiradi<sup>1</sup>. Dostonda bir-biriga yuksak insoniy tuyg‘ular bilan muhabbat bog‘lagan ikki yoshning sarguzashti *hazaji musaddasi mahzuf* ohangida hikoya qilinadi. “Gul va Navro‘z” an’anaviy hamd, na’t, madh, “Sababi nazmi kitob”, 120 bob va 1307 baytdan iborat. Dostonning xotima qismida ko‘rsatilishicha, asar hijriy 814, milodiy 1411–1412-yillarda bitilgan.

*Tarix sekkiz yuz o ‘n to ‘rt erdi hijrat,  
Ki naqsh ettim bu manzuri muhabbat<sup>2</sup>.*

“Gul va Navro‘z” dostoni *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitilgan. Bu haqda Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs” asarida mazkur vaznda she’r base ko‘p ayriburlar, netokkim Shayx Nizomiy “Xusrav va Shirin”ni va Shayx Salmon “Jamshid va Xurshid”ni va Mavlono Haydar “Gul va Navro‘z”ni ayribur va qofiyalari gohi “mafoiyl” kelur va gohi “faulun” kelur, – deb ta’kidlaydi<sup>3</sup>. Dostonning qahramonlaridan biri Navro‘z kuni tug‘ilgani uchun unga “Navro‘z” ismini qo‘yganligini quyidagi baytlarda *hazaji musaddasi mahzuf* vazni orqali izohlaydi:

*Chu Navro ‘z bo ‘l/di navro ‘z ich/ra piruz,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Atodi o ‘g ‘lining oti/ni Navro ‘z.* (“Gul va Navro‘z”, 118)

*V — — — / V — — — / V — —*

Keltirilgan baytda shoir tajnis san’atidan foydalanim, “Navro‘z” so‘zini bayram, yangi kun va kishi ismi ma’nolarida qo’llaydi va *mafoiylun/ mafoiylun/ fauvlun* ohangini yaratadi.

Bu yo‘nalishdagi yana bir ijodkor Nishotiy bo‘lib, u XVIII asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasini, Xorazmda yashab ijod etgan shoirlardan biridir. Nishotiy g‘azal, muxammaslar bitish bilan birga “Husn va Dil” dostonini ham yaratdi. Dostonda shoirning hayotiga oid ba’zi bir ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, dostonning

<sup>1</sup> Qarang: Бобур. Аруз рисоласи. Нашрга тайёрловчи С.Хасанов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 664.

<sup>2</sup> Лутфий. Гул ва Наврӯз. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 101.

<sup>3</sup> Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов. – Т.: Хазина, 1996. – 187 б.

kirish qismida shoir Xorazmda tug‘ilib, umrining ancha qismini shu  
diyorda o‘tkazganligi haqida ma’lumotlar beradi:

*Bor edi Xorazm diyori – yerim,  
Andin edi yaxshi-yomon guharim.*

*Dema ani bor edi jannatmisol,  
Yetmagusi vasfig ‘a fahmu xayol.*

*Xalqi aning barchasi ishratfizo,  
Xulqi xushu nutqi dag ‘i dilkusho.*

*Ilm elining vasfi jahondin fuzun,  
Har ne gumon aylasang ondin fuzun<sup>1</sup>.*

Dostonning taxminan 15584 misradan iboratligi:

*Baytki taxminan erur yetti yuz,  
Yetti mingu to ‘qson ikki bo ‘ldi tuz* (“Husn va Dil”, 126)

deb, dostonning qachon yaratilganligi haqida ham ma’lumot beradi:

*Muddati tarixini etsam bayon,  
Xatmi Dil va Husndur, ey nuktadon.* (“Husn va Dil”, 326)

Demak, ushbu ta’rixdan doston hijriy 1192-milodiy 1778-yilda  
yaratilganligi oydinlashadi. “Husn va Dil” adabiyotshunoslikda  
ikkita: Husn va Dil nomi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun unga ishqiy  
yo‘nalishdagi qo‘sish ismli doston sifatida qaraladi. Doston

*Manki edim/ vodii g‘ur/bat aro,  
— V V — / — V V — / — V —  
Kulfa-t+ila/ ranju suuv/bat aro  
— V V — / — V V — / — V —*

singari *sari ‘i musaddasi matviyi makshuf* o‘lchovida yaratilgan bayt  
bilan boshlanadi. Vazn xususiyatiga ko‘ra vasl hodisasidan  
foydalilanilgan. Baytning ikkinchi misrasidagi “**kulfat**” so‘zining “t”  
undoshi undan keyin kelayotgan “i” hijosiga qo‘silib, “ti” tarzida  
talaffuz qilinadi. Doston ishqiy xarakterga ega bo‘lsa-da, lekin  
Muhammadniyoz Nishotiy dostonning kirish qismida o‘z asarini  
Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy “Xamsa”sining ilk dostoniga  
javoban yozganini aytadi va ularni eslab o‘tadi:

<sup>1</sup> Муҳаммадниёз Нишотий. Ҳусн ва Дил. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадний адабнёт  
нашриёти, 1967. – Б. 22–23. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida  
ko‘rsatiladi.

*To 'rt kitob andaki mazkur erur,  
Xamsalig' oti bila mashhur erur.*

*Har birining avvalida bir kitob –  
Bor edikim, andin edi fathi bob.*

*Birining oti: "Maxzani asrori shavq",  
Ul birisi: "Matlai' anvori shavq".*

*Yona biri: "Tuhfat ul-ahror" edi,  
Biri aning: "Hayrat ul-abror" edi.*

*Man dog'i anlarg'a demoklik javob*

*Istabon ayttim bu so 'zi irtikob.* ("Husn va Dil", 40)

Nishotiy ushbu satrlarda Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy "Xamsa"sining ilk dostonini eslab o'tgani bois uning ishqiy mavzudagi asari uchun sari' bahrini tanlagani sababi oydinlashganday. Ya'ni shoir doston yozishni boshlagan paytda, ehtimol, "Hayrat ul-abror" yo'nalishida bir doston yozmoqchi bo'lganu, lekin voqealar rivoji, mavzu, mazmun kengayib, yo'nalish o'zgargan va "Husn va Dil" dostoni vujudga kelgan. Shu ma'noda sari' bahri tanlanganligini mazkur holat bilan asoslash mumkin.

"Husn va Dil" 62 bobdan iborat. Doston tarkibiga 5 ta: "Shahboz va Bulbul", "Gul va Daf", "Nay va Naxl", "Kosayi Chin va Nargis", "Binafsha va Chang" munozaralari ham kiritilgan. "Husn va Dil" dostoni biror shoh yoki shahzoda buyrug'i bilan emas, balki muallifning yozishicha, bir shoirtab' do'stining maslahati bilan yaratilgan. "Nishotiy badiiy asarni farzandidek qadrlagan va o'zidan adabiy yodgorlik qoldirish istagida "Husn va Dil" hikoyatining nasriy varianti asosida qisqa muddat (5 oy) ichida ajoyib bir doston yarata oldi"<sup>1</sup>. Garchi shoir juda qisqa muddatda ushbu dostonini yozgan bo'lsa-da, uning g'oyaviy syujeti inson ma'naviyati uchun xizmat qiladi.

Keyingi qo'sh ismli ishqiy doston sifatida Xiromiyning "Ra'no va Zebo" dostonini kiritish mumkin. "Ra'no va Zebo"ning manbai Barxurdor ibni Mahmud turkmani Farohiyuning "Mahfiloro" ("Bazmlarning ziynati") dostonidir... Farohiy XVII asrda yashagan

<sup>1</sup> Холид Расул. Нишотийнинг "Хусн ва Дил" дostonи хақида // Ўзбек тили ва адабиётин масалалари. – Т., 1962. – № 4. – Б. 15.

bo'lib, "Mahfiloro" Isfahon shahridaligida yozilgan... "Mahfiloro" boshqa qissalar bilan bir qatorda, "Ra'no va Zebo"ni ham o'z ichiga olgan. Ammo "Mahfiloro"ning bu to'liq varianti muallif hayotligidayoq o'zaro feodal urushlar tufayli yo'qolib ketadi. Barhurdor Farohiy do'stlarining maslahati bilan "Mahfiloro"dagi qissalarning xotirida borlarini kitob shakliga keltiradi va "Mahbub ul-qulub" deb nom beradi<sup>1</sup>. O'zbek tilida Farohiyning asarini nazm yo'li bilan qayta yaratgan shoir Xiromiydir. Shoir ushbu asari orqali o'zbek poemachiligiga yana bir dostonni olib kirib, badiiy tarjima va nazira an'analarini XIX asrda davom ettirdi.

Akademik A.Qayumovning quyidagi fikrlari o'rinnlidir:  
"... umuman, o'tmish o'zbek adabiyotida tarjima nisbiy ma'noga egadir. Biror syujetda bir necha asarlar yaratish adabiyotda an'ana bo'lib qolgani ma'lum. Nizomiy, Amir Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoriy, Abdurahmon Jomiylarning "Xamsa"ga Kirgan dostonlar syujeti asosida yaratilgan asarlari jahon adabiyoti xazinasidan o'rinn egalladi. Bulardan tashqari, "Yusuf va Zulayxo" syujeti asosida Jomiy, Nodim, Hoziqlarning tojik tilida, Durbek, Xiromiylarning esa o'zbek tilida yozgan dostonlari hammaga ma'lumdir. Bas, shunday ekan, bu an'anani tarjima deb qarash uchun bizda hech qizday asos yo'q. Bir qofiya, bir vazn, bir radifda yozilgan taqlidiy she'rlarni ayrim mualliflarning mustaqil asarlari deb talqin etilgan paytda asrlar bo'yli davom etib kelgan an'anaga binoan bir syujetda yozilgan asarlarni tarjima deb hisoblash, fikrimizcha, yanglish, noho'g'ri bo'lar edi"<sup>2</sup>. Xiromiyning "Ra'no va Zebo"si ham ana shunday xarakterdagi dostonlardan hisoblanadi.

Shoirming "Ra'no va Zebo" dostoni Kitob va Shahrishabz Nasrulloxon tomonidan qamal etilgan yilda – xalq boshiga cheksiz kulfat va alam yog'ilgan paytda yozilgan. Mazkur doston Shahrishabz madhiga bag'ishlangan mustaqil qasida bilan boshlanib, unda adolatli shoh davrida yashnagan xalqning tasviri keltiriladi. Qasida:

*Ketur, soqiy, qadahni aylagin soz,  
Ichib oni qilay bir qissa og'oz.*

<sup>1</sup> Абдуллаев В. Мирый ва унинг замондошлари / Сайланма. Адабий-тандыр маколалар. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 351.

<sup>2</sup> Каюмов А. Кўкон адабий муҳити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 300–301.

*Xiromiy aylayin bir nusxa insho,  
Ki har mahfilda bo 'lsin mahfiloro<sup>1</sup>*

to'rtligi bilan yakunlanadi. Shundan keyin dostonning asosiy syujet chiziqlari boshlanadi.

"Ra'no va Zebo" dostonining markazida ikki yosh sevishganlarning pok muhabbatini turadi. Chunki ular o'z davrining "rizoyi nafsga" yugurmaydigan, "poklikni qo'rg'on etgan" obrazlari bo'lib, ulardagi bu asosiy fazilat asarning so'ngigacha bo'rtib boradi hamda oshiqlarni bir-biriga yetishtiradi. Doston qo'sh ismli dostonlar singari *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitilgan. "Ra'no va Zebo"ning kirish qismida

*Sanavbarshoh/da ham bor e/di duxtar,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Shabiston/ haramg'a mo/hi anvar.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Malohat max/zanig'a dur/ri yakto,*

*V — — — / V — — — / V — — .*

*Paripaykar/ najode, o/ti Zebo.* ("Ra'no va Zebo", 7)

*V — — — / V — — — / V — —*

kabi misralarda Zeboning go'zal qiyofasi san'atkorona tasvirlangan. Unda Zebo Sanavbarshohning qizi, qorong'uda oy, malohat xazinasida yagona dur, najot farishtasi ekanligi vazn imkoniyatidan foydalaniib tasvirlanadi. Xiromiy mazkur vazn asosida Zeboning husni uning ma'naviy qiyofasiga mos ekanligini ham dostonda ta'sirli tasvirlaydi.

*...Ko'rarkim no/zanin siymin/ uzore,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Sadaf batni/da durri sho/hvore.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Qadi guldas/tai bog'i/ latofat.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Labidur chash/mai koni/ malohat.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Ko'zi davri/da har mijgo/ni xunrez,*

*V — — — / V — — — / V — —*

<sup>1</sup> Хиромий. Раъно ва Зебо. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962. – Б. 5. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

*Ulus qatl/ uchun bir xan/jari tez.* (“Ra’no va Zebo”, 12)

*V — — — / V — — — / V — —*

“Ra’no va Zebo”da Ra’no obrazi ikki xil fazilatda ko’rsatiladi. Birinchidan, u sadoqatli yor. Ikkinchidan, esa adolatli shoh. Ushbu ikki fazilat Ra’no obrazida dostonning boshidan oxirigacha ko’rinadi. O’zbek adabiyotida Miriy ham tojik tilida “Ra’no va Zebo” dostonini yaratadi.

Keyingi qo’sh ismli doston sifatida Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostonini ko’rsatish mumkin. Ma’lumki, Sharq adabiyotida “Vomiq va Uzro” dostonining bir qancha variantlari mavjud. “Tekshirishlar shuni ko’rsatadiki, Firdavsiy zamondoshi Unsuriyning “Vomiq va Uzro” dostoni bizgacha yetib kelmagan. Lomiining turk tilida yozgan shunday dostoni esa Stanbuldadir. Eron shoiri Zahir Kirmoniyning “Vomiq va Uzro” dostoni fors tilida yozilgan bo’lib, O’zFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi<sup>1</sup>. Biroq mazkur dostonlarning barchasi nasrda yaratilgan. Ahmad Tabibiy o’zining “Vomiq va Azro” dostonini nazmda bitdi.

Doston Sharq adabiyotida mashhur bo’lgan asarlardan biridir. “Yusuf va Zulayxo”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” singari juda ko’plab shoirlar bu mavzuga murojaat qilganlar va turli variantlarini yaratganlar. “Ularning har biri syujet va g’oya jihatidan ayrim originallikka ega bo’lgan yirik asardir... Ular o’zlarining lirik g’azallarida va dostonlarida yorning go’zalligini Azroga, oshiqning qahramonligini esa Vomiqqa o’xshatganlar, ularning nomini qayta-qayta tilga olganlar<sup>2</sup>. Obrazlar talqinida Nizomiy va Navoiy dostonlari ta’siri ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi tasvir vositalaridan keng foydalangan<sup>3</sup>. Balki, shuning uchun ham doston *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan bo’lishi mumkin.

Tabibiy doston muqaddimasida eronlik shoir Zohir Kirmoniyning “Vomiq va Azro”sining nasriy tarjimasini Sayid Hasan Xorazmiy tarjima qilganligini aytadi. Keyin “Vomiq va Azro”ning nasriy tarjimasi Xorazm xoni Muhammad Rahim

<sup>1</sup> Ганихўжаев Ф. Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1962. – № 6. – Б. 69.

<sup>2</sup> Ганихўжаев Ф. Ахмад Табибий / Табибий. Таъланган асарлар. – Т.:Faafur Fu’lom nomidagi badinij adabiёт nashriёti, 1968. – Б. 9.

<sup>3</sup> Косимов Б. ва бошк. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: МА’НABIYAT, 2004. – Б. 91.

soniyga yoqib qoladi. Shundan keyin Muhammad Rahim soniy Tabibiya "Vomiq va Azro"ni nazmda bitishini buyuradi. Doston 81 bob, 8100 bayt, 16200 misradan iborat. Dostonda voqealar rivojida Vomiq sandiq ichidan chiqqan Azroning suratini ko'rib lol qoladi va hushidan ketib yiqiladi:

*Ko'rub Vomiq/ hamul holat/ga yetdi,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Ki o'zni mah/v misli su/ra-t+etdi.*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Qaroru hu/shu sabri bo 'l/di barbod,*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Yaqin erdi/ki bo 'lsa jon/di-n+ozod.*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Ketib oxir/ yiqildi hu/shi yerga,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Botib sarto/ bapo za'-f+i/la terga'*<sup>1</sup>

*V — — — / V — — — / V — —*

kabi parcha *hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznida yozilgan. Vazndagi hijolarning tengligini saqlash uchun vasl hamda imolani o'z o'rnidagi qo'llash kifoya. Bu esa ohangda o'ynoqilik va yengillik hosil qiladi. "Vomiq va Azro" dostonida arabcha jumlalar ham uchraydi:

*Qilib yuz na/v' tashvir o/shkoro,*

*V — — — / V — — — / V — —*

Dedi: "*Yo lay/ta muttu qab/la hozo*" ("Vomiq va Azro", 113)

*V — — — / V — — — / V — —*

tarzidagi baytning ikkinchi misrasi arab tilida bitilgan. Dostonda keltirilgan arabcha jumla ham uning vaznidan chetlashmagan. Asosiy matn bilan uning o'lchov imkoniyatlari bir xil. Arabcha jumla ma'nosi dostonda "Koshki shundan ilgari o'lsam erdi" singari izohlanadi.

Tabibiy dostonning xotima qismida ushbu asar it yili, 1328-hijriy, 1910-milodiy yilda yozib tugatilganligini ta'kidlaydi.

*Bihamdillahki, Xoliq yovar o 'ldi,*

*Mute 'im baxtu tole ' chokar o 'ldi.*

<sup>1</sup> Табибий. Танланган асарлар. – Т.: Faafur Gulom nomidagi badshah adabiyet nashriyoti, 1968. – Б. 74. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

*Ki, ya'ni nusxai "Azro va Vomiq",  
Mururi soli sak ichra muvosiq.*

*Demak tarixini chun joyiz erdi,*

*Mingu uch yuz yigirma sakkiz erdi. ("Vomiq va Azro", 126)*

"Vomiq va Azro" ikki nusxada Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko'chirilgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lyaptiki, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Xiromiyning "Ra'no va Zebo", Tabibiyning "Vomiq va Azro" masnaviyalarida *hazaji musaddasi mahzuf* o'Ichovi istifoda etilgan. Mazkur vazn yuqorida nomi keltirilgan dostonlar uchun an'anaviylik kasb etadi. Bu yo'naliшhdagi dostonlar orasida faqat Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" dostonigina sari'i musaddasi matviyi makshuf (mavquf) vaznidadir. Buning asosiy sababi sifatida Nishotiyning dastlab "Xamsa" yaratishni niyat qilgani va o'z dostonini beshliklardagi ilk dostonlar yoziladigan sari' bahrida yaratgani bilan izohlash mumkin. Xulosa qilib aytganda, biz tahvilga tortgan qo'sh ismli ishqiy dostonlarda vazn bilan bog'liq an'anaviylik, asosan, saqlangan bo'lib, Nishotiyga kelib bu an'ana buzilgan va o'zgachalik kasb etgan.

### **2.3-§. "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarda o'Ichov masalasi**

Ishqiy mavzudagi dostonlar mumtoz adabiyotda salmoqli o'rin egallaydi. Ishqiy dostonlarning bir bo'g'ini hisoblangan "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi asarlar ham shular jumlasidandir. Adabiyot tarixida "Yusuf va Zulayxo" mavzusida ko'plab asarlar yaratilgan.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur'oni karimga bog'lanadi<sup>1</sup>. Xususan, Qur'onidagi talqini birmuncha ixcham va badiiy shakllangan. Tavrotdagisi folklorga yaqin va qadimiy Misr afsonalariga borib taqalishi taxmin qilinadi. Sharqda keng tarqalgan qissaning bu varianti Qur'oni karimning 12-surasi asosida shakllangan bo'lib, jamiki "Yusuf va Zulayxo" qissa va

<sup>1</sup> Жумаева Д. "Юсуф ва Зулайхо" туркумидаги дostonларининг қиёсий-матний талкини. Филол. фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2020. – Б. 12.

dostonlarining ilhom manbayi ushbu suradir. Ushbu qissa Qur'onda "ahsan ul-qisas" (qissalarning eng go'zali) deya ta'riflanadi. Mazkur qissa davrlar o'tishi bilan Sharqda go'zal adabiyot namunasi sifatida keng tarqaldi, ko'plab yangi voqealar bilan boyib, alohida asar holida qalamga olina boshladi.

Tadqiqotchi D.Jumayeva ijodkorlarning mazkur qissaga murojaat qilish sabablarini quyidagilarda deb ko'rsatadi: birinchidan, Sharq xalqlari, asosan, islom diniga e'tiqod qiladi. Ular, xoh madaniy-maishiy, xoh ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'lsin, doimo Qur'oni karimga tayangan. Ikkinchidan, mazkur surada islomiy e'tiqod va islomiy axloq masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, boshiga har qanday kulfat tushganda, inson yolg'iz Allohdan najot kutishi, Uning madadiga ishonmog'i va sabrli bo'lmog'i qissaning bosh g'oyasini tashkil qiladi... Uchinchidan, surada faqat islomiy ma'rifikat va axloq masalasigina emas, balki dunyoviy, ya'ni ijtimoiy-maishiy ishlarga ham diqqat qaratilgan. To'rtinchidan, butun dunyo xalqlarining ishqiy-sarguzasht dostonlarga qiziqishi va talabi katta ekani, ushbu qissada Misr hokimi bo'lmish Qitfiyming xotini Zulayxo obraqi, uning Yusufga oshiq bo'lib qolishi va visolga erishish yo'lida qilgan tadbirlari, xatti-harakatlari boshqa manbalardagidan ko'ra ancha mukammal yoritilgan. Bu esa, o'z navbatida, barcha qissago'y shoirlarning e'tiborini jalb qiluvchi yana bir omildir<sup>1</sup>.

Sharq adabiyotida IX asrdan boshlab "Yusuf va Zulayxo" syujeti asosida 150 dan ortiq doston va qissalar yaratilgan<sup>2</sup>. Omoniy (X-XI asr), Baxtiyoriy (X asr), Shayyod Hamza (XIII), Ali (XIII asr), Suli Faqix (XIII), Shahobiddin Oshiq (XIV), Dariy (XIV), Durbek (XV), Abdurahmon Jomiy (XV), Husayn Chalabiy (XV), Nozim Hiraviy (XVII), Hoziq (XIX), Olim Devona (XIX), Xolis Toshkandiy (XIX) va yana boshqa ko'pgina fors-tojik, o'zbek, turk, ozarbayjon shoirlarining dostonlari shular jumlasidandir. XX asrda Yusuf va Zulayxo obraziga Nozim Hikmat va T.Mannlar ham murojaat qilganlar. T.Mann "Yusuf va uning akalari" asarini, Nozim

<sup>1</sup> Жумасва Д. "Юсуф ва Зулайхо" туркмандаги достонларнинг киёсий-матний талкни. Филол. фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Т.. 2020. – Б. 13.

<sup>2</sup> Ви haqda qarang: История узбекской литературы. В 2-х томах. Том 1. – Ташкент, 1987. – С. 169.

Hikmat “Go‘zal Yusuf” asarini bitadi. O‘zbek shoiri Ramz Bobojon ham “Yusuf va Zulayxo” nomli asar yozgan<sup>1</sup>. Yaratilgan ushbu qissa-dostonlar ichida eng mashhurlari Abul Muayyad Balxiy, Firdavsiy, Shahobiddin Am‘aq, Shohin Sherziy, Abdulloh Ansoriy, Xoja Mas‘ud Iroqiy va Abdurahmon Jomiy qalamlariga mansubdir. “Yusuf va Zulayxo” kechinmalari asosida ushbu shoirlar o‘z adabiy tajribalari asosida katta hajmli asar yaratish an’anasiga asos soldilar.

Adabiyot tarixida dastlabki “Yusuf va Zulayxo” dostoni muallifi masalasida bahsli munozaralar mavjud. Ushbu doston yaqin yillargacha Firdavsiy qalamiga mansub deb qaralardi. Bu borada sharqshunos olim A.Tohirjonovning Firdavsiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni tahliliga oid maxsus maqolasi ham bor<sup>2</sup>. Biroq adabiyotshunoslikda mazkur masala yuzasidan keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ushbu qarashning noto‘g‘ri, yanglish ekanligi ta’kidlangan. Ushbu masala yuzasidan tojik adabiyotshunoslida Firdavsiyga nisbat beriladigan “Yusuf va Zulayxo” dostonining muallifi XI asr shoiri Omoniy degan so‘nggi to‘xtamga kelindi<sup>3</sup>. Omoniiga nisbat berilayotgan doston mutaqoribi musammani mahzuf (rukni va taqtisi: *fauvlun, fauvlun, fauvlun, faal* V — — V — — V — — V —) o‘lchovida bitilgan. Ta’kidlangan vaznda cho‘ziq hijolarning joylashuvi va ritmik urg‘uning ko‘pligi hukmdorlarning ulug‘vorligini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Turkiy adabiyotda ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar sifatida XIII asrda yashagan Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostoni tilga olinadi. Shoirning “Qissayi Yusuf” dostoni bugungi kunda tatar adabiyotiga nisbat berilayotgan bo‘lsa-da, asar yozilgan davrda hali turkiy qavmlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni oxiriga yetmagani uchun, bu asarni umumturkiy yodgorlik sifatida qarash maqsadga muvofiq. Yana XIII asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyo saljuqiylaridan Sayyod Hamza ham “Yusuf

<sup>1</sup> Ислом энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1997. – Б. 45.

<sup>2</sup> Qarang: Тагирджанов А.Фирдавси. – М.: Наука, 1979. – С. 95–96; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгушилиги. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 56.

<sup>3</sup> Qarang: Афсаҳзод А. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. – М.: Наука, 1988. – С. 63; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгушилиги. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 56.

va Zulayxo” dostonini yaratgan. 1409-yili Durbek degan shoirga nisbat berib kelinayotgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni ham o’zbek tilidagi bu an’anaviy dostonning yorqin, mukammal namunalaridandir<sup>1</sup>.

Qul Alining “Qissai Yusuf” nomli dostoni XIII asr boshlarida yaratilib, “bulg’orlar va ularning ajodolari – Volgaboyi tatarlari o’tasida juda keng tarqalgan”<sup>2</sup>. M.F. Kupruluzoda mazkur dostonda ilohiy ishq tasvirlanganligini zikr etadi<sup>3</sup>. Qul Alidan so’ng bu qissa Rabg’uziy ijodida uchraydi, shoir ushbu mavzuni yuksak cho’qqiga olib chiqadi. Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asari “Yusuf va Zulayxo” turkumiga oid barcha qissa-dostonlar uchun muhim manba vazifasini o’tadi. Qul Alining “Yusuf va Zulayxo” dostoni to’rtliklardan iborat bo’lib, uni shoir ruboiy vazni asosida yozganligini ta’kidlaydi:

<i>Əy, dəri</i>	<i>gə, dikmə kem</i>	<i>sə dyzy</i>	<i>-mədi,</i>
<i>— — V</i>	<i>V — — —</i>	<i>— — V</i>	<i>V —</i>
<i>Fəhme ik</i>	<i>syk kemi</i>	<i>selər yazu</i>	<i>-mədi,</i>
<i>— — —</i>	<i>— V —</i>	<i>V — — V</i>	<i>V —</i>
<i>Bu zagi</i>	<i>fi-η + ushpu nə</i>	<i>-z’mi azu</i>	<i>-mədi,</i>
<i>— — V</i>	<i>V — V —</i>	<i>V — — V</i>	<i>V —</i>
<i>Robagi</i>	<i>vəze-n+ich</i>	<i>-ra dursun im</i>	<i>-di<sup>4</sup>.</i>
<i>— — —</i>	<i>— V —</i>	<i>V — — —</i>	<i>—</i>

Ko’rinadiki, keltirilgan to’rtlikning birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi solimi ajabb*, ikkinchi *hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajabb*, uchinchi *hazaji musammani axrabi maqbizi makfufi ajabb*, to’rtinchı misralari esa *hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar* o’lchovlarida bitilgan. Mumtoz adabiyotshunoslikda ruboiy janrining to’rt misrasi axrab va axram

<sup>1</sup> Qarang: Ҳайдаров С. Ўзбек дунёвий адабиётининг ривожланишида Дурбекнинг роли. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1962. – Б. 89; Халиков А.Х. Татарский народ и его предки. Казань, 1989. – С. 109.

<sup>2</sup> Хисамов Н.Ш. Поэма “Кисса-и Йусуф” Кул Али и задачи сопоставительного изучения тюркских версий сюжета Йусуфа // Вопросы советской тюркологии. – Ашхабад, ылым, 1988. – С.43–47.

<sup>3</sup> Купрлузода М.Ф. Турк адабиётида илк мутасаввифлар. – Анкара, 1984. – Б. 15.

<sup>4</sup> Кол Гэли. Кисса-и Йусуф һәза кыйссәи Йусеф гәләйіни әс-сәлям // <https://ndp-vatan-knigi.blogspot.com/2010/07/>. 1005-to’rtlik.

shajarasining turli vaznlarida yozilgani kabi, biz bu to‘rtlikdagi to‘rt vaznning istifoda etilishini tabiiy holat deb qaraymiz.

Dostonning o‘lchov imkoniyatlarini o‘rganish jarayonida yana bir to‘rtlikni tahlil qilib ko‘ramiz.

<i>Bən zəgi</i>	<i>-fi hiknət ta</i>	<i>-ba sən yandır</i>	<i>-gil</i>
<i>V — — V</i>	<i>V — — V</i>	<i>V — — —</i>	<i>—</i>
<i>Pənd-y hik</i>	<i>-mə-t+ayitma</i>	<i>-gə sən kandır</i>	<i>-gil</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — V</i>	<i>V — — —</i>	<i>—</i>
<i>Sadrem ich</i>	<i>-rə mədəd</i>	<i>shəmgin sən yan</i>	<i>-dirgil</i>
<i>V — — —</i>	<i>— V —</i>	<i>— — — —</i>	<i>— — —</i>
<i>Xaterim</i>	<i>-ni sən menəy</i>	<i>-yar kilgil im</i>	<i>-di. (15-to‘rtlik)</i>
<i>V — —</i>	<i>V — V —</i>	<i>— — — —</i>	<i>—</i>

To‘rtlik bir qarashda ruboiyga o‘xshaydi. Uning ruboiyga xos qofiyalanishi, tuzilishi shunday fikrga kelishimizda asos bo‘la oladi. Biroq tahlil jarayonida uning o‘lchov imkoniyatlari ruboiy vazniga mos emasligi oydinlashdi. Buni yanada chuqurroq anglash uchun jadvalga solingan to‘rtlikka qarash kifoya. Bu o‘rinda belgilangan ruknlar vaznga tushmaganligini ko‘rish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, Qul Alining “Yusuf va Zulayxo” asari ruboiy vaznidagi emas, balki uning tarkibida ruboiy vaznidagi she’rlar uchraydi. XIV-XV asrlar adabiyotining yana bir vakili Durbek bo‘lib, shoirning bizgacha “Yusuf va Zulayxo” dostonigina yetib kelgan. Uning “Yusuf va Zulayxo” dostoni 1409-yili yaratilgan. Bu haqda shoir dostonning “Kitob nazmining ibtidosi”da ma‘lumot beradi:

“Zod” edi tarixi taqi “he”yu dol,  
Muddati hijratdin o‘tub mohi sol<sup>1</sup>.

Arab alifbosi asosida keltirilgan abjad hisobiga ko‘ra “zod” (“ض”) – 800, “he” harfi (“ح”) – 8, “dol” (“د”) – 4ga teng hisoblanadi. Abjad hisobiga ko‘ra, har uchala harfning sondagi yig‘indisi 812-hijriy yilni keltirib chiqaradi. Professor Sh.Sirojiddinov hijriy yilni milodiyga aylantirish uchun hijriy yilni 33ga bo‘lish kerakligini, sababi sifatida har 33 yilda hijriy yil hisobi milodiy yil hisobidan bir yilga ko‘payishini aytadi. Hosil bo‘lgan

<sup>1</sup> Дурбек. Юсуф ва Зулайх / Уч булбул гулшани. Қайта нашрга тайёрловчи Р.Шарафутдинова – Т.: Фафур Гуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 6. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

sonni hijriy yildan ayirib, qolgan songa 621ni qo'shish lozimligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Demak, dostonning yozilgan sanasini chiqarish uchun quyidagicha hisoblash kifoya:

$$812:33 = 24,60$$

$$812 - 24 = 788$$

$$788+621=1409$$

Bunda qoldiq bir birlik hisoblanib, yig'indiga qo'shiladi. Adabiyotshunoslikda dostonning chuqur va batafsil o'rganilishida S.Haydarovning xizmati katta bo'ldi. Asarning qo'lyozma nusxalari dunyoning turli fondlarida saqlanadi va ular ko'p nusxalarni tashkil etidi. O'zbekistonda ham "Yusuf va Zulayxo"ning turli davrlarda ko'chirilgan o'nga yaqin nusxasi mavjud. Mazkur doston ilk bor 1959-yilda "Fan" nashriyotida Sh.Sharafiddinov (Xurshid) tomonidan chop qilingan. 1987-yilda nashr ettirilgan "Uch bulbul gulshani" kitobiga ham kiritilgan. Biz tadqiqotimizda ushbu nashrdan foydalandik.

Adabiyotshunoslikda Durbekning "Yusuf va Zulayxo" dostonining muallifi to'g'risida olimlarning turli qarashlari mavjud. Ba'zilar fransuz sharqshunosi E.Bloshening bu asar Alisher Navoiy qalamiga mansub degan fikriga moyillik ko'rsatgan bo'lsalar, ayimlar, jumladan, tarixchi D.G.Voronovskiy o'zining "Астрономы Средней Азии от Мухаммеда ал-Хаваразми до Улугбека и его школы (IX–XVI вв.)" nomli maqolasida Durbek Ulug'bekning adabiy taxallusi bo'lib, "Yusuf va Zulayxo" ham Ulug'bek – Durbek qalamiga mansub degan gipotezani o'rtaga tashlaydi. Masala shu tarzda davom etib, nihoyat asarning muallifi shoir Homidiy degan fikr ham bayon qilindi<sup>2</sup>. Eduard Bloshe "Yusuf va Zulayxo" dostoni haqida fikr bildirishda asardagi quyidagi parchaga asoslangan bo'lsa kerak:

*Jami-i Qur'an edi kan/-i yaqin*

— V V — / — V V — / — V —

*Erdi Ali/ sheri haqui shohi din.*

— V V — / — V V — / — V —

<sup>1</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоклари. – Т.: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019. – Б. 74.

<sup>2</sup> Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 51.

Keltirilgan baytning so'nggi misradagi "Ali" hamda "sher" so'zlarini "Alisher" shaklida qo'shib o'qigan. Shu sababli doston muallifini Alisher Navoiy deb ko'rsatgan bo'lsa kerak. Aslida oxirgi misrada choryorlarning so'ngisi bo'lmish xalifa Ali ibn Abu Tolib haqida fikr yuritilib, u "sher-i Haq", ya'ni "Xudoning sheri", "shohi-i din" ya'ni "dinning shohi" deb ta'riflangan.

Garchi doston ishqiy yo'nalishda yozilgan bo'lsa ham, unda *sari'i musaddasi matviyi makshuf*, *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlari istifoda etilgan. Doston uchun tanlangan ushbu vazn an'anaviylik kasb etmaydi, aksincha, Durbekning ijodida individuallik ko'zga tashlanadi. Bu esa adabiyotshunoslikda shoirning "Yusuf va Zulayxo" yo'nalishidagi dostonlarning o'Ichovini o'zgartirib yuborishiga sabab bo'ldi.

Shoir "Men qamaldagi xalq bilan qal'a ichida o'tirganimda

*Goh boqa-r+er/dim zi kito/bi Qisas,*

— V V — / — V V — / — V —

*Goh icha-r+er/dim zi sharo/bi g'usas.*

— V V — / — V V — / — V —

*Lek Qisas/ ichra vale/ mayli jon,*

— V V — / — V V — / — V —

*Qissai Yu/sufta edim,/ ul zamon...*

— V V — / — V V — / — V —

*Nasr edi, bu/ qissa dog'i/ porasi,*

— V V — / — V V — / — V —

*Erdi anga/jon ko'zi naz/zorasi.* ("Yusuf va Zulayxo", 9)

— V V — / — V V — / — V —

deb yozadi. Durbek "Yusuf va Zulayxo" dostonini bitishga kirishar ekan, o'zigacha yaratilgan shu yo'nalishdagi asarlarni o'rganligini yuqoridagi parchada ta'kidlaydi. Shoir dostonni yaratishda, avvalo, "Qisas" (Qisas ul-anbiyo)dan foydalangan. Ikkinchidan, shoirga "Yusuf va Zulayxo"ning fors tilida yaratilgan nasriy nusxasi sabab bo'lganligini bayon etadi. Dostondan keltirilgan parcha *sari'i musaddasi matviyi makshuf* vazni ohangida yaratilgan bo'lib, unda muftailun muftailun foilun ruknlari ketma-ket takrorlanadi. Durbek dostonini nazmda yozishni, buni esa turkiy tilda amalga oshirishni xohlaydi.

*Qissai Yu/sufni tamom/ ayla nazm,*

— V V — / — V V — / — V ~

*Turki tili/ birla qilib/ azmu jazm* (“Yusuf va Zulayxo”, 9)

— V V — / — V V — / — V ~

Demak, shoir baytda qofiyaning muqayyad turini qo'llash orqali *sari'i musaddasi matviyi mavqus* vaznining ohangini ta'minlagan. Zero, “nazm”, “jazm” qofiyadosh so'zлari qator undoshi bilan tugaganligi sababli o'ta cho'ziq (~) hijo hisoblanadi.

Shu o'rinda fors-tojik adabiyotining yirik vakili, temuriylar davrining mashhur xamsanavislardan biri Abdurahmon Jomiy dostoniga ham to'xtab o'tishni joiz deb bilamiz. Ma'lumki, Jomiy saroydan uzoqda ijod etgan so'fiylardan bo'lib, u hukmdorlarni madh etuvchi asarlar yozishni xohlamagan. Uning “Xamsa”si (shartli ravishda “Xamsa” sifatida qaraladi) yettilikdan iborat bo'lib, unda Nizomiy va Dehlaviydan farqli o'laroq “Salomon va Absol” hamda “Silsilat uz-zahab” dostonlarini ham uchratish mumkin. Unga “Xamsa” sifatida qaralishiga sabab Jomiy beshinchi doston bo'lmish “Xiradnomayi Iskandariy” xotimasida uni “Panj ganj” deb ataydi<sup>1</sup>. Jomiy hukmdorlar madhini keltirmaganligi uchun ayrim dostonlar tashlab yuboriladi va uning o'rniga boshqa dostonlar kiritiladi. Masalan, “Farhod va Shirin” o'rniga “Subhat ul-abror”, “Layli va Majnun” esa to'rtinchchi o'ringa chiqib, uchinchi doston o'rnini “Yusuf va Zulayxo” egallaydi.

Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni ham Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan bo'lib, shoir ushbu dostonni yaratish orqali xamsanavislikka yangi mavzu olib kiradi hamda “Xusrav va Shirin” mavzusidagi an'anaviy doston yozishdan voz kechadi. “Yusuf va Zulayxo” Abdurahmon Jomiy beshligidagi uchinchi doston bo'lib, 1483-yilda yaratilgan. Jomiy “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasini N.Jabborov nashrga tayyorlagan<sup>2</sup>. “Yusuf va Zulayxo” dostoni o'zining jozibali tili, Jomiyga xos tasvir uslubi, badiiy

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Юсупова Д. Алншер Навоний “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунилиги. Монография. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 52.

<sup>2</sup> Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайҳо /Мухаббат маҳзани. (Таржимон: Мухаммад Ризо Оғаҳий. Нашрга тайёрловчи: Нурбой Жабборов). – Т.: Таасвир, 2018. – Б. 307.

barkamolligi bilan shu yo'nalishdagi asarlarning poetik takomiliga xizmat qilgan.

Professor N.Jabborov fikricha, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni bu mavzuda fors-tojik va turkiy tillarda yozilgan asarlar ichida badiiy barkamolligi jihatidan muhim o'rinn tutadi. Shu bois ushbu asarning shuhrati butun Sharq mamlakatlariga tarqalgan bo'lib, juda ko'p tillarga tarjima qilingan. "Yusuf va Zulayxo" Abdurahmon Jomiy asarlarning ichida ham mavzu ko'laming kengligi va yuksak badiiyati bilan alohida ajralib turishi e'tirof etiladi<sup>1</sup>. Bu o'rinda biz olimning fikriga qo'shilamiz.

Jomiyning yuqorida tilga olingan dostonlardan qay darajada foydalanganligi haqida ma'lumotga ega emasmiz. Lekin shoirning mazkur dostoni bu yo'nalishda yaratilgan dostonlar orasida alohida o'rinn egallaydi. Ungacha bu mavzuda yaratilgan dostonlar mutaqorib bahrida bitilardi. Jomiy o'zigacha mavjud fors-tojik epik poeziyasida ishqiy dostonlarni *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitish an'anasini o'z dostoniga olib kirdi. Dostondan olingan bir baytni taqt'i bilan ko'rib chiqsak:

*Chi xush vaq-te/vu xur-ram ro '/z-go-re,*

*V - - - / V - - - - / V - -*

*Ki yo-re bar/xu-rad az vas/ li yo-re<sup>2</sup>.*

*V - - - / V - - - - / V - -*

Abdurahmon Jomiydan keyin fors adabiyotida ishqiy mavzuda yaratilgan dostonlarning deyarli barchasi *hazaj* bahrida yozilganligining guvohi bo'lamic. A.Afsahzod fors-tojik shoirlaridan Mas'ud Hirotiy (1220 v.e.) va Shohin Sheroziy (XIV asr)larning ham "Yusuf va Zulayxo" mavzusida masnaviy-doston yozganliklarini zikr etadi<sup>3</sup>. Yuqorida qayd etganimizdek, Muhammadrizo Ogahiy aynan Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" masnaviysini erkin tarjima qilgan. Bunda Ogahiy asarga ijodiy yondashgan, ammo vazn va qofiya tizimi saqlab qolningan:

<sup>1</sup> Жабборов Н. Жомийнинг "Юсуф ва Зулайхо" асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар /Абдураҳмон Жомий. – Т.: Қўлёзмалар институти, 1997. – Б. 172.

<sup>2</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунилиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 56.

<sup>3</sup> Афсаҳзод А. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. – М.: Наука, 1988. – С. 63.

*Sochi el bo/shig 'a solib/ qaro shom*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Yoyib jonlar/ qushi qasdi/g 'a ham dom.*

*V — — — / V — — — / V — —*

Doston Jomiyniki singari *hazaji musaddasi mahzuf* (rukn va taqt'i): *V — — — / V — — — / V — —*) vaznida yozilgan.

XIX asrda yashab ijod etgan Olim Devonan zamondoshlarining talab va istaklariga binoan “Yusuf va Zulayxo” qissasi asosida “Ravzai asror” (“Sirlar bog‘i”) asarini yozgan. Shoirning hayoti va ijodi borasida adabiyotshunoslikda bahsli fikrlar mavjud. Biroq shunga qaramasdan I.Sanayev Olim Devonanining turli janrlarda yaratilgan ming misradan ortiq nazmiy javohirlarini axtarib topib, to‘plab “Olim Devonan” nomi ostida kitob yaratdi<sup>1</sup>. Mazkur tadqiqotda Olim Devonanining hayoti va ijodi batafsil yoritilgan va adabiyotshunoslikdagi bahsli fikrlarga oydinlik kiritilgan.

“Ravzai asror” dostonining ikki nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular O‘zbekiston RFA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 1799-1338-raqamlari ostida saqlanmoqda. Biz tadqiqotimiz uchun “Ravzai asror”ning I.Sanayev 2019-yilda nashr qildirgan kitobidan foydalandik. Olim Devonan dostonining o‘zigacha yaratilgan asarlar singari Qur’oni Karimdagi “Ahsanu-l-qisas”ning yangi sharhi hamda nazmda “yangi tarh” ekanini ta’kidlaydi:

*Tangri kalomig ‘a degil shark erur,*

*Nazm nizomig ‘a yangi tarh erur<sup>2</sup>.* (“Ravzai asror”, 45)

“Yusuf va Zulayxo” syujeti Qur’oni karimdan olingani bejiz emas. Zero, “Yusuf” surasi bamisolli qissadek o‘qiladi, u inson hayotining pastu balandini aks ettirishi bilan barcha odamlar fikrini o‘ziga jalb etadi. Unda oilada sodir bo‘lувчи fisqu fasod, akaukalar orasidagi nizolar, shahvoniyl intilishning pok tuyg‘ulardan, razillikning adolat ustidan g‘alabasi vaqtincha va o‘tkinchi ekanita’sirchan ifodalangan. Qur’oni karimdagi ushbu hikoyat haqida

<sup>1</sup> Qarang: Санаев И. Олим Девона (хаётк ва ижоди). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллый кутубхонаси, 2020. – Б. 112.

<sup>2</sup> Мирзо Олим Девона Самаркандий. Равзай асрор. Нашрга тайёрловчич И.Санаев. – Т.: SHARQ, 2020. – Б. 45. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom shunday degan edilar: “Yusuf qissasida hikoyat qilingan yo‘l – saodatga eltuvchi yo‘l – mening yo‘limdir. Bu yo‘lda chohga tashlanish bor. Bu yo‘lda azob-uqubataro jarayon etuvchi imtihonlarga doir nomus va iffat orqali o‘talgan sinovlar bor. Bu yo‘lda zindon, bu yo‘lda surgun va bu yo‘lda Vatanni tark etib, hijrat qilish bor. Bu yo‘lda muvaffaqiyatning eng cho‘qqi nuqtasida, boshga toj kiyilgan onda yana ayri-ayri imtihonlar bor. Va eng qiyini – bu yo‘lda seni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarga hayotini bag‘ishlash kabi vazifa va mas’uliyatlar bor”<sup>1</sup>.

Olim Devonaning asari “Ravzai asror” (“Sirlar bog‘i”) deb nomlanishida ham ramziylik mavjud. Chunki shoir bu mavzuga katta e’tibor qaratadi, shuningdek, asariga yangicha zeb beradi. Shoir bu haqda

*Menki bu maj/muag‘a qil/dim darang,*

— V V — / — V V — / — V —

*Yetti mazo/min gulig‘a/ obu rang.*

— V V — / — V V — / — V —

*Ayladi-m+at/rok elig‘a/ gulshane,*

— V V — / — V V — / — V —

*Yo‘qli javo/hirg‘a to ‘la/ maxzane.*

— V V — / — V V — / — V —

*Qilma-k+uchun/ el aro iz/hor ani,*

— V V — / — V V — / — V —

*Bas, atadim/ “Ravzai as/ror” ani – (“Ravzai asror”, 275)*

— V V — / — V V — / — V —

deb yozadi. Ko‘rinadiki, asar Durbekning “Yusuf va Zulayxo”si singari sari‘i musaddasi matviyi makshuf o‘lchovida yozilgan. Olim Devona o‘z asarini turk eli uchun gulshan ekanligi, bunday javohirga to‘la xazinasi yo‘q ekanligini aytadi. Asarini elaro izhor qilish uchun uni “Ravzai asror” deb ataganligini ta‘kidlaydi. Asarda anglab yetilmagan haqiqatlar, botiniy sirlar ham badiiy uyg‘unlashtirilgan. Muhimi, asarda Qur’ondagi singari sabr qilish tuyg‘usi yuqori darajada kuyylanadi. Bu jihatlar Olim Devona asari badiiyatida ko‘rinadi.

<sup>1</sup> Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайхо” туркумидаги достонларининг киёсий-матний тадқики. Филол. фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. – Т., 2020. – Б. 45.

“Yusuf va Zulayxo” turkumidagi asarlarning aksariyatida, asosan, ota-o‘g‘il munosabatlariga keng o‘rin beriladi. Asosiy e’tibor Yusuf obraziga qaratilib, barcha syujet chiziqlari u bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Jomiy va Olim Devonaning asarlarida esa Yusuf emas, balki Zulayxo obrazi asosiy pog‘onaga chiqadi.

“Yusuf va Zulayxo” mavzusiga XIX asrda Xolis Toshkandiy ham qo‘l urdi. Bu haqda Xolisning o‘zi:

*Bu so ‘z emdiki gar bo nazm bo ‘lsa,  
Ki har yerda charog ‘i bazm bo ‘lsa.*

*Mani so ‘zim olib qilsang inoyat,  
Qolur bizdin bu nusxa to qiyomat.*

*Olib ko ‘rdim ani “Qissai Yusuf”,  
O‘qub ul qissani qildim taassuf....*

*Ani ko ‘ngli parishon bo ‘lmasun deb,  
Ko ‘rubman ul sababdin nazmni deb...*

*“Qisas ul-anbiyo” ni ko ‘rub erdim,  
Ani mo ‘jaz so ‘zini nazm qildim<sup>1</sup>*

deb aytadi. Demakki, Xolis ham “Yusuf va Zulayxo” asarini yaratishda Yusuf qissasining boshqa nusxalari bilan bir qatorda “Qisas ul-anbiyo” asaridan foydalangan. U o‘z asarini “Qisas ul-anbiyo” syujeti asosida yaratgan. Xolisning ushbu asari haqida adabiyotshunoslikda dastlab F.Ravshanov tadqiqot olib borgan. Olim ushbu dostonni mazmun jihatidan tahlil qilgan. Shoir “Yusuf va Zulayxo” dostonida dastlab o‘z ijodi, hayoti va yaratgan asarlar haqida ma’lumot beradi. Keyin an’anaviy hamd, Muhammad payg‘ambar, Ya’qub va Yusuf payg‘ambarlar na’tini birlashtirib, o‘n bir baytli salovat keltiriladi.

Xolis “Yusuf va Zulayxo” dostonida Ya’qub payg‘ambar farzandlari to‘g‘risidagi quyidagilarni bayon etadi:

*Zamoni erdi, (ki Ya’qub) payambar,  
Bani isroiliyga erdi sarvar.*

<sup>1</sup> Юсуф ва Зулайхо. Изв. №5040. 153 саҳифа. Кўлёзма, насталик хатида 1-с. Keyingi misollar shu manbadan olinadi.

*Ani o 'n ikki o 'g 'li ham bor erdi,  
Har ikki bir onodin bo 'lib erdi.*

*Yusufu ibni Yamin onglag 'aysiz,  
Alar birla bor erdi yana bir qiz.*

*O 'shal qizni oti ham erdi Norjon,  
Anolari o 'lub erdi o 'shal on.*

Ko 'rinadiki, Xolis bu o'rinda farzandlarning har ikkisi bir onadan bo 'lganligini, Yusuf va Ibn Yaminning Norjon ismli bir singlisi ham borligini ta'kidlaydi. Shoir dostonini Durbek hamda Olim Devonaning shu yo 'nalishdagi asarlari vaznida yaratmaydi. U o 'z asari uchun Abdurahmon Jomiy singari *hazaji musaddasi mahzuf*, *hazaji musaddasi maqsur* vaznlarini tanlaydi. Shuning barobarida ishqiy dostonlarga xos bo 'lgan syujetni ham saqlab qoladi.

Xolis ham o 'zigacha yaratilgan dostonlar singari asariga tush motivini olib kiradi. Faqat uning asarida tushni Yusuf emas, balki Ya 'qub ko 'radi:

*Ki bir kun uxladi, tush ko 'rdi Ya 'qub,  
O 'shal ko 'rgan tushi emas edi xo 'b.*

*Ko 'rar Ya 'qub Kan 'on borasida,  
Yusuf ham bo 'ldi paydo o 'shal yerda.*

*Banogoh o 'n bo 'ri ham bo 'ldi paydo,  
Yusufni o 'rtaga oldilar ando.*

*Ki har qaysi og 'iz solib yaladi,  
Ki Yusufjonidin ham qo 'l tiladi.*

*Ajab tarsonu larzon turib erdi,  
O 'shal soatda erdi yer yorildi.*

*Yorilg 'on yerga kirdi, bo 'ldi g 'oyib,  
Qolib, Ya 'qub anga anda ajoyib,*

*Bu tushni ko 'rdi hayrat birla turdi,  
Yotubdur Yusufi yonida ko 'rdi.*

Ya'qubning ko'rgan tushidan shu anglashiladiki, Yusufga oy va quyosh hamda yulduzlar sajda qilishmaydi. Aksincha, 10 ta bo'ri hujum qiladi. Ularning har biri Yusufga zarar keltiradi. Bizningcha, Ya'qub tushidagi o'n bo'ri uning farzandlariga nisbatan olingan bo'lsa kerak. Tush so'ngida yer yoriladi va yorilgan yerga Yusuf tushib ketib, g'oyib bo'ladi. Ya'qub o'zi ko'rgan tushining ta'birini qilganida, chiqargan xulosasidan dahshatga tushadi. Asarda bu tushni Ya'qubning qizi Norjon ham ko'radi.

Asarda Zulayxo Yusufni dastlab tushida ko'radi. Xolis bu motivni *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining imkoniyatidan keng foydalananadi:

*Zulayxo kir/di bil yetti/ yoshiga,  
V— — — / V— — — / V— —  
Birov kirdi/ kecha oni/ tushiga.  
V— — — / V— — — / V— —  
Ani husni/ jamoli lo/l qildi,  
V— — — / V— — — / V— —  
Zulayxoni/ base badho/l qildi.  
V— — — / V— — — / V— —*

Baytda Zulayxo yetti yoshga to'lganida, u ilk marta birovni (Yusufni) tushida ko'radi. Zulayxoni uning husni jamoli lol qilgani, uning badhol bo'lgani aytildi. Keltirilgan parcha mafoiyun mafoiyun fauvlun ohangida yaratilgan. Uchinchi, to'rtinchi misralarda istifoda etilgan *lol*, *badhol* so'zlarida vazn talabi bilan imola qo'llanilgan. Chunki ularning tarkibidagi "o" cho'ziq unlisi ishtirok etgan yopiq bo'g'inlar o'ta cho'ziq hijoni keltirib chiqargan. Zulayxo tushida Yusufni ikkinchi bor to'qqiz yoshida, uchinchi bor 11 yoshida ko'radi.

Zulayxo Yusufni o'z ko'zları bilan maydonga sotgani olib chiqqanida ko'radi. Shunda u Yusufni taniydi va "bexud" bo'lib yiqiladi. Shundan keyin Misr aziziga Zulayxo yolvorib, uni sotib oldirishga ko'ndiradi. Durbekda esa bu holat boshqacharoq tasvirlanadi. Unda Yusuf Misr aziziga yoqib qoladi. Umuman, tahvil uchun keltirilgan "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlar yillar o'tgan sari mavzulari sayqallangan, yangi syujet chiziqlari qo'shilgan. Mavzu va hatto, she'riy o'Ichov jihatidan bir-birini takrorlamaydigan asarlar paydo bo'lgan.

## Ikkinci bob bo'yicha xulosalar

Biz turkiy adabiyotdagi nomalar va ishq tarannumidagi dostonlarning vazn xususiyatlarini tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Noma janri dastlab forsiy adabiyotda vujudga kelgan bo'lib, oshiq-ma'shuqlarning bir-biriga yozgan maktublari bilan bog'liq tushunchani ifodalagan. Uning ilk ko'rinishlari Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostoni tarkibida uchraydi. Dostonda Vis Rominga jo'natgan o'nta noma keltirilgan bo'lib, Faxriddin Gurgoniy ularni "Dahnama" sarlavhasi ostida birlashtirgan. Doston tarkibidagi ushbu maktublar "Vis va Romin"ning umumiyligi she'riy o'lchoviga bo'ysundirilgan, ya'ni ular ham hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlarida bitilgan.

2. Noma mustaqil janr sifatida turkiy adabiyotdan munosib o'rin egalladi. Ilk noma janridagi asar Xorazmiyning "Muhabbatnama"si bo'lib, unda oshiqning o'z yoriga bitgan 11 ta she'riy maktubi keltirilgan. Dostonning she'riy o'lchovi hazaji musaddasi mahzuf va maqsur bo'lib, muallif bu vaznni tanlashda ikki omilga suyangan: 1) xalq og'zaki ijodidagi "muhabbatnama" qo'shig'i ohangi aynan shu o'lchovga mos keladi; 2) Faxriddin Gurgoniyning "Dahnomasi" mazkur vaznda bitilgan. "Muhabbatnama" tarkibida keltirilgan g'azal, soqiylnoma, qit'a, fard kabi janrlar ham shu ikki o'lchov doirasida yozilgan. Shuningdek, Xo'jandiyning "Latofatnama", Sayid Ahmadning "Taashshuqnama", Yusuf Amiriyning "Dahnama" asarlari turkiy nomachilikning yuksak namunalari bo'lib, ularda ham mazkur ikki vazn istifoda etilgan. Qosimiyning ishqiy yo'nalishdagi ikki dostoni "Haqiqatnama" va "Ilohiynoma"lar ham "Muhabbatnama" vaznida bitilganligi bilan an'anaviylik kasb etadi.

3. Xolis Toshkandiyning noma so'zi aks etgan dostonlari o'z g'oyaviy yo'nalishi bilan yuqoridaq dostonlardan tubdan farq qiladi. Garchi uning "Qiyomatnama", "Arvohnoma", "Ibratnama" singari dostonlari an'anaviy "Muhabbatnama" vaznida yaratilgan bo'lsa ham, ularning mavzusi tamoman boshqadir. Xolis Toshkandiy yashagan davrga kelib, hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlari epik dostonchilikning asosiy vazniga aylanib

bo'lgan, ijodkorlar o'zlarining turli mavzudagi asrlarini ushbu vaznlarda bita boshlagan edilar. Bunga sabab sifatida ushbu vaznlarning ohang jihatdan keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatish mumkin.

4. Miriyning "Gulnoma"si ham noma yo'nalishidagi ikkinchi guruhgaga mansub doston bo'lib, uning vazni yuqorida keltirilgan nomalar vaznidan farq qiladi. Sho'ir o'z asarini turli gullarga bag'ishlagani uchun asosiy she'riy o'Ichov sifatida *hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf* vaznini, qo'shimcha vazn sifatida esa *hazaji musaddasi mahzufi* tanlagan.

5. Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Xiromiyning "Ra'no va Zebo", Tabibiyning "Vomiq va Azro" masnaviyalarida *hazaji musaddasi mahzuf* o'Ichovi istifoda etilgan. Mazkur vazn yuqorida nomi keltirilgan dostonlar uchun an'anaviylik kasb etadi. Bu yo'nalishdagi dostonlar orasida faqat Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" dostonigina sari'i musaddasi matviyi makshuf (mavquf) vaznidadir. Buning asosiy sababi sifatida Nishotiyning dastlab "Xamsa" yaratishni niyat qilgani va o'z dostonini beshliklardagi ilk dostonlar yoziladigan sari' bahrida yaratgani bilan izohlash mumkin. Boshqacha aytganda, biz tahlilga tortgan qo'sh ismli ishqiy dostonlarda vazn bilan bog'liq an'anaviylik, asosan, saqlangan bo'lib, Nishotiyga kelib bu an'ana buzilgan va o'zgachalik kasb etgan.

6. "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarda she'riy o'Ichov sifatida mutaqoribi musammani mahzuf va maqsur, hazaji musaddasi mahzuf va maqsur, sari'i musaddasi matviyi makshuf va matviyi mavquf vaznlaridan foydalanilgan. Omoniy va Rabg'uziy asarlarida dastlabki davrda shohlar vazni bo'lmish mutaqorib ustunlik qilgan bo'lsa, Qul Ali, Shayyod Hamza ijodida ramal bahri yetakchilik qiladi. Abdurahmon Jomiy, Xolis Toshkandiy ijodida esa an'anaviy hazaj bahri ko'zga tashlanadi. Ulardan farqli o'laroq, Durbek va Olim Devona ijodida sar'i bahri qo'llanilgan. Bu dostonlarda an'aviylikdan individuallikka o'tish yaqqol ko'zga tashlanadi. Ahamiyatlisi, eng ko'p tarqalgan va keyingi davr ishqiy dostonlari uchun asos bo'lgan hazaj bahri aynan mana shu davrdan keng yoyila boshlagan.

### III BOB. "XAMSA" TARKIBIDAGI ISHQIY DOSTONLARDA VAZN MASALASI

#### 3.1-§. "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun" yo'nalishidagi dostonlarda vazn hamda mavzu uyg'unligi

Qo'sh qahramonli ishqiy masnaviyalar orasida eng mashhur dostonlardan biri "Xusrav va Shirin" dostonidir. Bu mavzu ilk marotaba Firdavsiyning "Shohnoma" asarida, sosoniyalar hukmdori Xusrav Parvizning (590–628) hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan qismda qalamga olingan. Keyinchalik Nizomiy uni mustaqil masnaviy holiga keltirishi bilan ushbu mavzu fors va turk she'riyatida urf bo'lgan. Turk adabiyotida mazkur mavzuni ilk bora va eng go'zal shaklda yaratgan Garmiyonli Sinodiddin Yusuf Shayxiydir (XV asr). U 1422-yilda Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini turkchada nazmga keltirgan, ijodiy tarjima etgan, bunda suyjet chizig'ini va voqealar izchilligini ancha o'zgartirib, ayrim ilovalarga yo'l qo'ygan. So'ngra Shayxiyning qarindoshi Jamoliy "Xusrav va Shirin"ga qo'shimchalar kiritgan, Ahmad Rizvon hikoyani til va uslub nuqtayi nazaridan rivojlantirgan, Axiy esa "Xusrav va Shirin" asarini tugata olmagan. "Xusrav va Shirin" mavzusiga bursalik Jaliliy ham qo'l urgan. Har bir san'atkor o'zi mansub bo'lgan madaniyat va adabiy doiraning san'at haqidagi tasavvurini, etik-estetik tushunchalarini bu dostonga ilova qilgan. Shuning uchun "Xusrav va Shirin" kabi mashhur bo'lgan matnlar orasida keyinchalik "Farhod va Shirin" nomli asarning yuzaga kelishi aynan shunday yondashuvlar natijasidir<sup>1</sup>.

Turkiy adabiyotda "Xusrav va Shirin" yo'nalishidagi dastlabki asar sifatida Qutbning "Xusrav va Shirin" dostonini olishimiz mumkin. Doston o'zbek adabiyotida masnaviyining "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq"dan keyingi nodir namunasidir. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbatи haqida birinchi bo'lib Firdavsiy o'zining "Shohnoma" dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi<sup>2</sup>. Qutbning

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1960. – С. 56–58.

<sup>2</sup> Алишер Навоий: комусий лугат. II жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: SHARQ, 2016. – Б. 134.

“Xusrav va Shirin” dostoni Oltin O’rda adabiy muhitida yaratilgan. Ushbu asar Nizomiy qalamiga mansub shu nomdagi dostonning erkin she’riy tarjimasi hisobladi. Bu haqda Qutbning o’zi dostonda shunday ma’lumot beradi:

*Qozontek qaynab ush savdo pishurdum,  
Nizomiy bolidan halvo pishurdum.*

*Xonim oting ‘a ushbu porsi tilni  
Chevurdum, tuzdum, ush nazm uzra qilni.*

*Chiqordim xush yizig ‘liq suv bu ko ‘ldin,  
Ko ‘ngullar qonsu teb bu sofi suvdin’.*

Tarjima tarjimondan juda katta mahoratni talab etadigan jarayon. Shu o‘rinda adabiyotshunos Professor N.Rahmonov badiiy tarjima tarjimonga katta mas’uliyat yuklashi bilan birga, ijod ham ekanligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Qutb o‘z tarjimasini “Nizomiy bolidan halvo pishurdum” deb kamtarlik qilsa-da, bu uning ijod mahsuli hisoblanadi. Qutb Nizomiy “qazigan ko‘ldan toza suv chiqarib”, “ko‘ngillarni qondirishni” maqsad qilib olgan.

Sharqshunos olim A.Tohirjonovning 1948-yilda “Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni” tadqiqotida Qutb yashagan davr, shoir yashagan muhitda “Xusrav va Shirin”ning o‘mi, Qutb va Nizomiy dostonlarining qiyosiy tahlilini o‘rganadi. Olim o’sha davrlarda Xorazmda maydonga kelgan adabiy yodgorliklarda ona tilidagi adabiy an’analar va xalq ijodi ta’siri kuchli sezilib turadi, shuningdek, Qutb o‘z tarjimasida tarjimon sifatida mustaqil yo‘l tutganligini ham ta’kidlaydi<sup>3</sup>. Qutb syujetni bayon qilishda Nizomiy yo‘lidan boradi. Hatto o‘rni-o‘rni bilan ayrim baytlarning aniq tarjimasini beradi<sup>4</sup>. Biroq tarjimon ko‘p hollarda asl nusxa matniga so‘zma-so‘z rioya qilmaydi. U XII asr qissasi syujetini, umuman, saqlab qolgani holda, Nizomiyning forscha asaridan farqli yangi bir tarixiy-ijtimoiy sharoitning tafsilotlarini, xalq og‘zaki ijodiyoti va

<sup>1</sup> Кутб Хоразмий. Хусрав ва Ширин / Уч булбуя гуляшани. Нашрга тайёрловчи: ф.ф.д., проф. Ҳоди Зариф. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 340. Кейинги мисоллар шу манбадан олинади. Сахифаси кавс ичida кўрсатилади.

<sup>2</sup> Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – В. 304.

<sup>3</sup> Тагирджанов А. Хосрав и Ширин Кутба, КД. – Ленинград, 1948. – С. 169.

<sup>4</sup> Бертельс Е. Навои и Джами. – М., 1965. – С. 149.

urf-odatlarini o'z asariga singdiradi<sup>1</sup>. Qutb doston tarjimasiga erkin yondashadi, shu tariqa Nizomiy obrazlarini ham saqlab qoladi. Mana shunday holatlar shoirning ma'lum darajada mustaqil yo'l tutganligini ko'rsatadi.

Adabiyotshunos olimlari O.Sharafiddinov va H.Zarifov Qutb o'z tarjimasida ikki prinsipni ko'zda tutgani haqida ma'lumot beradilar. U bir tomondan, asarda tarjimani, ya'ni Nizomiy obrazlarini saqlab, ayni taassurotni yaratishga intilsa, ikkinchi tomondan, uni mazmunan tarjima qiladi. Keyingi holda esa, shubhasiz, Nizomiy obrazlarining xarakteri o'zgaradi. Bundan tashqari, yana asarda shoir tomonidan qo'shilgan, avtorlashtirilib tarjima qilingan o'rinalar ko'rinaladi, bular ko'proq ayrim voqe va obrazlami sharhlash, alohida detallarni oydinlashtirish chizig'ida boradi<sup>2</sup>. Garchi Nizomiy va Qutbning dostonlarining mazmun mohiyatida tafovutlar bo'lsa ham, lekin o'lchov imkoniyatlari bir xil.

Olima D.Yusupova Nizomiy "Xusrav va Shirin" dostonini yozishda Faxriddin Gurgoniyning ishqiy mavzudagi "Vis va Romin" dostonidan foydalangani va unda qo'llanilgan hazaji musaddasi mahzuf vazni (ruknlari taqt'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V — — / V — — / V — —)ni o'z asari uchun she'riy o'lchov qilib olganini ta'kidlar ekan, bu vazn Nizomiydan keyin ishqiy mavzuda yaratiladigan masnaviy-dostonlarning asosiy she'riy o'lchovi bo'lib qolganligiga diqqat qaratadi<sup>3</sup>. Demak, Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni ham Nizomiy qo'llagan vaznning imkoniyatlaridan foydalanib bitilgan. Bu dostonning vazn xususiyatlarini tahlil qilish davomida ochiqlanadi.

Asarning yagona qo'lyozma nusxasigina ma'lum. Parij qo'lyozma nusxasi Milliy kutubxonasidan topilgan bu nusxa 1914-

<sup>1</sup> Зайончковский А. Старейшая тюркская версия поэмы "Хосрав и Ширин" Кутба - Варшава, 1958. - С. 45.

<sup>2</sup> Узбек адабиёти тарихи. 5 томлик. I-тوم. - Т.: Фан, 1978. - Б. 205.

<sup>3</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгушиги. - Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. - Б. 62.

yilda Oltin O'rdadan olib ketilgan<sup>1</sup>. Dostonning xotima qismida asar qachon yozib tugatilganligi haqida ta'rix keltiriladi:

*Tarix yetti yuz yil sakson beshinda,*

*Safar oyining yigirma beshinda.* ("Xusrav va Shirin", 619)

Asar mazkur qo'lyozma asosida hijriy 785-yilda (milodiy 1383–1384-yillarda) Misr (Iskandariya)da qipchoqlik Berka Faqih ibni Barokaz ibni Qondud tomonidan ko'chirilgan. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni 91 bob, 4740 baytdan iborat. Doston an'anaviy hamd, na't, "Shahzoda Tanibekxon madhi", "Malika marhuma Xonimalik madhi...", "Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur" boblarini o'z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda Nizomiy va Qutbning dostonlaridagi tafovutlar A.Fitrat, O.Sharafiddinov, H.Zarifov, N.Mallayev, M.G'anixonov, N.Rahmonovlar tomonidan atroflicha o'rganilgan hamda tahlil etilgan<sup>2</sup>.

Dostonning asosiy voqealari "Xusrav-Shirin hikoyatining avvali" bobidan boshlanadi. Qolgan barcha boblar Xusrav va Shirin sarguzashtiga oid voqealar bayoniga bag'ishlanadi. Doston "Necha so'z xotinati kitobida aytur ustod" bobi bilan yakunlanadi. Avvalo, doston ishqiy mavzuda bitilgan. O'mi bilan boshqa mavzularga ham murojaat etiladi. Dostonda "Shovur Xusravqa shirin hikoyatini qilg'on surati" bobida Shirinning tavsifi keltiriladi. Shoir ushbu bobda Shirin Mehinbonuning jiyani ekanligini ta'kidlab, shunday deydi:

*Tilar aning/ uchun ushbu/ jahonni.*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Yoritur yu/zi nuri chiq/sa tunni...*

*V— — — / V— — — / V— —*

<sup>1</sup> Шарипов Ж. Кутб Хоразмий ва унинг таржимаси тўгрисида / Уч булбул гулшани. Кутб Хоразмий. Хусрав ва Ширин. Нашрга тайёрловчи: ф.ф.д, проф. Ҳоди Зариф. – Т.:Faafur Fуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 333.

<sup>2</sup> Qarang: Фитрат А. Таъланган асарлар. II жил. – Т.: МАҶНАВИЯТ, 2000; Уч булбул гулшани. Кутб Хоразмий. Хусрав ва Ширин. Нашрга тайёрловчи: ф.ф.д, проф. Ҳоди Зариф. – Т.:Faafur Fуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Хомидий, О.Тожибоева. – Т.: Kafolat print company, 2021; Фанихонов М.А. Сравнительный анализ поэм "Хусрав и Ширин" Низами и Кутба. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1994. – С. 19; Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017.

*Sadaf ichra/ tizilmish tish/lari dur,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Tishining shu'lasi durga/ berur nur.* (“Xusrav va Shirin”, 352)

*V — — — / V — — — / V — —*

Baytda Mehinbonu o‘z jiyani uchun jahonni tilashi, tunni uning yuzidagi nur yoritishi, tishlari sadaf ichra terilganligi, tishining shu'lasi durga nur berishi ham hazaji musaddasi mahzuf, ham hazaji musaddasi maqsur vaznlari ohangida aytildi. Olti ruknli ushbu vaznlar lirik she’riyat uchun ham, dostonchilik uchun ham nihoyatda qulaydir. Mazkur o‘lchovlarning o‘rinli istifoda etilishi dostonga ayricha ohang bag‘ishlaydi. Shuningdek, mazkur vaznlarda ritmik variatsiya mavjud emas. Baytlarda shoir tazod, tashbih, tanosubdan mohirona foydalanib, vazn imkoniyatini kengaytirgan.

Shirin dostonda ota taxtini qo‘ldan berib, uni qaytarib olish o‘rniga aysh-ishratga berilib ketgan Xusravni

*Bukun ova/raliq holin/da muntek,*

*V — — — / V — — — / V — — —*

*Yarashmaz kim/ murod so ‘rsang/, ayo bek*

*V — — — / V — — — — / V — — —*

singari baytlar orqali faol kurashga undaydi, hushyorlikka chaqiradi. “Xusrav va Shirin”da vazn talabi bilan juft undosh qo‘llanilgan so‘zlar o‘rtasidagi undoshlardan birini tushirib, talaffuz etish holatlari ham uchraydi.

*Iki manzil/ni bir manzil/ qilib ul,*

*Atosi xav/fidin tutti/ uzoq yo ‘l.* (“Xusrav va Shirin”, 379)

Yoki:

*Iki ovchi/ kelib bir ov/qa kirdi,*

*Zamona ush/bu yanglig‘ o/v qurdi.* (“Xusrav va Shirin”, 404)

Yoki:

*Otim ush sozg‘a cho ‘mdi, man yiqildim,*

*Su kechmak emdidin so ‘ng tavba qildim.*

(“Xusrav va Shirin”, 462)

Baytlarda istifoda etilgan “ikki”, “suv” so‘zлari vazn talabi bilan taslimga uchragan va natijada bu so‘zлari “iki”, “su” tarzida qo‘llanilgan. Asl matnda esa “ikki” kabi ifodalangan. Ikkinchи baytdagi “ov” so‘zida esa imola hodisasi qo‘llanilgan. Shunga

ko'ra, mazkur so'zda vazn talabiga mos bilinar-bilinmas bitta "i" unlisi orttirilib talaffuz qilinadi. Dostonda so'zlarni vaznga moslash uchun ularga biror harfni orttirish usuli ham ifodalangan.

*Ayitti bu yog'anni band qilg'u,*

*Yomon tushti o'yin, ogoh bo'lg'u.* ("Xusrav va Shirin", 378)

Yoki:

*Joning'a ko'ngli ayturkim ravon tur,*

*Chechakingni bu shakkarga qorishtur.* ("Xusrav va Shirin", 382)

Birinchi baytda "aytti" so'zi tarkibiga vazn talabi bilan bitta "i" unlisi kiritilgan bo'lsa, ikkinchi baytda "shakar" so'zinining o'rtaсидаги "k" undoshi qo'shaloqlashtirilgan.

Qutbning "Xusrav va Shirin" dostonida vazn bilan bog'liq ayrim saktaliklar ham uchraydi. Xususan,

*Ro'zimni o/son qil ko'rguz/ma torlig',*

*V — — — / — — — / V — —*

*Bu mahluqqa/ qulni qilma/g'il yorlig'* ("Xusrav va Shirin", 618)

*V — — — / — — — — / — — —*

baytidagi misralarning aruz tizida yaratilmaganligi oydinlashadi.

Doston boblari orasida *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruknlari va taqt'i: fauvlun fauvlun fauvlun faal *V — — /V — — /V — — /V —*) vaznida yozilgan misralar ham uchraydi:

*Ilohi/ xalos qil/ bu mungdin/ meni,*

*V — — / V — — / V — — / V —*

*Hoziru/ qodir teb/ bilurman/ seni* ("Xusrav va Shirin", 618)

*V — — /V — — / V — — / V —*

singari bayt *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznidaligini ta'kidlash joiz. Bayt uchun tanlangan qofiya (meni, seni) bevosita uning vaznini ham belgilab bergan deb aytish mumkin. Qisqa va cho'ziq hijolardan iborat bo'lgan ushbu so'z misraning oxirida kelib, uning "faul" tarmoq rukni, binobarin, mahzuf bilan yakunlanishini taqozo qilgan. Natijada, baytning *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznida yozilishini ta'minlagan. Shunga o'xshash holatlar doston so'ngida ham keladi:

*Muning birla mashhur Misrda o'zum,*

*Faqih teb ayurlar, ey iki ko'zum...*

*Yugurman tabug'da ne bo'lsa kuchun,*

*Gahi to'q bo'lurman, gahi ko'p ochun...*

Dostonda bu kabi baytlarni ko‘plab uchratish mumkin. Bu holatda Qutbning doston vaznidan biroz uzoqlashganligini ko‘rish mumkin. Chunki mumtoz aruz qoidalariغا muvofiq hazaji musaddasi mahzuf ko‘proq ishqiy mavzudagi, mutaqoribi musammani mahzuf vazni esa pandnoma mavzusidagi dostonlarga xos.

“Xamsa” yo‘nalishidagi ikkinchi doston Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”idir. Navoiygacha bu mavzu “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Afsonaning bosh qahramoni Xusrav Parvez aslida tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki arman qizi Shirinka bo‘lgan muhabbatini ko‘pgina tarixiy asarlarda qayd etilgan<sup>1</sup>. Xusrav Parvez haqida Alisher Navoiyning o‘zi ham “Tarixi muluki Ajam” asarining Sosoniylar tarixiga bag‘ishlangan qismida ma’lumot keltiradi. Demak, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asari Xusrav Parvez tarixi bilan ham, u haqda yaratilgan rivoyat va afsonalar bilan ham yaqindan tanish bo‘lganini ko‘rsatadi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” doston 1484-yilda yaratilgan. Doston 54 bob, 5782 baytdan iborat bo‘lib, shundan o‘n bir bob muqaddima, ikki bob xotima, qolgan qirq bir bob doston voqealarining asosini tashkil etadi. Muqaddimaning dastlabki boblari hamd, na’t va bir qator bag‘ishlovlardan iborat. Alisher Navoiy keyingi bir necha boblarda esa dostonning yozilish sabablariga bat afsil to‘xtab, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf kabi shoirlarning “Xusrav va Shirin” yaratish borasidagi tajribalarini tilga oladi. “Navoiy “Hayrat ul-abror”dan keyin “yana bir kon” qazishga – Farhod qissasini yaratishdek katta ijodiy ishga kirishganligini aytadi”<sup>2</sup>. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini ikkinchi nom bilan “Mehnatnoma” deb ham ataydi:

*Zaruratkim solib bir o‘zgacha tarh,  
Bu mehnatnomani qilg‘umdurur shark<sup>3</sup>.*

<sup>1</sup> Алишер Навоий: комусий лугат. II жилдлик. Иккинчи жилд. Масъул мухаррир Ш.Сирохиддинов. – Т.: SHARQ, 2016. – Б. 71.

<sup>2</sup> Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va sanъat nashiysi, 1991. – Б. 47.

<sup>3</sup> Bu baytda Navoiy o‘z salaflaridan boshqacha yo‘l tutganini, asos e’tibori bilan mehnatnoma (mehnat – mashaqqat, ranj, alam ma’nosida) mazmunini sharh etganligini uqtiradi.

Dostonning asosiy voqealari 12-bobdan boshlanadi. Voqealar rivojida Chin xoqonining farzandsizligi, uning iztiroblari aks etadi. Muqaddimalaridayoq Alisher Navoiyning maqsadi “ishq dardini” kuylash ekanligi oydinlashadi. Nihoyat Chin xoqonining iltijolari ijobat bo‘lib, farzandli bo‘ladi. Navoiy tug‘ilgan go‘dakning ismiga ham ma’no yuklaydi:

*Anga farzo/na Farhod is/m qo‘ydi,  
V — — — / V — — — / V — —  
Hurufi ma’/xazin besh qis/m qo‘ydi.  
V — — — / V — — — / V — —  
Firoqu rash/ku hajru oh/ ila dard,  
V — — — / V — — — / V — ~  
Biror har-f+ib/tidodin ay/labon fard’.  
V — — — / V — — — / V — —*

Baytlar an'anaga ko‘ra hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur o‘lchovida bitilgan. Baytlar mazmunida Chin shohi jigarbandiga “Farhod” deb ism qo‘ygani, qo‘yilgan nom arab yozuvidagi harflarga ramziy ma’no berib, ularning firoq, rashk, hajr, oh, dard deb talqin qilinganligi haqida ta’kidlanadi. Keltirilgan baytlar misralari ism, qism, dard, fard... singari qofiyalanganligini ko‘ramiz. E’tibor berilsa, baytlarning bu shaklda qofiyalanishi qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra muqayyad (qaydli) turiga kiradi. Avvalo, “Farhod va Shirin” dostoni mavzu va g‘oyaviy jihatdan tasavvufiy ma’no kasb etadigan asar hisoblanadi. Navoiy o‘z dostonida salaflar an’anasini davom ettirsa ham, asar suyjetiga biroz o‘zgartirishlar kiritib o‘tgan. Masalan, dostonda bosh obraz sifatida Xusravni emas, Farhodni gavdalantiradi. Olimlar tomonidan ushbu holat Navoiyning xamsanavislik an’anasiga kiritgan yangiligi sifatida baholanadi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni o‘zbek she’riyatida tajribadan o‘tgan, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma”, Qutbning “Xusrav va Shirin”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostonlarida qo‘llanilgan yoqimli va musiqiy hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur o‘lchovlari asosida

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ. 8-том. – Т.: Фан, 1991. – Б. 70.

yaratilgan. Shoir bu ikki vaznning ohang yaratish imkoniyatlaridan barakali foydalangan holda asar qahramonlarining rangorang kechinmalari, ijodiy mehnat va jang manzaralari, peyzaj va portretlar tasvirining yuksak badiiy ifodasiga erishdi<sup>1</sup>. Umuman olganda, o'zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor qo'llanishi Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning 1353–1354-yillarda yaratilgan "Muhabbatnoma"si ham shu vaznda yaratilgan.

D.Yusupova Navoiygacha turkiy epik poeziyada *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining mavzular bilan bog'liqlik darajasini uch manba orqali ko'rsatish mumkinligini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar:

1.Amiriy "Dahnoma"si, Said Ahmad "Taashshuqnomा"si, Xo'jandiy "Latofatnoma"si va Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" dostonlari Xorazmiy "Xorazmiy"sigi javob tarzida yozilganligi uchun ularda an'anaviy hazaj bahri qo'llanilgan.

2.Sayyid Qosimiyning "Ilohiynoma" dostonida Farididdin Attorning "Ilohiynoma" vazni – hazaji musaddasi mahzuf vaznidan foydalanilgan.

3.Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun" va Haydar Xorazmiya nisbat berilayotgan "Gul va Navro'z" dostonlari ishqiy mavzuda bitilganligi uchun ularda aynan shunday mavzuga mo'ljalangan hazaji musaddasi mahzuf vazni qo'llanilgan<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" asarida turk xalqida "Muhabbatnoma" deb atalgan qo'shiq borligini va uning o'ichovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta'kidlaydi: "Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani "muhabbatnoma" derlar, ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va xolo matruqdur, budur (bayt):

*Meni og'zing uchun shaydo qilibsen,  
Manga yo'q qayg'uni paydo qilibsen*<sup>3</sup>.

Ma'lum bo'ladiki, xalq og'zaki ijodidagi "muhabbatnoma" qo'shig'i ohangi bilan Xorazmiy "Muhabbatnoma"si vazni orasida muayyan darajada aloqadorlik mavjud ekan.

<sup>1</sup>Хожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: ФАН, 2006. – Б. 209.

<sup>2</sup>Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғулиши. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 48.

<sup>3</sup>Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 90.

“Layli va Majnun” jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g‘amgin qissalardan biridir. U o‘nlab yozuvchilar va xalq ijodkorlari tomonidan qayta-qayta ishlangan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan<sup>1</sup>. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”i Sharqda mashhur shu nomdagi afsona asosida yaratilgan. Doston o‘zining badiiy yuksak mazmuni bilan “Layli va Majnun” mavzusida yaratilgan asarlarning eng sarasidir. Navoiy dostonni yozishga kirishishdan oldin arab manbalaridagi rivoyatlarni puxta o‘rganib chiqib, “Layli va Majnun” haqida asar yozgan Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashrafdan tashqari zamondoshi Amir Shayxim Suhaylini ham zikr etadi. Ularning “Layli va Majnun” dostonlari bilan mufassal tanishib chiqadi. Bu haqda Navoiyning o‘zi “Layli va Majnun” dostonining so‘ngida quyidagilarni bayon qiladi:

*Men xastaki bu raqamni chektim,  
Tahriri uchun qalamni chektim.*

*Yozmoqta bu ishqijoividona,  
Maqsudum emas edi fasona.*

*Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,  
Afsona edi aning tufayli.*

*Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,  
Afsona anga libosi mavzun<sup>2</sup>.*

Yaqin vaqtlargacha ba‘zi rus sharqshunoslari, jumladan, Y.E.Bertels, A.Klimovich, Y.M.Meletinskiy va boshqalar bu asarni Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi asari deb hisoblaganlar. Taniqli o‘zbek navoiyshunos olimi T.Ahmedov shoirning bu ifodasidan, qo‘lyozmalarining tartibi va boshqa ma’lumotlardan kelib chiqqan holda mazkur fikrning xato ekanligini asoslab bergan<sup>3</sup>. Hazrat Navoiy o‘zining “Layli va Majnun” dostonini asardagi joylashish tartibiga ko‘ra, “uchinchini nomai dard” deb nomlaydi:

<sup>1</sup> Малиев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т.:Faafur Fulom nomidagi Adabiёт ва санъат шархиёти, 1991. – Б. 64.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 9 том. – Т.: Фан, 1992. – Б. 327. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” дostonini. – Т.: Фан, 1970. – Б. 86.

*Emdiki uchunchi nomai dard,  
Qildi meni aqlu hushdin fard*

(“Layli va Majnun”, 30)

yoki asar so'ngida “Firoqnomा”

*Ya'ni bu sifat firoqnomा,  
Bo'ldi manga qatrarez xoma –*

(“Layli va Majnun”, 283)

deb ham ta'kidlaydi.

Navoiyning “Layli va Majnun”i Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan an'ana asosida boshlanadi. Doston 38 bob, 3623 baytdan iborat. Muqaddima 9 bobni o'z ichiga oladi. O'zbek epik poeziyasida Navoiygacha Layli va Majnun muhabbat bilan bog'liq mavzu ishlanmagan edi. Navoiy bu mavzuni birinchilardan bo'lib qalamga oldi va undagi she'riy o'lchov – hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf vaznni ham turkiy epik she'riyatda birinchi bo'lib qo'lladi. Ungacha biror turkiy doston mazkur vaznda yaratilmagan edi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, turkiy adabiyotda Navoiygacha “Layli va Majnun” muhabbatiga bag'ishlangan to'liq masnaviy doston mavjud emas edi. Navoiy “Xamsa”sidagi mazkur doston turkiy adabiyotdagi “Layli va Majnun” mavzusidagi ilk masnaviy bo'ldi.

Navoiy Sharq adabiy an'anasiga sodiq qolib, ilk boblarmi Olloh va payg'ambar madhiga bag'ishlagan. Bu boblarda Navoiy asl faylasuf kabi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bu yerda koinot, quyosh, yulduzlar, yer, osmon, hayot, inson, umuman, borliqning yaratilishi haqida suhbat boradi, Ollohnning cheksiz qudrati ta'kidlanadi. Yil fasllari, tabiatning yangilanishi, jonzotlarga xos bo'lgan xususiyat va tuyg'ular, ishq va hasrat, bularning barchasi Ollohnning yer yuzidagi tazohuri demakdir. Shoir kirishgan bu og'ir ishida o'ziga yordam tilab, Ollohgaga iltijo qiladi:

*Boq dardu malolatimg'a, yo Rab,  
Rahm ayla bu holatimg'a, yo Rab!*

*Shukrungg'a tilimni qoyil ayla,  
Sajdangg'a boshimni moyil ayla.*

*O'ksutma hidoyatingni mendin,  
Kam qilma inoyatingni mendin... (‘Layli va Majnun’, 12)*

<sup>1</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадний уйгулиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 49.

Alisher Navoiy hazrati payg‘ambarga bag‘ishlangan bobda hotam ul-anbiyoning butun insoniyatga haqiqiy namuna bo‘lgan dostonning asosiy g‘oyasi, qahramonlari va syujeti ham Nizomiyda boshqalarda ham shundaydir. Shunga qaramay, bu avtorlarning hammasi original asar yozgan. Chunki bu qissani har qaysi individual stili va shoirlik temperamenti bilan kuylagan<sup>1</sup>. “Layli va Majnun” dostonining voqealari bahor faslida boshlanib, kuz faslida yakunlanadi.

Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni, asosan, o‘zbek she’riyatida juda kam qo‘llanilgan *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqtisi: *maf’uvlu mafoilun fauvlun* — — V/V — V — / V — —), *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur* (ruknlari va taqtisi: *maf’uvlu mafoilun mafoiy* — — V/V — V — / V — ~) vaznlarida yaratilgan. Adabiyotshunos A.Hojiahmedov shoir bu noyob vaznlarda yirik asarini bitar ekan, uning ohang yaratish imkoniyatlarini atroflicha o‘rganib chiqdi va ular ishqiy-fojiaviy doston uchun nihoyatda maqbul ekanligini aniqlaganini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Haqiqatan ham, bu o‘rinda Navoiyning doston uchun tanlangan vazni uning mazmuniga to‘la mos keladi. Xususan, tanlangan vazn Layli bilan Qaysning birinchi uchrashuvida qizning yigitga savolini o‘zida aks ettirgan:

...*K-ey turfa/ yigit, ne ho/lating bor,*  
— — V/ V — V — / V — ~

*Ne nav’/ g’amu malo/lating bor?*  
— — V/ V — V — / V — ~

*Kim, shod/lig’ing yo ‘-q+o ‘z/galardek,*  
— — V/ V — V — / V — —

*Obod/lig’ing yo ‘-q+o ‘z/galardek.*  
— — V/ V — V — / V — —

<sup>1</sup> Хайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари – Т.: Ўзфанакадемиашр, 1963. – Б. 117.

<sup>2</sup> Хожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – Б. 209.

*As' hobg'a mayli bog'u gulzor.  
Ham tan sanga reshu ham ko 'ngul zor.*

*...Sen nola qilib g'amin nedin sen,*

*Ashking oqizib hazin nedin sen? ("Layli va Majnun", 84)*

Ta'kidlanganidek, baytlarning tarkibini mafoiylyn aslining axrab tarmog'i **maf'uvlu**, maqbuz tarmog'i – **mafoiylyn hamda uchinchi ruknlarda mahzuf tarmog'i – fauvlun** yoki maqsur tarmog'i – **mafoiyly tashkil** qiladi. Baytlardagi 4 qisqa va 6 cho'ziq hijoning bu xildagi takrori yoqimli, yengil va o'ynoqi musiqiy ohangni vujudga keltiradi. Shuningdek, hazaj bahri ham o'z ritmik variatsiyasiga ega bo'lib, dostonda hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur vaznlari bilan barobar hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf ham qo'llaniladi. Ushbu vaznlarni ritmik variatsiyasi bilan birga quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

<i>Nº</i>	<i>Vazn nomi</i>	<i>Ruknlari va taqtii'i</i>
1.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Maf'uvlu mafoiylyn fauvlun — — V V — V — V — —
2.	Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf	Maf'uvlun foilun fauvlun — — — — V — V — —

Hazaji axrab vazni ohang jihatidan keng imkoniyatga ega bo'lib, birinchi rukndagi ikkita cho'ziq va bitta qisqa bo'g'in o'mi kelganda uchta cho'ziq bo'g'inga aylanishi mumkin. Bunda ikkinchi rukndagi qisqa bo'g'in birinchi rukndagi shunday bo'g'in bilan qo'shib, bitta cho'ziq bo'g'in hosil qiladi. Ya'ni:

"V" + "V" = "—"

— — V + V = — — —

Taqti'da esa quyidagi holat vujudga keladi:

— — V V — V — V — —
— — — — V — V — —

Biz bu o'rinda D.Yusupovning tadqiqotiga tayandik<sup>1</sup>. Zero, olima dostondagi ritmik variatsiya bilan bog'liq baytlarni tadqiq qahramonlarning chuqur ruhiy holatlari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, shoir dostonida qahramonlarning ruhiy izziroblari va ziddiyatli voqealari bayonida ritmik variatsiyaga murojaat qiladi:

"Layli, Layli" debon/ chekib un,  
— — — / — V — / V — —

El deb: "Maj/nundu-r+ush/bu Majnun". ("Layli va Majnun", 101)  
— — — / — V — / V — —

Yoki:

Ogshomdin/ tongg'a jo/ni mahzun,  
— — — / — V — / V — —

Tongdin og/shomg'a ash/ki gulgun. ("Layli va Majnun", 102)  
— — — / — V — / V — —

Ko'rinib turganidek, mazkur o'lchov asosida yaratilgan misralarning dastlabki ruknlari mafoiylun aslining axram tarmog'i **maf'uvlun** (— — —), hashvlari shu aslning ashtar tarmog'i **foilun** (— V —), oxirgi ruknlari esa mahzuf tarmog'i **fauvlunga** (V — —) teng bo'ladi. "Layli va Majnun" dostonida ushbu o'lchovda yaratilgan misralar 240 tani tashkil etadi. Haqiqatan ham, ushbu ritmik variatsiyada sokin tuyg'ularni ifodalash imkoniyati kengroq, misralarning 4 cho'ziq bo'g'in bilan boshlanishi ohangning mahzun chiqishiga olib keladi<sup>2</sup>. Shoir dostonida bir baytning o'zida ham hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznini, ham hazaji musaddasi axrami ashtari mahzufni qo'llaydi. Bunday holatlar dostonda juda ko'plab uchraydi:

So 'gin ne/chakim uzot/ti-m+oxir,  
— — V/V — V — / V — —

Yig 'lay-yig '/lay tugat/ti-m+oxir. ("Layli va Majnun", 323)  
— — V/V — V — / V — —

Navoiy "Layli va Majnun" dostonining yakuni uchun har ikki vazndan mohirona foydalanadi va ritmik variatsiyada yaratadi.

<sup>1</sup> Qarang: Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмикинг бадиий уйгунилиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 71.

<sup>2</sup> Конрад Н. Запад и Восток. – М.: Главная редакция Восточной литературы, 1972. – С. 287.

D.Yusupova “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmnинг badiiy uyg‘unligi” monografiyasida “Layli va Majnun” dostonidagi ritmik variatsiya asosida yaratilgan misralarni mazmuniga ko‘ra quyidagi beshta guruhga ajratadi. Biz ushbu tasnifni inkor qilmagan holda ishimizga joriy qildik:

- Qahramonlar nomi keltirilgan misralar:

*Ey oniki Layli aylab otin,  
Majnun qilmoq qilib sifotin....* (“Layli va Majnun”, 5)

*Majnun ko‘rgach bo‘lub mushavvash,  
Ko‘ngliga bu zulm keldi noxush...* (“Layli va Majnun”, 172)

*Yetgach Navfal, salom qildi,  
Majnun anga ihtirom qildi...* (“Layli va Majnun”, 143)

**Ya’ni Majnuni dil ramida**  
Borur edi bo‘lmay oramida. (“Layli va Majnun”, 161)

*Jonin Majnun so‘zida berdi  
Hargiz Layli degil yo‘q erdi.* (“Layli va Majnun”, 261)

- Qahramonlar kayfiyatini peyzaj vositasida ochish bilan bog‘liq misralar:

*Nasrin bargi to‘kulsa sahbo,  
Ko ‘p yog‘ini aylar oshkor.* (“Layli va Majnun”, 72)

*Sarv o‘lmay, mehnatidin ozod,  
Qolmay shamshod dardidin shod.* (“Layli va Majnun”, 81)

*Bo‘ston tifli topib bu hiyla,  
Ul o‘t bila kuydurub fatila.* (“Layli va Majnun”, 256)

*Ul fasl ketibki gulda sunbul,  
Ochqay gulgun yuz uzra kokul.* (“Layli va Majnun”, 257)

*Bulbul topmay o‘zin azosiz,  
Bo‘lg‘ay pari bo‘ynig‘a qaro kiyz.* (“Layli va Majnun”, 257)

- Qahramonlarning iztirobli holatlari aks etgan misralar:

*Yig‘lab atosi yaqo qilib chok,  
Bunyod etti hazinu g‘amnok.* (“Layli va Majnun”, 195)

- Yig'lay-yig'lay izin irishti,  
Ul yerda yetishtikim yetishti.* (“Layli va Majnun”, 214)
- Chun voqea ko 'rguchi ko 'z ochti,  
Ko 'zdin qonlig' sirishk sochti.* (“Layli va Majnun”, 283)
- Go 'riston ichra zoru mahjur,  
O'lgon kishidek hayotdin dur.* (“Layli va Majnun”, 254)

*Tirnog 'larin chu yuzga qo 'ydi,  
Tirnog', tirnog'cha yerlar o 'ydi.* (“Layli va Majnun”, 264)

— Qahramonlar hayrati ifodalangan misralar:

*Alloh, Allah, ne ot erur bu,  
Ne poku xujasta zot erur bu.* (“Layli va Majnun”, 41)

*Durrum anga zebi torak o 'lg'ay,  
Inshoalloh, muborak o 'lg'ay.* (“Layli va Majnun”, 119)

*Alloh-alloh, bu ne so'z o 'lg'ay,  
Ul qavmg'a tengri uzr qo 'lg'ay.* (“Layli va Majnun”, 135)

*Dediki: Nedin, misol ekin bu,  
Subhonalloh, ne hol ekin bu?* (“Layli va Majnun”, 195)

Muallifning doston haqidagi shaxsiy mulohazalari aks etgan misralar<sup>1</sup>:

*Chun surmish kilki durfishonni,  
Tahrir etmish bu dostonni.* (“Layli va Majnun”, 51)

*Bu qissag 'a oncha berdilar zeb  
Kim, bo 'lmas vasfi ichra so'z deb.* (“Layli va Majnun”, 51)

*Aytay Majnun so'zin sanga rost,  
Layli g'ami ichra bekamu kost...* (“Layli va Majnun”, 51)

*Ul nav'ki hotif etti irshod.  
Men ham qildim fasona bunyod...* (“Layli va Majnun”, 52)

<sup>1</sup> Qarang: Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмикинг бадиий уйгунилганы. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 72–74.

*So 'ngin nechakim uzottim oxir,*

*Yig'lay-yig'lay tugattim oxir.* (“Layli va Majnun”, 283)

XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan Habibiy ham ushbu vaznda “Zamon farhodlari” deb nomlangan dostonini yaratdi. Garchi asarda “Farhod” ismi ishtirok etgan bo‘lsa-da, u mavzu nuqtayi nazaridan yuqoridagi dostonlarni takrorlamaydi. Uning “Zamon farhodlari” dostoni mumtoz an'anaga ko‘ra masnaviy shaklida yaratilgan bo‘lib, an'anaviy aa, bb, vv... tarzida qofiyalangan. Doston quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Ke-l+ey, yorim,/ madadkorim/ qalam sen,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Har ish qilgan/da hamkorim/ qalam sen<sup>1</sup>.*

*V — — — / V — — — / V — —*

Bayt *hazaji musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqtii: *mafoiylun mafoiylun fauvlun* V — — — / V — — — / V — —) vaznida yozilgan. Bu yerda *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining doston mazmuniga uyg‘un tarzda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Bayt uchun tanlangan “qalam sen” radifi uning *fauvlun* tarmog‘ida yaratilishiga asos bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, turkiy adabiyotda Xorazmiydan keyin *hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi maqsur* o‘lchovlari ishqiy mavzudagi dostonlarning asosiy vazni bo‘lib qoldi. O‘zbek adabiyotida Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoniga xamsanavislik an'anasi asosida javob sifatida bitilgan ilk doston Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni hisoblanadi. Navoiy turkiy adabiyotda “Farhod va Shirin”ni yaratishda Nizomiy dostonidan ta’sirlangan holda o‘zigacha yaratilgan ishqiy asarlardan ham muayyan darajada foydalangan. Yuqoridagi barcha holatlarda *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining dostonlar mazmuniga uyg‘un tarzda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Turkiy adabiyotda Alisher Navoiy o‘zigacha yaratilgan “Layli va Majnun” dostonlarini puxta o‘rganib chiqadi. Dostonlarda qo‘llanilgan *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur* vaznlarining o‘lchov imkoniyatlarini tadqiq qildi. O‘zi ham o‘zbek epik poeziya

<sup>1</sup> Хабибий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – б. 479.

taraqqiyotida yuqorida keltirilgan vaznlarni olib kirdi va tajriba sifatida “Layli va Majnun” dostonida qo’lladi. Navoiy “Layli va Majnun” yo‘nalishidagi dostonlarning vazn imkoniyatini yanada Turkiy adabiyotda birinchilardan bo‘lib *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* o‘lchovini istifoda etdi.

### 3.2-§. “Haft paykar” yo‘nalishidagi dostonlarning vazn xususiyatlari

Sharq adabiyoti va folklorida yetti raqami tez-tez qo‘llaniladigan uch, to‘qqiz, qirq singari ramziy raqamlardan biridir. Tilimizda forscha sonlar, raqamlar bilan bog‘liq doimiy qo‘llanishda bo‘lgan so‘z va jumlalar anchagina. Masalan, yakjins, yakpora, yakrang, dubayt, chahoriyor (to‘rt sahoba), panj arkon (islomning besh sharti), shashpar (olti qirrali qurol), haft qalam (yetti xat turi: muhaqqaq, rayhoniq, suls, tavqi’, nasx, riqo’, ta’liq), haft iqlim, haft axtar (yetti sayyora: Oy, Tilak, Cho‘lpon, Quyosh, Bakirsokum, Arantiz, Sakantir), haft jus (yetti metal: temir, rux, qo‘rg‘oshin, mis, qalay, oltin, kumush), haft daryo (Tinch okean, Atlantika okeani, O‘rta yer dengizi, Qora dengiz, Tabariya dengizi, Kaspiy dengizi, Orol dengizi), haft avrang (yetti yulduz, Kichik ayiq turkumi), hasht bihisht (sakkiz jannat: muqoma, salom, ma’vo, xuld, na’im, qaror, firdavs, adn), no‘h falak (to‘qqiz falak) va boshqalar. Ularning ichida eng ko‘p qo‘llanilgani haft (yetti) raqamidir. Shu ma’noda manzumaning “Haft paykar” deb nomlanishi, syujetning yetti raqami uzra qurilishi tasodif emas.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” bo‘lib, mavzu yo‘nalishiga ko‘ra ishqiy-sarguzasht asar hisoblanadi. Shoir “Sab’ai sayyor” uchun Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan “Bahrom Go‘r” hikoyasini asos qilib olgan. Bu afsona sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh Varaxran V (420–438) nomi bilan bog‘liq. U go‘r – qulon oviga o‘ch bo‘lgani uchun Bahrom Go‘r nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu haqda Alisher Navoiy “Tarixi muluki ajam” asarida: “Va ani Bahrom Go‘r dedilar. Muning jihatin ba’zi dedilarkim, to‘rni sher sayd qilg‘anda, aning

o‘qi ikisidin o‘tub, yerga tegdi. Ba’zi debdurlarkim, go‘r ovig‘a ko‘p moyil erdi”, – deb ta’riflaydi<sup>1</sup>.

Yozma adabiyotga “Bahrom Go‘r” obrazini dastlab Firdavsiy olib kirdi. Lekin Firdavsiy “Bahrom Go‘r” haqidagi voqeani “Shohnoma”ning bir faslidagina keltirgan. Unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni boshqarishi, o‘z davlatiga qarshi bosh ko‘targanlar bilan kurashi aks etadi. “Bahrom Go‘r” haqida maxsus doston yaratgan shoir Nizomiy Ganjaviy hisoblanadi. Firdavsiy dostoni mutaqoribda bitilgan bo‘lsa, Nizomiy bu sarguzasht dostonni xafif bahri vaznlarida yozadi. Nizomiydan keyin barcha xamsanavislari “Bahrom Go‘r” haqidagi dostonlarini xafif bahrida yaratadi.

Navoiy ham o‘z dostoni uchun epik poeziyada oldindan belgilab qo‘yilgan *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqtisi: foilotun mafoilun failun — V — — / V — V — / V V —) vaznidan she’riy o‘lchov sifatida foydalanadi. Aruzshunos olimlari A.Hojjahmedov, D.Yusupovalar ushbu vaznning ham turkiy epik she’riyatida Navoiygacha istifoda etilmaganligini ta’kidlashadi. A.Rustamov “Sab’ai sayyor” dostoni qolgan dostonlarga nisbatan yengil ruhdagi doston bo‘lganligi uchun uning vazni ham asarga yengillik ohangi beruvchi xafif bahridadir deb hisoblaydi<sup>2</sup>.

“Sab’ai sayyor” ishqiy-sarguzasht xarakteriga ega doston. Manzumaning qisqacha mazmuni ham bundan dalolat beradi. Navoiy dostonning nomi haqida shunday yozadi:

*Chunki qoyil/ yeti muso/fi-r+edi*

— V — — / V — V — / V V —

*Ki, alar say/r+ishiga mo/hi-r+edi.*

— V — — / V — V — / V V —

*Bo ‘ldi chun bu/ raqam ishi/ tayyor,*

— V — — / V — V — / — ~

*Qo ‘ydu-m+oti/ni “Sab’ai/ sayyor”<sup>3</sup>.*

— V — — / V — V — / — ~

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. МАТ. 20 томлик. 16 том. – Т.: Фан, 2000. – Б. 232.

<sup>2</sup> Рустамов А. Навоийининг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 123.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Сабъан сайёр. МАТ. 20 томлик. 13 том. – Т.: Фан, 1992. – Б. 447.

Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

Keltirilgan baytlar xafif bahriga tegishli bo‘lgan ikki vaznda: *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqtisi: *foilotun mafoilun failun* — V — — / V — V — / V V —), *xafifi musaddasi maxbuni maqtu‘i musabbag‘* (ruknlari va taqtisi: *foilotun mafoilun fa’lon* — V — — / V — V — / — ~)da ekanligi ko‘rinadi. *Xafifi musaddasi maxbuni mahzufda* sadr va ibtidoda foilotun aslining solim (— V — —) ko‘rinishi, hashv ruknlarida *mustaf’ilun* aslining maxbun tarmog‘i *mafoilun* (V — V —) hamda aruz va zarb ruknlarida foilotun aslining maxbuni mahzuf tarmog‘i *failun* (V V —) ishtirok etgan. *Xafifi musaddasi maxbuni maqtu‘i musabbag‘da* birinchi, ikkinchi ruknlarini yuqoridagi o‘lchov bilan aynan bir xil. Faqat uchinchi ruknda foilotun aslining maqtu‘i musabbag‘ tarmog‘i *fa’lon* (— ~) qo‘llanilgan.

“Bu, asosan, shoirning bir kayfiyatdan boshqa kayfiyatga o‘tish chog‘ida, qahramonlarning hayrat yoki hayajonlarini ifodalash, shuningdek, syujet chiziqlarining keskin o‘zgarishi va doston qahramonlari ruhiy holatining almashishi davrida qo‘llanilishi mumkin. Vazn ohangining bunday o‘zgarishi hisobiga shoir she’rlarning kitobxon tomonidan o‘zgacha ehtiros bilan qabul qilinishiga erishadi<sup>1</sup>. Demak, xafif bahri vaznlarida ayrim o‘rinlarda sadr va ibtidoda *foilotun* aslining solim (— V — —) ko‘rinishi o‘rniga uning maxbun tarmog‘i *failotun* (VV — —) qo‘llanilishi mumkin. Uchinchi ruknda failun, failon, fa’lun, fa’lon tarmoqlari bir-biri bilan o‘rin almashib qo‘llanaveradi.

Xafif – ko‘pvaznlilikka asoslangan bahr hisoblanadi. Bu haqda A.Hojiahmedov mazkur bahrda she’riy asar yaratilar ekan, shoir unga mansub sakkiztagacha vazndan foydalanishi mumkinligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Darhaqiqat, xafif bahri lug‘aviy ma’nosiga (arabcha “yengil”) mos keluvchi ritmga ham ega. Bu esa ijodkor uchun qulay imkoniyatni vujudga keltiradi. Ushbu she’riy o‘lchov tarkibidagi 5 ta qisqa va 6 ta cho‘ziq bo‘g‘inlarning deyarli teng nisbatda ekanligini bunga sabab bo‘la oladi. Aksincha, bu nisbat gohida o‘zgarishi ham mumkin, ya’ni qisqa bo‘g‘inlar soni 6 ta, cho‘ziq bo‘g‘inlar esa 5 tani tashkil etadi.

<sup>1</sup> Хасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 178–180.

<sup>2</sup> Хожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – Б. 213.

“Hayrat ul-abror” dostonida qo‘llanilgan sari’ bahridagi qisqa bo‘g‘inlarning vazn tarkibida ko‘proq qo‘llanilishi ohangning yengil va o‘ynoqi bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu she’riy o‘lchovda ham qisqa hijolar soni 5 ta, cho‘ziq bo‘g‘inlar esa 6 tani tashkil qiladi. Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida xafif bahriga mansub sakkiz vazndan foydalanilgani adabiyotshunoslikda S.Hasanov, A.Hojjahmedov, D.Yusupovalar tadqiqotlаридан ma’lum<sup>1</sup>. Ushbu vaznlarni ritmik variatsiyalari bilan aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

### 3.1-jadval.

No	Ritmik variatsiyalar	Ruknlari va taqtisi
1.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf	Foilotun mafoilun failun — V — — / V — V — / V V —
2.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur	Foilotun mafoilun failon — V — — / V — V — / V V ~
3.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’	Foilotun mafoilun fa’lun — V — — / V — V — / — —
4.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag‘	Foilotun mafoilun fa’lon — V — — / V — V — / — ~
5.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	Failotun mafoilun failun V V — — / V — V — / V V —
6.	Xafifi musaddasi maxbuni maqsur	Failotun mafoilun failon V V — — / V — V — / V V ~
7.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’	Failotun mafoilun fa’lun V V — — / V — V — / — —
8.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag‘	Failotun mafoilun fa’lon V V — — / V — V — / — ~

Ushbu ritmik variatsiyalarning doston tarkibida o‘zaro o‘rin almashinib kelishi tasodifiy bo‘lmasdan, asardagi qahramonlarning ruhiy holati, bir hikoyatdan ikkinchisiga o‘tish jarayoni va voqealar rivojining o‘zgarishiga chambarchas bog‘liq. “Sab’ai sayyor” dostonida yuqorida jadval asosida keltirilgan vaznlar o‘zaro teng

<sup>1</sup> Qarang: Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988; Ҳожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадий уйгулиги. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011.

qo'llanilgan. Navoiy ham Nizomiy singari dastlabki hikoyasini Bahromning taxtga chiqish voqeasidan boshlaydi:

<i>Mulk bog'in bahori adl bila,</i>	(1)
<i>Suvorib jo 'ybori adl bila.</i>	(5)
<i>Uyla sarsabz qildiyu toza,</i>	(3)
<i>Kim, jahon bo 'ldi jannat ovoza.</i>	(2)
<i>Har ne vayron qilib edi bedod,</i>	(4)
<i>Dod ila qildi barchasin obod...</i>	(4)
<i>Kishvaridin ketardi chun toroj,</i>	(4)
<i>Yetti yillik maof tutti xiroj.</i>	(2) <sup>1</sup>

("Sab'ai sayyor", 74)

Ushbu parchada jadvaldagi 2 va 3 ritmik variatsiyalarning yetakchilik qilishini ko'rish mumkin. Shoir o'z qahramonlarining mahzun kayfiyati, kechinma va tug'yonlarini ritmik variatsiya vositasida tasvirlaydi. Xususan, Navoiy Bahromning o'z dildori Diloromning Chindan olib kelinishini kutish vaqtidagi hislarini

<i>Shahki, hijrondin oh tortar edi,</i>	(1)
<i>Nolai umrkoh tortar edi.</i>	(2)
<i>Za'f etib erdi jismini qilcha,</i>	(3)
<i>Har kun erdi ko 'ziga bir yilcha.</i>	(3)
<i>Tun-u kun afg'onи zor chekmak ila,</i>	(5)
<i>Mehnati intizor chekmak ila.</i>	(1)
<i>Ko 'nglidin sabr chun kanora qilib,</i>	(1)
<i>Yena surat sori nazora qilib,</i>	(1)
<i>Kurubon chun habib suratini,</i>	(7)
<i>Raf' etib hajrining kuduratini,</i>	(1)
<i>Quchmog 'ig 'a ochar edi og 'ush,</i>	(3)
<i>Goh behushu goh ko 'nglida hush.</i>	(3)
<i>Uyda bir soat o 'ltura olmay,</i>	(3)
<i>Qasr yo bog ' aro tura olmay.</i>	(3)

<sup>1</sup> Qavs ichidagi raqamlar jadvalda keltirilgan ritmik variatsiyalar tartibini bildiradi.

*Qasr uza bazm oshkora etib,* (1)  
*O'lturub, yo'l sari nazora etib.* (1)

*Ko'runub gard yo qaro ko'ziga,* (5)  
*Bir nafas kelmay el aro o'ziga* (1)

(“Sab’ai sayyor”, 94)

singari baytlarda ifodalaydi. Agar e’tibor qaratilsa, keltirilgan 9 bayt (18 misra)dan 14 misra yuqoridagi jadvalda aks etgan 1- va 3-ritmik variatsiyalarda yaratilgan. Mazkur variatsiyalarning taqtı’ida cho’ziq bo‘g‘inlarning yetakchilik qilishini ko‘rish mumkin.

Dostonda Bahrom Diloromning topilganlik xabarini eshitganidan keyin unga maktub yo’llaydi. Maktub Bahromning keyingi taqdirini hal qiluvchi vosita bo‘lganligi bois u juda ta’sirli chiqishi kerak edi. Navoiyning mahorati shundaki, Bahromning ichki kechinmalarini, dil tug‘yonlarini ochib berishda, asosan, uchinchi variatsiyadan foydalanadi. Bu bilan shoir maktubning dardli va ta’sirli chiqishiga ham erishadi. Shoirning deyarli har baytda “qon”, “jon” so‘zlarini qo‘llashi ritmik ohangni vujudga keltiradi:

*Ki: Firoqing ichimni qon qilmish,* (3)  
*Ani ko‘z yo‘lidin ravon qilmish,* (7)

*Kelki aylay sanga fido jonim,* (3)  
*Yo‘qsa bo‘ynungg‘a bo‘lg‘usi qonim,* (3)

*Furqat ichra chiqorma jonimni,* (3)  
*Dashna urmay oqizma qonimni.* (3)

*Kelki chiqsun qoshingda jonim xam,* (3)  
*Yana oqsun yo‘lungda qonim ham.* (7)

*Xajr tig‘ini jonima surma,* (3)  
*Jon berurdin burunroq o‘lturma.* (3)

*Sayr aro mehri xovariy yanglig‘,* (3)  
*Manga kelgil uchub pari yanglig‘.* (3)

(“Sab’ai sayyor”, 401)

Bahromshoh mavzusi Navoiydan keyin ham o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanilgan. XVIII asrdan boshlab, yozma va

og‘zaki adabiyotda “Bahrom va Gulandom” dostoni tarqala boshladi. Qashqarlik G‘aribiy XIX asrda “Shoh Bahrom va Dilorom” asarini yaratgan. Umar Boqiy “Qissai haft manzar Bahrom”, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li esa “Bahrom va Gulandom” nomli dostonlarni yozganlar.

Ushbu yo‘nalishdagi asarlardan yana biri Majlisiyning “Qissai Sayfulmuluk” dostonidir. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri axbob” tazkirasida Majlisiy hayotidan shunday ma’lumot keltiriladi: Mavlono Majlisiy suhbatda samimiyl ulfat va o‘tirishlarga yaxshigina ziynat kishi bo‘lib, og‘ir vaziyatlarda ham tab’ otini ziyraklik maydonida yengil yo‘ttirib, so‘z to‘pini notiqlik chavgoni bilan eltar edi. Yaxshi she’rlari va yoqimli so‘zlari bor. Qasidalari nafis va go‘zaldir<sup>1</sup>. “Qissasi Sayfulmuluk” qo‘lyozma nusxalarda tarqalgan hamda XIX asrning boshlarida bir necha marta nashr etilgan.

“Qissai Sayfulmuluk” masnaviysida qissa ichida qissa uslubi qo‘llanilgan bo‘lib, asar hajman 4000 misradan ortiq. Asarning boshlanishida keltirilgan Sulton Mahmud bilan bog‘liq Sayfulmuluk haqidagi qissa asarning vujudga kelishiga zamin bo‘lgan. Asarda insonning o‘z baxti uchun kurashi, bu jarayonda uning kamol topishi, umuman, Misr shohi Osimning yolg‘iz o‘g‘li Sayfulmulukning Fatina shohi Shohbol qizi Badi’uljamolga g‘oyibona sevgisi va unga erishish yo‘lidagi sarguzashtlari gavdalantirilgan.

Dostonning mavzu mohiyatida ham Sayfulmuluk bilan bog‘liq asosiy qissa istifoda etilgan. “Bu sarguzasht-ishqiy doston insonning oljanobligi, ko‘zlagan maqsad sari intilishi, kurashi va g‘olibiyatidan bahs etadi; uadolat, yaxshilik va e兹gulikni tarannum etib, yomonlik, qabohat, zulm va zo‘ravonlikni qoralaydi”<sup>2</sup>. Dostonning “Shoirning so‘zga kirgoni” bobida Majlisiy yigitlik vaqtida uning bir “Gulu Navro‘z” asari borligi haqida aytildi. Shoir “Ki men shoirdu(r)man deb lof urma” deya yozar ekan, qo‘lidagi

<sup>1</sup> Ҳасанхўжа Нисорий. Музаккири ахбоб. Форс тилидаи И.Бекжон таржимаси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мөроси нашриёти, 1993. – Б. 80.

<sup>2</sup> Машаев Н. “Қиссан Сайфулмулук” / Мажлисий. Қиссан Сайфулмулук. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – Б. 6.

hunarini ko'rsatib, turkiy tilda yaratadigan dostoniga "Gulu Navro'z"ni mezon qilib olishini ta'kidlanadi:

*Yigitlik vaq/ti erdi, so 'z manda,*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Bor erdi, bir/ "Gulu Navro 'z" manda...*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Agar bordur/ hunar ilging/da ko 'rsat,*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Ki bu daftar/ni turki til/ga tuzat.*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Buyurdikim:/ "Gulu Navro 'z" nazmin,*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Anga mezon/ qilibon naz/m qilg 'in!*  
V — — — / V — — — / V — —

Tadqiqot ishimizning oldingi boblarida Haydar Xorazmiya nisbat berilayotgan "Gul va Navro'z" dostonining vazni haqida so'z yuritilgan edi. Demak, Majlisiy ham turkiy tilda yaratayotgan dostoniga "Gul va Navro'z" nazmini mezon qilib oladi hamda dostonning o'lchov imkoniyatlarini ham saqlab qoladi. Har ikki ijodkorning Xorazm maktabi vakillari ekanligini ta'kidlasak, bu tabiiy holday ko'rindi.

*Mening otim/ turur Sayful/muluk bil,*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Eshitib ho/limi yaxshi/ suluk qil* ("Qissai Sayfulmuluk", 22)  
V — — — / V — — — / V — —

singari bayt tahlilidan ko'rindaniki, doston *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan. Majlisiy dostonda Bade'uljamolning tasvirini berishda *hazaji musaddasi maqsur* o'lchovining imkoniyatidan keng foydalanadi:

*Niholi sar/vdekdur qad/di mavzun,*  
V — — — / V — — — / V — ~  
*Labi la 'lw/ tishi chun dur/ri maknun.* ("Qissai Sayfulmuluk", 28)  
V — — — / V — — — / V — ~

Shoir o'xshatish san'atidan foydalanib, Bade'uljamolning qaddini sarvdek xushbichim, labi la'l, tishlari esa sadaf ichidagi dur

<sup>1</sup> Мажлисий. Қиссан Сайфулмулук. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – Б. 11. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

singari ekanligini aytadi. Baytda ridfi asliyli qofsiyaning istifoda etilishi bayt ohangining jozibador chiqishini va uning *hazaji musaddasi maqsur* vaznida yaratilishini taqozo qilgan.

Bade'uljamolning daragini topish payida yurgan Sayfulmuluk dengiz orqali Fatina shahriga bormoqchi bo'ladi. Yo'lda u dengizdag'i to'fonga duch keladi va zangilarga asir tushadi. Shoirning mahorati shundaki, bu o'rinda tabiiy manzara – to'fon Sayfulmuluk boshiga tushadigan xavf-xatarning jarchisiday bo'lib tuyiladi.

*Malikzoda/ qilibon kuch/ yarog'in.*

V — — — / V — — — / V — —

*Fatina shah/rina solg'ay/ so'rog'in.*

V — — — / V — — — / V — —

*Kelib shahzodakim kemaga tushdi,  
Tamom asbobini soldi bakishi.*

*Hasad eltit falak bu davlatig'a,  
Yomonliq birla mindi o'z otig'a.*

*Sekin tengiz buzuqlig qildi angez,  
Beliga bog'ladi shamshiri hunrez.*

*Hasad qilib taqi to'son qo'pordi,  
Ki hardam bir taraqqosin qo'pordi.*

*Qilur hardam bir o'zga sharfa angiz,  
Bo'lur har sharfada ming zahri hunrez.*

*Tubindin chayqalur pur sho'r daryo,  
Kemalarning qilur qaddini bir yo.*

*Kemalar bir-biriga bosh urarlar,  
Quni cho'kub, ular suvg' to'lalar.*

*Qadog'lari sinibon bo'ldi pora,  
Ki hech kim topmadi qochmoqqa chora*

(“Qissai Sayfulmuluk”, 17)

deb voqealar mazmuni va qahramonlar kayfiyatini tasvir etishda hazaji musaddasi mahzuf o'ichovining imkoniyatidan mohirona

foydalaniadi. Biz yuqorida dostonda xalq og‘zaki ijodining ta’siri ham sezilishini ta’kidlagan edik. Majlisiy “Jafo chekmay kishiga rohat bo‘lmas” maqolini badiylashtirib, uni maqolning mazmuniga teng keladigan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni ohangiga mosladи:

*Jafo chekmay kishiga rohat o‘lmas,*

*Agar kuymas o‘tung‘a jo‘sh bo‘lmas.*

Dostonda vazn bilan bog‘liq saktaliklar, radifdan oldin qofiya saqlanmagan holatlar ham uchrab turadi.

<i>Vale shahzo</i>	<i>daning ko‘ngli</i>	<i>da erdi</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — —</i>	<i>V — —</i>
<i>Ochib ko‘rgay</i>	<i>bu to‘nda ne</i>	<i>bo-r+erdi</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — —</i>	<i>V — —</i>

“Erdi” radifidan oldin qofiya uchun garchi qofiyadosh bo‘lmasa-da, “ko‘nglida, bor” so‘zлari istifoda etilgan. Bu holatlar esa baytda nuqsonlar borligini ko‘rsatadi. Dostonda bunday holatlar ko‘plab uchrab turadi. Shunga qaramasdan, ushbu doston o‘zidan keyin yaratilgan masnaviyalar uchun ham asos bo‘ldi. Shunday dostonlardan biri Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”idir.

XVIII asr oxirlarida Hisorda yashab ijod etgan Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” (1786) dostoni xalq orasida qo‘lyozma va bosma nusxalarda keng tarqalgan. Doston masnaviy shaklida yaratilgan bo‘lib, 2515 baytdan iborat<sup>1</sup>. Uning qurilishi o‘ziga xos. Hamd va na’tdan so‘ng asosiy qismga o‘tiladi. Asosiy voqealar bayon etilar ekan, o‘rnii bilan lirik chekinishlar qilinadi. Ular ba’zan shoir tilidan, ba’zan esa bosh qahramon – Sayfulmuluk tilidan bayon etiladi. Asarda xalq dostonlari uslubiga o‘xshab, roviyga murojaat qilinib, keyin yana yetakchi syujetga qaytiladi. Dostondagi lirik chekinishlar turli lirik janrlarda beriladi. Xususan, dostonda 37 ta g‘azal, 1 ta mustazod, 1 ta murabba’, 5 ta muxammas, 1 ta musaddas uchraydi. Ushbu lirik janrlar aruz tizimining turli vaznlarida bitilgan. Sh.Hasanovning yozishicha, dostonni turli lirik janrlar (g‘azal, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard, qasida va hokazo) bilan ziynatlash, bir mavzu doirasidan har xil lirik lavhalar yaratish an‘analarining kuchayib borayotganligi zamонави

<sup>1</sup>Сайкалий. Бахром ва Гуландом. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. – Б. 215. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

dostonlarda lirik qurilishning mavqeyini oshirmoqda<sup>1</sup>. Aynan shu fikrni "Bahrom va Gulandom"ga nisbatan ham aytish mumkin.

Adabiyotshunoslikda Sobir Sayqaliyning hayoti va ijodi bo'yicha R.Aliyev, M.Muhiddinov, X.Rasulov, S.Soyipov, S.Sayfullo, D.Xunziker, N.Jumaxo'ja, I.Adizovalar tomonidan qator izlanishlar amalga oshirilgan<sup>2</sup>. Shu bois biz bu o'rinda "Bahrom va Gulandom" dostonidagi vazn va mazmun uyg'unligiga to'xtalamiz.

"Bahrom va Gulandom" dostoni o'zigacha shu mavzuda yaratilgan xalq og'zaki ijodiyotidagi va yozma adabiyotdagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Qator dostonlarda, ayniqsa, yozma adabiyotda Bahrom sarguzashti qoliplovchi hikoyani tashkil qilib bir qancha hikoyalarni o'z ichiga olsa, Sayqaliy dostonida Bahrom va uning sevgilisi sarguzashti va ular boshidan o'tgan voqealar yaxlit hikoyani tashkil qiladi<sup>3</sup>. Demak, dostonda Bahromning tug'ilishi, uning butun hayoti va kurash yo'llari, boshidan kechirgan sarguzasht-voqealari hikoya qilinadi. Sayqaliy asarda Rum shahzodasi Bahrom va Chin malikasi Gulandomning bir-birlariga bo'lgan chin muhabbatini nekbinlik ruhida kuylash bilan birga, qahramonlik, mardlik,adolatparvarlik, odamiylik, do'stlik kabi umumbashariy xalqchil g'oyalarni ham, o'z davri ijtimoiy masalalarini ham ifodalaydi<sup>4</sup>. Dostondagi barcha voqealar Bahromning hayoti va kurashi zamirida vujudga keladi. Bahrom bolaligidanoq yaxshi ilm va tarbiya oladi. Chavandozlik, qilichbozlik, o'q-yoy otish kabi harbiy mashqlarni puxta egallaydi:

<sup>1</sup> Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonlари поэтикаси: Филол. файл. док. ... дисс. – Т., 2004. – Б. 204.

<sup>2</sup> Qurang: Алиев Р. Баҳром ва Гуландом (сўз боши) / Сайқалий. Баҳром ва Гуландом. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. – Б. 215; Алиев Р. Сайқали и его поэма «Бахрам и Гулаидам». Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1964. – С. 24; Мухиддинов М. «Баҳромгўр» ва «Баҳром-Гуландом» сюжетларининг ўзаро алокаси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – № 1. – Б. 26–28; Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973. – Б. 148; С.Сойипов. "Қиссаны Сайқалий" асариг кўлёзма пусхаларининг киёсий-текстологик тадқики. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2020. – Б. 122; Сайфуллоҳ С., Хунзикер Д. Карабоғожеаси ва бадиий ижод / Собир Сайқалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо. – Т.: Моварооннахр, 2004. – Б. 609; Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – Б. 560.

<sup>3</sup> X. Rasulov. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973. – Б. 6.

<sup>4</sup> Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamiyatmasi nashriyoti, 2006. – Б. 99.

<i>O'turub ul</i>	<i>tirandozlik</i>	<i>qilurdi,</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — —</i>	<i>V — —</i>
<i>Yana o'ynab,</i>	<i>qilichbozlik</i>	<i>qilurdi.</i>
<i>V — — —</i>	<i>V — — —</i>	<i>V — —</i>

Ko'rinaridiki, keltirilgan bayt hazaji musaddasi mahzufda yozilgan. Ayni paytda bayt uchun tanlangan "qilurdi" radifi uning vaznini tanlashiga ham zamin hozirlagan. Zero, "qilurdi" so'zi mafoiylyn asliy ruknining fauvlun (*V — —*) tarmog'iga mos keladi.

Sayqaliy Bahromni odobli, nihoyatda kamtar yigit sifatida tasvirlashida hazaji musaddasi mahzuf vazni maqbul tanlangan. Unga ko'ra bir kuni shoh o'g'li Bahromga "adolatli, raiyatparvar bo'lg'jin" deb taxtni topshirmoqchi bo'ladi. Biroq Bahromni toj-u taxt, davlat qiziqtirmaydi. Shunda Bahrom padari buzrukvoriga kamtarlik bilan hali davlatni idora eta olish qudratiga ega emasligini aytadi:

*Hayoting boricha san shoh bo 'lg'il,*

*Ulu rutba Faridun joh bo 'lg'il* ("Bahrom va Gulandom", 26)

Baytda "bo 'lg'il" radifi ridfi asliyli murdaf qofiya – "shoh, joh" bilan birqalikda vaznni belgilashga xizmat qilgan. Bahromning shu xislati Navoiyning "Farhod va Shirin" idagi Farhodni eslatib yuboradi. Agar dostonning vaznini hisobga olsak, Sayqaliy Navoiy dostonidan ilhomlangan deyish mumkin. Albatta, dostonda xalq og'zaki ijodi ildizlari ham bor. Unda g'ayritabiyy kuchlar, sehrli fantastik epizodlar tasviri ham muhim o'rinn egallaydi. Xususan, oddiy inson bolasining sher, dev yoki nahangni yengishi ishonib bo'lmas voqealardir. Bahrom otasidan izn so'rab ovga chiqqach, dastlab sherga duch keladi:

*O'gurib gur/zisin shahzo/da Bahrom,*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Bu sherni bo/shiga urdi/ bu hangom.*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Necha char-x+ur/di gukrab she/r g'arron,*

*V — — — / V — — — / V — — ~*

*Yiqilib og'/zidin oqtqi/ qizil qon.* ("Bahrom va Gulandom", 10)

*V — — — / V — — — / V — ~*

Agar yuqoridagi ta'kidlangan o'rirlarga diqqat qilinmasa, ohang buziladi. Keltirilgan parchaning so'ngida Bahrom, hangom, g'arron, qon singari ridfi asliyli qofiya qo'llanilgan. Bu esa baytni *hazaji musaddasi maqsurda* yozilishini ta'minlaydi. Demakki, o'zaro yaqin bo'lgan hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur vaznlari bir she'riy asarning o'zida qo'llanaveradi.

Dostonda, asosan, 5–11 baytli g'azallar uchraydi. Ular aruz tizimining turli bahrlarida yaratilganligi bilan o'ziga xosdir. Xususan, ramal bahrida 33 ta, hazajda 3 ta va muzori'da 1 ta g'azal yaratilgan. R.Orzibekov dostondag'i keltirilgan o'n ikkita g'azal O'zRFASHI fondi, 1925-inv. raqamli qo'lyozma bayoziga ham kiritilganligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Ushbu vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish:

### 3.2-jadval.

No	Vazn nomi	Bayt	G'azallar soni
1.	Ramali musammani mahzuf	– <i>Ey, nachuk jonsen mani aqlimni hayron aylagan, So 'zlamay jonim olib, ich-bag'rimi qon aylagan?</i>	25
2.	Ramali musammani maqsur	<i>Ey varaq, borsang mani arzimni sultonimg'a ayt, Ostonig'a urub boshingni, ul xonimg'a ayt.</i>	8
3.	Hazaji musammani solim	<i>Nigoro, shahringa bul kun gadodin kam bo 'lo keldim, Kechibon toju taxtimdin, bu kun Adham bo 'lo keldim.</i>	2
5.	Hazaji musammani axrab	<i>Ey yori, alam ko 'rgan qaydin kelasan, ayg'il, Ko 'p jabru sitam ko 'rgan qaydin kelasan, ayg'il</i>	1
6.	Muzori'i musammani	<i>Hech qulni dardi man kabi bisyor bo 'lmasun,</i>	1

<sup>1</sup> Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyat jamg'armasi nashriyoti, 2006. – B. 103.

Qayd etilgan vaznlar orasida *ramali musammani mahzuf* o'Ichovi yetakchilik qiladi. Bu vazn aruz tizimidagi eng xushohang vaznlardan biri bo'lib, Alisher Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" asarida xalq orasida mashhur bo'lgan "qo'shug'" nomli kuyning ushbu vazn bilan mos kelishini ta'kidlaydi: "...bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramal musammami mahzuf vazniga elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab'liq benazir yigitlar g'arib nag'amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sulton sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig' va xushoyandalig'i vasfqa sig'mas va ta'sir va raboyandalig'i sifatqa rost kelmas"...

Zahiriddin Bobur esa o'zining "Aruz risolasi"da "Bu vazn forsiyda va turkiyda ko'p shoyi'dur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibtur. Mir Alisher Navoiyning xud jami' o'zga vaznda aytqon ash'ori bila bu vaznda aytqon ash'orining loshah borg'ay. Sulton Husayn mirzoning devonida ushbu vazndin o'zga vazn yo'qtur<sup>2</sup>. Xoja Xusrav Dehlaviyning "Dar'yoyi abtor"i bu vazndadur... Ulug' shoirla[r] lahu aksar tatabbu' qilibturlar Mir Alisher Navoiyning "Tuhfat ul-afkor"ining matla'icha kam voqi' bo'lubtur, - deb yozadi<sup>3</sup>.

"Bahrom va Gulandom" dostonida dastlabki g'azal Bahromning kiyikni quvlab, bir bog'ga kirishi bilan bog'liq syujetda keltiriladi. Unda Bahrom bog'dagi Gulandomning suratini ko'rib, "sen qanday jonsan aqlimni hayron, so'zlamay ich-bag'rimni qon aylagan", - deydi. G'azal

- *Ey, nachuk jon/sen mani aq/limni hayron/ aylagan,*

— V — — / — V — — / — V — — / — V —

*So 'zlamay jo/nim olib, ich-/bag'rimi qon/ aylagan?*<sup>4</sup>

— V — — / — V — — / — V — — / — V —

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 71.

<sup>2</sup> Aslida bu fikr nisbiy. Husayn Boyqaro devonida ushbu vazndan tashqari, hazaj, mutaqorib bahrida yaratilgan g'azzallar ham uchiraydi.

<sup>3</sup> Бобур З.М. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. – Т.: Фан, 1971. – Б. 146.

<sup>4</sup> Сайқалий. Баҳром ва Гуландом. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. – Б. 11.

Gulandomning go'zallagini, uning latofat va nazokatini ko'rsatib berishda shoir uchun ramali musammani mahzuf vazni qo'l kelgan. Baytning dastlabki uch rukni *foilotun* (— V —) va oxirgi rukni *foilun* (— V —)dan tashkil topadi. G'azal an'anaviy 7 baytdan iborat a-a, b-a... tarzida qofiyalangan.

Doston tarkibida ritmik pauzaga ega vaznlar ham uchraydi. Shunday vaznlar sirasiga *hazaji musammani axrab* (— — V/V — — / — — V/V — —) vazni ham kiradi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida ushbu o'Ichov hazaj bahrining yoqimli vaznlari qatorida sanab o'tiladi<sup>1</sup>. Dostondan olingan quyidagi g'azal aynan *hazaji musammani axrab* o'Ichovida yozilgan va she'rning radifi to'rt so'zdan iboratdir:

*Ey yori,/ alam ko'r gan/ qaydin ke/ lasan, ayg'il,*  
— — V/V — — / — — V/ V — — —

*Ko'p jabru/ sitam ko'r gan/ qaydin ke/ lasan, ayg'il.*  
— — V/ V — — / — — V/ V — — —

Agar e'tibor qaratilsa, maf'uvlu hamda mafoiylun ruknlarining ketma-ket takrorlanishi matla' baytga o'zgacha ritm bag'ishlagan. Mazkur o'Ichov yuqorida tilga olingan vazndan farq qilib, misra ichidagi kichik ritmik pauzaga egaligi ayonlashadi. Har ikki rukn (maf'uvlu, mafoiylun)dan so'ng misra ichida kichik to'xtam (pauza) ro'y beradi, bu bevosita so'z bilan ruknning teng kelishi hisobiga amalga oshadi. Boshqacha aytganda, barmoq vaznidagi turoq singari misra o'rtasida bo'linish yuz beradi.

Doston tarkibida ritmik pauzaga ega bo'lgan *muzori'i musammani axrabi makfusi mahzuf* (— — V/ — V — V/V — — V/ — V —) vazni ham istifoda etilgan. Vazn ohangi musiqabopligi bilan ajralib turadi. Ushbu vazn ham misra ichidagi kichik ritmik pauzaga ega. Shu jihatidan u *hazaj* bahrining shu yo'nalishdagi vaznlarini eslatadi.

<i>Hech qulni</i>	<i>dardi man ka</i>	<i>-bi bisyor</i>	<i>bo'lmasun.</i>
— — V	— V — V	V — — V	— V —
<i>G'am tig'i</i>	<i>birla siyna</i>	<i>-si askor</i>	<i>bo'lmasun</i>
— — V	— V — V	V — — V	— V —

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 46.

Mazkur vaznning tarkibi birinchi ruknda mafoiyun aslining axrab tarmog'i - maf'uvlu (— — V)ga va uchinchi ruknda makfuf tarmog'i - mafoiyu (— V — V)ga, ikkinchi ruknda foilotun aslining makfuf tarmog'i - foilotu (V — — V)ga, to'rtinchi ruknda esa shu aslining mahzuf tarmog'i - foilun (— V —)ga teng. Bayt uchun tanlangan radif vazn uchun asosiy unsur bo'lgan.

Dostonda an'anaviy *hazaji musammani axrabi makfusi mahzuf mustazod* (ruknlari va taqt'i: *maf'ulu mafoiyu mafoiyu fauvlun maf'ulu fauvlun* — — V/V — — V/V — — V/V — — / — — V/V — —) vaznida yozilgan I ta mustazod janridagi she'r ham keltirilgan. Sayqaliy dostondagi mustazodni Gulandom, Ruhafzo, Sarvosoning go'zalligi, xulq-atvori madhidan keyin keltiradi. Shoир ularni gulga qiyos qilib, "u gullar har birisi chamandin" ekanligini e'tirof etgani holda, uch gullarning madhiga bir mustazod aytadi:

*Ul uch gu/li navrasta/ guluzori/ tamanno,*  
 $\text{— — } V/V \text{ — — } V/V \text{ — — } V/V \text{ — — }$   
*uch qutbi/ muzohib,*  
 $\text{— — } V/V \text{ — — }$

*Bir-birla/rini husni/ni aylardi/ tamoshlo,*  
 $\text{— — } V/V \text{ — — } V/V \text{ — — } V/V \text{ — — }$   
*zav-q+ila/ quvonib.* ("Bahrom va Gulandom", 151)  
 $\text{— — } V/V \text{ — — }$

Diqqat qilinsa, uning asosini *hazaji musammani axrabi makfusi mahzuf* vazni tashkil qilganligi kuzatiladi. Farqi shundaki, misradan so'ng birinchi va to'rtinchi ruknlar — *maf'uvlu* va *fauvlun* ruknlari ortitirilgan. Mustazodda shoир o'xshatish, ishtiqoq, tanosub she'riy san'atlarini vazn bilan bir o'rinda keltirish orqali she'ming ta'sirchanligini oshirgan. Baytning o'lchov imkoniyatiga ko'ra vasldan ham (*zav-q+ila*) foydalilanilgan.

Dostonda bandli she'r shakllari ham uchraydi. Ular ham dostonning mazmunini badiiylashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sayqaliy bandli she'r shakllarini quyidagi vaznlarda bitadi:

### 3.2-jadval

Nº	Vazn nomi	Murabba'	Muxammas	Musaddas
1.	Ramali musammani solim			1
2.	Ramali musammani	1	1	

	mahzuf			
3.	Ramali musammani maqsur		2	
4.	Hazaji musammani solim		1	
5.	Muzori'i musammani axrabi makfufi mahzuf		1	
	Jami:	1	5	1

Dostondagi murabba' Bahrom va Gulandom o'tasidagi savol va javobni aks ettirish usuliga asoslanadi. Ushbu aytishuvda Bahrom va Gulandom o'tasidagi hurmat-ehtirom, sevgi-muhabbat, odob va istig'no sezilib turadi. Ular o'zlarining donoligi, hozirjavobligi bilan atrofdagilarni lol qoldirishadi. Sayqaliy murabba'da vazn imkoniyatlarini savol-u javob, irsoli masal, tamsil, husni ta'lil, tanosub, tashbih, tazod singari she'riy san'atlardan mohirona foydalanib kengaytiradi:

*Aydi shahzoda: – Bo 'lurmish chunki bir ko 'rgon bilish,  
Bul masaldur el orasinda, iki ko 'rgon tanish,  
Ushladim domoni vaslingni yadi ummed ila,*

*Qo 'yorim yo 'qtur, gulim, har necha qilsang sarzanish* (101) deb yozadi. Natijada "bir ko'rgan – bilish, ikki ko'rgan – tanish" maqolini keltirish, dalillash orqali aytilayotgan fikrini yanada chuqurlashtirishga erishgan. Bu esa maqolning mazmunini vazn orqali dostoniga singdirib yuborganini ko'rsatadi.

"Bahrom va Gulandom"dagi murabba' mumtoz murabba'lardan farq qiladi. Bu holat, ayniqsa, uning qofiyalanish tizimida ko'zga tashlanadi. Lekin nimagadir shoir mazkur to'rtlikni "ruboiyot" deb ataydi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini ta'kidlaydi. "Bahrom va Gulandom" dostonida keltirilgan to'rtlikning vazni esa bunga tushmaydi. She'r *ramali musammani mahzuf* o'Ichovida yozilgan. Ham she'r ketma-ket bandlardan iboratdir. Demak, dostondagi 29 bandli she'mni shartli ravishda murabba' janriga taalluqli deyish mumkin.

Doston tarkibidagi muxammas va musaddaslar ham uning mazmuniga xizmat qiladi. Dastlabki muxammas Jahongard tomonidan Bahromga qarata aytildi va she'r 15 banddan iborat. Uning mazmunida kuhansol Bahromga suratdagi qiz Chin malikasi Gulandom ekanligini, "duxtari Fag'fur erur" deb, uning tengi yo'q go'zal ekanligini va unga ko'ngil berish behudaligini ramali musammani maqsur o'Ichovining yoqimli ritmida ta'kidlaydi. Shunga qaramasdan Bahrom Gulandomning yurti Chin sari safarga otlanadi. Muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

*—Ey begin, jo/nim, eshit ayt/ay ajoyib/ doston,*

*— V — — / — V — — / — V — — / — V ~*

*Man g'aribu/bag'ri kuygan,/ ko'zi namli,/ ko'ksi qon,*

*— V — — / — V — — / — V — — / — V ~*

*Bir ajab sav/doni solg'on/dur boshimga/ bul jahon,*

*— V — — / — V — — / — V — — / — V ~*

*Qayqubodu/vaqtdurman/ kishvarim bu/gulsiton,*

*— V — — / — V — — / — V — — / — V ~*

*Toji sar—o/him, qulohim/—qayg'u, iqbo/lim—fig'on.* (13)

*— V — — / — V — — / — V — — / — V ~*

Muxammasdan keltirilgan parchada vazn talabiga ko'ra "doston, vaqtdurman" so'zlariga bitta cho'ziq unli orttirilib "doston, vaqtdurman" singari talaffuz etilsa, "guliston" so'zida esa "gulsiton" kabi ikkinchi hijodagi harflarning o'rni almashtiriladi. Shoир band mazmunini kuchaytirish maqsadida vazn bilan o'xhatish, tanosub singari san'atlaridan o'rinli foydalanadi. **Doston, qon, jahon, gulsiton, fig'on** singari ridfi asliyli qofiyadosh so'zlar esa uning ramali musammani maqsurda yozilishi uchun zamin bo'lган. Band mazmunida dastlab Jahongard Bahromga boshidan o'tkazganlarini bayon qila boshlaydi. Ko'zi qon, bag'ri kuygan, ko'zi namli ekanligini aytadi.

Doston tarkibidan bitta musaddas ham o'rin olgan. Uning mazmuni ham doston vazni bilan bevosita bog'lanadi. Har bir band so'ngida

*Ey, begin, jo/ni-m+azizim,/ ey amirim,/ e'tiborim,*

*— V — — / — V — — / — V — — / — V — —*

*Ey ko'rар ko'zim, afandim,/ o'z elimda/ shahsuvorim* (118)

*— V — — / — V — — / — V — — / — V — —*

*singari ramali musammani solim* (ruknlari va taqtisi: foilotun foilotun foilotun — V — — / — V — — / — V — — / — V — —) vaznida bitilgan bayt keltiriladi. *Ramali musammani solim* vazni foilotun asliy ruknining baytda sakkiz marta aynan takroridan hosil bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda ramal bahrining forsiy va turkiy she’riyatda solim holda qo‘llanilmasligi ta’kidlanadi<sup>1</sup>. Buning boisi mazkur vaznning ohang xusuyatlari jihatidan cheklanganligi bo‘lsa kerak. Lekin Alisher Navoiy ushbu vaznni tajribadan o‘tkazish maqsadida bir g‘azal yozadi. Ushbu g‘azal “Navodir ush-shabob” devonida 199-raqam ostida keltirilgan. G‘azal matla’si quyidagicha:

*Ey jalolu/ rahmatingdin/ gar zalilu,/ gar muazzaz,*

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

*Safhayi kav/nayn o‘lub o/ting tarozi/din mutarraz<sup>2</sup>,*

— V — — / — V — — / — V — — / — V — —

Ma’lum bo‘ladiki, shoirning ijodidan keltirilgan bayt ramali musammani solim vaznida yozilgan. Nazariy manbalarda ramali musammani solim vaznining turkiy adabiyotda ilk bor qo‘llanilishi Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqlikda talqin qilingan edi. Biroq tadqiqotimiz davomida Sobir Sayqaliy dostoni tarkibida ham mazkur vaznda yaratilgan 9 bandli musaddas bor ekanligi ochiqlandi. Demak, doston masnaviy shaklida yaratilgan bo‘lsa-da, unda g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas janridagi she’rlar ham uchraydi. “Bahrom va Gulandom” dostoni *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitilgan. Undagi qo‘llanilgan lirik janrlar esa *ramal*, *hazaj*, *muzori*’ bahrlarining musamman o‘lchovlarida yaratilgan. Umuman olganda, dostonda turli o‘lchovlardan foydalanish dostonning umumiyligi ritmini turfashtirib, voqealar mavzu-mundarijasini ochib berishga xizmat qilgan.

O‘zbek adabiyotidagi shu yo‘nalishdagi dostonlar sirasiga Nodir – Uzlatning “Haft gulshan” dostonini ham kiritish mumkin. Ushbu doston ham XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmi xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Doston Umarxonning vafotidan so‘ng Nodiraga bag‘ishlab yoziladi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday deydi: “Bul vofirul ixlos qullari, qosirul e’tiqod val ixtisos bandalari

<sup>1</sup>Хожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – Б. 127.

<sup>2</sup>Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 томлик. 4-жилд. – Т.: Фан, 1989. – Б. 145.

hazrat oyimning ko'ngillari ko'zgusi g'uborini ko'tarmoqqa yetti gulshan bino qilibdurkim, fusuli arba'a anda musoviydur"<sup>1</sup>. Demak, Nodir – Uzlatning "Haft gulshan" dostoni yetti gulshandan iborat bo'lib, Nodiraning ko'zgusi g'uborini ko'tarmoq uchun yaratilgan.

Adabiyotshunoslikda Nodir va uning "Haft gulshan" dostoni A.Qayumov, T.G'afurjonova, X.Rasulovlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>2</sup>. Xususan, A.Qayumov "Haft gulshan" asarini XIX asr birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitidagi ko'zga ko'ringan voqeа hamda o'zbek adabiyoti tarixiga qo'shilgan bir hissa deb qarash kerakligini o'rinali qayd etadi<sup>3</sup>. "Haft gulshan" dostoni XIX asr birinchi yarmida uch xonlik orasida hokimiyatni qo'lда saqlash va ustunlik qilish uchun shiddatli janglar borayotgan davrda yaratilgan<sup>4</sup>. Nodirning ushbu dostonini T.G'ofirjonova 1961-yilda nashr qildirgan.

Nodir dostonning xotimasida 1824–1825-yillarda ushbu asarini yaratganligini aytadi. Doston, asosan, katta-kichik 7 ta hikoyadan iborat. Ushbu "...dostonlar o'zining tuzilishi, syujet xarakteri bilan, ko'proq she'riy yo'l bilan yozilgan hikoyalar va ertaklarga o'xshab ketadi"<sup>5</sup>. "Haft gulshan" an'anaviy hamd, na't hamda chahor yor ta'rifi bilan boshlanadi. Keyin shoir o'zi haqida gapirib, muhtojlikda qiynalib yashaganligini bayon etadi. Shuningdek, Nodir dostonining kirish qismida "ahli suxan holidan ogoh bo'lgan", "saxovatda tengi yo'q", "karam qiluvchi oljanob inson obrazini" yaratadi. "Haft gulshan"da Nodiraning zehn va idrok egasi, "Karam bobida yuz erdi ziyoda" ekanligi, aql bilan ish ko'rishi aytildi:

*Hama boshdin/ ayog'i er/di idrok,*

*V— — — / V— — — / V— ~*

*Jahon ichra/ aningdek kel/magay pok.*

*V— — — / V— — — / V— ~*

<sup>1</sup> Нодир. Ҳафт гулшан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 19.

<sup>2</sup> Qarang: Каюмов А. Қўқон адабий мухити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961; Нодир. Ҳафт гулшан. Нашрга тайёрловчи Т.Ғафуржонова. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961; Гафурджанова Т. Надир и его поэма "Ҳафт Гулшун". Дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: 1965; Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973.

<sup>3</sup> Каюмов А. Қўқон адабий мухити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 56.

<sup>4</sup> Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973. – Б. 100.

<sup>5</sup> Каюмов А. Қўқон адабий мухити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 259.

*Agar har ish/ni ul etsa/ iroda,  
V — — — / V — — — / V — —  
Karam bobi/da yuz erdi/ ziyoda!  
V — — — / V — — — / V — —*

Keltirilgan bayt yuqoridagi dostonlar singari hazaji musaddasi maqsur va hazaji musaddasi mahzuf o‘lchovlarida bitilgan. Baytlar uchun istifoda etilgan ridfi asliyli murdaf qofiya (idrok, pok), mujarrad qofiya (iroda, ziyoda) vaznni belgilashda asos mezon hisoblangan. Dostonning kirish qismidan keyin birin-ketin “gulshanlar”ga kirish boshlanadi:

*Ochilg‘on har birida lolau gul,  
Muanbar atrila rayhon-u sunbul.*

*Suyi erur aning hikmat zuloli,  
Daraxtidur hikoyatning niholi.*

*Aning har birida pandu nasihat,  
Anga bo ‘ldi munosib bir hikoyat.*

*Borisi keldi o ‘tgan shohlardin,  
Yozildi safhaga ogohlardin.* (“Haft gulshan”, 20–21)

Har bir gulshanda lola-yu gul ochilgani, uning muanbar atri rayhon-u sunbulga, suvi hikmat ziloliga, daraxti hikoyaning niholiga o‘xshatiladi. Gulshanlarning har bir sahifasi pandu nasihat, ularga munosib bir hikoyat, shuningdek, hikoyat mazmuni o‘tgan shohlar haqida ekanligi hazaji musaddasi mahzuf vazni ohangida aytildi. Dostonga kiritilgan har bir gulshandagi hikoyatlar orqali ma’lum voqeа asosida jamiyatdagi muammolar ko‘rsatishga harakat qilinadi. Nodir ikkinchi gulshanda qahramonlik, to‘rtinchi va oltinchi gulshanlarda sarguzasht, yettinchi gulshanda esa pandnomा mavzusida yozilgan hikoyalarni hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi maqsur vazni ohangida sinab ko‘radi. Har ikki vazn imkoniyatidan foydalanib, uning mazmunini o‘quvchiga yetkazib beradi.

“Haft gulshan” hikoyatlarining birinchisi – “Avvalgi gulshan” deb nomlanib, unda g‘isht quyuvchi o‘g‘lining o‘z baxtini topgani, mushkul ahvolda qolgan g‘arib kishilarga yordam qo‘lini cho‘zgan

<sup>1</sup> Нодир. Ҳафт гулшан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 13. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

adolatli shoh tasviri *hazaji* musaddasi maqsur vaznida chiziladi. Hikoyada otasi vafotidan keyin tushkunlikka tushib qolgan g'isht quyuvchining o'g'li og'ir ahvolda qoladi:

*G'am ahli xo/tiri yanglig'/ buzilg'on,*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Aning to 'rt go '/shasi har yon/ uzulg'on.* ("Haft gulshan", 25)

*V — — — / V — — — / V — ~*

Bayt uchun tanlangan *hazaji* musaddasi maqsur vazni yigitning holatini tasvirini berishga xizmat qilgan. Yigit o'z baxtini topish, qashshoqlikdan chiqish ilinjida karvonga qo'shilib o'zga yurtga ketadi.

Dostonning ikkinchi hikoyatida o'zining tadbirkorligi, ustomonligi bilan baxtini topgan Muboriz haqida bayon qilinadi. Voqealar rivojida Muboriz Lohur va Bangola shohlariga ikki lak zar evaziga sadoqatli mulozim bo'lish shartini qo'yadi.

*Agar har oy/da bersang ik/ki lak zar,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Mulozim san/ga bo 'lg'ayman/ mugarrar.* ("Haft gulshan", 45)

*V — — — / V — — — / V — —*

Uning ushbu taklifini Bangola shohi rad etadi, Lohur shohi esa qabul qiladi. Muboriz Lohur shohiga o'z sadoqatini isbotlash maqsadi o'z farzandini o'ldirishga ham rozi bo'ladi.

Dostonning uchinchi hikoyatida ham shoir yigit va qiz munosabatini *hazaji* musaddasi maqsur ohangini asos qilib oladi. Unda tasvirlanishicha, Peshohur shahrida bir zolim shoh bor edi. Uning go'zal qizi bo'lib, u musiqa va she'r yozishga qiziqar edi. Malika uchun Peshohur shohi bir bog' barpo qiladi va o'sha yerda shoh qizi ko'zdan holi yashaydi. Vazirning o'g'li bir kuni malikani bog'da ko'rib qoladi va ular bir-birlariga oshiq bo'lishadi. Bundan xabar topgan vazir o'g'lini bandi qiladi, shoh esa qizini o'ldiradi. Shunda malika o'z qoni bilan devorga she'r yoza boshlaydi, biroq she'r yakuniga yetmaydi. Bu voqeani ko'rgan shoh hayratdan qayg'uga botadi, mulozimlariga "to" so'zi bilan boshlangan baytning ma'nosini topishni amr qiladi. Faqat buning javobini donishmand Shayx Sa'diy kelib, qiz yozishga ulgurmagan so'zni topadi:

*Qononi maro ba man biyored,  
In murda tanam bad-ŷ supored.  
To bŷsa zanad bar in labonam,  
Gar zinda shavam, aŷab nadored.*

(Mazmuni: Mening jononimni menga keltiring, (“Haft gulshan”, 66)

Bu o’lik tanimni unga topshiring.

U mening lablarimdan bo’sa olganida,

Agar [qayta] tirilsam, [bundan] ajablanmang.

Shundan so’ng vazirning o’g’lini malikaning oldiga keltirishadi, unga “muhabbat jomini tut” deyishadi va qiz aksa urib ko’zlarini ochadi. Nodir bu hikoyati bilan muhabbatning kuchi o’limni ham yenga olishimi isbotlamoqchi bo’ladi.

Beshinchi gulshanda Saodat va Javharning pok muhabbatini, vafo va sadoqati barcha to’siqlarni yengadi. Garchi Javhar shohning qizi bo’lishiga qaramay, o’z sevgisi yo’lida xizmatkorlikka ham rozi bo’ladi. Gulshanda oshiqlar bir-birlarini tushlarida ko’radi. Bu an’naviy motiv xalq og’zaki va yozma adabiyotga xosdir. Saodat va Javhar o’zlarining mehnati, hunari bilan baxtga erishadi. Boshlariga tushgan barcha qiyinchiliklarni sabr va bardosh bilan yengib o’tishadi. Buning mukofoti o’laroq asar yakunida Saodat yurtga shoh bo’ladi.

*Bu mulk uzra/ bo ‘lubon o/qibat shoh,*

*V — — — / V — — — / V — ~*

*Fano shahri/g’ a yondi ul/ dilogoh.* (“Haft gulshan”, 152)

*V — — — / V — — — / V — ~*

“Oltinchi gulshan” hikoyasida Mohbonuning portreti ancha ishonarli chiziladi. Nodir Mohbonuning tasvirini keltirar ekan, o’xhatish, tanosub she’riy san’atlaridan o’rinli foydalanadi. U hikoyada Mohbonu “shahga erdi birgina qiz”, go’zallikda, aql-idrokda tengi yo’q, “tabassum lablaridin erdi gulrez” sanam sifatida gavdalanadi. Uning tishlari durdona, qaddi xushqomat ekanligini ta’kidlasa, ko’zini ohuga, o’zini esa hushbo’y oq gulga o’xhatadi. Bunday go’zallik jahonga boshqa kelmaydi deb, unda “boshdin ayog” malohat mujassamligini bayon etadi.

*Tishi durdo/nau qaddi/ sanavbar,*

*V — — — / V — — — / V — —*

*Ko’zi ohu,/ o’zi xushxo / sumanbar*

V — — — / V — — — / V — —  
*Jahonga kel/mas andog' xo'sh/ sabohat,*  
 V — — — / V — — — / V — —  
*Edi boshdin/ ayog' barcha/ malohat.* (“Haft gulshan”, 187)  
 V — — — / V — — — / V — —

Nodirning mahorati shundaki, *fauvlun* tarmoq rukniga mos keluvchi mujarrad va muassas qofiyadagi so‘zlarni teng qo‘llaydi. Bu bilan u ohangni, vaznni saqlab qoladi. Hikoyadan keltirilgan parchada shoir **sanavbar**, **sumanbar**, **sabohat**, **malohat** kabi qofiyadosh so‘zlardan foydalanadi. Birinchi baytdagi **sanavbar**, **sumanbar** so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, “r” raviy, undan oldingi “a” qisqa unlisi *tavjih* bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchchi baytdagi **sabohat**, **malohat** so‘zlari muassas qofiya bo‘lib, cho‘ziq “o” unlisi –ta’sis deb, undan keyingi “h” undoshi daxil deb, raviy oldidagi “a” qisqa unli esa ishbo’ deb ataladi.

“Yettinchi gulshan”ning kirish qismida “...Muhaffal bobin ochib va necha qimmat baho guharidin ettisin muntahab qilib sochibman. Avvalgi nasihat bo‘lkim, g‘addor-u nammomu xoin va g‘arazgo‘ qo‘lidan ijtinob qilib, sazolarin bermoq, to o‘zgag‘a ibrat bo‘lsunkim, to alar shomatidin mamlakat quyoshig‘a zavol va amorat sharafig‘a vubol bo‘lmog‘oy; ikkinchi beg‘araz do‘stlarg‘a muvaffaqiyatchilik qilmoq, to ma‘ozzadatlaridan favoid kulli hosil bo‘lg‘oy; uchinchi dushman ahvolini mulohaza qilmoq, to alar makridin emin bo‘lmoq; to‘rtinchi dushman mazarratidin g‘ofil bo‘lmasun, to matlub ilgidin ketmasun; beshinchi, afkim hukumat ahlig‘a barcha sifatlardin behroqdur; oltinchi ilmu viqor va sukun va sabot, xuşusan ahli mamlakatg‘a; yettinchi, hazm va ehtiyyot barcha ishga lozim va vojibdur. Bul yetti nasihatkim yetti gulshan muqobilasida yozildi. Hukamo xiradnomasida masturu salotin va hukkomning manfaat bayonida mazkurdir”<sup>1</sup> – degan fikrlarni o‘qiyimiz. Bunda shoir “Haft gulshan”ning yettita gulshanida nima demoqchi bo‘lgani va qanday g‘oyani ilgari surgani ochiqlanadi.

Dostonda bitta 35 bayt 6 banddan iborat tarji‘band ham keladi. Ushbu she‘r doston vaznida emas, balki *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida yaratilgan. Har bir band so‘ngida

<sup>1</sup> Нодир. Хафт гулшан. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 189.

*Hajr o'tig'a kuydi hasta jonim,  
Rahm et menga yori mehribonim.*

(“Haft gulshan”, 17)

singari vosila bayt keladi.

“Haft gulshan”dagi har bir hikoya syujeti, kompozitsion qurilishi bir-birini takrorlamaydi. Jumlalarda esa arab-fors so'zlari ko'plab uchraydi. X.Rasulov doston hikoyalarining hijriy 1328-yilda (1910-milodiy) Toshkentda nashr etilgan nusxasini ancha mukammal deb hisoblaydi. Adabiyotshunoslikda ushbu dostonning tarjima asar ekanligi haqida ham e'tiroflar mavjud. Bizningcha, bunday qarash o'rinni emas. Akademik A.Qayumov “umuman o'tmisht o'zbek adabiyotida tarjima nisbiy ma'noga egadir. Biror syujetda bir necha asarlar yaratish adabiyotda traditsiya bo'lib qolgani ma'lum”ligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Bu haqda adabiyotshunos A.Qayumov fikrlariga tayanamiz.

Xiromiy ham bu yo'nalishda o'zining “Chor darvesh” dostonini 1834-yilda yaratadi. Ushbu doston Nasrulloxon tomonidan Kitob va Shahrисabzga qarshi kurash olib borilayotgan bir vaqtida yozilgan. “Chor darvesh”ning asli vatani Hindiston bo'lib, Sharq xalqlari o'rtasida keng tarqalgan xalq kitoblaridan hisoblanadi. Uni dastlab kim yozgani yoki to'plagani ma'lum emas. Ammo bundan qat'i nazar, “Chor darvesh”ning mashhur xalq kitoblaridan biri sifatida shuhrat qozonishi va keng tarqalishida hindlarningina emas, balki tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar va boshqa o'nlab xalqlarning ham hissasi bor<sup>2</sup>. Muallif o'z asarini uzoq tarixga ega bo'lgan “Chor darvesh”ning qaysi nusxasi asosida yaratganini qayd etmaydi.

Adabiyotshunoslikda shoirning “Chor darvesh”i fors-tojik tilidagi shu nomdagi nasriy asar asosida yaratilganligi ta'kidlanadi<sup>3</sup>. Bizningcha, Xiromiy salaflari singari butun poetik iste'dodini ishga solib, dostonga erkin hamda ijodiy yondashgan. Adib doston uchun mutaqoribi musammani mahzuf hamda mutaqoribi musammani maqsur o'Ichovlarini tanlaydi. Garchi mutaqorib bahri adabiyotshunoslikda aksar hollarda qahramonlik va jangnoma

<sup>1</sup> Каюмов А. Кўкон адабий мухити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – Б. 300.

<sup>2</sup> Кораев Т. Хиромий хаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 1977. – Б. 22.

<sup>3</sup> Qarang: Махмудов М. Хиромий ва унинг “Чор дарвеш” достони хакида / Хиромий. Чор дарвеш. – Т.: ЎзССР Давлат бадний адабиёт нашриёти, 1960. – 336 б.; Кораев Т. Хиромий хаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 1977. – 111 б.; Ўзбек адабиётни тарихи. 5 томлик. 4-том. – Т.: Фан, 1978. – Б. 318-348.

dostonlarida qo'llanilgan bo'lsa-da, shoir asarini shu bahrda yozish orqali insoniy kechimlalar tasvirining ko'tarinki ruhda bo'lishini ko'rsatib berdi. U bu bilan ishqiy-sarguzasht dostonlarni ham mutaqorib bahrida yaratish mumkinligini tajribadan o'tkazdi.

"Chor darvesh"ning qoliplovchi hikoyasida farzand talab Ozodbaxt ziyoratga chiqadi:

*Shahe bor edi oti Ozodbaxt,*

*Ki Qustantaniya anga poytaxt...*

*..Ki farzand uchun shohi Ozodbaxt,*

*Ko'ziga ko'rinnmas edi toj-u taxt...*

*..Dedi: Necha xayl-u sipohim bila,*

*Ziyorat etay buyla johim bila...*

*..Bu yo'l qat'ida gah yurub, gah turub,*

*Mazorotqa yetdi markab surub<sup>1</sup>.*

Mozorda u to'rt kishini ko'rib qoladi. Dastlab Ozodbaxt ularni qaroqchi deb o'laydi, tonggacha ularni kuzatib o'tiradi. Keyin bilsa, bular falakdan jabr ko'rgan to'rt darvesh edi. Boshqa darveshlarning talabi bilan dastlab shu kecha birinchi va ikkinchi darvesh o'z sarguzashtlarini hikoya qilishadi. So'ng Ozodbaxt darveshlarni o'z saroyiga taklif qiladi va Xojayı sagparast nomi bilan mashhur bo'lgan savdogar haqidagi hikoyani so'zlab beradi. Shundan keyin qolgan ikki darveshning hikoyati tinglanadi. Doston so'ngida Ozodbaxt o'g'il farzand ko'radi va unga Baxtiyor ismini qo'yadi. "Chor darvesh" qahramonlarning parilar shohi Malik Shohboz yordamida murod-maqsadiga yetganliklari bilan yakunlanadi.

Xiromiy mumtoz adabiyot an'analariga amal qilib, mazmun bilan vaznni yonma-yon qo'llaydi. U har qanday mazmunning o'ziga munosib vazn talab qilishini, shundagina asarning badiiylik kasb etib, insoniylik tuyg'usiga ta'sir etishi mumkinligini yaxshi tushunadi. Buni dostonda keltirilgan maqol, ibratlì so'zlar misolida ham ko'rish mumkin:

<sup>1</sup> Хиромий. Чор дарвеш. – Т.: ЎзССР Давлат баданий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 5.

*Demishlar/ki, har kim/ni kelgan/da ko'r,  
V — / V — — / V — — / V ~  
Bo'lubtur/masal: so'z/ni so'rgan/da so'r.  
V — / V — — / V — — / V ~*

Yoki:

*Necha dam/g'animat/yigitlik/chog'i,  
V — / V — — / V — — / V —  
Yuz oncha/g'animat/tiriklik/chog'i  
V — / V — — / V — — / V —*

Zamonaviy adabiyotda ham mumtoz an'analar asosida dostonlar yaratildi. Xususan, Jamol Kamolning "Quyosh chashmasi" shunday asarlar sirasiga kiradi. Olima D.Quvvatova 70-yillarda o'zbek zamonaviy aruzining jonlanishi dostonchilikda ham o'zining yorqin izini qoldirganini aynan Jamol Kamolning "Quyosh chashmasi" dostoni misolida kuzatilishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Doston boshidan oxirigacha aruz tizimida yaratilganligi bois shakl jihatidan uni mumtoz dostonlarga yaqinlashtiradi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul "Sho'ro davrida Erkin Vohidovgacha ham aruzda she'rlar yozilgan. Ammo Erkin Vohidovning qasida va g'azallari ulardan mohiyat va ifodada butunlay farqlanadi. Shu farqlanish, ya'ni aruzni yangilash, ochiqroq aytganda, "zamonaviylashtirish" tamoyili Jamol Kamol g'azallari va "Quyosh chashmasi" dostonida ham yorqin ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Doston quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*She'r ahli turmushi tuyg'u ekan,  
Tuyg'u shu olamga bir ko'zgu ekan...*

*Ko'zgudek moviy, musaffo bir sahar  
Men go'zal Bolqon sari qildim safar<sup>3</sup>.*

"Quyosh chashmasi" dostonida shoir Bolqonga (Bolgariya) safari taassurotlarini mumtoz ohangda kitobxonga yetkaza oladi.

<sup>1</sup> Кувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек дostonchilikinin тараккиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дисс. – Т., 2016. – Б. 66.

<sup>2</sup> Гафуров И. Жозиба. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 23.

<sup>3</sup> Камол Ж. Достонлар. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 55.

Keltirilgan bayt vaznini aniqlash maqsadida misralarni quyidagicha ruknlarga ajratamiz:

*She'-r ah-li/ tur-mu-shi tuy/-g'u e-kan*

— V — — / — V — — / — V —

*Tuy-g'u shu o-/lam-da bir ko 'z/-gu e-kan...*

— V — — / — V — — / — V —

*Ko 'z-gu-dek mo-/viy, mu-saf-fo/ bir sa-har*

— V — — / — V — — / — V —

*Men go '-zal Bol-/qon sa-ri qil/-dim sa-far.*

— V — — / — V — — / — V —

Ko‘rinadiki, doston ramal bahrining *ramali musaddasi mahzuf* o‘lchovida bitilgan. Keyingi aruzshunoslikda shoirlarimiz, asosan, ramal, hazaj bahri vaznlariga murojaat qilishmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida har ikki bahr vaznlari turkiy she’riyat uchun nihoyatda mos ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

### **Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar**

“Xamsa” tarkibidagi ishqiy dostonlarda vazn masalasini tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Turkiy adabiyotda Xorazmiy “Muhabbatnama”sidan keyin hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur o‘lchovlari ishqiy mavzudagi dostonlarning asosiy vazni bo‘lib qoldi. Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoniga xamsanavislik an’anasi asosida javob sifatida bitilgan ilk doston bo‘lmish “Farhod va Shirin” dostonida ham mazkur she’riy o‘lchov qo‘llanilgan. Navoiy turkiy adabiyotda “Farhod va Shirin”ni yaratishda Nizomiy dostonidan ta’sirlangan holda o‘zigacha yaratilgan ishqiy asarlardan ham muayyan darajada foydalangan.

2. Alisher Navoiy forsiy adabiyotda o‘zigacha yaratilgan “Layli va Majnun” dostonlarini puxta o‘rganib chiqib, mazkur yo‘nalishdagi dostonlarda qo‘llanilgan *hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf*, *hazaji musaddasi axrabi maqbizi maqsur* vaznlarining o‘lchov imkoniyatlarini tadqiq qildi va ushbu o‘lchovlarni turkiy adabiyotga olib kirdi. Tajriba sifatida o‘zining “Layli va Majnun” dostonida qo‘lladi. Navoiy “Layli va Majnun” yo‘nalishidagi dostonlarning vazn imkoniyatini yanada chuqurlashtirib, ritmik variatsiyadan foydalandi. Turkiy adabiyotda

*birinchilardan bo‘lib hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf o‘lchovini istifoda etdi.*

3.O‘zbek adabiyotida ishqiy-sarguzasht yo‘nalishidagi dostonlar o‘ziga xos turkumni tashkil etadi. Nizomiyning “Haft paykar” dostonidan ibtido topgan mazkur yo‘nalishga Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”, Majlisiyning “Qissasi Sayfulmuluk”, Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”, Nodir-Uzlatning “Haft gulshan”, Xiromiyning “Chor darvesh”, Jamol Kamolning “Quyosh chashmasi” singari asarlarini kiritish mumkin. Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni aruz tizimida, xafif bahrining xafifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznida yozilgan. Sakkiz ritmik variatsiyaga ega bo‘lgan ushbu vazndan hikoyatlar tarkibida turli holatlarda istifoda etilgan. Mazkur ritmik variatsiyalarning voqealar bayonida o‘zaro almashinib qo‘llanilishi tasodifiy bo‘lmay, asar qahramonlarining ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o‘tish jarayoni va syujet chiziqlarining o‘zgarishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

4. Majlisiyning “Qissasi Sayfulmuluk” dostoni qissa ichida qissa uslubida yaratilgan va yo‘nalishiga ko‘ra ishqiy-sarguzasht doston hisoblanadi. Muallif dostonda hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlaridan foydalangan.

5. Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni “Haft paykar” yo‘nalishidagi doston hisoblansa-da, unda qo‘llanilgan she’riy o‘lchov Nizomiy va Navoiy dostonlaridan farq qiladi. Muallif dostonda asosiy vazn sifatida hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlaridan foydalangan, lekin doston tarkibiga kiritilgan g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas kabi janrlarda ramal, muzori’ kabi vaznlardan foydalanadi. Doston tarkibiga mazkur janrlarning kiritishi va ularning aruz tizimidagi turli bahrlarda bitilishi bir necha syujet chizig‘iga ega bo‘lgan doston voqealari bayoni uchun mos kelgan.

6.Nodir-Uzlatning “Haft gulshan” dostoni ham an’anaviy hazaji musaddasi mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, buning sababi sifatida mazkur dostonning xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgani va hazaji musaddasi mahzuf vaznining xalqona ohangga yaqin turishi bilan izohlash mumkin.

7. Xiromiy o‘zining bu yo‘nalishdagi dostoni “Chor darvesh” uchun mutaqorib bahri vaznlarini tanladi. Jamol Kamol esa “Quyosh chashmasi” dostonini “turkona” ramali musaddasi mahzuf (maqsur) o‘lchovida yaratdi.

## IV BOB. FALSAFIY-TASAVVUFİY DOSTONLARDA RİTM VA MAZMUNNING O'ZARO MUNOSABATI

### 4.1-§. "Maxzan ul-asror" turkumidagi dostonlarda qo'llanilgan bahrlar

Adabiyotshunoslikda xamsalar mavzu va qahramon nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qilishi bilan birga o'xshashlik jihatlariga ham ega. Ya'ni har bir shoir o'z xamsasini kirish mohiyatini namoyon qilgan bir doston bilan boshlagan va bu asarda o'z falsafiy tushunchalarini, etik-estetik maslagagini ko'rsata olgan, adabiyot olamiga kelishidan xabar bergen. Bu asarlar orasida *asror*, *avror* va *abror* so'zлari bo'lган dostonlar ko'pchilikni tashkil qiladi. "Maxzan ul-asror", "Matla' ul-avror", "Tuhfat ul-abror", "Gulshan ul-abror", "Minhoj ul-abror", "Hayrat ul-abror" va boshqalar. Ularning aksariyati didaktik xususiyatli asarlardir.

Mumtoz Sharq adabiyotida "Maxzan ul-asror" turkumidagi dostonlar alohida bosqichni tashkil etadi. O'zbek adabiyotida "Maxzan ul-asror" turkumidagi doston yozish an'anasini Haydar Xorazmiy boshlab berdi. U o'zining "Maxzan ul-asror"ini Nizomiyning shu nomdagi dostoniga javob tariqasida yaratdi<sup>1</sup>. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarining yettinchi majlisida "Mavlono Haydar turkigo'y" to'g'risida ma'lumot berib, uning masnaviysidan quyidagi baytni keltiradi:

*Himmat elidur yadi bayzo degan,  
Er nafasidur dami Iso degan*<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy "Muholamat ul-lug'atayn" asarida ham Haydar Xorazmiyning asli Xorazmdan ekanligi haqida aytib o'tadi: ...Shohrux Sultonning zamonining oxirig'acha turk tili bila shuaro paydo bo'ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab' salotine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriya va Gadoyideklar<sup>3</sup>... Shoir Temuriylardan Umarshayxning o'g'li Iskandar Mirzo hukmronligi davrida yashab ijod etgan.

<sup>1</sup> Adabiyotshunoslikda doston nomi "Gulshan ul-asror" tarzida ham keltiriladi.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – Б. 157.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Мухокамат ул-лугатайн. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – Б. 32.

Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror"i falsafiy-ta'limiy doston bo'lib, bevosita Nizomiyning shu nomdagi dostonidan ilhomlanib yaratilgan. Doston taxminan 1409–1414-yillar oralig'ida bitilgan. Haydar Xorazmiyning dostoni hajman Nizomiynikidan kichik bo'lib, 639 baytdan iborat. Doston 23 bobni o'z ichiga oladi, shundan 7 bobi muqaddima, qolgan 16 bobi asarning asosiy qismidir. Professor N.Rahmonov Haydar Xorazmiy bu dostoni bilan hikoyat janri taraqqiyotiga katta ulush qo'shganligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, H.Xorazmiyning hikoyatlari Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uzi", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asarlaridagi she'riy va nasriy hikoyat janrini g'oya va mavzu jihatidan boyitdi<sup>1</sup>. Zero, Haydar Xorazmiy hikoyatlarining mazmuni Nizomiy hikoyatlari kabi didaktik mavzudadir.

Haydar Xorazmiy dostoni uchun Nizomiy singari sari' bahrining *sari'i musaddasi matviyi makshuf* vaznini tanladi. Buni Haydar Xorazmiyning Nizomiy an'anasini davom ettingani bilan izohlash mumkin. A.Rustamov sari' bahri pand-nasihat ohangiga ega bo'lган bahr bo'lганligi uchun "Xamsa"larning birinchi dostoni shu she'riy o'Ichovda yaratilgan degan fikrni bildiradi<sup>2</sup>. D.Yusupova ham sari' bahri epik poeziya vaznlari orasida eng yengil va o'ynoqi ohangga ega bo'lган vazn ekanligini qayd etadi<sup>3</sup>. Haqiqatan ham, aynan shunday ohangdagi she'riy vazn pand-nasihat ruhidagi fikrlarning kitobxon tomonidan malol kelmaydigan darajada qabul qilinishiga erishish uchun zarur edi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida sari' bahrining beshta vazni haqida ma'lumot beradi va misol keltiradi<sup>4</sup>. Zahiriddin Bobur "Aruz risolasi"da "sari' bahri o'n yetti vazn: o'n bir musta'mal, olti muxtara', bir vazn musta'mali matbu'" ekanligiga urg'u bergen holda ularga bittadan namuna keltiradi<sup>5</sup>. Aruzshunos A.Hojiahmedov "sari'ning vaznlari ko'p bo'lsa ham, ulardan ikkitasigina she'riyatimizdan o'rinn olgan bo'lib, bular sari'i

<sup>1</sup> Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – В. 443.

<sup>2</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадиний маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 123.

<sup>3</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиний уйғунылиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 27.

<sup>4</sup> Qarang: Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. 16-жилд. – Т.: Фан, 2000. – Б. 62.

<sup>5</sup> Бобур З.М. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – Б. 193.

musaddasi matviyi makshuf hamda sari'i musaddasi matviyi mavquf o'Ichovlaridir"<sup>1</sup>, – deb ta'kidlaydi. Olimlarimizning tadqiqotlarida mazkur bahrning solim ko'rinishi turkiy she'riyatda uchramasligi haqida fikr yuritiladi.

Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzan ul-asror"iga javob yozishga kirishar ekan, "Musannifning vasfi bobida" o'z ahvolini bayon etadi:

*Sha'm sifat/liq yurakim/ shu'lazan,*  
— V V —/ — V V —/ — V —  
*Dud boshim/da ayoqim/da lagan<sup>2</sup>.*  
— V V —/ — V V —/ — V —

Shoir yuragini yonib turgan shamga, boshidagi o'y-xayollarini esa shamning tutuniga, qimirlamay xayol surib o'tirish holatini shamdon ostidagi laganga o'xshatadi. E'tibor berilsa, keltirilgan bayt sari'i musaddasi matviyi makshufda (ruknlari va taqt'i: muftailun muftailun foilun — V V —/ — V V —/ — V —) yaratilgan. Baytning sadr, ibrido, hashvi mustaf'ilun aslining matviy tarmog'i — *muftailun* (— V V —)ga, aruz, zarbi esa maf'ulotu aslining matviyi makshuf tarmog'i — *foilun* (— V —)ga teng. Vaznni hosil qilishda ayrim so'zlar unga moslashtirilgan.

Dostonning "Kitob yozilish sababi" bobida Haydar Xorazmiy o'z asarini yaratishga Nizomiyning o'zi ilhomlantirgani, davr an'anasiga ko'ra Nizomiy turk tilida bitolmagan dostonni shoir yozishi zarurligini qayd etadi:

*Turk zuhu/ridu-r+ochun/da bu kun,*  
— V V —/ — V V —/ — V ~  
*Boshla-r+uluq/ yir bila tur/kona un.*  
— V V —/ — V V —/ — V ~  
... *Turk suru/dini tuzuk/ birla tuz,*  
— V V —/ — V V —/ — V ~  
*Yaxshi ayol/g'u bila ko'k/la Qo'buz* ("Maxzan ul-asror", 221)  
— V V —/ — V V —/ — V ~

<sup>1</sup> Хожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 151.

<sup>2</sup> Хоразмий X. Махзан ул-асрор / Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашра тайёрловчилар: Абдувохидова М., Мухторова X., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Faifur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 214. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

singari keltirilgan baytlar yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *sari’i musaddasi matviyi mavquf* vaznida bitilgan. Ushbu vazn ham she’riyatimizda ancha keng ommalashgan o‘lchovlar sirasiga kiradi. Baytda qo‘llanilgan *kun*, *un*, *tuz*, *Qo‘buz* qofiyadosh so‘zlarida “*u*” tovushidagi o‘ta cho‘ziqlikni arab-fors tilidagi “*J*” (*u*) harfi ta’minlab kelyapti. Baytda vazn talabi bilan ta’kidlangan so‘zlar bir-biriga qo‘shilib yoki bitta qisqa unli orttirilib talaffuz etiladi.

“Maxzan ul-asror” dostoni tarkibida bir necha hikoyatlar beriladi. Xususan, Sulton Iskandar madhi, “Bo‘z tuquvchi va bazzoz hikoyati”, “Hotami Toy hikoyati”, “Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat” kabilardir. Keltirilgan kichik hajmli hikoyalarda katta va muhim bo‘lgan mavzuni yoritishga harakat qilgan hamda buning uddasidan chiqqan. Hikoyatlarning mazmuni bir-birini takrorlamaydi. Ularda insonlarni yaxshilikka undovchi, odob-axloqqa chorlovchi, halol mehnatni qadrlovchilar kuylanadi. Hikoyatlarda Sulaymon, Ya’qub, Yusuf, Mahmud G‘aznaviy, Hotami Toy, Bahlul singari an’anaviy, shuningdek, yangi obrazlarni ham ko‘ramiz. Bu borada “Bo‘z tuquvchi va bazzoz hikoyati” diqqatga sazovordir.

Hikoyat matni u qadar katta bo‘lmasa ham, o‘sha davrdagi real voqeani ko‘rsatganga o‘xshaydi. Haydar Xorazmiy bu hikoyatda *sari’ bahri* vaznlari ohangida bir beva ayol va savdogar haqida so‘zlaydi. Voqealar rivoji Kufada bo‘lib o‘tadi. Bir beva ayolning mashaqqat bilan to‘qib borgan bo‘zini savdogar dag‘al, qo‘pol, kiyimga yaroqsiz deb kansitadi. Kampirga bo‘z uchun ikki dirham beradi:

*Gaz bila ham kelturib ul bo ‘g‘zi kam,*

*Berdi anga xoja bir-ikki diram.* (“Maxzan ul-asror”, 225)

Lekin bazzoz o‘zi “ipagi” past deb aytgan bo‘zni “tengizdan teyrang”, “katon birla teng” bahoga sotadi. Buni kuzatib turgan donishmand cholning savdogarni qattiq xijolat qilishi bilan hikoya tugaydi.

*Lol bo ‘lib qoldi Xojai oshufta dil,*

*Qoldi xijolat evinda munfa ‘il.* (“Maxzan ul-asror”, 226)

Dostondagi qolgan hikoyalar ham *sari’ bahri* jilosida g‘oyaviy-badiiy jihatdan insonni yaxshilikka, to‘g‘rilikka undasa, insofsizlik,

baxillik kabi illatlar tanqid ostiga olinadi. Hikoyatdan keyin kelgan mav'izada insonlar insofga chaqiriladi. Ayniqsa, buni quyidagi baytda ko'rish mumkin:

*Xayr etagina uzun tut qo'lung,*

*Mo'ru malaxdin ayama sarqutung.* ("Maxzan ul-asror", 227)

Shoir keltirilgan mav'izalarda falsafiy masalalarni ilgari surishida sari' bahri vaznlarining imkoniyatlari mos keladi. Haydar Xorazmiy hikoyalarining muhim qirralaridan biri unda obrazlarning tazod asosiga qurilganligidir. "Maxzan ul-asror"ning g'oyaviy asosini pand-nasihat, odob-axloq masalalari tashkil etadi. Shuningdek, dostonda shoir karam-saxovatga alohida to'xtalib o'tadi. U himmatni va saxovatni insonning eng yaxshi fazilati sifatida yoqimli ohang ta'sirida ta'riflaydi:

*Bo'lma xaridor bila saxtro'y,*

*Qilma zabunlarg'a qatiq go'ftugo'y* ("Maxzan ul-asror", 223) singari baytda shoir xaridor bilan qattiqqo'l bo'lmaslikni, nochorlarga qattiq gapirib arz qilmaslikni bayon etadi. Qofiya uchun tanlangan *saxtro'y*, *go'ftugo'y* so'zлari ayni paytda vazn tanlash uchun poydevor bo'lgan. Chunki *saxtro'y*, *go'ftugo'y* qofiyadosh so'zlarida kelgan -ro'y, -go'ydag'i "o'" unlisi arab alifbosidagi vov (و) harfini ifodalagani uchun o'ta cho'ziq (~) hijo qo'yiladi. Bu esa baytning *muftailun muftailun foilon* ruknlari ohangida, boshqacha aytganda, sari'i musaddasi matviyi mavquf vaznida o'qilishini taqozo etadi.

"Maxzan ul-asror" turkumidagi dostonlar orasida, shubhasiz, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarining hayratlanishi") asari alohida ajralib turadi. Umuman, Alisher Navoiy "Xamsa"sisiz o'zbek epik poeziysi rivojini tasavvur qilish mumkin emas. N.Konrad Navoiy "Xamsa"si haqida gapirar ekan, ritmlardagi har xillik jihatdan bu besh dostonni musiqa ilmidagi pentatonikaga o'xshatadi. Biri – haqiqiy major, ikkinchisi – haqiqiy minor, uchinchisi – majorga "yaqinlashayotgan", to'rtinchisi – "minorga yaqinlashayotgan" va nihoyat beshinchi doston major va minorning ajralmas birligidir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Главная редакция Восточной литературы, 1972. – С. 285.

Adabiyoshunos olim N.Komilovning fikriga ko'ra, "Hayrat ul-abror" – yagona syujetga ega bo'Imagan falsafiy-didaktik asar. Uni Navoiy dunyoqarashining bayonnomasi deyish mumkin. Dostonda shoir siymosi zukko mutafakkir donishmand shaxs sifatida namoyon bo'ladi: dunyoning tuzilishi va unda insonning o'rni, inson va ruhiyat, inson va tabiat, ruh ajoyibotlari, insonning yaratuvchanlik qudrati, jamiyat va shaxs, saltanat va raiyat, yaxshilik va yomonlik, ishq va vafo, ilm-u ma'rifat – xullas, ulug' shoir zamonasining xilma-xil aktual masalalarini qalamga olib, ularga javob qidirishini bayon etadi<sup>1</sup>. Shu ma'noda Alisher Navoiy asarlari zamonalr osha insoniyatni tarbiyalashda davom etadi. Bugungi globallashuv jaryonlarida insonning kimligini eslatib, ma'naviy ozuqa beradi.

"Hayrat ul-abror" bismillah, tavhid, to'rt munojot, besh na't, Shayx Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviyga bag'ishlangan ta'rif va madhlar, Mavlono Abdurahmon Jomiyning vasfi, "Hayrat ul-abror"ning yaratilishi, so'zning ma'nosi xususida, Sulton Husayn Boyqaro haqida, ko'ngil haqida, uch hayrat, Xoja Bahovuddin Naqshband haqida, shuningdek, tasavvufiy holatlarga taalluqli mulohazalar, podshoh va xizmatkor qissasi, "Hayrat ul-abror" nomi va yozilish tarixi xususidagi boblardan tashqari, mohiyat e'tibori bilan yigirmata maqolat va ularga ilova tarzida bitilgan yigirmata hikoyatdan iborat.

Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" dostonini xamsanavislikdagi an'anaga muvofiq *sari'i musaddasi matviyi makshuf* hamda *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlarida yaratdi. Garchi Navoiy "Hayrat ul-abror"da o'z dostonining Haydar Xorazmiy dostoni bilan bevosita aloqadorligi haqida hech narsa demasa-da, lekin uning mazkur muallif bilan tanish bo'lganligi aniq, bu haqda Navoiyning nasriy asarlariда ba'zi qaydlar uchraydi<sup>2</sup>. Xususan, Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois" asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Navoiygacha *sari'i musaddasi matviyi makshuf* hamda *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlari o'zbek adabiyotida Durbekka nisbat beriladigan "Yusuf va Zulayxo", Haydar Xorazmiyning

<sup>1</sup> Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 286–287.

<sup>2</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунилиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 42.

“Maxzan ul-asror”ida istifoda etilgan edi. Doston Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” hamda Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostonlariga javob tariqasida yaratilgan.

“Hayrat ul-abror” dostonida shoir yuqoridagi ikki o’lchov imkoniyatidan mohirona foydalanadi. Xususan, dostonda *sari’i musaddasi matviyi makshuf* vaznini hikmatomuz baytlarni bitishda qo’llaydi:

*Odam er/sang demagil/ odami,*

— V V — / — V V — / — V —

*Oniki yo ‘q/ xalq g’ami/din g’ami!*

— V V — / — V V — / — V —

Yoki:

*Judu saxovat chog‘i buxl etmagil,*

*Shukr zamoni dog‘i buxl etmagil.* (“Hayrat ul-abror”, 16)

Tarbiya haqidagi fikrlar ifodasida uchun esa *sari’i musaddasi matviyi mavqufni* tanlaydi:

*Bo ‘lma-s+adab/siz kishilar/ arjumand,*

— V V — / — V V — / — V ~

*Pas-t+eta-r+ul/ xaylni char/xi baland.* (“Hayrat ul-abror”, 163)

— V V — / — V V — | — V ~

Baytda odobsiz kishilar qadrli bo‘lmasligi, unday toifadagi kishilarni charxi baland, aylanuvchi falak, ular har qancha ko’tarilmasinlar, past etadi, ko’tarib urishi aytildi. Arjumand va baland so‘zлari muqayyad qofiya bo‘lib, ularda “d” harfi – ravyi, “n” – qayd, qisqa “a” unlisi – hazv deb ataladi. Misralarda muqayyad qofiyaning qo’llanilishi baytning *sari’i musaddasi matviyi mavquf* vaznida yaratilishini ta’minlagan. Tazod san’atining qo’llanilishi vaznning ohangdorligini oshirgan.

Dostonda shohlarning vasfi keltirilganda esa har ikki o’lchov imkoniyatlaridan teng foydalanadi:

*Chunki Sikandar shahi iqlimigir,*

*Bo ‘ldi jahon mulkida sohib sarir.*

(“Hayrat ul-abror”, 237)

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Ҳақірәт ул-аброр. 20 томлик. 7 том. – Т.: Фан, 1991. – Б. 261. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko’rsatiladi.

*Zotig'a Jamshedlig' oyin bo 'lub,  
Ko 'zgu anga jomi jahonbin bo 'lub.*

(“Hayrat ul-abror”, 163)

*Ham yeti ko 'k hukmi tuyassar anga,  
Ham yeti iqlim musaxxar anga.*

(“Hayrat ul-abror”, 237)

*Ham shah o 'lub, ham valiyu ham nabi,*

*Hikmat ila ham tuz o 'lub mashrabi.* (“Hayrat ul-abror”, 17)

Keltirilgan ikki o'Ichov tarkibidagi qisqa hijolarning ko'pligi (ularda 6 tadan cho'ziq va 5 tadan qisqa hijo keladi) ko'proq shu xil hijolar qo'llanuvchi turkiy (o'zbek) tili uchun nihoyatda qulayligini ham alohida aytib o'tish kerak. Navoiy o'z dostonida faqat yuqorida keltirilgan vaznlar bilan chegaralanib qolmay, aruz qonuniyati imkoniyatidan keng foydalangan holda ba'zan shu bahrga tegishli boshqa o'Ichovlarga ham murojaat qiladi. Biroq ular shoirning aruz ilmidagi bilimdonligidan, lozim bo'lgan so'zlardan o'rinli foydalanishda asosiy vazn doirasidan chiqish bilan istifoda etiladigan kashfiyotchiligidan dalolatdir.

Navoiy dostondagi bir qator baytlarni o'z g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarish maqsadida ruknlari *maf'uvlun maf'uvlun foilun* yoki *maf'uvlun mustailun foilun* ohangida bo'lgan *sari'i musaddasi* *maqtu'i matviyi makshuf*, ruknlari *maf'uvlun mustailun foilon* tarzida bo'lgan *sari'i musaddasi* *maqtu'i matviyi mavquf*, ruknlari *mustailun maf'uvlun foilon* kabi aks etgan *sari'i musaddasi* *matviyi maqtu'i matviyi mavquf* vaznlarini qo'llaydi. Xususan, asardagi

*Bismillo/hir rahmo/nir-rahim,*

— — / — — — / — V —

*Rishtag'a chek/ti necha dur/ri yatim* (“Hayrat ul-abror”, 6)

— V V — / — V V — / — V —

singari dastlabki baytning birinchi misrasi *sari'i musaddasi maqtu'i matviyi makshufda*, ikkinchi misrasi esa *sari'i musaddasi matviyi makshuf* vaznida yaratilgan. Kuzatiladiki, birinchi misrada asosiy vazndan bir oz chetga chiqish bor. Lekin bu hol aruz tizimidagi nazariy qoidalarda mavjud. Bu yerda o'zbek aruzshunosligida kuzatilmagan *sari'* bahridagi ritmik variatsiyani ko'rish mumkin.

*Oolloh, Ol/loh, bu ne af/sonadur,*

— — — / — V V — / — V —

*Kim bu faso/na desa de/vonadur.* (“Hayrat ul-abror”, 59)

— V V — / — V V — | — V —

cingari baytning birinchi misrasi ham *sari'i musaddasi maqtu'i matviyi makshuf* vaznida yaratilgan. Chunki unda qo'llanilgan vazn tarkibini maf'uvlun (— — —), muftailun (— V V —) hamda foilun (— V —) tashkil etadi. Quyidagi baytning esa ikkinchi misrasida ham vazn o'zgarganligini ko'rish mumkin:

*Garchi anga/ manfaati/ bo 'lmasun,*

— V V — / — V V — | — V —

*Jahd etkim/, ma'siyati/ bo 'lmasun.* (“Hayrat ul-abror”, 272)

— — . — / — V V — / — V —

Dostonning ayrim baytlarida yuqoridagi o'Ichovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanuvchi *sari'i musaddasi maqtu'i matviyi mavquf* vazni ham istifoda etilgan. Xususan,

*Olloh, Ol/loh, bu ne ik/ki kalom,*

— — — / — V V — / — V ~

*Kim ikki o/lamg 'adur an/din nizom.* (“Hayrat ul-abror”, 90)

— V V — / — V V — / — V ~

Yoki:

*Roy esang/ tut bu nafas/ yaxshi pos,*

— V V — / — V V — / — V ~

*Har qo'yni/ o'z ayog'i/birla os.* (“Hayrat ul-abror”, 297)

— — — / — V V — / — V ~

tarzidagi bayt misrasida ham ko'rish mumkin.

“Hayrat ul-abror” dostonining ayrim baytlarini Navoiy *sari'i musaddasi matviyi maqtu'i matviyi mavquf* o'Ichovida ham yozadi. Ushbu vazn asosini birinchi ruknida mustaf'ilun aslining matviy tarmog'i – muftailun, ikkinchi rukni shu aslining maqtu' tarmog'i – maf'uvlun, uchinchi rukni maf'uvlotu aslining matviyi mavquf tarmog'i tashkil etadi. Masalan,

<i>Buki bayon</i>	<i>aylading er</i>	<i>-mas yiroq</i>
— V V —	— V V —	— V ~
<i>Kim de olur</i>	<i>-sen mundin</i>	<i>yaxshiroq</i>
— V V —	— — —	— V ~

singari baytning ikkinchi misrasi *sari'i musaddasi matviyi maqtu'i matviyi mavquf* o'Ichovi imkoniyatlarida yaratilgan. Ikkinchi



esa aruz ilmida bu borada kashfiyot qildi. Shoir turkiy adabiyotda birinchilardan bo'lib, sari' bahri vaznlarida *maqtu'* bilan *matviy* tarmoq ruknlarini misra tarkibida birgalikda qo'lladi. Bu bilan shoir sari' bahrining boshqa vaznlarini ham turkiy adabiyotda mahorat bilan sinovdan o'tkazdi.

Bizningcha, islom sharhidan bahs etgan ikkinchi maqolatdan keyin keltirilgan hikoya bular orasida eng ta'sirlisidir. Bunda Ibrohim Adham bilan avliyo maqomiga erishgan iik ayol Robiya Adaviya boshidan kechirgan ajoyib ahvolotdan so'z yuritiladi. Buyuk din valiysi Ibrohim Adham dunyo mol-mulkidan etak qoqib, o'n to'rt yil cho'l-u biyobonlarni piyoda kezib, tashlagan har qadamidan so'ng ikki rakat namoz o'qib, nihoyat Makka tavosiga yetib keladi. Lekin Baytul-Haram o'z joyida yo'q edi. Hayratlangan Ibrohim buning sababini surishtiradi. Osmondan Ka'ba mo'tabar bir ayolga peshvoz chiqmoq uchun ketdi, degan nido keladi. Hamisha siddqidildan duo qilgan bu ayol holsizlik tufayli cho'lni kechib o'ta olmagan Robiya Adaviya edi:

*Za'fdin ul bo 'lmish edi notavon,*

*Ka'ba aning tavfig'a bo 'ldi ravon. (126)*

Sal o'tmay yetib kelgan Robiya Ibrohimiga dedi:

*Bo 'ldi ishing arzi namoz aylamak,*

*Sheva manga arzi niyoz aylamak. (125)*

Demak, sidqidil bilan duo qilmoq har qadamda namoz o'qishdan ham afzal ekan. Har mo'minning qalbini larzaga soladigan bu ibratli hikoyadan xulosa chiqargan, ya'ni qissadan hissa chiqargan Navoiy o'z o'quvchisiga bu fikrni talqin etadi:

*Boqma, Navoiy, yana noz ahlig'a,*

*Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a. (125)*

Adabiyotshunos M.Muhiddinov Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da insонning salbiy xislatlari – mayparastlik, manmanlik, zolimlik haqida yozar ekan, bular nafs belgilari ekanini unutmasligini ta'kidlaydi. Bularning hammasi kamolot yo'lidagi g'ovlar ekanligini aytadi<sup>1</sup>. Bu, ayniqsa, dostonning "Qanoat" bobida ko'zga tashlanadi. Navoiy qanoat haqidagi gaplarni shunday baytlar bilan boshlaydi:

<sup>1</sup> Мухиддинов М. Навоий асарларидағи ахлоқий масалаларнинг тарбиявий аҳамияти // Сўз санъати халқаро журнали. – Т., 2020. – № 5. – Б. 46.

*Kimgaki ish bo 'ldi qanoat fani,  
Bilki, ani qildi qanoat g'ani.*

*Ganju tajammulni g'in o bilmagil,*

*Balki g'in o ganji qanoatni bil.* (“Hayrat ul-abror”, 307)

Bunda Navoiy kimgaki qanoat fani ish bo‘lgan bo‘lsa, uni shu fan badavlat qildi, – deydi. Shuningdek, xazina ziynatini boylik deb emas, balki boylikning xazinasi qanoat ekanligini aytadi. Shoir bu bilan boylik to‘plashga nisbatan qanoat qilishni, sabrli bo‘lishni uqtiradi, har qanday sharoitda pastkashlik qilmaslikka chaqiradi. Navoiy sari’ bahriga xos bo‘lgan musiqiy ohangni doston mazmuniga singdirib yuborgan.

“Masnaviylar majmuasi”dagi dastlabki doston “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami) bo‘lib, 1044 bayt 2088 misrani tashkil etadi. “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami) masnaviysi Amir Temuring nabirasi Abu Sayid Mirzoga bag‘ishlangan. Doston Nizomiy beshligidagi birinchi dostoniga javoban yozilgan. Garchi Y.E.Bertels “Низами и Физули” nomli tadqiqotida “Maxzan ul-asror”ga javoban yozilgan 40 dan ortiq doston haqida ma’lumot keltirsa-da, biroq Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul-axbor”i haqida shu dostonlar qatorida xabar bermaydi. Mazkur holat Bertels Rampur shahrida saqlanayotgan Sayyid Qosimiyning dostonlari qo‘lyozmasi bilan tanish emasligini bildiradi. Ozarbayjon olimi G. Aliyev ham Sayyid Qosimiy va uning dostoni haqida o‘zining “Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока” nomli tadqiqotida ma’lumot keltirmaydi.

“Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami) dostoni hamd, na’t, “Dar sababi nazmi kitob va sharhi ahvoli xud”, Sulton Abu Said Mirzoga bag‘ishlangan qasida va tamsil (misol), o‘n sakkiz Sarsuxan va har biriga keltirilgan bittadan hikoyani o‘z ichiga oladi. Dostonning “Dar sababi nazmi kitob va sharhi ahvoli xud” bobida dastlab “Maxzan ul-asror”ga turkiy tilda birinchi bo‘lib javob yozgan Haydar Xorazmiyni tilga oladi:

*Haydar agar berdisa so ‘z dodini,*

*Jumla jahon aylar oning yodini.*

*"Maxzani asrora" ayitdi javob,  
Sochti maoniy durini chun sahob!*

Demak, Sayyid Qosimiy Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror"ini yaxshi bilgan, doston bilan yaqindan tanish bo'lgan. "Gulshan ul-asror"ning 1409–1414 yillar oralig'ida bitilganligini esga olsak, "Majma' ul-axbor" (Xabarlar to'plami) 1414-yildan keyin yaratilganligi oydinlashadi. Shuningdek, Sayyid Qosimiy dostonning yozilish sababi bobida

*Shayx Nizomiy damini yod etib,  
Xatmi duo birla ruhin shod etib.*

*Nazm etay necha hikoyotini,  
Jam' qilib naqlu rivoyotini.*

*"Majma' ul-axbor" qilay otini,*

*"Maxzani asrор" deyin zotini* ("Majma' ul-axbor", 15)

deb o'z masnaviysini Nizomiyning "Maxzan ul-asror"iga javoban yozganligini aytadi. "Majma' ul-axbor" Nizomiy dostoniga g'oyaviy mundarijasi, nomlanishi, kompozitsion qurilishi bilan yaqin turadi. Faqat "Majma' ul-axbor"da 18 ta, "Maxzan ul-asror" dostonida 20 ta hikoyat mavjud. Dostonda qo'llanilgan vazn ham Nizomiy dostoniga mos keladi. Biroq B.Qosimxonov negadir o'z tadqiqotlarida dostonning vazn xususiyatlari haqida noto'g'ri xulosaga keladi. Xusan, "Сайид Касими и его литературно-дидактические поэмы" ("Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari") dissertatsiyasining uchinchi bo'limida dostonlarda qo'llanilgan vazn xususiyatlariga ham atroficha to'xtalib o'tar ekan, "Majma' ul-axbor" dostonini rajaz bahrining ikki vazni: *rajazi musaddasi matviy* va *rajazi musaddasi maxbuni marbu'* o'lchovlarida bitilganligini ta'kidlaydi va tadqiqotida dostondan olingan parchani taqt'i bilan birga keltiradi. Biz ko'chirmani aynan keltiramiz:

1. Rajazi musaddasi matviy

*Bog' – la bu – zuq dun – yo – di – ney do 'st – raxt*

Mus – taf – 'i – lun mus – taf – 'i – lun mufta – 'ilun

<sup>1</sup> Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. Нашрга тайёрловчи: Б.Қосимхонов. – Т.: Фан, 1992. – Б. 15. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

*Bo'l-ma a-ning kun-ji-da chun ganji-saxt  
Mus-taf-i-lun mus-taf-i-lun mufta-'ilun*

2. Rajazi musaddasi maxbuni marbu'

*Oh - qani - hamna - fasu - ham - da - me  
Mufta-'ilun mufta-'ilun fo - i - lun.*

*Bo'lsa - manim dardu - dilim - mar - ha - me*

*Mufta-'ilun mufta-'ilun fo - i - lun<sup>1</sup>.*

Aruzshunos D.Yusupova aslida yuqorida keltirilgan har ikki bayt bir xil she'riy o'chovda, ya'ni sari' bahrida yaratilganligini qayd etadi<sup>2</sup>. Biz ham olimaning fikriga qo'shilamiz. Fikrimizni isbotlash maqsadida baytlarni taqt'i bilan barobar keltiramiz:

1. Bog'-la bu-zuql dun-yo-di-n+ey | do'st raxt

— V V —| — V V —| — V ~

*muf-ta-i-lun | muf-ta-ilun | fo-i-lon*

*Bo'l-ma a-ning| kun-ji-da chun|ganji saxt*

— V V —| — V V —| — V ~

*muf-ta-i-lun muf-ta-i-lun fo-i-lon.*

2. Oh qa-ni | ham-na- fa-su| ham -da -me

— V V —| — V V —| — V —

*muf-ta-i-lun muf-ta-i-lun fo-i-lun*

*Bo'l-sa-ma-nim|dar-du di-lim| mar- ha-me*

— V V —| — V V —| — V —

*muf-ta-i-lun muf-ta-i-lun fo-i-lun.*

Demak, Sayyid Qosimiyning "Masnaviyalar majmuasi"ga kirgan dastlabki dostoni "Majma' ul-axbor" dostonidan namuna uchun keltirilgan har ikki bayt xamsalarning birinchi dostonlariga xos bo'lgan sari'i musaddasi matviyi makshuf yoki sari'i musaddasi matviyi mavquf vaznlarida bitilgan. Professor N.Rahmonov Sayyid Qosimiy garchi Nizomiy va Haydar Xorazmiyga nazira yozgan bo'lsa ham, uning dostoni tarkibidagi hikoyatlari originalligi bilan ajralib turishini e'tirof etadi<sup>3</sup>. Nizomiy va Haydar Xorazmiy

<sup>1</sup> Касымханов Б.Х. Сайид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1991. – С. 12.

<sup>2</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгулиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 44.

<sup>3</sup> Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – В. 495.

dostonlari tarkibidagi hikoyatlar bilan bir nomda bo'lgani holda voqealar syujeti va bayon uslubi jihatidan katta farqlar bor.

O'zbek adabiyotida "Maxzan ul-asror" yo'nalishida Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja (adabiy taxallusi Xoja) ham "Maqsad ul-atvor" dostonini yaratgan. Uning ushbu dostoni Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoniga tatabbu' tarzida bitilgan. Bu haqda Hasanxoja Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahbob" tazkirasida ma'lumot beradi: "Maxzan ul-asror" tatabbu'sida "Maqsad ul-atvor" nomli bir kitob tasnif qilganlar va bu bayt o'sha kitobdan. Bayt:

*Til kim emas zikrini etmoq ishi,  
Ne deb oni og'ziga olg'ay kishi<sup>1</sup>.*

Sharqshunos olim A.Tohirjonov uning ikki qo'lyozma nusxasini topishga muvaffaq bo'lgan. "Bu dastxat 72 varaqdan iborat, qo'lyozma hajmi 13x20; har sahifada 12–13 misradan ikki ustunda yozilgan. Ikkinci qo'lyozma – 59 varaq, qo'lyozma hajmi 12x19. Ikkala nusxani muqoyasa qilib, asar teksti tiklab chiqilgach, undagi baytlar miqdori 1908, 5, ya'ni 3917 misra ekanligi aniqlandi"<sup>2</sup>. Dostonning bir qismi "Asrlar nidosi" to'plamida M.Mirzaahmedova tomonidan 1982-yilda nashr qilingan. "Unda davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bir qatorda shoirning axloqiy-ta'limiy qarashlari o'z ifodasini topgan"<sup>3</sup>. Biz ishimizni shakllantirishda shu manbadan foydalandik.

"Maqsad ul-atvor" dostoni 1528-yilda Jonibek sultonga bag'ishlab yozilgan:

*Oting erur Jonibek, ey shahriyor,  
Xon ila xoqonsanu ham shahriyor<sup>4</sup>.*

Xoja tajnis san'atidan foydalaniib, yosh Jonibek sultonning madhini keltiradi. Doston 7 ta kirish tarzidagi bob, yetta "Maqolat", o'n beshta "Tanbeh", "Munojot" nomi berilgan

<sup>1</sup> Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. Форс тилидан И.Беюжон таржимаси. – Т.: Абдулла Қолирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 275.

<sup>2</sup> Тохиржонов А. Ҳожанинг янги топилган асари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1975. – № 3. – Б. 70.

<sup>3</sup> Миңраҳмадова М. Ҳожанинг "Максад ул-атвор" достони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1980. – № 5. – Б. 68.

<sup>4</sup> Ҳожа. Максад ул-атвор / Асрлар садоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 60. Keyingi misollar shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

boblardan tashkil topgan. Har bir bobda ko'tarilgan masala tamsil, mav'iza bilan yakun yasaladi. "Maqsad ul-atvor"ning "Bu kitob nazmining sababi" bobida

*Rahbari bu fanda Nizomiy edi,  
Pir anga Xusravu Jomiy edi.*

*Hotifiy erdi biri ul qavmdin,  
Biri Navoiy edi bilgil yaqin.*

*Andaki tartibi kalom ettilar,  
Har biri bir "Xamsa" tamom ettilar.*

*Manga yetushganda bu ish navbati,*

*Bo'ldi manga borisining himmati* ("Maqsad ul-atvor", 62)

singari baytlar keltiriladi. Bu fanning rahbari Nizomiy, Xusrav va Jomiy unga pir, Navoiy esa yaqin ekanligini ta'kidlagani holda, har biri "Xamsa" yaratganligini aytadi. Xojaga bu ish navbati kelganida esa ularning barchasi himmat ko'rsatganligini bayon etadi. Bundan Xojaning ham "Xamsa" yaratish niyati yo'q emasligini anglash mumkin. Dostonda shoir tomonidan asarning nomi "Maqsad ul-atvor" ekanligi aytildi:

*Maqsa-d+u-l+at/vor qo'yub/ otini,  
— V V — / — V V — / — V —*

*Shuhrai shahr/ etdi-m+toning/ zotini.* ("Maqsad ul-atvor", 62)  
*— V V — / — V V — / — V —*

Xojaning doston nomini "Maqsad ul-atvor" deb qo'ygani uning shuhrat qozonishini xohlagidan dalolatdir. Doston *sari'i musaddasi matviyi makshuf* o'chovida bitilgan. Belgilangan o'rinnlar vaznga moslab o'qiladi. Dostonning asosini uning maqolatlar qismi tashkil etadi. Xususan, sulton "adolat bila saltanat saroyin obodu saodat bila mazlumlar xotirin shod" aylab, "saxovat bila muhtojlarg'a inoyat, bemorlarg'a shafqat ila iloj" qilsa, muxoliflarini mag'lub etib, ilm ahlig'a yaqin turishlikni asosiy vazifalardan deb biladi. U No'shiravon kabi odil, Hotami Toy kabi saxiy degan nom chiqara oladi. Bu maqolatlarda ham tamsil va mav'izalardan o'rni-o'rni bilan keng foydalanilgan.

Alisher Navoiyning ham "Hayrat ul-abror" dostonida ham 5-6 maqolatlarda Hotami Toy, No'shiravon haqidagi hikoyatlar

keltiriladi. Garchi hikoyatlarda syujet chizig'i har xil bo'lsa ham, biroq mazmuni ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu xususiyati bilan mumkin. Shu sababli Xoja Navoiyning "Hayrat ul-abror"idan ta'sirlangan deb aytish "Maqsad ul-atvor"dagi No'shiravon bilan bog'liq tamsil quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Odi-l+erur/ dahr da No '/shiravon,*

— V V — / — V V — / — V ~

*Adli ila/ tuzili-b+er/di jahon*

— V V — / — V V — / — V ~

kabi baytda bu zamonda No'shiravonning odilligi, uningadolati bilan jahon tuzilganligi bayon etiladi. Xoja baytda ridfi asliyli murdaf qofiyani istifoda etish orqali baytning sari'i musaddasi matviyi mavquf vaznida yaratilishini ta'minlagan.

Kunlarning birida No'shiravon mulkini imtihon qilish maqsadida o'zini xastalikka soladi. Keyin o'zining bu dardiga faqat eski imoratdan keltirilgan g'isht davo bo'lishi mumkinligini aytadi. Shohning dardiga davo borligini eshitgan xalq eski imorat g'ishtini topish maqsadida har tomonga tarqalib ketadi. Lekin qancha urinishmasin g'ishtni topib kelolmaydilar. Shunda ular yo'lda boyqushga duch kelishadi va unga o'zlarini qiynayotgan savolni berishadi. Shohningadolati tufayli boyqush biror vayrona yo'qligidan, bemakon ekanligidan qayg'uradi. Shunda boyqush:

*Dahrda vayrona topilmas ayon,*

*Aylasang oning ichida oshyon* ("Maqsad ul-atvor", 67)

deb javob beradi. Bo'lgan voqeani shohga aytib berishganida, u o'z yurtida adolat o'rnatganidan xushnud bo'ladi.

"Maqsad ul-atvor"dagi Hotami Toy hikoyati ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda o'zida bor noz-ne'matlari bilan kambag'allarga, atrofdagilarga rizq-ro'z bo'lishishni xohlaydigan inson haqida hikoya qilinadi. Kunlarning birida podshoh uni sinamoqchi bo'ladi. Hotami Toyning "dulduli soniy", "gardiga yel ham yeta olmaydigan" oti bor edi. Podshoh shu otini so'ratib, elchi yuboradi. U elchini ochiq chehra bilan kutib oladi. Elchi nima sababdan kelganini dasturxon oldida bayon etadi. Shunda elchiga qarata Hotami Toy:

*Dediki: – Kech kelding esa o 'yu qo 'y,*  
*Topmadimu, dedim, o 'shal otni so 'y* (“Maqsad ul-atvor”, 69)  
deb aytganligini bayon etadi. Buni eshitgan elchi “bu ne saxovat,  
himmat, karam, muruvvat” ekanligini aytib, uning hotamtoyligiga  
tahsinlar aytadi.

“Maqsad ul-atvor”ning davomi 15 “tanbeh” va munojotlardan  
iborat. Ularda ham zulmkor bo‘lmaslik, boylikka ruju qo‘ymaslik,  
sabr-toqatli, matonatli bo‘lish kabi xislatlar yoritiladi. Doston  
“Hikmati hakim” qismi bilan yakun topadi. Unda shoir “pand-u  
nasihatdur, munshii davlatdur oning ko‘p so‘zi” deb bayon etadi.  
Adabiyotshunos M.Mirzaahmedova Xojaning ushbu dostoni yosh  
Jonibek sultonga bag‘ishlab yozilganligi uchun pand-nasihatlar  
ko‘proq mansab egalariga, hukmronlarga qaratilgan: hukmron elga  
saxovatli, muruvvatli, adolatlilik bilan birga o‘zining shaxsiy  
xulq-odobiga ham biror kamchilikka yo‘l qo‘ymasligi, bu kamchilik  
bor bo‘lgan holda esa, u xalq bilan to‘g‘ri va samimiyy munosabatda  
bo‘lishiga ta’sir etmasligi kerakligini uqtirilishini ta’kid etadi<sup>1</sup>. Bu  
o‘rinda biz olimaning fikriga qo‘shilamiz. Chunki dostonni o‘qigan  
kitobxonda shunga o‘xhash hislar o‘tishini tabiiy hol deb qaraymiz.

Olima D.Yusupova aruziy matnda urg‘uning nihoyatda  
muhimligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. “Maxzan ul-asror” yo‘nalishidagi  
dostonlar uchun xos bo‘lgan sari‘i musaddasi matviyi makshuf,  
sari‘i musaddasi matviyi mavquf vaznlari ham bundan mustasno  
emas. Albatta, urg‘u dostonlarda vazn va mazmun mushtarakligida  
istifoda etiladi.

Dastlab Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonidagi  
“So‘z ta’rifining bayonida”dan olingan parchani ko‘rib chiqsak:

*U'mr chu qat'/ e 'tti adam/ ma'nzili,*  
—' V V — / —' V V — / —' V —  
*So 'zga raqam/ u'rди qalam/ni 'ng tili.*  
—' V V — / —' V V — / —' V —  
*So 'z guhari/ bi lguchi sar/ro fi roz,*  
—' V V — / —' V V — / —' V ~

<sup>1</sup> Мирзаахмедова М. Хожанинг “Мақсад ул-атвор” дostonи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1980. – № 5. – Б. 69.

<sup>2</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадний уйгунилиги. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 101.

*Bo 'ldi bilig/ na't'ida man/su'bi boz!*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V ~

Shu o'rinda "Hayrat ul-abror" dostonidagi "So'z ta'rifi" dan  
olingan parcha tahliliga o'tamiz:

*So 'z guhari/g'a'erur on/cha'sharaf,*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*Ki'm bo'la ol/ma's anga gav/ha'r sadaf.*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*To 'rt sadaf/ ga'vharining/ du'rji ul.*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*Ye 'iti falak/ a'xtarining/ bu'rji ul?*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —

Endi Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostonidagi qismidan so'zga  
berilgan ta'rifnini ko'rib chiqsak:

*Ki'mki olur/ pa'ndu nasi/ha't so'zin,*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*Ja'nnati a'/lo'aro so/lu'r o'zin.*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*Be'hudalar/ ma'jlisida/ tu'rmag'il,*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —  
*Fo'idasiz/ so'zda nafas/ u'rmag'il<sup>3</sup>.*  
—' V V —/ —' V V —/ —' V —

Anglashiladiki, *sari'i musaddasi matviyi makshuf*, *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlarida yaratilgan baytlarda urg'u har bir ruknning dastlabki bo'g'iniga tushyapti. "Urg'uning ruknlardagi bunday tanosubi va qisqa bo'g'lnarning ketma-ket qo'llanilishi yengil va o'ynoqi ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti"<sup>4</sup>. Har bir dostondan olingan parchalar *sari'i musaddasi matviyi makshuf*,

<sup>1</sup> Хоразмий X. Махзан ул-асрор / Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувохидова М., Мухторова Х., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 211.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. 20 томлик. 7 том. – Т.: Фан, 1991. – Б. 56.

<sup>3</sup> Ҳожа. Мақсад ул-атвор / Асрлар садоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 59.

<sup>4</sup> Юсупова Д. Алишер Навоий "Ҳамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгулиги. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – Б. 102.

sari'i musaddasi matviyi mavquf o'chovlarida yaratilganligi uchun ularda ruknning urg'u olishi bir xil. Chunki aruziy matnda so'z urg'usi emas, balki rukn urg'usi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi dostonlarning mavzusi ular yaratilgan vaznga hamohangdir.

#### 4.2-§. Irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida irfoniy-tasavvufiy dostonlar o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bunday dostonlarda mualliflar majoziy timsollar va ramzlar orqali obyektiv borliq hamda ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadilar. Mumtoz adabiyot tarixida bunday dostonlar ko'proq ramziy-allegorik qissa va hikoyatlar asosida yoki qushlar tilidan bayon qilinganiga, boshqacha aytganda, qushlar sayri bilan bog'liq ravishda aks ettirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Garchi ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tarixiy ildizi juda qadim davrlarga borib taqalsa ham, lekin musulmon sharqi adabiyotida dastavval qushlar sayri bilan bog'liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning "Tayr" qissasi, ya'ni "Qushlar haqida"gi qissasi tilga olinadi.

Adabiyotshunoslikda N.Arasl, M.Imomnazarov, Sh.Hasanova tomonidan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Mavlono Hoji Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostonlari qiyosiy o'rganilgan hamda Rizoiyning "Qush tili" dostonining qiyosiy-tekstologik tadqiqi yaratilgan<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan biz ushbu faslda yuqorida keltirilgan irfoniy dostonlarning vazn va mazmun munosabatini o'rganamiz.

Qushlar timsoli boshqa ko'pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Odam o'lganidan keyin yoki uyqusida ruhi qushga aylanib uchib ketishi haqidagi tasavvurlar xalq odatlari va folklorda, ertaklarda o'z aksini topgan. Haqiqatan ham, xalqimizning eng qadimgi animistik tasavvurlariga qaraganda,

<sup>1</sup> *Qarang: Арасли Нӯшоба. Гулшархий ва Навон //Адабий мерос. – Т., 1980. – № 13. – Б. 17-22.; Имомназаров М. Жоха Қози Пайвандий Ризоний // Адабиёт кўзгуси. – Т., 1998. – № 1. – Б. 76-81; Ҳасанова Ш. Мавлоно Жоҳи Қози Пайвандий Ризоининг "Күш тили" достони ва унинг киёсий-текстологик тадқики. – Т.: ЎзРФА Давлат адабиёт музейи, 2006. – Б. 104; Ҳасанова Ш. "Тўтинома" ва "Күш тили" туркумидаги асарларнинг киёсий-типовологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2016. – Б. 255.*

odamning joni qush va chivin ko'rinishiga inish xususiyatiga ega emish. Bu kabi tasavvurlar yozma adabiyotga ta'sir qilmay qolmadi, motivlaridan ta'sirlangan holda insonlarning ruhlarini qushlar shaklida tasvirlaydi. Mazkur qissada qushlar ovchidan qochib, Podshoh huzuriga borganlari hikoya qilinadi. Abu Homid G'azzoliyning "Risolat at-tayr" ("Qush risolasi") asari "Tayr" qissasiga raddiya sifatida yaratilgan. Biroq asar g'oyasida o'zgarishlar sodir bo'lishiga qaramasdan, syujet va kompozitsiya saqlanib qolgan.

Mazkur mavzu yozma adabiyotda ilk bor Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari orqali yaxlit va mukammal syujetga ega bo'lgan badiiy doston holiga keltirildi. Unda syujet chiziqlari qayta ishlanishi bilan birga, asarga tolib qushlar va yetakchi qush – Hudhud obrazi kiritildi. Qushlar podshosi nomi Simurg' tarzida o'zgartirildi<sup>2</sup>. Doston 24 ta maqola, 200dan ortiq hikoyalar va xotimadan tashkil topgan bo'lib, hajman 4290 baytdan iborat. Asar Hudhudning Simurg'ni topish maqsadida yo'lga tushishga chorlovchi nutqi bilan boshlanadi. O'titzta qush turli mashaqqatlarni o'z maqsadlari yo'lida chekib, charchab Simurg'ning oldiga keladi va uning timsolida o'zlarini ko'rishadi. "Mantiq ut-tayr" dagi hikoyatlar asosida Attor o'zining tasavvuf ta'limotiga oid qarashlarini ochiqlaydi va mana shu mavzu doirasida hikoyatlar bayon etiladi. Doston mazmunida qushlarning vodiylar oshib, Simurg' huzuriga borishi va o'zlarining Si murg' (forscha – o'ttiz qush) ekanligini bilishi bilan yakunlanadi.

Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ramali musaddasi mahzuf (ruknlari va taqt'i: foilotun foilotun foilun — V — — / — V — — / — V —) vaznida yozilgan. Vaznning asosini birinchi va ikkinchi ruknlarda foilotun aslining solim ko'rinishi hamda uchinchi ruknda ushbu aslining mahzuf tarmog'i foilun ruknlari tashkil etadi. Aruzshunos A. Hojiahmedov ruknlar, ularning tarkibidagi cho'ziq va qisqa hijolarning shu xildagi takrori yoqimli, yengil va musiqabop

<sup>1</sup> Мамадалиева З. Ибн Сино ва Газзолий: анъана ва ўзинга хослик // Шарқ юлдузи. – Т., 2015. – № 5. – Б. 96.

<sup>2</sup> Алишер Навоний: комусий лугат. II жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: SHARQ, 2016. – Б. 256.

ohangni vujudga keltirishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Shu sababli shoirlar mazkur o'chovdan juda keng foydalanishgan.

Dastlab Hudhud obrazini "Lison ut-tayr" yo'nalishidagi dostonlarga fors tasavvuf adabiyotining yetakchi vakili Farididdin Attor o'zining "Mantiq ut-tayr"iga markaziy qahramon sifatida olib kirdi. Shoiring mazkur mavzuni rivojlantirishga qo'shgan ulushini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning yetakchi qahramonlaridan biri bo'lib, asarda tasvir etilgan barcha voqeahodisalar bevosita uning faoliyati bilan bog'liq holda berilgan. Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur'onda mavjud (XXVII sura, 20 oyat) ayrim tasavvurlarga asoslanadi<sup>2</sup>. Dostonda shoir Qof tog'ida yashaydigan afsonaviy qush – Anqoning ta'rifini quyidagicha keltiradi:

<i>Jondi-n+istar-</i>	<i>sa, bo 'lur An-</i>	<i>goga yor,</i>
— V — —	— V — —	— V ~
<i>Kimki kechgay</i>	<i>jonidin mar-</i>	<i>donavor<sup>3</sup>.</i>
— V — —	— V — —	— V ~

Keltirilgan bayt *ramali musaddasi maqsurda* yaratilganligi ayonlashadi. Baytning sadr, ibrido, hashvi foilotun aslining *solimiga*, aruz, zarbi esa shu aslning maqsur tarmog'i – *foilonqa teng*. Baytda vazn talabi bilan vasl qo'llanilgan. Unga ko'ra, birinchi misradagi "*jondi-n+istar*" so'zları qo'shilib o'qiladi. Shuningdek, baytda qo'llanilgan ridfi asliyli murdaf qofiya uning vaznnini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Farididdin Attor oshiqqa agar ishqning siriga mubtalo bo'lsang, undan yuz balo kelsa ham teskari o'girilmaslikni ta'kid etadi. Shoir baytda irsolı masal, tajnisdan foydalanib, uning ta'sirchanligini oshirgan. Dastlabki "yuz" teskari qayrilib ketmaslikni anglatса, ikkinchi "yuz" esa sanoqni bildirgan. Bu esa *ramali musaddasi mahzuf* o'choviga hamohang qo'llanilgan.

<sup>1</sup> Хожиахмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: ШАРК, 1998. – Б. 119.

<sup>2</sup> Шарипов Ш. "Лисон ут тайр" достонининг генезиси ва гоявий-бадний хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – Б. 14.

<sup>3</sup> Фаридиддин Аттор. Ҳикматлар. – Т.: О'ZBEKISTON, 2012. – Б. 13.

*Gar esang asrori ishqqa mubtalo,  
Yuz o 'girma kelsa hamki yuz balo<sup>1</sup>.*

Mumtoz adabiyotda Attorga javob tarzida yozilgan ilk turkiy doston turk adibi Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr"i hisoblanadi. Doston 1317-yilda yaratilgan. Adabiyotshunos olima Sh. Hasanova Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr" dostonida an'anaviy syujet bayon qilinishi bilan birga, bir qator yangi g'oya va epizodlar ham kiritilganki, bu uning original asarligidan dalolat berishni ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Ozarbayjonlik olima N. Arasli esa o'zining "Gulshahriy va Navoiy" nomli maqolasida Navoiy va Gulshahriy dostonlarining bir-biriga yaqin jihatlari haqida to'xtalib o'tadi. Navoiyning "Lison ut-tayr"i faqat Gulshahriy asaridangina emas, balki bu mavzu asosida yaratilgan boshqa dostonlardan ham farqlanib turishiga e'tiborini qaratadi<sup>3</sup>. Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr"da ham Hudhud – qushlar yo'lboschchisi timsolida gavdalanadi. Muallif ushbu dostonda Hudhudni aql timsoli, deb baholaydi<sup>4</sup>. Bayt:

*Hudhudu qushlaru Simurg'u ajal,  
Aqlu xulqu Tangriyo qildi masal.*

*Giru Gulshahri so 'zi soz ayladi,  
Mantiq ut-tayri xush og'oz ayladi.*

Bu yo'nalishdagи keyingi doston Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"i bo'lib, asar Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"iga javoban yozilgan. Doston yakunida shoir tomonidan uning qachon yozilganligi haqidagi ta'rix keltiriladi:

*Menki, xilvat ichra yo 'ndum xomani,  
Naqsh aylarga bu dilkash nomani...*

*Yil to 'qiz yuz o 'tmish erdi dag 'i to 'rt,  
Kim ulusning ko 'nglig 'a soldi bu o 'rt.*

<sup>1</sup> Фаридиддин Аттор. Ўша асар. – Б. 13.

<sup>2</sup> Хасанова Ш. "Тўтинома" ва "Куш тили" туркумидаги асарларнинг киёсий-типовологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2016. – 25 б.

<sup>3</sup> Арасли Нўшоба. Гулшахрий ва Навои // Адабий мерос. – Т., 1980. – № 13. – Б. 17–22.

<sup>4</sup> Qarang: Шарипов Ш. "Лисон ут-тайр" дostonininning генезиси ва гоявий-бадний хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – Б. 21.

*Ham bu tarix ichrakim qildim shuru',  
Ixtitomig'a dog'i bo'ldi vuqu'*<sup>1</sup>.

Demak, bu doston shoir umrining so'nggi yillarida 1499-yilda bitilgan. Doston irfoniy mavzuda yozilgan bo'lib, 193 bob, 3666 bayt, 7332 misradan tashkil topgan. Doston turkiy tilda bo'lsa-da, Alisher Navoiy uni yaratishda o'zining "Foniy" taxallusidan foydalangan. "Lison ut-tayr" murakkab irfoniy doston bo'lib, Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda, dostonda real hayot lavhalari, kishilarining xattiharakati, fe'l-atvorigagi ijobjiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan"<sup>2</sup>. Doston qushlarning to'planishi va adolatli shoh izlashi qarori bilan boshlanadi.

Ma'lumki, "Lison ut-tayr" "Mantiq ut-tayr"ga javob tarzida bitilgan asardir. Mana shu haqiqatga asosan "Lison ut-tayr" tasavvuf nazariyasi, amaliyoti va adabiyoti o'z cho'qqisiga ko'tarilgan davrning mutafakkir farzandi bo'lmish Navoiyning, tasavvuf nuqtayi nazaridan turib qaragan Yaratgan va yaralmish, olam va odam, fano va baqo hamda boshqa masalalar to'g'risidagi fikrlarining asosi ifodalangan dostondir. Ushbu dostonning markaziy qahramoni hisoblanmish Hudhud obraziga esa, hech bir istisnosiz, mana shu asos fikrlarning-da qaymog'ini bayon etish, ya'ni shoir estetik idealini badiiy tasvirlash vazifasi yuklatilgan<sup>3</sup>. Dostonda Navoiy o'zining jamiyat hayotiga, xususan, inson tarbiyasiga, uning ma'naviy takomiliga oid fikrlarini qushlar obrazi orqali, ya'ni majoziy yo'l bilan ifodalagan.

"Lison ut-tayr" an'anaga mos ravishda "Mantiq ut-tayr"ning vaznida bitilgan. *Ramali musaddasi mahzuf*, avvalo, tuyuq janrining vazni hisoblanadi. Zero, mumtoz shoirlarimiz o'z tuyuqlarini shu vaznda yaratganlar. Biroq Alisher Navoiy ushbu vaznni turkiy epik poeziyaga olib kirdi, uning imkoniyatlarini "Lison ut-tayr" dostonida sinab ko'rdi. Bu bilan Navoiy an'anaga ham asos soldi va *ramali musaddasi mahzuf* vaznida irfoniy doston ham yozdi.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. 20 томлик. I2 том. – Т.: Фан, 1996. – Б. 337.

<sup>2</sup> Алишер Навоий: комусий лугат. II жилдлик. Биринчى жилд. – Т.: SHARQ, 2016. – Б. 257.

<sup>3</sup> Мамадалиева З. "Лисон ут-тайр" образлари: рамз ва мажоз. Монография. – Т.: 2021. – Б. 28.

Navoiyning “Lison ut-tayr” murakab falsafiy-tasavvufiy doston bo‘lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq hamda ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi. Shu bilan birgalikda dostonda real hayot lavhalari, kishilarning hatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiylari va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan<sup>1</sup>. Dostondagi voqealar rivojida kunlarning birida bir guruh qushlar majlis qurmoq uchun yig'iladilar, keyin oradan nizo chiqadi. Bu nizoni bartaraf qilish uchun bir odil shohga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shunda Hudhud Simurg‘ning daragini aytadi va to‘plangan qushlarni uni izlashga chorlaydi. Hudhud Simurg‘ olamdagи qushlarning podshohi ekanligini, u har bir qushning holidan birma-bir ogohligrini aytadi:

<i>Borcha olam</i>	<i>qushlarig‘a</i>	<i>shoh ul,</i>
— V — —	— V — —	— V —
<i>Holingizdin</i>	<i>mo ‘bam-o‘o-</i>	<i>goh ul</i> (“Lison ut-tayr”, 32)
— V — —	— V — —	— V —

deb, Simurg‘ning “Anqо” degan laqabi ham borligini hamda uning oshiyoni Qof tog‘ida joylashganini ham ta’kidlaydi:

*Ham nishiman Qofi istig‘no ango,*

*Ham laqab ul Qof uza Anqо ango.* (“Lison ut-tayr”, 32)

Keltirilgan bayt *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan. Hudhuddan Simurg‘ning ta’rifini eshitgan qushlarda unga nisbatan havas uyg‘onadi. Ular Hudhuddan Simurg‘ning oldiga borishda yo‘lboshchi bo‘lishini iltimos qilishadi. Hudhud ham, o‘z navbatida, To‘ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Tazarv, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlar bilan birga yo‘lga ravona bo‘ladi. Biroq ko‘p o‘tmay yo‘ldagi qiyinchiliklar sabab ular Hudhudga o‘zlarining uzrlarini ayta boshlaydi. Bu uzrlarda ularning har biriga xos xarakterli xususiyat ifodalangan: “Bulbul gulga dil izhorini, muhabbatini aytsa, Hudhud gul abadiy emas, sening ishqining chin bo‘lolmaydi; Tovus o‘z husni bilan bog‘larni ziynatlashini aytsa, Hudhud “tashqi husn”ni rad etadi; Kabutar odamlarga o‘rganganini aytsa, Hudhud ularni qoralaydi; Qarchig‘ay qushlarning shohi

<sup>1</sup> Xасанова Ш. “Тўтинома” ва “Куш тили” туркумидаги асарларининг киёсий-типовологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2016. – Б. 22.

ekanini aytsa, Hudhud uni bema'nilikda ayblaydi va hokozo<sup>1</sup>. Shu tarzda Hudhud qushlarning barcha uzrlariga javob qiladi. U o'zining fikrlarini dalillash maqsadida esa turli hikoyatlar keltiradi.

Hikoyatlar orasida Simurg'ning mufassal ta'rifini ham aytib o'tadi. Hudhuddan qushlar Simurg'ning oshiyoniga qanday borishni so'rashganida: "Hudhud – bu ishq yo'lidir" – deb javob beradi. Hudhudga qushlardan yana biri "Asl manzilga qachon yetib boramiz?", – degan savol beradi. Shunda Hudhud hali oldinda yettita vodiy bor deb javob beradi. Dostonda shoir Hudhud tilidan Talab, Ishq, Ma'rifikat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr u fano vodiylarining ham ta'rifini keltiradi. Shu tariqa ular birin-ketin olti vodiyni bosib o'tishadi.

*Kim uzun erdi yo 'lu ko 'p ofati,  
Benihoyat dardu ranju shiddati.*

*Ba 'zi ul qushlardin o 'ldilar halok,  
Ba 'zi ettilar bo 'lub ko 'p dardnok...*

*Oqibat yuz ming tumandin necha qush,  
Kim alarg 'a yuz tuman ranj o 'ldi tush.*

*Urdilar o 'ttuz qush ul yerda qanot,  
Tanlarida qolmay oyini hayot.*

*Jism aro bir parlari qolmay butun,  
Pora-pora, o 'ylakim qoqshol o 'tun.*

*Tanlari yo 'l ranjidin beto 'shu tob,  
Jonlari dardu mashaqqatdin xarob.* ("Lison ut-tayr", 290)

Ular nihoyat ko'zlangan manzil – yettinchi Faqr-u fano vodisiga kirib keladilar:

*Har gul ul gulshanda bir ko 'zgu edi,  
Kim qayon boqsa alar o 'tru edi...*

*Ko 'runur erdi nazarda mo '-bamo',  
Aks ko 'rguzgon kibi ko 'zguyu su.*

<sup>1</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиётни тарихи. – Т.: Kafolat print company, 2021. – Б. 408.

*Kim qilib Simurg' o 'ttuz qush havas,  
O'zlarin ko 'rdilar ul si murg'u bas.*

Qarasalar, ular axtargan Simurg' o'zлari – o'ttiz qush bo'lib chiqadi. Ularning o'zi o'sha Simurg'ning zarrasi, uning zuhuri edi. Umuman, dostonda Simurg'ni izlab uzoq yo'lga otlangan qushlarning holi tasvirlangan baytlar, Shayx San'on, eshagini xudoga omonat topshirgan devona, suvgaga cho'kib o'lgan xasis haqidagi hikoyalar kabi o'nlab manzumalar teran falsafiy mushohadalarni yuksak baduiyat bilan ifodalashga ta'kid etilgan vaznlar muhim o'rinn tutadi.

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da tarsi, zulqofiyatayn, zulqavofi' tardu aks singari she'riy san'atlarni qo'llash orqali baytlarni har ikki vazn ohangida yaratdi. Xususan,

*Mehnat-u ranj-u alam yuzlandi ko 'p,*

*Shiddatu oshubu g'am yuzlandi ko 'p,*

*K-ey sening zoting riyosat gavhari,*

*Boshinga loyiq hidoyat afsari*

singari baytlarda zulqofiyataynni qo'llasa,

*Ne saodatdin yiroq tushkonlarin,*

*Ne hidoyatdin qiroq tushkonlarin*

kabi misralarda tarsi'dan foydalanadi.

*Har biriga zot edi oti kibi,*

*Ul sifatkim ot edi zoti kibi*

tarzidagi bayt orqali esa tardi aksning go'zal namunasini yaratadi.

XVIII asrda yashab ijod etgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr"ga ergashib, "Qush tili" asarini yozgan<sup>1</sup>. Ushbu asar 1171-hijriy, 1756–1757-milodiy yilda yaratilgan. Bu haqda doston so'ngida ma'lumot keltiriladi. Tarixi kitob:

*Chun qush tilidin kinoyat erdi bu kitob,*

*Turkiy bila bo 'ldi "Mantiq ut-tayr" xitob.*

*Tarixini jon bulbulidin so 'rdum esa,*

*"Qush tili" bila navo chekib qildi javob<sup>2</sup>.*

<sup>1</sup> Очилов Э. Заковат бўстони // Фарициддин Аттор. Ҳикматлар. – Т.: O'ZBEKISTON, 2012. – Б. 8.

<sup>2</sup> Мавлоно Ҳожа Қози Пайвандий Ризоний. Куш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Ҳасанова. – Т.: Tezkor-Press Print, 2009. – Б. 369.

Demak, Rizoyning kitobi qush tilidan kinoyat bo'lib, u turkiy tilda "Mantiq ut-tayr"ga murojaat qilgan. Tarixini jon bulbulidan so'ranganida, "Qush tili" bilan navo chekib javob qilganligini zikr etadi. Shoir Farididdin Attor, Gulshahriy, Alisher Navoiylar boshlab bergen an'anani turkiy adabiyotda davom ettirdi.

U yaratgan "Qush tili" dostonining qo'lyozmasini o'zbek sharqshunos olimi M.Imomnazarov ilk bor o'rganib, doston haqida maxsus ilmiy maqola e'lon qilgan<sup>1</sup>. Maqola muallifi o'zbek tasavvuf adabiyotining vakillaridan biri bo'lgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy qalamiga mansub 127-raqam ostida saqlanayotgan "Qush tili" asari qo'lyozmasi bilan Hamid Sulaymon nomidagi Qo'lyozmalar institutida qadimgi qo'lyozmalarni o'rganish asnosida tanishib chiqqanligini aytadi va o'zbek adabiyoti tarixi uchun bu ijodkor hamda uning asari noma'lum ekanligini alohida ta'kidlaydi.

M.Imomnazarov Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Rizoyning "Qush tili" dostonlarining syujeti, kompozitsion qurilishi va qo'lyozmalarni qiyoslab, ular o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatadi. "Har uch asar o'z mustaqil mazmuniy va hissiy yo'nalishiga ega, ularni hech bir shaklda bir-birining tarjimasi yoki taqlidi deb bo'lmashagini bayon etadi. Shuningdek, mo'tadil: ammo o'zi tanlagan yo'nalishni izchil tutadigan, ko'proq irfoniy tushunchalarning badiiy ommabop bayoniga urg'u beradigan adabiyot yaratildiki, bu ham sof tasavvuf she'riyatiga mansubdir", – degan xulosaga keladi<sup>2</sup>.

Olima Sh.Hasanova ham Rizoyning "Qush tili" dostonini maxsus o'rganib, o'z tadqiqotlarda Rizoiy haqida qoniqarli manbalar topmaganligini zikr etadi. Shuningdek, "O'zbek adabiyoti tarixi" 3 jildida (Toshkent, 1978) XIX asrda Xorazmda yashab o'tgan shoir Rizoiy haqida eslab o'tilganligi va uning "Xurshid va Malikayi Dilorom" va "Gulfarax" nomli dostonlar yozganligi haqida qayd etadi. 2009-yilda Sh.Hasanova Rizoyning "Qush tili" dostonini ilk marta nashr etadi<sup>3</sup>. Farididdin Attorning "Mantiq ut-

<sup>1</sup>قارанг: Имомназаров М. Ҳожа Қози Пайвандий Ризоий // Адабиёт кўзгуси. – Т., 1998. – № 1. – Б. 76–81.

<sup>2</sup>Имомназаров М. Ҳожа Қози Пайвандий Ризоий // Адабиёт кўзгуси. – Т., 1998. – № 1. – Б. 77.

<sup>3</sup>Хасанова Ш. Мавлоно Ҳожи Қози Пайвандий Ризоининг "Қуш тили" дostonini va унинг киёсий-текстологик тадқики. – Т.: ЎзРФА Давлат адабиёт музейи, 2006. – Б. 104; Мавлоно Ҳожа Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи

tayr” dostoniga turkiy tilda bitilgan Gulshahriy (XVI asr) va Alisher Navoiy tatabbulari qatoriga yana bir doston – Rizoioining ushbu asari ham qo’shildi.

Doston jami 8474 misra, 4237 baytdan iborat. Rizoiy dostonning xotima qismida o‘z asarining tarjima kitob ekanligini qayd etadi:

*Qush tilidan tarjumondur bu kitob,*

*Ko’rguzur Anqo sori rohi savob!*

(“Qush tili”, 380)

deb, kitobning qush tilidan tarjima ekanligini va Anqo sari savobli yo’lni ko’rsatishini bayon etadi. Biroq maxsus tadqiqot olib borgan olma Sh.Hasanova Rizoioining ushbu dostoni tarjima emasligini qayd etadi. Asarning o‘ziga xos syujet va kompozitsiyasi, obrazlar silsilasi va o‘z g‘oyaviy-falsafiy mazmuni, badiiy-poetik uslubi Rizoiygagina xos asar, deyishga to‘la asos beradi. Chunki bu doston boshqalarnikidan tamomila farq qiladi. Rizoiy mavzuni yoritishda o‘ziga xos yo‘l tutib, uni majoziy talqin usuli orqali bayon qiladi. U so‘fiyona-falsafiy masalalarini qushlar obrazlari orqali yoritib beradi<sup>2</sup>. Bu o‘rinda biz olimaning fikriga qo’shilamiz. Chunki asar o‘zigacha yaratilgan dostonlarning syujet chizig‘idan tubdan farq qiladi.

Rizoiy dostonida o‘zigacha yaratilgan asarlar singari qushlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri vodiylarni bosib o‘tmaydi. Uning asarida bu vodiylar iqlim deb atalib, ularga qadam qo‘yishdan oldin o‘nta to‘sani bosib o‘tishlari lozim bo‘ladi. Bular – tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqiblik va rizo to‘salaridir. “Bu to‘shalarni bosib o‘tgan har bir solik oldida Haq vasliga erishmoq uchun yana yetti iqlimni, ya’ni yetti botiniy xislatlarni egallashi vojib qilib qo‘yiladi”<sup>3</sup>. Doston irfoniy dostonlar uchun xos bo‘lgan ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan.

Asardagi dastlabki to‘sha – tavbadir. Bunda solik shariat man’etgan barcha yomon illatlardan voz kechib, yaxshilarini o‘z botinida

Ш.Хасанова. – Т.: Tezkor-Press Print, 2009. – Б. 380; Хасанова Ш. “Тўтинома” ва “Куш тили” туркумидаги асарларнинг киёсий-типологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док ... дисс. – Т., 2016. – Б. 255.

<sup>1</sup> Мавлоно Хожа Кози Пайвандий Ризоий. Куш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Хасанова. – Т.: Tezkor-Press Print, 2009. – Б. 380.

<sup>2</sup> Хасанова Ш. “Тўтинома” ва “Куш тили” туркумидаги асарларнинг киёсий-типологик ва текстологик тадқики. Филол. фан. док ... дисс. – Т., 2016. – Б. 33.

<sup>3</sup> Мавлоно Хожа Кози Пайвандий Ризоий. Куш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Хасанова. – Т.: Tezkor-Press Print, 2009. – Б. 12.

mujassamlashtirishi lozim bo‘ladi. Mazkur to‘shada Nasuh ismli kishi to‘g‘risidagi hikoya keltiriladi. Bunda Qur‘oniy iqtiboslar va Rasuli akramning hadislari orqali tavba to‘shasida ko‘tarilgan mavzu o‘z yechimini topadi. Zero, tariqat yo‘liga kirgan har bir solikning ilk qadami – tavbadir.

*Dedi: – Yo Rab,/ zulm qildim,/ bilmadim,  
– V – —/ — V – —/ — V –  
Kim saning am/ring bila ish/ qilmadim.  
– V – —/ — V – —/ — V –*

Nasuh iltijo bilan zulm qilganini bilmaganini ham, yaratganning amri bilan ish qilmaginini ham tan oladi va tavba qiladi. Bayt uchun tanlangan **bilmadim**, **qilmadim** qofiyadosh so‘zлari ayni vaqtda vaznni belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi. Chunki **bilmadim**, **qilmadim** qofiyadosh so‘zлari *foilotun* asliy ruknining *foilun* tarmog‘ida yozilishni taqozo etadi. Birinchi misradagi “**zulm**” so‘zi qator undoshi bilan tugaganligi sababli vazn talabi bilan bitta qisqa “**i**” unlisi orttiriladi.

Ikkinci to‘sha – zuhddir. Bu maqomning talablari:

*Dunyoning johu jamolindin kechib,  
Balki bori mulku molindin kechib.*

*Faqru faqo aylamaklik ixtiyor,*

*Puri Adhamtakkim uldir mardikor* (“Qush tili”, 13)

jumlasidandir. Bunga ko‘ra haqiqiy solik o‘zini dunyoning johu jamolindin, mol-u boyliklaridan kechib, faqr-u kambag‘allik, sabr-u toqatlikni ixtiyor qilishdir. Shu tartibda qushlar har bir to‘shada soliklik maqomini egallab boraveradi. Lekin bu yo‘ldan turli bahonalar bilan qaytgan qushlar ham bor. 30 ta (dostonda 11 ta qush keltiriladi) qushning barchasining ham irodasi bunga yetmaydi. Birinchilardan bo‘lib bulbul, keyin to‘ti o‘z uzrini aytadi. Garchi Rizoiy Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”ini o‘z dostonida tilga olmasa-da, mavzu jihatidan asarlarning bir-biriga yaqinligi sezilib turadi. Dostonda vazn bilan bog‘liq saktaliklar kuzatiladi.

Shoirning ushbu dostoni turkiy tildagi allegorik-falsafiy dostonchilikning Gulshahriy va Alisher Navoiy boshlab bergen an’analaring keyingi davrlarda ham samarali davom ettirilganligidan dalolat beradi. O‘zbek adabiyoti tarixida

Rizoiyning “Qush tili” dostoni qushlar obrazlari orqali o‘zida irfoniy qarashlarni aks ettirib, asarda salaflarining tajribasi ijodiy rivojlantirilganligi va badiiy ijodning yangi namunalari bayon etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yo‘nalishdagi keyingi doston Salohiyning “Bulbul va Gul” dostoni hisoblanadi. Salohiy haqida adabiyotshunoslikda deyarli ma’lumotlar kam uchraydi. “Nurmuhammad Nasafiyning bizgacha yetib kelgan yakka-yu yagona asari “Mazhar ul-musannifin” tazkirasidagi ma’lumotlarda keltirilishicha, Salohiy o‘zbek tilida “Gul va Bulbul” hamda tojik tilida “Yusuf va Zulayxo” dostonlarini yaratgan<sup>1</sup>. Salohiy “Gul va Bulbul”ning kirish qismida o‘z asarini G‘urbatiyning “Gul-u Bulbul”i ruhida yozganligini qayd etadi:

*Aytib G‘urbatiykim bir kitobi,*

*Qo ‘yub otin Gulu Bulbul kitobi<sup>2</sup>.*

Olim Sharafiddinov tomonidan 1945-yilda tuzilgan “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”da Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonidagi ayrim parchalar kiritilgan. Mazkur parcha 1959-yilda nashr etilgan to‘rt tomlik “O‘zbek adabiyoti” to‘plamining uchinchi tomiga ham qisqartirilgan holatda berilgan. Doston haqida B.Valixo‘jayevning “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan” (1974), X.Rasulovning “O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik” (1973) kitoblarida nazariy ma’lumotlar keltirilgan. Adabiyotshunoslikda Salohiyning dostoni “Gul va Bulbul” deb nomlanib kelingan. Bu haqda B.Valixo‘jayev, X.Rasulovlar ham o‘z mulohazalarini bildirishgan. Olimlar mazkur dostonni “Bulbul va Gul” deb atash zarurligini ta’kidlaydi. Shoirning o‘zi ham dostonni “Bulbul va Gul” deb ataydi:

*Bo ‘lub ma ’shuqu oshiq Bulbulu Gul,*

*Bu nazm oti erur ham Bulbulu Gul.*

Yoxud:

*Bayon aylayki ishqı Bulbulu Gul,*

*Eshitgil dostoni Bulbulu Gul.*

<sup>1</sup> Shodiyeva S. Salohiy adabiy merosi // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume – 2\_April\_2022. – P. 560.

<sup>2</sup> Салохий. Гул ва Булбул тасвири. ЎЗ ФАШБ, кўлёзма инв. №3402. – Б. 26. Keyingi misollar shu manbadan olinadi.

Anglashiladiki, doston “Gul va bulbul” emas, balki “Bulbul va Gul” deb nomlangan. Salohiyning ushbu dostoni hijriy 1153, milodiy 1740-yilda yaratilgan. Bu masalada muallifning o‘zi ma’lumot beradi:

*Bu kitob tarixi qo‘yningg‘a san quch,  
Bo‘lubon bir mingu yuz elligu uch<sup>1</sup>.*

“Bulbul va Gul” dostoni 44 bob, 732 baytni tashkil etadi. Biroq dostonning 731-bayti tojikcha, 732-bayti esa arabchada bitilgan. Demak, Salohiy ikki tilda emas, balki uch tilda ijod qilgan. Shuningdek, asarda 7 ta g‘azal hamda 1 ta munojot ham keltirilgan bo‘lib, ular 39 baytdan iborat.

“Bulbul va Gul”ning yetakchi qahramoni Bulbul muhabbat iforini qizil gulda ko‘radi. Dostonda, asosan, Bulbulning Qizil gulga oshiq bo‘lishi va shu syujet bilan bog‘liq epizodlar, Bulbulning qushlar bilan uchrashib, savol-javob qilishi va asar so‘ngida qafasga tushib vafot etishi tasvirlanadi. Asarda Bulbul va sakkizta qush (Humoyun, Tovus, To‘ti, Kabk, Qumri, Foxta, So‘fiyo va Hudhud) o‘rtasidagi savol-javobga keng o‘rin berilgan. Bu syujet esa biz yuqorida o‘rgangan dostonlarga begona emas. Balki shuning uchundir Salohiy dostonning xotima qismida “Bulbul va Gul”ning Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga javob tarzida yaratilganligi aytadi:

*Savoli hol bo‘ldi mantiq ut-tayr,  
Tamom o‘ldi javobi tammat ul-xayr. (40)*

Shoir bu ta’rixda “Mantiq ut-tayr”ning so‘rog‘i yaxshi bo‘lganini, asar yaxshilik bilan yakun topganligini bayon etadi. Faqat doston “Mantiq ut-tayr” yo‘nalishidagi dostonlar o‘lchovida emas, balki “Muhabbatnoma” vaznida yozilgan. Nazarimizda, bu bilan shoir “Mantiq ut-tayr” dostoniga javob yozishni orzu qilganu, lekin uning vazniga e’tibor bermagan bo‘lishi mumkin. X.Rasulov esa “O‘zbek epik she’riyatida xalqchillik” risolasida doston hazaji musaddasi maxbun vaznida yaratilganligini qayd etadi<sup>2</sup>. Bu ham

<sup>1</sup> Салохий. Гул ва Булбул тасвири. Ўз ФАШБ, тошбосма иинв. 577. – в. 486. Keyingi misollar shu manbadan olinadi.

<sup>2</sup> Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринччи ярмий. – Т.: Фан, 1973. – Б. 27.

yanglish fikr. Biz bu o'rinda dostondan parcha olib, uning tahvilini keltirish taraf dorimiz:

*Jahon ra'no/sig'a bo'lma/ giriftor,*  
V — — — / V — — — / V — ~  
*Aning ishqida bo'lma zo/ru afgor...*  
V — — — / V — — — / V — ~  
*Jahon ra'no/sining yo'qdir/ baqosi,*  
V — — — / V — — — / V — —  
*Baqosi yo'q/ aning hamda/ vafosi<sup>1</sup>.*  
V — — — / V — — — / V — —

Keltirilgan baytlar ham hazaji musaddasi maqsur, ham hazaji musaddasi mahzuf vaznlarida bitilgan. Har ikki vazn uchun ularga mos o'zak qofiya turlaridan foydalaniłgan. Shoир hazaji musaddasi maqsurda yozilgan baytda ridfi asliyli murdaf qofiyadan (*giriftor, afgor*) foydalansa, hazaji musaddasi mahzuf o'lchovida yaratilgan bayt uchun esa raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lgan mujarrad qofiyani (*baqo, vafо*) qo'llaydi. Bu bilan shoир har ikki vazn tabiatini dostonda almashtirib istifoda etadi. Shoир vazn ohangini ta'sirli ko'rsatishda tashbih, tanosub, tasbi' she'riy san'atlaridan ham mahorat bilan foydalangan.

Salohiyning ushbu asari mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va obrazlar talqini nuqtayi nazaridan ham shu yo'nalishdagi asarlardan tubdan farq qiladi. Doston obrazlaridagi allegoriya ancha kuchli, chunki asar ma'lum darajada irfoniy falsafa bilan sug'orilgan. Buning uchun Bulbulning qushlar bilan munozarasi epizodiga e'tibor qaratilsa, asarda shoир tomonidan ko'zlangan maqsad – uning "ishqi ilohiyga" bo'lgan e'tiqodi va Bulbulning shu yo'lda vafot etgani oydinlashadi. Shu jihatdan "poemadagi Sabo – pir, Bulbul – murid va Gul "haqiqiy" muhabbat sifatida talqin qilingan"<sup>2</sup>. Bulbul "Saboga sen mening pirimsan hamda yo'l boshlaguvchi rahbarimsan" deb o'zining maslahatgo'yi sifatida ko'rsatadi:

*Dedi Bulbul Saboni: "San parimsan,  
Mani yo'l boshlag'uchi rahbarimsan"<sup>3</sup>.*

<sup>1</sup> Салохий. Гул ва Булбул тасвири. Ўз ФАШБ, кўлдёзма инв. № 3402, – 82 в.

<sup>2</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 66.

<sup>3</sup> Салохий. Гул ва Булбул тасвири. Ўз ФАШБ, тошбосма инв. 577. – 416.

Dostondagi Humoyun, Tovus, To'ti, Kabk, Qumri, Foxta, So'fiyo va Hudhud kabi qushlar majoziy personajlar bo'lib, ular asarda turli xarakter va xulq-atvordagi insonlar obrazlarini gavdalantiradi. Bu bilan shoir o'zi yashagan muhitni to'la-to'kis ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Ana shunday tipdagi dastlabki qush-Humoyundir. "Afsonalarga ko'ra Humoyun (qush) noyob, oz uchraydigan qush bo'lib, uning soyasi kimning boshiga tushsa, u odam podsho bo'lar emish"<sup>1</sup>. Asarda Humoyun o'z xalqini o'ylamaydigan, badnafs, himmatsiz shoh sifatida gavdalanadi. Hatto Bulbul unga qarata: "G'ajirsan it kabi eski so'ngakni, Jarohat aylabon jonu yurakni" – deydi. U garchi shoh bo'lsa-da, xalqini azoblab, jon-u yuragiga jarohat aylab o'z maqsadiga yetishishi bayon etiladi. Shunda Bulbul Humoyunga qarata o'z nafsining xohishiga qarab bormaslikni, qanoatlari bo'lishini uqtiradi:

*Hazar qil, borma nafsing xohishig 'a,*

*Qanoat shamshirin cholg'il boshig 'a.*

Salohiy Humoyun timsolida o'zi yashagan muhitning og'irligini anglatmoqchi hamda jamiyatning shunga o'xshash obrazlarni turli qushlar vositasida ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Bunda shoir har bir qushga vazifa yuklar ekan ularning tashqi ko'rinishiga ham e'tibor beradi. Xususan, Ziynatga berilgan boy-Tovus, maqtanchoq tabib – To'ti, o'ziga bino qo'ygan hofiz – Kabk (Kaklik), riyokor shayx – Qumri, lof uruvchi oshiq – Foxtak (Qashqarg'urrak), yolg'onchi so'fi – So'fiyo (So'fito'rg'ay), Hudhud (Popishak) esa tasbih o'girib o'tiruvchi xudbinlarning tipik vakili bo'lgan insonlarni gavdalantiradi. Bulbul qushlarning siridan ogoh bo'lganidan so'ng, ulardan ajraladi. Sabo bilan birgalikda yori tomon talpinadi.

Dostonda "Bulbulning oxirda qafasga tushib qolib, oh urib o'lgani esa tamoman so'fiyona mohiyat kasb qiladi, ya'ni Bulbul-jasad qafasda uning komil muhabbatining nishonasi – ohi tan-qafasdan qutuladi va o'z muhabbati bilan qorishib ketadi<sup>2</sup>. Salohiy ham Navoiy singari o'z dunyoqarashini, qarashlarini Bulbul va Sabo orqali ifodalashga harakat qilgan.

<sup>1</sup> Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973. – Б. 17.

<sup>2</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – Б. 66.

Xulosa qilib aytganda, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Mavlono Xoji Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili", Salohiyning "Bulbul va Gul" kabi irfoniy dostonlarida vazn va mazmun munosabati o'ziga xos o'ringa ega. Fors adabiyotining yirik vakili Farididdin Attor boshlab bergen an'anani sobitqadamlik bilan Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy, Salohiy davom ettirdi. Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy o'zlarining irfoniy dostonlarini an'anaviy ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur vaznlarida yaratdi. Faqat, Salohiydagina bu an'ana biroz chekinganday bo'ldi. U o'z dostoniga hazaj bahrining musaddas vaznlarini tanladi. Shuningdek, "Bulbul va Gul" tarkibiga 3 ta g'azal va bitta munojot singari lirik janrlarni ham kiritdi. Ungacha yaratilgan dostonlarda bu hol kuzatilmagan edi. Balki Salohiy yashagan davrda XVII asrning oxirlariga kelib bu hol tabiiy deb qaralgandir.

#### **4.3-§. Diniy-didaktik dostonlarning vazn xususiyatlari**

Adabiyotimiz tarixida diniy-didaktik dostonlar alohida o'rinn tutadi. "Didaktika" yunoncha so'z bo'lib, ibratli degan ma'noni ifodalaydi. Diniy-didaktik asarlarda, asosan, muslimon dunyosining muqaddas manbalari sanalmish Qur'on va Hadisga qanday qaralganligi yoki payg'ambar va uning salaflariga qanday munosabatda bo'lishganligi alohida hisobga olinadi. Ushbu mavzudagi asarlarga rivoyatlar, hikoyatlar, dostonlar, hikmatlar, tamsillarni ko'rsatish mumkin. "Bu janrlardagi asarlar insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy barkamolligiga qaratilgan bo'lib, ularda insonga bo'lgan muhabbat e'tiqod sofligi kishilarning bir-biriga do'stona munosabatlari, payg'ambarlar va avliyolar barhaqligini e'zozlash, gunohga botmaslik uchun qabih va yaramas ishlardan nafsn jilovlash kabi insoniy masalalar ko'tarilgan"<sup>1</sup>. Mazkur yo'nalishdagi dostonlarga Huvaydoning "Rohati dil", Uvaysiyning "Shahzoda Hasan haqidagi doston", "Shahzoda Husayn haqidagi doston", Sobir Sayqaliyning "Qisasi Sayqaliy"

<sup>1</sup> Жавохирул хикоят. Ибратли хикоятлар, пандлар, ўгитлар. Сўзбоши муаллифи С.Хасан. – Т. Ёзувчи, 1993. – Б. 3.

yoki “Ravzat ush-shuhado”, Xolis Toshkandiyning “Qissai Hasan va Husayn” kabilarni kiritish mumkin.

Xo‘janazar Huvaydo XVIII asr adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. Uning adabiy merosi shoirning chevarasi Hoji Salohiddin (Soqib) va Mirza Hakim ibni Mirza Umid Marg‘iloniyilar ko‘chirgan mukammal qo‘lyozma devonda to‘plangan bo‘lib, u shoirning qalamiga mansub asarlarni deyarli to‘la qamrab oladi. Hatto uni kulliyoti deyish ham mumkin<sup>1</sup>. Professor Nusratullo Jumaxo‘ja “Huvaydoning otasi G‘oyibnazar Ernazar o‘g‘li 1104-hijriy yillarda bir guruh marg‘ilonlik qarindoshlari bilan Chimyonga ko‘chib kelgan. Huvaydo shu maskanda, shu oilada tavallud topgan. G‘oyibnazar Chimyonda nufuzli maktabda eshon edi. U Qashqarda shuhrat qozongan Ofoq Xo‘ja muridlaridan bo‘lib, piriga ixlos va hurmatning ramzi sifatida o‘g‘liga Xo‘jamnazar ismini bergen. Huvaydo shoirning adabiy taxallusi” ekanligini aytadi<sup>2</sup>. Olim bu o‘rinda Huvaydo haqida mufassal ma’lumot beradi.

Huvaydoning Hoji Salohiddin (Soqib) va Mirza Hakim ibni Mirza Umid Marg‘iloniyilar ko‘chirgan devonida 361 ta g‘azali, 28 ta ruboysi, 41 ta to‘rtligi, 3 ta muxammas, 1 ta musaddas, musamman, mustazod va 3 ta masnaviysi kiritilgan. Shuningdek, devondan shoirning “Rohati dil” dostoni ham o‘rin olgan. Shoirning “Rohati dil” asari diniy-didaktik yo‘nalishdagi dostonlarning go‘zal namunasidir. Professor Nusratullo Jumaxo‘ja, Iqboloy Adizovalar “Rohati dil” g‘ofil yuraklarni nasihat nurlaridan munavvar etuvchi ma’rifiy manzuma ekanligini qayd etishadi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, undagi hikoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsa-da, tarixiga murojaat etish, o‘quvchining ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgandir.

Doston 30 bob va “Ibrohim Adham” qissasidan iborat. “Rohati dil” an‘anaviy – Allohgaga hamd, payg‘ambarlarga na’t bilan boshlanadi. Keyinroq Jabroil alayhis-sallomning tobut haqidagi

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. З том. – Т. Фан, 1978. – Б. 369.

<sup>2</sup> Нусратулло Жумахўжа. Хувайдо тасаввуфий шеъриятида фалсафий-бадиий талкин // Шарқ ўлдузи. – Т.: 1998. – № 4. – Б. 23.

<sup>3</sup> Нусратулло Жумахўжа. Хувайдо меросининг маънавий-маърифий моҳияти. – Т.: Республика “Маънавият ва маърифат” маркази, 1995. – Б. 3.

hikoyati keltiriladi<sup>1</sup>. So'ngra ketma-ketlikda Muhammad payg'ambarimizning chahoryorlari – Abu Bakr as-Siddiq, Umar, Usmon va Ali ibn Tolibning ta'rifi, ibratli ishlari hamda Imam Hasan va Husayn shahzodalarga bag'ishlangan boblar keltiriladi. Dostonda ibratli hikoyatlar bayon qilinadi. Asar "Munojot ba jonibi qoziyu-l-hojat", ya'ni Allohu taologa murojaat-iltijo bilan yakun topadi.

"Rohati dil"da islom va tasavvuf ta'lilotining umuminsoniy g'oyalari, axloq masalalari ibratli hikoyatlar vositasida tahlil etiladi. Dostonda ochko'zlik, tamagirlik, vafo, boqiylik, foniylilik, yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari, go'zallik va mehnatsevarlik, moddiy va ma'naviy poklik kabi xilma-xil axloqiy mavzulardagi ibratli hikoyalar keltiriladi. Ular aruz tizimining hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur vaznlarida yaratilgan. Shoir dostonda kitobning nomi "Rohati dil" ekanligi, uni dastlab nasrda yozib, keyinchalik esa nazmga aylantirgani haqida ma'lumot beradi.

*Kitobimning/ otidur "Ro/hati dil",*

V — — — / V — — — / V — —

*Erur har bir/ so 'zi tanbi/hi g'ofil.*

V — — — / V — — — / V — —

*Ko 'ngul shahri/ yagona az/m qildim,*

V — — — / V — — — / V — —

*Kitobim nas/r+edi, man naz/m qildim<sup>2</sup>*

V — — — / V — — — / V — —

Ko'rindiki, keltirilgan bayt hazaji musaddasi mahzuf ohangida bitilgan. Baytda vazn imkoniyatini saqlash uchun vasl, imolayi maqbuldan (yoqimli imola) o'rinali foydalangan. Huvaydo "Rohati dil" dostonini tojikcha ham yozmoqchi bo'lgan. Biroq o'zi istiqomat qiladigan Chimyonning aksar aholisi "turkiyxon" bo'lganligi sababli, shoir o'z qarashlarini, fikrlarini kengroq yoyish maqsadida dostonning tiliga ham "turki behroq" ma'qul ekanligini ta'kidlaydi:

<sup>1</sup> "Кисаси Рабгузий"да ҳам тобут ҳакидаги хикоят келтирилган. Qarang: Носириддин Рабгузий. Кисаси Рабгузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 240.

<sup>2</sup> Ҳўжаназар Хувайдо. Роҳати дил. Нашрга тайёрловчиликлар: С.Ҳасан, Н.Жуванмардиева. – Т.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 16.

*Bu Chimyon shah/rining piyru/javoni,*  
 V — — — / V — — — / V — —  
*Tamomiysi/ erurlar tur/ki(y)xoni.*  
 V — — — / V — — — / V — —  
*Alar tojik/ so 'ziga be/hunarroq,*  
 V — — — / V — — — / V — ~  
*Dedim bo 'lsa/ kitobim tur/ki behroq* (“Rohati dil”, 16)  
 V — — — / V — — — / V — ~

singari baytlar ikki xil vaznda yaratilgan. Ularning dastlabkisi o‘zida hazaji musaddasi mahzuf vaznining xususiyatini aks ettirsa, ikkinchisi, shu vazndan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farq qiluvchi hazaji musaddasi maqsurda yozilgan. Keltirilgan dastlabki baytdagi “turkiyxon” so‘zi baytning o‘lchov imkoniyatini saqlash uchun “turkixon” tarzida o‘qiladi. Ya’ni “y” undoshi taslimga uchraydi. Shuningdek, uchinchi va to‘rtinchi misralarda “behunarroq”, “behroq” ridfi asliyli qofiyadosh so‘zlarining so‘nggi hijosi o‘ta cho‘ziq bo‘lganligi uchun ular hazaji musaddasi maqsur vazni xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan.

“Rohati dil” dostoni “Munojot ba jonibi qoziyu-l-hojat”, ya’ni Allohu taologa murojaat-iltijo bilan yakunlanadi. Biz bu o‘rinda dostonning bu qismini bekorga keltirmadik. Sababi, dostonning aynan shu qismi butunlay boshqa o‘lchovda – ramal bahrining ramali musaddasi mahzuf hamda ramali musaddasi maqsurda bitilgan. Biz buni asoslash maqsadida baytlarni taqtisi bilan birlgilikda jadval ko‘rinishida keltiramiz. Munojot quyidagi bayt bilan boshlanadi:

<i>Xoligo, javr</i>	<i>ayladi o ‘z</i>	<i>jonima</i>
— V — —	— V — —	— V —
<i>Oo ‘ymadim to</i>	<i>-at taomin</i>	<i>xonima</i> (“Rohati dil”, 118)
— V — —	— V — —	— V —

Yoki:

<i>Xoligo, kel</i>	<i>-dim sanga ay</i>	<i>-lab umid,</i>
— V — —	— V — —	— V ~
<i>Dargohingdin</i>	<i>qilmag ‘il san</i>	<i>noumid</i> (“Rohati dil”, 119)
— V — —	— V — —	— V ~

Namuna uchun keltirilgan baytlar tuyuq vaznida ramali musaddasi mahzuf hamda ramali musaddasi maqsurda yozilgan. Xo'sh, shu o'rinda nima uchun munojot doston vaznidan boshqa she'riy o'Ichovda yaratildi degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning bir necha sabablari bor deb aytish mumkin:

birinchidan, muallif munojotni dostonning xotima qismida keltirganligi va bu qismni keyinroq yozganligi uchun uni boshqa vaznda yozgan bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, odatda munojotlarda Allohga murojaat qilinap ekan, undalma sifatida dastavval yaratganning biror ismi yoki sifatiga murojaat qilinadi. Bu yerda ham muallif o'z munojotini "Xoliqu" deb boshlar ekan, tabiiyki, o'z-o'zidan cho'ziq bo'g'in bilan boshlanuvchi vaznga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu munojot dostonning asosiy she'riy o'Ichovidan chekinib, boshqa bahr, ya'ni ramal bahrida yaratilgan.

Doston tarkibida 6 ta g'azal janridagi she'rlar ham uchraydi (1-ilovaga qarang). Ular ham doston vaznida emas, balki ramal, hazaj bahrlarining musamman vaznlarida yaratilgan. "Rohati dil"da vazn bilan bog'liq saktaliklar ham uchraydi. Bunday holatlarni dostonning asosiy matnida ham, lirik janrlarda ham kuzatishimiz mumkin. Shoир dostonda so'z qo'llash jarayonida uning vaznga tushish yoki tushmasligiga ahamiyat bermagan bo'lishi mumkin. Yoxud bunday holat uning yashagan davri bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbek adabiyoti tarixida Karbalo fojiasi yoritilgan qator asarlar mavjud. Ularda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning nabiralari Imom Husayn raziyallohu anhuning Iroqdagagi Karbalo dashtida oila a'zolari va as'hobi – jami yetmish ikki tanning shahid bo'lishi Islom tarixidagi eng mudhish hodisalardan biri bo'lib, o'zbek adabiyotida ham o'z badiiy ifodasini topgandir<sup>1</sup>. Jumladan, Uvaysiy, Bibi Hojar, Xolis Toshkandi, Sobir Sayqaliy kabi shoир va shoiralar ushbu mavzuda qissa va dostonlar yaratganlar.

Uvaysiyning shahzodalar Imom Hasan va Imom Husayn raziyallohu anhuga bag'ishlangan 2 ta dostoni mavjud. Shoira

<sup>1</sup> Сайфуллоҳ С., Хунзикер Д. Карбало фожеаси ва бадиий ижод / Собир Сайкалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо. – Т.: Мовароуннахр, 2004. – Б. 3.

shahzodalar haqidagi dostonlarning nomlanishi haqida hech qanday ma'lumot bermagan. Faqat o'zbek adabiyoti xrestomatiyasida ushbu dostonlarning bittasi "Karbalonoma" nomi bilan keltirilgan. Shahzoda Husayn to'g'risidagi dostonning litografik bosmasida "Kitobi Uvaysiy" degan nom qo'yilgan. Shu sababli adabiyotshunoslikda olimalarimiz E.Ibrohimova, I.Adizovalar birinchi dostonni "Shahzoda Hasan haqidagi doston", ikkinchisi esa "Shahzoda Husayn haqidagi doston" deb nomlashni ta'kidlaydilar<sup>1</sup>. Biz bu o'rinda adabiyotshunoslikdagi fikrlarga qo'shilamiz va har ikki dostonning vazn xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Dostonning hajmi 1450 misra, 725 baytdan iborat. U 26 misra hamd va 20 misra na't bilan boshlanadi. Keyin 48 misrada chahoryorlar tavsiflanadi. So'ngra dostonning asosiy syujet bilan bog'liq voqealar bayoni boshlanadi. Dastlab imom Hasan va Husaynning tug'ilish tarixi, ism tanlash jarayonlari dramatik sahna darajasida mahorat bilan tasvirlab beriladi<sup>2</sup>. "Shahzoda Hasan haqidagi doston"da hikoya qilinishicha, Fotimaning eri Ali vafot etgach, hokimlik qilgan Ko'fa yerlari katta o'g'li Hasan ixtiyoriga o'tadi. Shom hokimi Muoviya Alining o'lganidan foydalaniib, Ko'fani bosib olish niyatida Hasan ustiga qo'shin tortadi. Hasan esa o'z lashkarini ko'zga ko'rinas o'ngurda shaylab qo'yib, o'zi tanho Muoviya oldiga boradi va qon to'kishdan to'xtatib, sulhga ko'ndiradi<sup>3</sup>. Bu o'rinda Muoviya Hasanga o'zini sulhga ko'nganday qilib ko'rsatadi. Biroq, buning aksi bo'ladi. Uning niyati tamoman Hasannikiga zid keladi:

*Yuz hiyla/yu makr bilan/ Muovi,*

— — V/ V — V — / V — —

*Ma'qul so '/z+ila berib/javobi.*

— — V/ V — V — / V — —

Keltirilgan bayt hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yaratilgan. Demak, doston "Layli va Majnun"ning asosiy

<sup>1</sup> Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Иброҳимова Э. Увайсий достонлари ҳакида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1960. – № 6. – Б. 38–44; Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. – Т.: Muharrir, 2020. – Б. 159–199.

<sup>2</sup> Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. – Т.: Muharrir, 2020. – Б. 187.

<sup>3</sup> Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб (XVII асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигчача). – Т.: ЎҚИТУВЧИ, 1967. – Б. 343.

o'Ichovida bitilgan. Ayni paytda bayt uchun qo'llanilgan "Muovi", "javobi" qofiyadosh so'zлari *fauvlun* ohangida yaratilgan. Bu o'rinda I. Adizova Uvaysiyning ham mazkur dostonidagi syujetning "Majnun" dostonining vaznida yaratganligini bayon etadi. variatsiyalaridan foydalanganligini ham ta'kidlaydi. Tanosub she'riy san'atini qo'llash orqali esa baytning musiqiyligini oshirgan. Dostonda Hasan o'z xotini Ju'da tomonidan zaharlanib o'ldiriladi.

*Ju'daga/ Yazidni ish/qi g'olib,*

— — V/ V — V — / V — ~

*Keldi-yu/ Yazidga kel/di tolib.*

— — V/ V — V — / V — ~

*Mulku, zaru, molin havosi,*

*Tushti oni bo 'ldi gun gadosi.*

Bu o'rinda shoira Ju'dani vafosiz yor qiyofasida, tanosubdan mohirona foydalanib tasvirlaydi. Ju'daning ko'zлari o'z baxtidan emas, balki "mulku zaru mol havosi"dan qamashadi. Bu esa uni hiyonat qilishga undaydi. Dostonda xalq og'zaki ijodi motivlari ham uchrab turadi. Ayniqsa, Oysuniyo obrazida ko'rish mumkin. Dostondagi Oysuniyo obrazi orqali juda kuchli yosumanni ko'rish mumkin. Uvaysiy uning ta'rifini

*Bor edi Madinada kanizak,*

*Har uyga kiradi go 'yo sak.*

*Dallollik edi kanizak ishi,*

*Har sorig'a bor edi borishi*

tarzida keltiradi. Oysuniyoning bunday yo'l tutishiga birdan bir sabab Muoviya tomonidan va'da qilingan zebu zar edi. Albatta, dostonda ijobiy obrazlar ham tasvirlangan. Bular: Husayn, Sa'd, Mavsuli, ibn Abbos kabilalar.

Shoiraning ikkinchi dostoni "Shahzoda Husayn haqidagi doston"da hikoya qilinishicha, Muhammadning keyingi nabirasi Husayn o'z oila a'zolari tarafdarlari bilan Karbalo cho'lidan o'tayotganida raqibi Yazid boshchiligidagi lashkar qurshovida qoladi. Jazirama issiqda chanqab, bir qultum suvg'a ilhaq bo'lgan qurshovdagilar ortiq chidab tura olmay dushman xalqasini yorib

chiqish uchun jangga tushib ketadilar. Hasanning o‘g‘li Qosim va Aliakbar, inisi Abbos va boshqalar qanchalik jonbozlik ko‘rsatmasinlar, baribir, dushmanning zarbalari va suvsizlik ularni holdan toydirib, safdan chiqaradi. Nihoyat, Husayn chanqoqlikdan chinqirib yig‘layotgan o‘g‘li Aliasqarni ko‘tarib, dushmanlari yoniga borib, suv so‘rashga majbur bo‘ladi. Lekin Yazidning rahmsiz kishilari bolani nayza sanchib o‘ldiradilar. Shundan keyin Husayn majolsiz xotini va boshqa ayollar bilan vidolashib, dushman lashkariga tashlanadi. Duchi kelganini chopadi, o‘ldiradi va, nihoyat, o‘zi ham halok bo‘ladi<sup>1</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, bunday qissalar tarix bilan yaqin aloqada bo‘ladi va tarixiy manbalar asosida maydonga keladi. Bu yo‘nalishdagi keyingi doston Sobir Sayqaliyning “Qissasi Sayqaliy” yoki “Ravzat ush-shuhado”sidir. Biz o‘tgan fasllarda Sobir Sayqaliy haqida ma’lumot bergenligimiz sababli bu o‘rinda “Qissasi Sayqaliy” yoki “Ravzat ush-shuhado” dostonining vazn imkoniyatlarigagina to‘xtalamiz. Sobir Sayqaliyning ushbu dostoni 2004-yilda Sayfiddin Sayfulloh, Dovud Xunzekir tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan. Biz tadqiqotimiz davomida mazkur nashrga murojat qildik. 2020-yilda S.Soipov ““Qissasi Sayqaliy” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi” haqida maxsus tadqiqot olib borgan. Olim mazkur tadqiqotida “Qissasi Sayqaliy” asarining mazmuni tahliliga ham alohida to‘xtalgan.

Sobir Sayqaliy “Ravzat ush-shuhado” dostonini ikki qismga ajratadi. Birinchi kitobning kirish qismi an‘anaviy hamd, na’t, choryorlar madhi hamda munojotdan iborat. Sayfiddin Sayfulloh, Dovud Xunziker dostonning birinchi qismida payg‘ambarlar qissasi, xususan, hazrat Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallamning imomlar bilan bog‘liq voqealar munosabatlari, ularga g‘amxo‘riliklari, imom Hasan va Imom Husayn taqdirlaridan bashorat berilishi, choryorlar hikoyalari, Hadichayi Kubro va Fotimai Zahro onalarimiz bilan bog‘liq voqealar, Hazrat Ali va Muoviya o‘rtalaridagi ziddiyat, Hazrat Alining shahid bo‘lishlari aks etishini qayd etishadi<sup>2</sup>. Darhaqiqat, asarda keltirilgan har bitta

<sup>1</sup> Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи нашри. – Т.: ЎҚИТУВЧИ, 1967. – Б. 345.

<sup>2</sup> Сайфуллоҳ С., Хунзикер Д. Карбало фожеаси ва бадиний ижод / Собир Сайкалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо. – Т.: Моварооннахр, 2004. – Б. 9.

voqeada imomlar qismatiga ishora qilib o'tiladi. Umuman, "Ravzat ush-shuhado" payg'ambarlar kechmishi haqidagi asardir.

"Ravzat ush-shuhado"ning ikkinchi qismi ham an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Mazkur qismda, asosan, Imom Hasanning shahid bo'lishi, Imom Husaynning esa fitnaga uchrashi, yetmish ikki kishining ahli bayt bilan Karbalo dashtida qatl etilishi, shafqatsiz zulmlar, ziddiyatlar ko'rsatib o'tiladi. "Ravzat ush-shuhado"ning birinchi va ikkinchi qismlari o'z o'mida bir-biri bilan uzviy bog'langan. Shoir asarga qahramonlar tilidan 39 ta g'azal, 2 ta to'rtlik, 1 ta muxammas, musaddas, muashshar hamda tarji'band singari lirik janrlarni ham kiritgan. Ayni paytda bu lirik janrlarning dostonda istifoda etilishi voqealarni yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. Asarda turli rivoyatlar nazm yo'li bilan bayon qilinadi.

S.Soipov o'z tadqiqotida Sobir Sayqaliy payg'ambarlar tarixini Hazrati Imom Husayn va Imom Hasan rivoyatlari bilan chambarchas bog'lab shunday kompozitsiya va badiiy uslub qo'llaganki, natijada asar Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy singari yaxlit bir diniy yo'nalishdagi asar tarzida shakllanib, Imom Husayn va Imom Hasan haqidagi epizodlarning qo'shilishi esa, asarning o'ziga xos yo'nalishini belgilovchi vosita bo'lganligini ta'kidlaydi. Sobir Sayqaliy "Ravzat ush-shuhado" asarida payg'ambarlar tarixini Odam atodan boshlab, Rasuli akram avlodlari tarixi bilan tamomlaydi. Asar Uvaysiy dostonidan farqli ravishda hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur vaznlarida yaratilgan.

Sobir Sayqaliy asarini nazmda yozganligini, unda "nabiylar ibtidosi"ni bayon aylaganligini ta'kidlaydi:

*Zamirim so/f qil chun o/tobe,  
V— — — / V— — — / V— —  
Ki tobe ber/ ki, nazm aylay/ kitobe.  
V— — — / V— — — / V— —  
Bayon aylay/ nabiylar ib/tidosin,  
V— — — / V— — — / V— —*

<sup>1</sup> Soipov S. "Qissayi Sayqaliy" asari qo'lyozma nusxalarining qiyosiy-teksstologik talqini. – T. VNESHINVESTPROM, 2020. – B. 17.

*Qilay toza/ shahidlarni/ azosin<sup>1</sup>*  
*V— — / V— — / V— —*

Ko'rinadiki, keltirilgan parcha Huvaydoning "Rohati dil"  
dostoni singari *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitilgan. Baytda  
shoir tajnis san'atini qo'llash orqali musiqiylikni oshirgan.

Dostonda Hazrati Jabroil alayhissalom sayyidul anom,  
alayhissalotu vassalom xizmatlariga kelib, Hazrati Imom Husayn  
raziyallohu anhu oliy maqomi *shahodatidin xabar berganlarini*  
*bayoni quyidagi bayt bilan boshlanadi:*

*Eshititing bu/ hikoyatni/ ajoyib,*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Keturubdur/ muni "Kanzul/-g'aroyib".*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Ki bir kun Fo/tima shahzo/dalarni,*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Kiguzub kur/ta ul ozo/dalarni.*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Yubordi Mus/tafoni xiz/matig'a,*

*V— — — / V— — — / V— —*

*Alar bordi/ bobosin suh/batig'a ("Ravzat ush-shuhado", 3)*

*V— — — / V— — — / V— —*

"Ravzat ush-shuhado"dan keltirilgan parchada bu hikoyatni  
shoir "Kanzul-g'aroyib"dan olganligini aytadi. Bayt mazmunida  
Fotima onamiz shahzodalarni sayyidul anom, alayhissalotu  
vassalom xizmatlarig'a, bobosining suhbatig'a yuborganligi  
ta'kidlanadi. Voqealar rivojida Rasuli Akram Hazrati Imom  
Husaynni tizzalariga olib suyub erkalaydilar. Nogohon Rasuli  
Akramning nigohi Imom Husaynning bo'ynidagi nishona xatga  
tushadi va "Rasulni ko'ngliga keldi garoni" – og'ir bo'ladi. O'shal  
damda Rasuli Akramga Jabroil alayhissalom nishonaning ta'birini  
quyidagicha bayon etadi:

*O'shal damda/ samodin yet/ti Jabril,*

*V— — — / V— — — / V— ~*

<sup>1</sup> Собир Сайқалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо. Нашрга тайёрловчилар: С.Сайфуллоҳ, Д.Хунзикер. – Т.: Мовароуннахр, 2004. – Б. 24. Keyingi misollar ushbu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

Dedi: "Ey, say/yidul-olam/ muni bil.  
V — — — / V — — — / V — ~

Munungdek xatg'a sen bo 'lding alamnok,  
Kuni bo 'lg'ay, ayo, ey gavhari pok.

Sitam tig'i bila bo 'lg'ay qalam bo 'l,  
Agar ko 'rsang degay erding alam bo 'l.

Judo bo 'lg'ay muborak boshi tandin",

Rasul dargirya bo 'ldi bu suxandin. ("Ravzat ush-shuhado", 31)

Rasuli Akram bu xabarni Jabroil alayhissalomdan eshitib,  
ko'zlariga yosh keladi va quyidagi matla' bayt bilan boshlanuvchi  
g'azalni o'qiydilar:

Hech kim o/lam aro mun/dog' azoni<sup>1</sup>/ ko 'rmadi,  
— V — — / — V — — / — V — — / — V —

Ko 'rdi har kim/ har azo, mun/dog' azoni/ ko 'rmadi.  
— V — — / — V — — / — V — — / — V —

Hikoyadan keyin Sobir Sayqaliy ushbu g'azalni berish orqali  
kitobxon e'tiborini Rasuli Akram boshiga tushgan qayg'uga  
qaratmoqchi bo'ladi. Shoir she'rda "ko 'rmadi" radifini qo'llashi  
bilan uni *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilishini  
ta'minlagan. Ushbu bobga yuqoridagi g'azal yakun yasaydi.  
Dostonda ketma-ketlikda payg'ambarlar bilan bog'liq syujet  
chiziqlari berib boriladi.

### To'rtinchı bob bo'yicha xulosalar

Biz o'zbek adabiyotidagi falsafiy-tasavvufiy va diniy didaktik  
dostonlarda ritm va mazmunning o'zaro munosabatini o'rganish  
asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1.O'zbek poeziyasida "Maxzan ul-asror" yo'nalishida  
yozilgan dostonlarda vazn nuqtayi nazaridan Nizomiy dostoniga  
ergashish seziladi. Bu yo'nalishdagi barcha dostonlar *sari'i*  
*musaddasi matviyi makshuf*, *sari'i musaddasi matviyi mavquf*  
vaznlarida bitilgan.

<sup>1</sup> Кўлғозмада "балони" деб берилган.

2. *Sari'i musaddasi matviyi makshuf va sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlarida yaratilgan baytlarda urg'u har bir ruknning dastlabki bo'g'iniga tushadi. Urg'uli bo'g'indan keyin ikki qisqa hijoning yonma-yon kelishi yengil va yoqimli ohangni vujudga keltiradi va bunday ohang orqali pand-nasihat ruhidagi fikrlarning kitobxon tomonidan malol kelmaydigan darajada qabul qilinishiga erishiladi. Shu ma'noda Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy, Xoja kabi ijodkorlar dostonlaridagi g'oya va mazmun ularda istifoda etilgan vaznga hamohangdir.

3. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida asosiy ikki vazndan tashqari *sari'i musaddasi maqtu'i matviyi makshuf* va *sari'i musaddasi maqtu'i matviyi mavquf* vaznlari ham qo'llanilganki, bu shoirning o'z g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarish maqsadidan tashqari, aruz ilmidagi bilimdonligidan, lozim bo'lgan so'zlardan o'rinali foydalanishda asosiy vazn doirasidan chiqish bilan istifoda etiladigan kashfiyotchiligidan dalolatdir.

4. O'zbek adabiyotida irfoniy yo'nalishdagi dostonlarda vazn va mazmun munosabati ham o'ziga xos o'ringa ega. Forsiy adabiyotda she'riy vazn bo'yicha Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"si, mavzu bo'yicha Farididdin Attor boshlab bergen an'anani turkiy adabiyotda Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy, Salohiylar davom ettirdilar. Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy o'zlarining irfoniy dostonlarini an'anaviy ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur vaznlarida yaratdilar. Faqat Salohiygina bu an'anadan biroz chekinib, o'z dostoni uchun hazaj bahrining musaddas vaznlarini tanladi. Shuningdek, "Bulbul va Gul" tarkibiga 3 ta g'azal va bitta munojot singari lirik janrlarni ham kiritdi. Ungacha yaratilgan dostonlarda bu hol kuzatilmagan edi.

5. O'zbek adabiyotida aruz tizimida yaratilgan diniy-didaktik dostonlar, asosan, *ramal va hazaj* bahri vaznlarida bitilgan. Bu an'anani Xo'janazar Huvaydo "Rohati Dil" dostoni orqali boshlab berdi. Doston tarkibida ham *hazaji musaddasi mahzuf*, ham *ramali musaddasi mahzuf* vaznlari uchraydi. Shoir "Rohati dil"da keltirilgan "Munojot"da *ramali musaddasi mahzuf* vaznnini qo'llaydi.

6. Uvaysiyning shahzoda Hasan va Husaynga bag'ishlangan dostonlari "Layli va Majnun" dostonining asosiy vaznida yaratilgan. Bunda shoira mazkur dostonlardagi syujetning mahzun va fojiali tugallanmasiga e'tibor qaratgan.

7. Sobir Sayqaliy "Ravzat ush-shuhado" asarida payg'amarlar tarixini Odam Atodan boshlab, Rasuli akram avlodlari tarixi bilan yakunlaydi. "Ravzat ush-shuhado" Huvaydoning "Rohati dil" dostoni singari *hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi* maqsur vaznlarida bitilgan. Shu xususiyatiga ko'ra asar Uvaysiy dostonlaridan farqlanadi.

## XULOSA

O'zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o'rni bilan bog'liq muammonni tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Qadimgi davr antik epik poeziyasi qahramonlik va jangnoma yo'nalishida vujudga kelgan bo'lib, bunday dostonlarda qadimgi yunon metrik she'r tizimi – gekzametrdan foydalanilgan. Gekzametr vaznining ko'p sonli ritmik variatsiyalarga ega ekanligi qadimgi shoirlarga voqealar bayonida qulaylik tug'dirgan. She'rda uzun hijolarning ko'proq bo'lishi – voqeanning ulug'vorligini, harakatning salmoqdorligini ta'minlagan bo'lsa, qisqa hijolarning ko'pligi esa harakatga tezlik, yengillik, o'ynoqilik bag'ishlagan va jangnoma dostonlar tarkibidagi ishqiy gimnlarni ham ushbu o'Ichov asosida yozish imkoniyati paydo bo'lган. Sharq epik poeziyasining ilk namunalari ham qahramonlik ko'rinishida bo'lib, bunday dostonlar uchun Daqiqiy va Firdavsiylar boshlab bergan an'anaviy she'riy o'Ichov – mutaqorib bahridan foydalanilgan.

2. Musulmon Sharqi masnaviynavisligi 7 ta she'riy o'Ichov doirasida bo'lib, shulardan beshtasini "Xamsa" vaznlari tashkil qilsa, biri "Mantiq ut-tayr" yo'nalishidagi dostonlar, yana biri Muhammad Solih "Shayboniynoma"si vaznidir.

3. O'zbek epik poeziyasiga mansub dostonlarni mavzu ko'lamiga ko'ra shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: pandnomalar mavzusidagi dostonlar; jangnoma va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlar; noma-dostonlar; "qo'sh ismli" ishqiy dostonlar; "Xamsa" yo'nalishidagi ishqiy dostonlar; "Maxzan ul-asror" turkumidagi dostonlar va irfoniy-tasavvufiy dostonlar. Ular yana o'z ichida kichik guruhlarga bo'linadi.

4. Dastlabki pandnomalar bo'lmish "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq"da mutaqorib bahrining tanlanishiga ilk sabab "Shohnoma" vaznining asos bo'Igani bo'lsa, mutaqoribning barmoq vazniga mansub 11 lik turkumiga yaqin turishi ikkinchi sabab sifatida keltirilishi mumkin.

5. O'zbek epik poeziyasi tarixida "Saddi Iskandariy", "Shayboniynoma", "Rusiya inqilobi" singari dostonlar qahramonlik va jangnoma yo'nalishida bo'lsa-da, ularda she'riy o'Ichov

masalasida tafovutlar mavjud. Agar Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Sidqiy Xondaliqiyning "Rusiya inqilobi" dostonlarida vazn Muhammad Solih o'z dostonini epik she'riyatda Jomiyidan so'ng Temuriylar adabiy muhitidagi an'analarga ergashishni istamagan Muhammad Solih dostoni dastlab uning zamondoshi Bobur, so'ngra Fitrat tomonidan salbiy baholanishga sabab bo'ldiki, bu bevosita doston uchun tanlangan she'riy o'Ichovning muvaffaqiyatsiz tantanali ruhda, shiddatli ohangda jaranglaydi va voqeaga qahramonona shukuh beradi. Ramal bahrining musaddas vaznlari maxbun tarmog'i uchun esa bu xulosani berolmaymiz.

6. Noma janri dastlab forsiy adabiyotda vujudga kelgan bo'lib, oshiq-ma'shuqlarning bir-biriga yozgan maktublari bilan bog'liq tushunchani ifodalagan. Uning ilk ko'rinishlari Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostoni tarkibida uchraydi. Dostonda Vis Rominga jo'natgan o'nta noma keltirilgan bo'lib, Faxriddin Gurgoniy ularni "Dahnama" sarlavhasi ostida birlashtirgan. Doston tarkibidagi ushbu maktublar "Vis va Romin"ning umumiy she'riy o'Ichoviga bo'ysundirilgan, ya'ni ular ham hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlarida bitilgan.

7. Noma mustaqil janr sifatida turkiy adabiyotdan munosib o'rin egalladi. Ilk noma janridagi asar Xorazmiyning "Muhabbatnama"si bo'lib, unda oshiqning o'z yoriga bitgan 11 ta she'riy maktubi keltirilgan. Dostonning she'riy o'Ichovi hazaji musaddasi mahzuf va maqsur bo'lib, muallif bu vaznni tanlashda ikki omilga suyangan: 1) xalq og'zaki ijodidagi "muhabbatnama" qo'shig'i ohangi aynan shu o'Ichovga mos keladi; 2) Faxriddin Gurgoniyning "Dahnomasi" mazkur vaznda bitilgan. "Muhabbatnama" tarkibida keltirilgan g'azal, soqiynoma, qit'a, fard kabi janrlar ham shu ikki o'Ichov doirasida yozilgan. Shuningdek, Xo'jandiynning "Latofatnama", Sayid Ahmadning "Taashshuqnama", Yusuf Amiriyning "Dahnama" asarlari turkiy nomachilikning yuksak namunalari bo'lib, ularda ham mazkur ikki vazn istifoda etilgan. Qosimiyning ishqiy yo'nalishdagi dostoni

“Haqiqatnoma” ham “Muhabbatnoma” vaznida bitilganligi bilan an’anaviylik kasb etadi.

8. Xolis Toshkandiying noma so‘zi aks etgan dostonlari o‘z g‘oyaviy yo‘nalishi bilan yuqoridagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Garchi uning “Qiyomatnoma”, “Arvohnoma”, “Ibratnoma” singari dostonlari an’anaviy “Muhabbatnoma” vaznida yaratilgan bo‘lsa ham, ularning mavzusi tamoman boshqadir. Xolis Toshkandiy yashagan davrga kelib, hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlari epik dostonchilikning asosiy vazniga aylanib bo‘lgan, ijodkorlar o‘zlarining turli mavzudagi asrlarini ushbu vaznlarda bita boshlagan edilar. Bunga sabab sifatida ushbu vaznlarning ohang jihatdan keng imkoniyatlarga ega ekanligi va xalqona ruhga yaqinligini ko‘rsatish mumkin. Miriyning “Gulnoma”, “Choynoma”sida qo‘llanilgan she’riy o‘lchovlar esa yuqorida keltirilgan nomalar vaznidan farq qiladi. Shoir o‘z asari “Gulnoma”ni turli gullarga bag‘ishlagani uchun asosiy she’riy o‘lchov sifatida *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznni, qo‘srimcha vazn sifatida esa *hazaji musaddasi mahzufni*, “Choynoma” uchun xafif bahri vaznlarini tanlagan.

9. Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Xiromiyning “Ra’no va Zebo”, Tabibiyning “Vomiq va Azro” masnaviyalarida *hazaji musaddasi mahzuf* o‘lchovi istifoda etilgan. Mazkur vazn yuqorida nomi keltirilgan dostonlar uchun an’anaviylik kasb etadi. Bu yo‘nalishdagi dostonlar orasida faqat Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostonigina sari’i musaddasi matviyi makshuf (mavquf) vaznidadir. Buning asosiy sababi sifatida Nishotiyning dastlab “Xamsa” yaratishni niyat qilgani va o‘z dostonini beshliklardagi ilk dostonlar yoziladigan sari’ bahrida yaratgani bilan izohlash mumkin. Boshqacha aytganda, biz tahlilga tortgan qo‘s sh ismli ishqiy dostonlarda vazn bilan bog‘liq an’anaviylik, asosan, saqlangan bo‘lib, Nishotiyga kelib bu an’ana buzilgan va o‘zgachalik kasb etgan.

10. “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlarda she’riy o‘lchov sifatida mutaqoribi musammani mahzuf va maqsur, hazaji musaddasi mahzuf va maqsur, sari’i musaddasi matviyi makshuf va matviyi mavquf vaznlaridan foydalilanilgan. Omoniy va Rabg‘uziy

asarlarida dastlabki davrda shohlar vazni bo'lmish mutaqorib ustunlik qilgan bo'lsa, Qul Ali, Shayyod Hamza ijodida ramal bahri esa an'anaviy hazaj bahri ko'zga tashlanadi. Ulardan farqli o'laroq, dostonlarda an'aviylikdan individuallikka o'tish yaqqol ko'zga tashlanadi. Ahamiyatlisi, eng ko'p tarqalgan va keyingi davr ishqiy dostonlari uchun asos bo'lgan hazaj bahri aynan mana shu davrdan keng yoyila boshlagan.

11. Turkiy adabiyotda Xorazmiy "Muhabbatnomा"sidan keyin hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur o'Ichovlari ishqiy mavzudagi dostonlarning asosiy vazni bo'lib qoldi. Nizomiyning "Xusrav va Shirin"ga xamsanavislik an'anasi asosida javob sifatida bitilgan ilk doston bo'lmish "Farhod va Shirin"ida ham mazkur she'riy o'Ichov qo'llanilgan. Navoiy turkiy adabiyotda "Farhod va Shirin" dostonini yaratishda Nizomiyidan ta'sirlangan holda o'zigacha yaratilgan ishqiy dostonlardan ham muayyan darajada foydalangan.

12. Alisher Navoiy forsiy adabiyotda o'zigacha yaratilgan "Layli va Majnun" dostonlarini puxta o'rganib chiqib, mazkur yo'nalishdagi dostonlarda qo'llanilgan *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur* vaznlarining o'Ichov imkoniyatlarini tadqiq qildi va ushbu o'Ichovlarni turkiy adabiyotga olib kirdi. Tajriba sifatida o'zining "Layli va Majnun" dostonida qo'lladi. Navoiy "Layli va Majnun" yo'nalishidagi dostonlarning vazn imkoniyatini yanada chuqurlashtirib, ritmik variatsiyadan foydalandi. Turkiy adabiyotda birinchilardan bo'lib *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* o'Ichovini istifoda etdi.

13. O'zbek adabiyotida ishqiy-sarguzasht yo'nalishidagi dostonlar o'ziga xos turkumni tashkil etadi. Nizomiyning "Haft paykar" dostonidan ibtido topgan mazkur yo'nalishga Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor", Majlisiyning "Qissasi Sayfulmuluk", Sobir Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom", Nodir-Uzlatning "Haft gulshan" singari asarlarini kiritish mumkin. Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni aruz tizimida, xafif bahrining xafifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznida yozilgan. Sakkiz ritmik variatsiyaga ega

bo‘lgan ushbu vazndan hikoyatlar tarkibida turli holatlarda istifoda etilgan. Mazkur ritmik variatsiyalarning voqealar bayonida o‘zaro almashinib qo‘llanilishi tasodifiy bo‘lmay, asar qahramonlarining ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o‘tish paytlari, syujet chiziqlarining o‘zgarishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

14. Majlisiyning “Qissasi Sayfulmuluk” dostoni qissa ichida qissa uslubida yaratilgan va yo‘nalishiga ko‘ra ishqiy-sarguzasht doston hisoblanadi. Muallif dostonda hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlaridan foydalangan. Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”i “Haft paykar” yo‘nalishidagi doston hisoblansa-da, unda qo‘llanilgan she’riy o‘lchov Nizomiy va Navoiy asarlaridan farq qiladi. Muallif dostonda asosiy vazn sifatida hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vaznlaridan qo‘llagan, lekin doston tarkibiga kiritilgan **g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas** kabi janrlarda ramal, muzori’ singari vaznlardan foydalangan. Doston tarkibiga mazkur janrlarning kiritishi va ularning aruz tizimidagi turli bahrlarda bitilishi bir necha syujet chizig‘iga ega bo‘lgan doston voqealari bayoni uchun mos kelgan.

15. Nodir-Uzlatning “Haft gulshan” dostoni ham an’anaviy hazaji musaddasi mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, buning sababi sifatida mazkur dostonning xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgani va hazaji musaddasi mahzuf vaznining xalqona ohangga yaqin turishi bilan izohlash mumkin.

16. O‘zbek epik poeziyasida “Maxzan ul-asror” yo‘nalishida yozilgan dostonlarda vazn nuqtayi nazaridan Nizomiy dostoniga ergashish seziladi. Bu yo‘nalishdagi barcha dostonlar *sari’i musaddasi matviyi makshuf, sari’i musaddasi matviyi mavquf* vaznlarida bitilgan. *Sari’i musaddasi matviyi makshuf va sari’i musaddasi matviyi mavquf* vaznlarida yaratilgan baytlarda urg‘u har bir ruknnning dastlabki bo‘g‘iniga tushadi. Urg‘uli bo‘g‘indan keyin ikki qisqa hijoning yonma-yon kelishi yengil va yoqimli ohangni vujudga keltiradi va bunday ohang orqali pand-nasihat ruhidagi fikrlarning kitobxon tomonidan malol kelmaydigan darajada qabul qilinishiga erishiladi. Shu ma’noda Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy, Xoja kabi ijodkorlar dostonlaridagi g‘oya va mazmun ularda istifoda etilgan vaznga hamohangdir.

17. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida asosiy ikki vazndan tashqari, sari’i musaddasi maqtu’i matviyi makshuf, matviyi maqtu’i matviyi mavquf va sari’i musaddasi shoirning o’z g’oyaviy niyatini ro’yobga chiqarish maqsadidan tashqari, aruz ilmidagi bilimdonligidan, lozim bo’lgan so’zlardan o’rinli foydalanishda asosiy vazn doirasidan chiqish bilan istifoda etiladigan kashfiyotchiligidan dalolatdir.

18. O’zbek adabiyotida irfoniy yo’nalishdagi dostonlarda vazn va mazmun munosabati ham o’ziga xos o’ringa ega. Forsiy adabiyotda she’riy vazn bo’yicha Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”si, mavzu bo’yicha Farididdin Attor boshlab bergen Payvandiy Rizoiy, Salohiylar davom ettirdilar. Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy o’zlarining irfoniy dostonlarini an’anaviy ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur vaznlarida yaratdilar. Faqat Salohiydagina bu an’ana biroz cheklanib, shoir o’z dostoni uchun hazaj bahrining musaddas vaznlarini tanladi. Shuningdek, “Bulbul va Gul” tarkibiga 3 ta g’azal va bitta munojot singari lirik janrlarni ham kiritdi. Ungacha yaratilgan dostonlarda bu hol kuzatilmagan edi.

19. O’zbek adabiyotida aruz tizimida yaratilgan diniy-didaktik dostonlar, asosan, *ramal* va *hazaj* bahri vaznlarida bitilgan. Bu an’anani Xo’janazar Huvaydo “Rohati dil” dostoni orqali boshlab berdi. Doston tarkibida ham *hazaji* musaddasi mahzuf, ham *ramali* musaddasi mahzuf vaznlari uchraydi. Shoir “Rohati dil”da keltirilgan “Munojot”da *ramali* musaddasi mahzuf vaznni qo’llaydi.

20. Uvaysiyning shahzoda Hasan va Husaynga bag’ishlangan dostonlari “Layli va Majnun” dostonining asosiy vaznida yaratilgan. Bunda shoira mazkur dostonlardagi syujetning mahzun va fojiali tugallanmasiga e’tibor qaratgan. Sobir Sayqaliy “Ravzat ush-shuhado” asarida payg’ambarlar tarixini Odam Atodan boshlab, Rasuli akram avlodlari tarixi bilan yakunlaydi. “Ravzat ush-shuhado” Huvaydoning “Rohati dil” dostoni singari *hazaji* musaddasi mahzuf va *hazaji* musaddasi maqsur vaznlarida bitilgan.

Umuman olganda, o'zbek epik poeziyasi ming yillik tarixga ega bo'lib, uning shakl va mazmun jihatidan takomillashuvida aruz tizimining o'ziga xos o'rni bor. Masnaviy dostonlarning ilk she'riy o'Ichovi bo'Igan va dastlabki epik poeziyada qahramonlik, jangnoma va pandnoma yo'nalishlarida, ba'zan hatto ishqiy mavzudagi dostonlarda birdek qo'llanilgan *mutaqorib* bahri evolyutsiya jarayonida o'z o'rmini *ramal* va *hazaj* bahrulariga bo'shatib berdi. Bu bevosita turkiy adabiyotdagi kelib chiqish ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaluvchi *hazaj* bahri hamda Navoiy tomonidan "turkona" deb nomlangan *ramal* bahrining epik poeziyadagi mavzu imkoniyatlarini kengaytirdi, ushbu bahrularning turkiy epik poeziyadan mustahkam o'rin egallashiga zamin hozirladi.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: O'zbekiston, 2017. – 483 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. 2017 йил, 20 сентябрь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил, 8 феврал.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори // Халқ сўзи. 2017 йил, 21 апрель.

## **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar**

### **1) Milliy nashrlar:**

6. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 440 б.

7. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 80 б.

8. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 540 б.

9. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 499 б.

10. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asming birinchi yarmigacha). Т.: Sano-standart, 2017. – 427 б.

11. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 84 б.

- 12.Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. Darslik. – T.: Tamaddun, 2019. – 520 b.
- 13.Soipov S. “Qissayi Sayqaliy” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. – T.: VNESHINVESTPROM, 2020. – 122 b.
- 14.Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. – S.: SamDU nashri, 2020. – 172 b.
- 15.Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – 255 b.
- 16.Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб (XVII асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигачи). – Т.: ЎКИТУВЧИ, 1967. – 343 б.
- 17.Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Мирий ва унинг замондошлари. – Т.: Фан, 1977. – 132 б.
18. Абу Райхон Беруний. Ҳиндларнинг грамматика ва шеър ҳақидаги китоблари баёни. Танланган асарлар. 2 жилдлик. II жилд. А.Расулов, Ю.Ҳакимжонов, F.Жалолов таржимаси асосида. – Т.: Фан, 1965. – 537 б.
- 19.Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.
- 20.Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. – Т.: Muҳarrir, 2020. – 268 б.
21. Алимухамедов А. Чет эл адабиёти. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – 476 б.
- 22.Алишер Навоий. Мезон ул-авzon. 20 томлик. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – 329 б.
- 23.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – 329 б.
- 24.Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. МАТ. 20 томлик. 16 том. – Т.: Фан, 2000. – 329 б.
- 25.Аристотель. Поэтика. – Т.: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 194 б.
- 26.Атоуллоҳ Ҳусайнний. Бадойиъу-с-санойиъ. (А.Рустамов таржимаси). – Т.: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 398 б.
- 27.Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. Т.: Фан, 1970. – 140 б.

- 28.Аъзамов А. Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Мухаммад Бобур сабоқлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – 224 б.
- 29.Бобур Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – 412 б.
- 30.Болтабоев Ҳ. Шарқ мұмтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.
- 31.Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – 148 б.
- 32.Воҳидов Ш. Кўқон хонлигига тарихнавислик. – Т.: Akademnashr, 2010. – 155 б.
- 33.Ғафуров И. Жозиба. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 200 б.
- 34.Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Т.: Фан, 1992. – 64 б.
- 35.Жўрабоев О. Ўзбек классик адабиётида фалсафий-дидактик достончилик. – Т.: Фан, 1985. – 80 б.
- 36.Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг “Мағотиҳ ал-улум” асарида поэтика (Аруз, қоғия ва бадиият илми истилоҳлари тарихига оид). ТошДШИ. – Т.: 2001. – 92 б.
- 37.Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2016. – 112 б.
- 38.Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'ZBEKISTON, 2014. – 219 б.
- 39.Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – 287 б.
- 40.Қайюмий П. Тазкирайи Қайюмий. Нашрга тайёрловчи: акад. Қаюмов А. З жилдлик. 1 жилд. – Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – 222 б.
- 41.Қаюмов А. Кўқон адабий муҳити. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1961. – 361 б.
- 42.Қораев Т. Хиромий ҳаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 1977. – 128 б.
- 43.Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: МАЪНАВИЯТ, 2004. – 328 б.

- 44.Қосимхонов Б. Сайид Қосимиининг адабий-дидактик достонлари. – Т.: Фан, 1987. – 122 б.
- 45.Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳукмдорларга ўғитлар. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори А.Ўринбоев, таржимон F.Каримий. – Т.: Шарқ, 1999. – 24 б.
- 46.Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 152 б.
- 47.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Нашрга тайёрловчилар X.Хомидий, О.Тожибоева. – Т.: Kafolat print company, 2021. – 542 б.
- 48.Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз. Монография. – Т.: 2021. – 126 б.
- 49.Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 629 б.
- 50.Олимов М. Рисолаи аruz. – Т.: Ёзувчи, 2002. – 88 б.
- 51.Олмосли Э.Т. Аруз. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – 162 б.
- 52.Расулов Х. Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик. XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми. – Т.: ФАН, 1973. – 148 б.
- 53.Раҳмонова Ш. Арузнинг поэтик шакл ва вазн такомилидаги ўрни. – Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 148 б.
- 54.Рустамов А. Аруз ҳақида сұхбатлар. – Т.: Фан, 1972. – 56 б.
- 55.Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.
- 56.Санаев И. Олим Девона (ҳаёти ва ижоди). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2020. – 112 б.
- 57.Саъдий А. Амалий ва назарий адабиёт дарслари. – Т., 1925.
- 58.Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 74 б.
- 59.Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофига. – Самарқанд: Зарафшон, 1996. – 65 б.
- 60.Тўйчиев У. Арузшуносликка доир. – Т.: Фан, 1973. – 42 б.

- 61.Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – 254 б.
- 62.Туйчиева Г.У. Аруз в контексте газелей Амир Хосрова Дехлеви. – Т.: ТашГИВ, 2005. – 248 с.
- 63.Тухлиев Б. Вопросы поэтики «Қутадгу билиг» Юсуфа Ҳас Ҳаджиба. – Т., 2004. – 120 с.
- 64.Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожибининг “Қутадғу билиг” асари. – Т.: Ўзбекистон, 1991. – 64 б.
- 65.Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожибининг бадий маҳорати. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 120 б.
- 66.Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1 том. – Т.: Фан, 1978. – 328 б.
- 67.Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 3 том. – Т. Фан, 1978. – 378 б.
- 68.Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 4 том. – Т.: Фан, 1978. – 444 б.
- 69.Ўзбек адабиёти. 4 томлик. 3 том. – Т.: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959. – 804 б.
- 70.Фитрат А. Аруз ҳақида. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
- 71.Фитрат А. Таңланган асарлар. II жилд. – Т.: МАЊНАВИЯТ, 2000. – 208 б.
- 72.Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг таърифи. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – К.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1993. – 56 б.
- 73.Холикулова Г. “Рустам ва Суҳроб” бадиияти. – Т.: Mumtoz so‘z, 2014. – 147 б.
- 74.Хўжанова М.К. “Ҳибат ул-ҳақойик” ҳақиқатлари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 111 б.
- 75.Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: Ўзфанакадемнашр, 1963. – 117 б.
- 76.Ҳайитметов А. Темурйлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996. – 160 б.
- 77.Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. – Т.: Фан, 1981. – 96 б.
- 78.Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 192 б.

- 79.Ҳасанов Ш. Замонавий достон поэтикаси. – Самарқанд: 2001. – 142 б.
- 80.Ҳасанова Ш. Мавлоно Ҳожи Қози Пайвандий Ризоййининг “Күш тили” достони ва унинг қиёсий-текстологик тадқики. – Т.: ЎзРФА Давлат адабиёт музейи, 2006. – 104 б.
- 81.Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. Форс тилидан И.Бекжон таржимаси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – 275 б.
- 82.Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.
- 83.Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хазина, 1996. – 212 б.
- 84.Шарипов Ш. “Лисон ут тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – 96 б.
- 85.Шомуҳамедов Ш.М. Форс-тожик арузи. – Т.: Тошду, 1970.
- 86.Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Т.: Фан, 1985. – 64 б.
- 87.Эркинов С., Ғанихонов М. Низомий Ганжавий. – Т.: Фан, 1992. – 68 б.
- 88.Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Монография. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – 144 б.
- 89.Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Т.: TA’LIM-MEDIA, 2019. – 264 б.

## 2)Xorijiy nashlar:

- 90.Ali Asghar Seyed-Gohrab. A narration of Love. An analysis of the Twelfth Century Persian Poet Nizami’s Layli and Majnun. – Leiden, 2001. – P. 433.
- 91.Blochmann H. Prosody of the Persians according to Saifi, Jami and other writers. Calcutta, 1872.
- 92.DeWeese D. The Predecessors of Nava’i in the «Funun al-balagah» of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century // Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005, volume 29, – P. 76.

93. Elwell-Sutton L.R. Persian Metrics. – Cambridge, 1976.
94. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London, 2003. – P. 507.
- Arabic and Persian Poetry. – London, 2003. – P. 507.
95. Landau J. De rythme & de raison. Paris: Presses Sorbonne nouvelle, 2013.
96. Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London, 2003.
97. Simidchieva M. Imitation and Innovation in Timueid Poetics: Kashifi's Badayi al-afkar and Predecessors, al-Mu'jam and Hada'iq al-sihr // Iraninan Studies, volume 36, number 4, 2003.
98. Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1960. – 366 с.
99. Аминева В. Теоретические основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. – Казань, 2014.
100. Араслы Н. Г. Низами ва турк эдебияти. – Баку: Элм, 1980. – 206 с.
101. Афсахзод А. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. Проблемы текста и поэтики. – М.: Наука, 1988. – 326 с.
102. Ахметов З.А. Казахское стихосложение. – Алматы, 1964. – 460 с.
103. Бакиров М. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. – Казань, 1972. – С. 30-31
104. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1955. – 510 б.
105. Бертельс Е. Навои и Джами. М., 1965. – 149 с.
106. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. – М.: Наука, 1988. – 560 с.
107. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Вступительная статья И.К. Горского. – М.: Высшая школа, 1989. – 406 с.
108. Гаспаров М.Л. Ритм // Литературный энциклопедический словарь. – М.: СЭ, 1987. – 326 с.
109. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979. – 317 с.
110. Жирмунский В. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М.: Наука, 1979. – 408 с.

111. Жирмунский В. Введение в метрику. Теория стиха. –  
Л.: Советский писатель, 1975. – 664 с.
112. Зайончковский А. Старейшая тюркская версия поэмы  
“Хосрав и Ширин” Кутба. – Варшава, 1958. – 304 с.
113. История узбекской литературы. В 2-х томах. Том 1. –  
Ташкент, 1987. – 169 с.
114. Конрад Н.И. Запад и Восток (статьи). – М.: Главная  
редакция Восточной литературы, 1972. – 496 с.
115. Корш В. Всеобщая история литературы. Т.1. С.-Пб.:  
Издание Карла Риккера, 1881. – С. 640–653.
116. Крачковский И.Ю. Арабская поэтика в IX веке// Изб.  
Соч. – М. -Л.: Академия наук. Т. II. 1956. – 712 с.
117. Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика (вторая  
половина VIII-XI век). – М.: Наука, 1983. – 262 с.
118. Купрулузода М.Ф. Турк адабиётида илк  
мутасавифлар. – Анқара, 1984. – 274 б.
119. Курбатов Х.Р. Метрика “аруз” в татарском  
стихосложении // Советская тюркология. 1973. – № 6. – С. 83–  
90.
120. Лосев А.Ф. и др. Античная литература / Под  
редакцией А.А.Тахо-Годи. – М.: Просвещение, 1986. – 494 с.
121. Мардони Т.Н. Арабско-таджикские литературные  
связи. – Душанбе: Ирфон, 2006. – 398 с.
122. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику  
эпоса и романа. – М.: Наука, 1986. – 320 с.
123. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская  
классическая поэтика (X-XV вв.) – М.: Гл. ред. вост. лит., 1989.  
– 240 с.
124. Османов М-Н.О. Стиль персидско-таджикской поэзии  
IX-X вв. – М.: Наука, 1974. – 267 с.
125. Поспелов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая  
школа, 1978. – 350 с.
126. Пропп В.Я. Русский героический эпос. – 2-е изд.,  
испр. – Москва: Гос. Изд-во худож. лит., 1958. – 603 с.
127. Пруцков Н. Историко-сравнительный анализ  
произведений художественной литературы. – Л.: Наука, 1974. –  
204 с.

128. Рысалиев К. Киргизское стихосложение. – Фрунзе, 1965. – 140 с.
129. Саттарзода А. Аристотель и таджикско-персидская литературная мысль (IX-XV вв). – Душанбе: Адид, 2002. – 260 с.
130. Сирус Б. Арузи точики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Точикистон, 1963. – 288 с.
131. Солиҳов С. Аруз ва омузиши он. – Душанбе, 2005.
132. Стеблева И. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993. – 131 с.
133. Стеблева И.В. О проникновении арабо-персидских метров в тюрко-язычную поэзию / Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – М.: Наука, 1964. – С. 288–299.
134. Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: Наука, 1971. – 300 с.
135. Тагирджанов А. Хосрав и Ширин Кутба, КД. – Ленинград, 1948. – 169 с.
136. Тагирджанов А.Фирдавси. – М.: Наука, 1979. – С. 95–96.
137. Тилавалди А. Древнетюркский книжный стих. – Алматы, 2002. – С. 285.
138. Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арӯзи Аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991. – 560 с.
139. Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1988. – 463 с.
140. Усманов Х. К характеристике ритмического строя тюркского стиха // Народы Азии и Африки, 1968. – № 6. – С. 90–96.
141. Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. КГУ. – Казань: 1987. – 144 с.
142. Фильшинский И.М. Арабская литература в средние века. – Москва: Гл. ред. вост. лит., 1978. – 254 с.
143. Фролов Д.В. Арабская филология. – М.: Языки славянской культуры, 2006. – 440 с.
144. Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория арудда. – М.: Наука, 1991. – 395 с.

145. Фролов Д.В. Теория аруда: просодия и ритм // Проблемы арабской культуры (сборник статей). – М.: Наука, 1987. – С. 124–142.
146. Халиков А.Х. Татарский народ и его предки. Казань, 1989. – 109 с.
147. Хамраев М.К. Основы тюркского стихосложения (на материале уйгурской классической и современной поэзии). – Алма-Ата: Издательство АН, 1963. – 215 с.
148. Харлап М.Г. Ритм и метр в музыке устной традиции. – М.: Музыка, 1986. – 104 с.
149. Чәфәр Ә. Әрузун нәзәри әсаслары вә Азәрбајҹан әruzу. – Бакы: Елм, 1977. – 416 с.
150. Чалисова Н.Ю. Ватват и его трактат «Сады волшебства в тонкостях поэзии» / Ватват. Сады волшебства. – Москва: Наука, 1985. – 327 с.
151. Чалисова Н.Ю. Персидская поэзия на весах поэтики // Шамс Кайс Ризи. Свод правил персидской поэзии. – М.: Восточная литература, 1997. – 465 с.
152. Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.). – М.: Наука, 1974. – 266 с.

### **III. Qo‘lyozma va toshbosma manbalari:**

153. Салохий. Гул ва Булбул тасвири. Ўз ФАШБ, қўлёзма инв. № 3402. – В. 26.
154. Салохий. Гул ва Булбул тасвири. Ўз ФАШБ, тошбосма инв. 577. – в. 486.
155. Холис Тошкандий. Арвоҳнома. Инв.№1009207, 15 саҳифа охири йўқ, қўлёзма.
156. Холис Тошкандий. Шоҳ Жарир қиссаси. Инв. №823239, 118 саҳифа, қўлёзма.
157. Холис Тошкандий. Юсуф ва Зулайхо. Инв. №5040. 153 саҳифа. Кўлёзма, насталиқ хатида.

### **IV. Lug‘atlar:**

158. Mahmudov N.M. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Т.: Akademnashr, 2013. – 528 б.

159. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жиллар. – Т.: Sharq НМИУ, 2016. – 536 б.; – 480 б.
160. Античная культура. Словарь – справочник. Под редакцией В.Н.Ярхо. – М.: Высшая школа, 1995. – 405 с.
161. Ўзбекистон миллый энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003. – 704 б.
162. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият лугати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 173 б.
163. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.

#### V. Badiiy adabiyotlar:

164. Navoiy A. Saddi Iskandariy. ТАТ. 10 jiddlik. 8-jild. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 150 б.
165. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi B.To'xliyev. – Т.: BAYOZ, 2014. – 118 б.
166. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сигар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 804 б.
167. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 2. – 772 б.
168. Жавоҳирул ҳикоят. Ибратли ҳикоятлар, пандлар, ўғитлар. Сўзбоши муаллифи С.Ҳасан. – Т. Ёзувчи, 1993. – 103 б.
169. Жомий А. Юсуф ва Зулайхо /Муҳаббат махзани. (Таржимон: Муҳаммад Ризо Огаҳий. Нашрга тайёрловчи: Н.Жабборов). – Тошкент: Тасвир, 2018. – 307 б.
170. Камол Ж. Достонлар. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 136 б.
171. Қосимий Сайид. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: Фан, 1992. – 240 б.
172. Лутфий. Гул ва Наврӯз. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – 118 б.
173. Лутфий. Танланган асарлар. Иккинчи нашр. – Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2012. – 118 б.

174. Мавлоно Ҳожа Қози Пайвандий Ризоий. Күш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Ҳасанова. – Т.: Tezkor-Press Print, 2009. – 369 б.
175. Мажлисий. Қиссаи Сайфулмулук. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – 89 б.
176. Мирзо Олим Девона Самарқандий. Равзай асрор. Нашрга тайёрловчи И.Санаев. – Т.: SHARQ, 2020. – 344 б.
177. Мирий. Танланган асарлар. – Т.: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 266 б.
178. Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Ҳ., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т.: Fafur Gulom nomidagi Adabiёт va san'at nashriёti, 1987. – 300 б.
179. Мулло Курбон Хиромий. Тўтинома. Нашрга тайёрловчи: Ш.Ҳасанова. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 316 б.
180. Муҳаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. – Т.: Fafur Gulom nomidagi Adabiёт va san'at nashriёti, 1989. – 336 б.
181. Муҳаммадниёз Нишотий. Ҳусн ва Дил. – Т.: Fafur Gulom nomidagi badiiy adabiёт nashriёti, 1967. – 376 б.
182. Навоий А. Лайли ва Мажнун. МАТ. 9 том. – Т.: Фан, 1992. – 377 б.
183. Навоий А. Лисон ут-тайр. 20 томлик. 12 том. – Т.: Фан, 1996. – 357 б.
184. Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – 300 б.
185. Навоий А. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 томлик. 10 том. – Т.: Фан, 1992. – 491 б.
186. Навоий А. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 8 том. – Т.: Фан, 1991. – 595 б.
187. Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. 20 томлик. 7 том. – Т.: Фан, 1991. – 422 б.
188. Нодир. Ҳафт гулшан. Нашрга тайёрловчи Т.Фағуржонова. – Т.: ЎзССРФА нашриёти, 1961. – 212 б.
189. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. Нашрга тайёрловчи Б.Қосимхонов. – Тошкент: Фан, 1992. – 238 б.

190. Самарқандий Давлатшох. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. – 224 б.
191. Собир Сайқалий Ҳисорий. Баҳром ва Гуландом. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. – 215 б.
192. Собир Сайқалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо. Нашрга тайёрловчилар: С.Сайфуллоҳ, Д.Хунзикер. – Т.: Мовароунинарх, 2004. – 609 б.
193. Табибий. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 9 б.
194. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 1-жилд. Нашрга тайёрловчи Н.Рахмонов, Ҳ.Болтабоев. – Т.: Фан, 2003. – 222 б.
195. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 2-жилд. Нашрга тайёрловчилар: Н.Рахмонов, Ҳ.Болтабоев. – Т.: ФАН, 2007. – 320 б.
196. Уч булбул гулшани. Қайта нашрга тайёрловчи Р.Шарафутдинова. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 649 б.
197. Фаридиддин Аттор. Ҳикматлар. Т.: O'ZBEKISTON, 2012. – 133 б.
198. Хиромий. Раъно ва Зебо. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962. – 120 б.
199. Хиромий. Чор дарвеш. – Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – 336 б
200. Ҳожа. Мақсад ул-атвор / Асрлар садоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 60–76.
201. Хондайликий С. Танланган асарлар. – Т.: МАЪНАВИЯТ, 1998. – 304 б.
202. Ҳўжаназар Ҳувайдо. Роҳати дил. Нашрга тайёрловчилар: С.Ҳасан, Н.Жуванмардиева. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 120 б.
203. Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 261 б.

204. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 965 б.

#### V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

205. Абдуллаев Н. Ҳайдар Хорезми и его “Махзан ал-асор”. Афтореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1974. – 35 с.

206. Азимов Ю.Ю. Абдурахмон Жомий “Хирадномаи Искандарий” достонининг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Самарқанд, 1996. – 26 б.

207. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 20 б.

208. Алиев Р. Сайкали и его поэма «Бахрам и Гуландам». Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1964.

209. Бакиров М.Х. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Казань, 1999. – 56 с.

210. Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Казань, 1972. – 75 с.

211. Бекмурадов А. Основные тенденции развития стихосложения в туркменской советской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад. 1980. – 52 с.

212. Ганихонов М. А. Сравнительный анализ поэм “Хусрав и Ширин” Низами и Кутба. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1994. – 23 с.

213. Гафурджанова Т. Надир и его поэма “Хафт Гулшун”. Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1965. – 120 с.

214. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 298 б.

215. Тожибоева М. Жадид адиллари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т.: 2018. – 71 б.

216. Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайх” туркумидаги достонларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Т., 2020. – 155 б.
217. Жўраев Ж. Шарафиддин Али Яздий. “Хулали қиёсий типологик тадқиқи. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – муттараз дар фанни муаммо ва лугаз” асарининг текстологик ва Т.: 2019. – 54 б.
218. Зиявиддинова М. Поэтика в «Мафатих ул-улум» Абу Абдаллаха ал-Хорезми. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: Тошкент, 1990. – ... с.
219. Калиева Ш.С. Творчество Исмаила ал-Джаухари и его место в арабской филологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: ТашГИВ, 2002.
220. Касымханов Б.Х. Сайид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореф. ... дисс. филол. наук. – Т., 1991.. – Ташкент, 1991. – 18 с.
221. Кувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 267 б.
222. Мардони Т.Н. Влияние арабской поэзии на творчество таджикских-персидских поэтов IX–XII веков. Дисс. ... док. филол. наук. – Душанбе, 2006.
223. Мирзаев С. Навоий арузи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1948.
224. Мусурмонов Э. Раҳимбобо Машраб ва унинг бадиий адабиётдаги талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1995. – 138 б.
225. Мухиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси (“Хамса”ларнинг биринчи достонлари асосида). Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 1995. – 60 б.
226. Наджибуллохи Абдулкаюм. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 23.
227. Нарзикулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 150 б.

228. Нарзуллаева С.Н. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литературы народов Советского Востока. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Баку, 1980. – 49 с.
229. Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 158 б.
230. Ражабов Д.З. Бадиий образ ва ритмнинг ўзаро муносабати (70–80-йиллар ўзбек шеърияти мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
231. Рахимджанов Н.К. Тенденции развития современной узбекской поэзии (70–80-е годы). Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 42 с.
232. Рахимов Ж. Жанр автобиографии (ҳасби ҳол) в “Пятерице” Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 20 с.
233. Рустамова А.Дж. Пути развития азербайджанской эпической поэзии (XII–XVII вв.). Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Баку, 1971. – 77 с.
234. Сирожиддинов Ш.С. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV–XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари (қиёсий-типологик, текстологик таҳлил). Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.
235. Собирова Н. Хоразм “ошик” туркуми достонлари сюжети, етакчи мотивлари ва образлари тизимининг мифалогик асослари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 145 б.
236. Султонов И. Навоийнинг “Мезон ул-авзон”и ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1947.
237. Талабов Э. Араб шеъриятида аруз тизими. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 46 б.
238. Тоиров У. Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Душанбе, 1997. – 60 с.
239. Тохиров К. Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти. Лирикаси ва “Юсуф ва Зулайхо” достони. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1964. – 158 б.
240. Туйчиев У. Система аруза в узбекской поэзии. Дис. ... док. филол. наук. – Тошкент, 1987. – 160 с.

241. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол. фан. бўй. фалс. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 260 б.
242. Тўлаганова У. Тоғай Мурод насрода ритм. Филол. фан. ... номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 24 б.
243. Тулаков И. Поэтические традиции и характер героя в узбекской советской поэме. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1981. – 22 с.
244. Хамидов Х. Фирдоуси и узбекская литература. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 1991. – 50 с.
245. Ҳайдаров С. Ўзбек дунёвий адабиётида Дурбекнинг роли. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1963. – 138 б.
246. Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи”. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1972.
247. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 284 б.
248. Ҳасанова Ш. “Тўтинома” ва “Куш тили” туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 210 б.
249. Шерназаров Б. “Юсуф и Зулейха” Назима Хирати и ее сравнение с одноименной поэмой Абдурахмана Джами. Дисс. ... канд. филол. наук. Душанбе, ТГПУ, 2003 – 173 с.
250. Эркинов А.С. Алишер Навоийнинг пейзаж яратиш маҳорати (“Садди Искандарий” достони мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1990. – 121 б.
251. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунлиги. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 124 б.

## VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetadagi maqolalar

252. Абдуллаев В. Мирий ва унинг замондошлари / Сайланма. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 351.
253. Ғанихўжаев Ф. Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1962. – № 6. – Б. 69–71.

254. Жабборов Н. Жомийнинг “Юсуф ва Зулайхо” асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар / Абдураҳмон Жомий. – Т.: Кўлёзмалар институти, 1997. – 172–173-б.
255. Жумахўжа Н. Ҳувайдо тасаввуфий шеъриятида фалсафий-бадиий талқин // Шарқ юлдузи, 1998. – № 4. – Б. 23–24.
256. Иброҳимова Э. Увайсий достонлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1960. – №6. – Б. 38–44.
257. Имомназаров М. Ҳожа Қози Пайвандий Ризоий // Адабиёт кўзгуси. – Т., 1998. – № 1. – Б. 76–81.
258. Исҳоқов Ё. “Гул ва Наврӯз”нинг муаллифи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – №2. – Б. 18–19.
259. Мамадалиева З. Ибн Сино ва Ғаззолий: анъана ва ўзига хослик // Шарқ юлдузи. – Т., 2015. – № 5. – Б. 96.
260. Мамажонов С. Ўзбек достончилиги ҳақида ўйлар / Совет Ўзбекистони. –1981, 28 июнь.
261. Мирзаахмедова М. Ҳожанинг “Максад ул-атвор” достони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1980. – № 5. – Б. 68.
262. Мўминов F. Ҳозирги ўзбек достончилигида услубий изланишлар // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Т.: Фан, 1983. – 204 б.
263. Мухиддинов М. “Баҳромғўр” ва “Баҳром-Гуландом” сюжетларининг ўзаро алоқаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. – № 12. – Б. 26–28.
264. Мухиддинов М. Навоий асарларидағи ахлоқий масалаларнинг тарбиявий аҳамияти // Сўз санъати ҳалқаро журнали. – Т., 2020. – № 5. – Б. 46–48.
265. Норматов У. Достон ва замон // Шарқ юлдузи. – Т., 1987. – №10. – Б. 173–180.
266. Нўшоба А. Гулشاҳрий ва Навои // Адабий мерос. – Т., 1980. – № 13. – Б. 12–13.
267. Расулов Х. Нишотийнинг “Хусн ва Дил” достони ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Т., 1973. – № 4. – Б. 11–19.
268. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни // Адабий турлар ва жанрлар. – Т., Фан, 1992. – Б. 171–292.

269. Тоҳиржонов А. Ҳожанинг янги топилган асари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1975. – № 3. – Б. 70–73.
270. Хисамов Н.Ш. Поэма “Кисса-и Йусуф” Кул Али и Йусуфа // Вопросы советской тюркологии. – Ашхабад, Ӯлым, 1988. – С.43–47.
271. Ҳолид Расул. Нишотийнинг “Ҳусн ва Дил” достони ҳакида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Т., 1962. – № 4. – Б. 15.
272. Ҳайитметов А. Алишер Навоий ва Юсуф Амирий // Гулистон. 1987. – № 12. – Б. 26–28.
273. Ҳасанов Ш. Давр ва достон // Шарқ ўлдузи. – Т., 2002. – № 4. – Б. 148–150.
274. Ҳожиаҳмедов А. Фурқат арузи // Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – 196 б.
275. Шарафиддинов О. Истибодд қурбони ёхуд ўзлигидан маҳрум этилган шоир // <https://kh-davron.uz/kutubxonasi/uzbek/ozod-sharafiddinov-istibdod-qurban-i-yoxud-ozligidan-mahrum-etilgan-shoir.html>
276. Шарипов Ш. “Лисон ут-тайр” ва ўзбек достончилиги // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1976. – №1. – Б. 56–78
277. Юсупова Д. Жангнома достонларда шеърий ўлчов масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – № 2. – Б. 55–57.
278. Юсупова Д. Эмас осон бу майдон ичра турмоқ // Шарқ ўлдузи. – Т., 2021. – № 12. – Б. 151–160.
279. Shodiyeva S. Salohiy adabiy merosi // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume – 2\_April\_2022. – P. 560–562.

## VI. Internet saytlari:

280. <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>.
281. <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://sllc.umd.edu/persian/about>.
282. <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>.
283. <http://ut.ac.ir>.
284. <http://www.um.ac.ir>.

- 285. <https://www.amu.ac.in>.
- 286. <http://www.du.ac.in/du>.
- 287. <http://www.istanbul.edu.tr/tr>.
- 288. <https://www.ankara.edu.tr>.
- 289. <http://gazi.edu.tr>.
- 290. <https://www.orientalstudies.az/ru>.
- 291. <http://literature.az/?lang=aze>.
- 292. <http://www.kaznu.kz/ru>.
- 293. [www.iaas.msu.ru](http://www.iaas.msu.ru).
- 294. <https://www.ivran.ru>.
- 295. <https://spbu.ru>.
- 296. [.www.orient.spbu.ru/ru](http://www.orient.spbu.ru/ru).
- 297. <http://www.orientalstudies.ru>.
- 298. <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>.
- 299. <http://zoa.dmt.tj>.
- 300. <http://iza.tj/ru/institut-yazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>.
- 301. <http://tashgiv.uz/ru/>.
- 302. <http://navoiy-uni.uz/uz-k>.
- 303. <http://www.samdu.uz>
- 304. [www.harvard.edu](http://www.harvard.edu)
- 305. <https://natlib.uz/>

## ILOVALAR

Ilova 1.

### PANDNOMA YO'NALISHIDAGI DOSTONLARGA XOS VAZNLAR

Nº	Olingan manba	Bayt	Vazn nomi
1.	"Qutadg'u bilig"	<i>Arabcha, tojikcha kitoblar o'kush, Bizning tilimizcha bu yumg'i uqush.</i>	Mutaqoribi musammani mahzuf
2.	"Hibat ul-haqoyiq"	<i>Bilik birla bilnur sa'adat yoli, Bilik bil sa'adat yolini bula.</i>	Mutaqoribi musammani mahzuf
3.	"Gulshani roz"	<i>Vaqti sahar hofiti g'aybiy nido, Berdi ko'ngul sam'ina, ey benavo.</i>	Sari'i musaddasi matviyi makshuf

Ilova 2.

### JANGNOMA VA QAHRAMONLIK YO'NALISHIDAGI DOSTONLARGA XOS VAZNLAR

Nº	Olingan manba	Bayt	Vazn nomi
1.	"Saddi Iskandariy"	<i>Navoiy ichib may eshitgil surud, Ki bas bevasodur sipehri kabud.</i>	Mutaqoribi musammani mahzuf
2.	"Shayboniynoma"	<i>Hamd angokim, tilim etti go'yo, Hamd angokim, ko'zim etti bino</i>	Ramali musaddasi maxbuni mahzuf
3.	"Voqeoti Muhammadalixon"	<i>...Mahpora edi ani zaifi, "Maknun" taqallubi latifi..</i>	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
4.	"Rustam va Suhrob"	<i>Bor edi menda iki jigarband, Kulbamni charog'i farzand...</i>	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur
5.	"Rusiya inqilobi"	<i>Yo'q erdi maning bu kabi xohishim, Ki yo'q erdi mundog'ish ila ishim.</i>	Mutaqoribi musammani mahzuf
6.	"Shoh Jarir"	<i>Arobiy erkan avval bu risola, Yozubdur Xo'jandiy forsiy xayola</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

### “QO‘SH ISMLI” ISHQIY DOSTONLARGA XOS VAZNLAR

Nº	Olingen manba	Bayt	Vazn nomi
1.	“Suhayl va Guldursun”	<i>Emas afsona, chin ushbu bitilmish, Bu chin, afsonatek ishqda yetilmish.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
2.	“Gul va Navro‘z”	<i>Tarix sekkiz yuz o‘n to‘rt erdi hijrat, Ki naqsh ettim bu manzuri muhabbat.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
3.	“Husn va Dil”	<i>Bor edi Xorazm diyori – yerim, Andin edi yaxshi-yomon guharim.</i>	Sari‘yi musaddasi matviyi makshuf
4.	“Ra’no va Zebo”	<i>G‘arazkim, Shahrisabzi jannatoyin, Ki topdi tangri lutfi birla tazyin</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
5.	“Majdiddin va Faxriniso”	<i>Ilmandandur mazidi fayz-u najot, Xat erur elga mujibi hasanot.</i>	Xafifi musaddasi maxbuni maqsur
6.	“Vomiq va Azro”	<i>Ki, ya‘ni nusxai “Azro va Vomiq”, Mururi soli sak ichra muvosiq.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

### “MAXZAN UL-ASROR” TURKUMIDAGI DOSTONLARGA XOS VAZNLAR

Nº	Olingen manba	Bayt	Vazn nomi
1.	“Mahzan ul-asror”	<i>Gaz bila ham kelturib ul bo‘g‘zi kam, Berdi anga xoja bir-ikki diram.</i>	Sari‘yi musaddasi matviyi makshuf
2.	“Hayrat ul-abror”	<i>Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani, Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.</i>	Sari‘yi musaddasi matviyi makshuf
3.	“Majma‘ ul-axbor”	<i>Haydar agar berdisa so‘z dodini, Jumla jahon aylar oning yodini.</i>	Sari‘yi musaddasi matviyi makshuf
4.	“Maqsad ul-atvor”	<i>Rahbari bu fanda Nizomiy edi, Pir onga Xisravu Jomiy edi.</i>	Sari‘yi musaddasi matviyi makshuf

## NOMA - DOSTONLARGA XOS VAZNALAR

Nº	Olingan manba	Bayt	Vazn nomi
1.	“Muhabbatnoma”	<i>Aningkim, ol enginda meng yaratti, Bo 'yi birla sochini teng yaratti.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
2.	“Dahnama”	<i>Bu nozik tarhlar kelmas kishidin, Netuk men naql etay Moniy ishidin</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
3.	“Taashshuqnama”	<i>Safo yetti bitigan xoma bo 'ldi, "Taashshuqnama" ham o 'n noma bo 'ldi.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
4.	“Latofatnama”	<i>Muhabbat jomidin ichsang sharobe, "Muhabbatnoma" ga aysang javobe.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

## NOMLANISHIDA NOMA SO'ZI MAVJUD DOSTONLAR

5.	“Haqiqatnama”	<i>"Haqiqatnama" qo 'ysam oning otin, Bayon qilsam burungilar sifotin.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
6.	“Illohiynoma”	<i>Ilohiynomayi Attor bu dur, Davoyi siynai afgor bu dur.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
7.	“To'tinoma”	<i>To 'ti alfozi" bo 'ldi to manga ish, Sana erdi ming ikki yuz yetmish...</i>	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf
8.	“Arvohnoma”	<i>Yaratqumdir xalifa yer yuzidin, Manga ul bandalig qilg'ay o 'zidin</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
9.	“Ibratnama”	<i>Holo sanga ko 'runur sha 'nu shavkat, Ajal yetkach, ko 'rarsan ko 'p mashaqqat</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
10.	“Gulnama”	<i>Gul chehrasiyu ayog ' yuzdin, Ya 'ni uchni unut o 'tuzdin.</i>	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
11.	“Choynoma”	<i>Choy uch harfdurki, jim-u alif, Oxir ismini yo tutib munsif.</i>	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf

**“XAMSA” YO‘NALISHIDAGI ISHQIY DOSTONLARGA XOS VAZNALAR**

<b>№</b>	<b>Olingan manba</b>	<b>Bayt</b>	<b>Vazn nomi</b>
1.	“Xusrav va Shirin”	<i>Tarix yetti yuz yil sakson beshinda, Safar oyining yigirma beshinda.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
2.	“Farhod va Shirin”	<i>Zaruratkim solib bir o‘zgacha tarh, Bu mehnatnomani qilg‘umdurur sharh</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
3.	“Layli va Majnun”	<i>Ya‘ni bu sifat firoqnomा, Bo‘ldi manga qatrarez xoma</i>	Hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf
4.	“Sab’ai sayyor”	<i>Mulk bog‘in bahori adl bila, Suvorib jo ‘ybori adl bila.</i>	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf
5.	“Qissasi Sayfulmuluk”	<i>Malikzoda qilibon kuch yarog‘in. Fatina shahrina solg‘ay so ‘rog‘in.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
6.	“Bahrom va Gulandom”	<i>Adolatlik, raiyatparvar o‘lg‘il, Ki to xalqi jahong‘a sarvar o‘lg‘il.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
7.	“Haft gulshan”	<i>Aniq har kungiri borg‘on falakka, Bo‘lubon oshyon favji malakka.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
8.	“Chor darvesh”	<i>Shahe bor edi oti Ozodbaxt, Ki Qustantaniya anga poytaxt...</i>	Mutaqoribi musammani maqsur
9.	“Salim Javhariy”	<i>Ulug‘lar tufrog‘ini to ‘tiyo qil, Alarni suhbatin kimiyo bil.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
10.	“Zamon farhodlari”	<i>Kel ey, yorim, madadkorim qalam sen, Har ish qilganda hamkorim qalam sen.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
11.	“Quyosh chashmasi”	<i>She‘r ahli turmushi tuyg‘u ekan, Tuyg‘u shu olamga bir ko ‘zgu ekan...</i>	Ramali musaddasi mahzuf

## IRFONIY-TASAVVUFİY DOSTONLARGA XOS VAZNALAR

Nº	Olingen manba	Bayt	Vazn nomi
1.	“Qush tili”	<i>Hudhudu qushlaru Simurg ‘u ajal, Aqlu hulqu Tangriyo qildi masal.</i>	Ramali musaddasi mahzuf
2.	“Lison ut-tayr”	<i>Ham nishiman Qofi istig ‘no ango, Ham laqab ul Qof uza Ango ango.</i>	Ramali musaddasi mahzuf
3.	“Qush tili”	<i>Dunyoning johu jamolindin kechib, Balki bori mulku molindin kechib.</i>	Ramali musaddasi mahzuf
4.	“Bulbul va Gul”	<i>Aytib G‘urbatiykim bir kitobe, Qo ‘yub otin Gulu Bulbul kitobi</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

## DINIY-DIDAKTIK QISSALAR ASOS BO‘LGAN DOSTONLAR

Nº	Olingen manba	Bayt	Vazn nomi
1.	“Rohati dil”	<i>Kitobimning otidur “Rohati dil”, Erur har bir so‘zi tanbihi g‘ofil.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
2.	“Shahzoda Hasan”	<i>Mulku, zaru, molin havosi, Tushti oni bo‘ldi gun gadosi.</i>	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
3.	“Qissasi Sayqaliy” yoki “Ravzat ush-shuhado” (Sobir Sayqaliy)	<i>Sitam tig ‘i bila bo‘lg‘ay qalam bo‘l, Agar ko‘rsang degay erding alam bo‘l.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

11	"Layli va Majnun" (Alisher Navoiy)	1484-y.	Ishqiy			+			
12	"Sab'ai sayyor" (Alisher Navoiy)	1484-y.	Ishqiy-sarguzasht				+		
13	"Saddi Iskandariy" (Alisher Navoiy)	1485-y.	Qahramonlik					+	
14	"Lison ut tayr" (Alisher Navoiy)	1499-y.	Falsafiy-tasavvufiy (irfoniy)						+
15	"Majma' ul-axbor" (Sayyid Qosimiy)	XV-asr	Falsafiy-didaktik	+					
16	"Haqiqatnama" (Sayyid Qosimiy)	XV-asr	Ishqiy		+				
17	"Gulshani roz" (Sayyid Qosimiy)	XV-asr	Falsafiy-didaktik	+					
18	"Ilohiynoma" yoki "Sadoqatnama" (Sayyid Qosimiy)	XV-asr	Ishqiy		+				
19	"Qush tili" Rizoiy Payvandiy	1756-y.	Falsafiy-tasavvufiy (irfoniy)						+
20	"Shayboniynoma" (Muhammad Solih)	1506-y.	Jangnomma					+	
21	"Qissasi Sayfulmuluk" (Majlisiy)	XVI asr	Ishqiy-sarguzasht		+				
22	"Maqsad ul-atvor" Xoja	1528-asr	Falsafiy-didaktik	+					
23	"Bahrom va Gulandom" Sobir Sayqaliy	1785–1786 y.	Ishqiy		+				

## DOSTONLARDA VAZN VA MAZMUN

№	Doston nomlari	Yarati lish vaqtি	Dostonning mavzulari	Qo'llanilgan she'riy o'lchov						
				Sari'	Hazaji mahzuf	Hazaji axrab	Xafif	Mutaqorib	Ramali maxbun	Ramali musaddasi mahzuf
1	"Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib)	1069–70-y.	Pandnoma					+		
2	"Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy)	XII–XIII asrlar	Pandnoma					+		
3	"Qush tili" (Gulshahriy)	1317-y.	Falsafiy- tasavvufiy (irfoniy)							+
4	"Xusrav Shirin" (Qutb)	XIV asr	Ishqiy		+					
5	"Suhayl va Guldursun" (Sayfi Saroyi)	1394 y.	Ishqiy		+					
6	"Gul va Navro'z" (Haydar Xorazmiy)	XV asr	Ishqiy		+					
7	"Gulshan ul-asror" (Haydar Xorazmiy)	XV asr	Falsafiy- didaktik	+						
8	"Yusuf va Zulayxo" (Durbek)	1409-y.	Falsafiy- didaktik	+						
9	"Hayrat ul-abror" (Alisher Navoiy)	1483-y.	Falsafiy- didaktik	+						
10	"Farhod va Shirin" (Alisher Navoiy)	1484-y.	Ishqiy		+					

	(Miry)								
38	“Gulnoma” (Miry)	1878-y.	Noma			+			
39	“Choynoma” (Miry)	XIX asrning 1-yarmi	Noma				+		
40	“Vomiq va Azro” (Tabibiy)	1910-y.	Ishqiy		+				
41	“Rusiya inqilobi” (Sirojiddin Sidqiy)	1917-y.	Jangnoma				+		
42	Arvochnoma (Xolis Toshkandiy)	XIX asr	noma		+			-	
43	Ibratnoma (Xolis Toshkandiy)	XIX asr	noma		+				
44	“Zamon farhodlari” (Habibiy)	XX asr	Ishqiy- sarguzasht		+				
45	“Quyosh chashmasi” (Jamil Kamol)	XXI asr	Sarguzasht						+

Nomalar

46	“Muhabbatnoma” (Xorazmiy)	1353–1354-y.	Ishqiy		+					
47	“Latofatnoma” (Xo'jandiy)	1411-y.	Ishqiy		+					
48	“Dahnama” (Yusuf Amiriy)	XV asr	Ishqiy		+					
49	“Tashshuqnoma” (Sayyid Ahmad)	XV asr	Ishqiy		+					
	Jami:			8	21	6	4	4	1	4

24	"Qissasi Sayqaliy" yoki "Ravzat ush-shuhado" (Sobir Sayqaliy)	XVIII asr	Diniy-didaktik		+						
25	"Husn va Dil" (Nishotiy)	1778-y.	Ishqiy	+							
26	"Rohati dil" Huvaydo	XVIII asr	Diniy-didaktik		+						
27	"Haft gulshan" (Nodir-Uzlat)	XVIII asr	Ishqiy		+						
28	Ra'no va Zebo (Xiromiy)	1844-y.	Ishqiy		+						
29	"To'tinoma" (Xiromiy)	1854-y.	Ishqiy-sarguzasht				+				
30	"Chor darvesh" (Xiromiy)	1834-y	Ishqiy-sarguzasht						+		
31	"Shahzoda Hasan" (Uvaysiy)	XIX asrning 1-yarmi	Diniy-didaktik			+					
32	"Shahzoda Husayn" (Uvaysiy)	XIX asrning 1-yarmi	Diniy-didaktik			+					
33	"Voqeoti Muhammadali xon" (Uvaysiy)	XIX asrning 1-yarmi	Diniy-didaktik			+					
34	"Ravzai asror" (Olim Devona)	1861–1862-y.	Ishqiy	+							
35	Qissai Salim Javhariy (Miriy)	1886–1887-y	Ishqiy-sarguzasht		+						
36	Majdiddin va Faxriniso (Miriy)	1898-y	Ishqiy				+				
37	"Rustam va Suhrob"	1898–1899-y.	Ishqiy			+					

### “YUSUF VA ZULAYXO” TURKUMIDAGI DOSTONLARDA O’LCHOV MASALASI

Nº	Muallifi	Olingan manba	Bayt	Vazn nomi
1.	Durbek	“Yusuf va Zulayxo”	<i>Qissayi Yusufni tamom ayla nazm, Turki tili birla qilib azmu jazm.</i>	Sariyi musaddasi matviyi mavquf
2.	Jomiy	“Yusuf va Zulayxo”	<i>Edi Yusuf dilu joni, sururi, Edi Yusuf, iki ko'z ichra nuri.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf
3.	Andalib	“Yusuf va Zulayxo”	<i>Barchalari ichra edim man zabun, Aqlim edi goh hushu gohi zabun.</i>	Sariyi musaddasi matviyi mavquf
4.	Olim Devona	“Ravzayi asror”	<i>Ayladi Yusufni fidoyi jahon, Husni adab birla faridi zamон.</i>	Sariyi musaddasi matviyi mavquf
5.	Xolis Toshkandiy	“Yusuf va Zulayxo”	<i>Yusufdan tashqari o'n bitta o'g'il, Lekin Yusuf edi unga jonu dil.</i>	Hazaji musaddasi mahzuf

# MUNDARIJA

## KIRISH.....

### I BOB. EPIK POEZIYA TARIXIDA SHE'RIY O'LCHOV MASALASI

1.1-§. Qadimgi davr epik poeziyasi va o'lchov birliklari.....	9
1.1.1. Antik davr poeziyasi va metrika.....	9
1.1.2. Musulmon Sharqi masnaviyinavisi ligining vazn xususiyatlari.....	9
1.2-§. Pandnomha yo'nalishidagi dostonlarga xos vaznlar.....	16
1.3-§. Jangnomha va qahramonlik yo'nalishidagi dostonlarning o'lchov imkoniyatlari.....	23
Bob yuzasidan xulosalar.....	36
	65

### II BOB. NOMALAR VA ISHQ TARANNUMIDAGI DOSTONLARDA VAZN HAMDA MAZMUN MUNOSABATI

2.1-§. "Noma" yo'nalishidagi dostonlarga xos vaznlar.....	67
2.2-§. "Qo'sh ismli" ishqiy dostonlarning vazn xususiyatlari.....	95
2.3-§. "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarda o'lchov masalasi.....	106
Bob yuzasidan xulosalar.....	120

### III BOB. "XAMSA" TARKIBIDAGI ISHQIY DOSTONLARDA VAZN MASALASI

3.1-§. "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarida vazn hamda mavzu uyg'unligi.....	122
3.2-§. "Haft paykar" yo'nalishidagi dostonlarning vazn xususiyatlari.....	139
Bob yuzasidan xulosalar.....	166

### IV BOB. FALSAFIY-TASAVVUFİY VA DINIY DIDAKTIK DOSTONLARDA RITM VA MAZMUNNING O'ZARO MUNOSABATI

4.1-§. "Maxzan ul-asror" turkumidagi dostonlarda qo'llanilgan bahrlar.....	169
4.2-§. Irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati.....	188
4.3-§. Diniy-didaktik dostonlarning vazn xususiyatlari.....	203
Bob yuzasidan xulosalar.....	213
<b>XULOSA.....</b>	<b>216</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>223</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>243</b>

**O'ZBEK EPIK POEZIYASI TAKOMILIDA  
ARUZ TIZIMINING O'RNI**



**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnomasi raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Boshishga ruxsat etildi: 16.12.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog'i 14,3. Shartli bosma taboq 14,7.

Adadi 300 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

[t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint) +998 99 180 97 10



ISBN 978-9943-9023-6-7

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-9023-6-7. The barcode is black and white, with vertical bars of varying widths.

9 789943 902367